

PEDAGOGIK MAHORAT

5
2025



PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

5-son (2025-yil, may)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2025

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2025, № 4

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY’ATI:

Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

Mas’ul kotib: Sayfullayeva Nigora Zakiraliyevna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Rasulov To‘lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G‘arbiy Universitet, Bolgariya)

Andriyenko Yelena Vasilyevna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta’limi instituti, Novosibirsk, Rossiya)

Romm Tatyana Aleksandrovna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta’lim instituti, Novosibirsk, Rossiya)

Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)

Zotova Firuza Raxmatullova, pedagogika fanlari doktori, professor (Volgabo‘yi davlat jismoniy tarbiya, sport va turizm universiteti, Rossiya)

Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor

Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)

Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

O‘rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Chariyev Irgash To‘rayevich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ro‘ziyeva Dilnoza Isomjonovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)

To‘xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Nazarov Akmal Mardonovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Dilova Nargiza Gaybullayevna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Jumayev Rustam G‘aniyevich, siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Abdullayev Mehridin Junaydulloyevich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Sattorov Anvar Ergashovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor

Nurulloev Firuz No‘monjonovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Navruz-Zoda Layli Baxtiyorovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Fayziyeva Umida Asadovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Xalikova Umida Mirovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО

Научно-теоретический и методический журнал

№ 5, 2025

Решением Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан от 29 декабря 2016 года журнал включён в перечень изданий, рекомендованных для публикации научных результатов статей по направлениям «Педагогика» и «Психология».

Журнал основан в 2001 году.

Журнал выходит 12 раз в год.

Журнал зарегистрирован Бухарским управлением агентства по печати и массовой коммуникации Узбекистана.

Свидетельство о регистрации средства массовой информации № 05-072 от 22 февраля 2016 г.

Учредитель: Бухарский государственный университет

Адрес редакции: 200117, Узбекистан, г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11.

E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Главный редактор: Адизов Бахтиёр Рахманович – доктор педагогических наук, профессор

Ответственный редактор: Сайфуллаева Нигора Закиралиевна – доктор философии педагогических наук (PhD)

Хамидов Обиджон Хафизович, доктор экономических наук, профессор

Бегимкулов Узакбай Шаимкулович, доктор педагогических наук, профессор

Навруз-заде Бахтиёр Нигматович, доктор экономических наук, профессор

Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор

Расулов Тулкин Хусенович, доктор физико-математических наук, профессор

Янакиева Елка Кирилова, доктор педагогических наук, профессор (Болгария)

Андрienko Елена Васильевна (Институт физико-математического, информационного и технологического образования НГПУ, Новосибирск, Россия)

Ромм Татьяна Александровна (Институт истории, гуманитарного, социального образования ФГБОУ ВО НГПУ, Новосибирск, Россия)

Чудакова Вера Петровна, кандидат психологических наук (Национальная академия педагогических наук Украины, Украина)

Зотова Фируза Рахматулловна, доктор педагогических наук, профессор (Поволжский государственный университет физической культуры, спорта и туризма, Россия)

Хамроев Алижон Рузикулович, доктор педагогических наук (DSc), профессор

Каххаров Сиддик Каххарович, доктор педагогических наук, профессор

Махмудова Муяссар, доктор педагогических наук, профессор

Козлов Владимир Васильевич, доктор психологических наук, профессор (Ярославль, Россия)

Таджиходжаев Закирходжа Абдусаттарович, доктор технических наук, профессор

Аманов Мухтор Рахматович, доктор технических наук, профессор

Ураева Дармоной Саиджановна, доктор филологических наук, профессор

Дурдиев Дурдимурод Каландарович, доктор физико-математических наук, профессор

Махмудов Насыр Махмудович, доктор экономических наук, профессор

Олимов Ширинбой Шарофович, доктор педагогических наук, профессор

Чариев Иргаш Тураевич, доктор педагогических наук, профессор

Киямов Нишон Содикович, доктор педагогических наук, профессор

Шомирзаев Махматмурод Хурамович, доктор педагогических наук, профессор

Рузиева Дилноза Исомжоновна, доктор педагогических наук, профессор

Курбонова Гулноз Негматовна, доктор педагогических наук (DSc), профессор

Тухсанов Кахрамон Рахимбоевич, доктор филологических наук (DSc), профессор

Назаров Акмал Мардонович, доктор психологических наук (DSc), профессор

Дилова Наргиза Гайбуллаевна, доктор педагогических наук (DSc), профессор

Жумиев Рустам Ганиевич, доктор философии политических наук (PhD), доцент

Абдуллаев Мехриддин Жунайдуллоевич, доктор педагогических наук (DSc), профессор

Сатторов Анвар Эргашович, доктор философии педагогических наук (PhD), профессор

Нуруллоев Фируз Нумонжонович, доктор философии педагогических наук (PhD)

Навруз-заде Лайли Бахтиёровна, доктор философии экономических наук (PhD), доцент

Файзиева Умида Асадовна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент

Халикова Умида Мировна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент

PEDAGOGICAL SKILLS

The scientific-theoretical and methodical journal

№ 5, 2025

By the decision of the Higher Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated December 29, 2016, the journal was included in the list of publications recommended for publishing scientific results of articles in the areas of «Pedagogy» and «Psychology».

The journal was founded in 2001.

The journal is published 12 times a year.

The journal is registered by the Bukhara Department of the Agency for Press and Mass Communication of Uzbekistan.

The certificate of registration of mass media № 05-072 of 22 February 2016

Founder: Bukhara State University

Publish house: 200117, Uzbekistan, Bukhara, Muhammad Ikbol Str., 11.

E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

EDITORIAL BOARD:

Chief Editor: Pedagogical Sciences of Pedagogy, Prof. Bakhtiyor R. Adizov.

Editor: Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Nigora Z. Sayfullaeva

Doctor of Economics Sciences Prof. Obidjon X. Xamidov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Uzokboy Sh. Begimkulov

Doctor of Economics Sciences, Prof. Bakhtiyor N. Navruz-zade

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Holboy I.Ibragimov

Doctor of Physical and Mathematical Sciences (DSc), Prof. Tulkin Kh. Rasulov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Yelka K. Yanakieva (Bulgaria)

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Andrienko Yelena Vasilyevna (Russia)

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Romm Tatyana Aleksandrovna (Russia)

Candidate of Psychology, Vera P. Chudakova (Kiev, Ukraina)

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Zotova Firuza Raxmatullova (Russia)

Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Alijon R. Hamroev

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Siddik K. Kahhorov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof.M.Mahmudova

Doctor of Psychology, Prof. Vladimir V. Kozlov (Yaroslavl, Russia)

Doctor of Technical sciences, Prof. Zakirkhodja A. Tadjikhodjaev

Doctor of Technical sciences, Prof. Mukhtor R.Amanov

Doctor of Philology, Prof. Darmon S. Uraeva

Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. Durdimurod K. Durdiev

Doctor of Economics, Prof. Nasir N. Mahmudov

Doctor of Pedagogical Science, Prof. Shirinboy Sh. Olimov

Doctor of Pedagogical Science, Prof. Irgash T. Chariev

Doctor of Pedagogical Science, Prof. Nishon S. Kiyamov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Maxmatmurod X. Shomirzaev

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Dilnoza I. Ruzieva

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Gulnoz N. Qurbonova

Doctor of Philology, Prof. Qahramon R.Tuxsanov

Doctor of Psychology, Prof. Akmal M. Nazarov

Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Nargiza G. Dilova

PhD in Political Sciences, Doc. Rustam G.Jumaev

Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Mekhriddin J. Abdullaev

PhD in Pedagogical Sciences, Prof. Anvar E. Sattorov

PhD in Pedagogical Sciences, Firuz N. Nurulloev

PhD in Economics Sciences, Doc. Layli B. Navruz-zade

PhD in Pedagogical Sciences, Doc. Umida A. Fayzieva

PhD in Pedagogical Sciences, Doc.Umida M. Khalikova

MUNDARIJA

	Familiya I.Sh.	Mavzu	Bet
MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA‘LIM			
	AXMEDOVA Gavhar Faxriddinovna	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari	8
	BOBOYOROV Davron Ismatullayevich	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matematika fanini o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish metodlari	12
	BOYMURODOVA Sadoqat Istam qizi	Boshlang‘ich ta‘lim samaradorligini oshirishda interfaol metodlarning imkoniyatlari	17
	ISMOILOVA Surmaxon Amonovna	Boshlang‘ich sinflarda darslarni integratsiya asosida tashkil etish	22
	RAXMATOVA Shodiya Ilhomovna	Boshlang‘ich ta‘limda texnologiya fanini o‘qitish samaradorligini oshirish yo‘llari	26
	XOLDAROVA Irodaxon Valijonovna, XOLMATOVA Gulabzaxon Olimjon qizi	Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda tarbiya fanining o‘rni	30
	XUDAYBERGANOV Shuhrat Shavkat o‘g‘li, MATRIZAYEVA Bonu Saburjon qizi	Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari o‘quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarish mexanizmlari	34
	ESHBKOVA Dilnoza Ibraimovna	Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabalarida grammatik kompetentsiyani rivojlantirish	39
	OTAJONOVA Sitorabonu Shuxratovna	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish	45
	MUSTAFOYEVA Mehrangiz Shukulloyevna	Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini talis (xalqaro tadqiqoti) asosida takomillashtirish	49
FILOLOGIYA VA TILLARNI O‘RGANISH			
	AZIMOVA Dilfuza Sobirovna	Talabalarining til ko‘nikmalarini rivojlantirishda autentik materiallarning dolzarbligi	54
	ISOKOVA Sitora Shamsiddin qizi	Cultural aesthetic stereotypes in language teaching and didactic approaches	60
	JAHONOVA Nargiza Yunus qizi	Boshlang‘ich sinf ona tili darsliklaridagi pragmatik matn va topshiriqlarning mazmuni	66
	KUBAYEVA Nilufar Shuhrat qizi	Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida mashqlar bilan ishlashning muhim jihatlari	70
	RUSTAMOVA M.T.	Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari emotsional intellektini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari	75
	SAPAROVA Mohigul Ramazonovna	The role of teacher feedback: analyzing oral and written feedback in efl writing	80
	SHAROPOV Sherzod Shirinboy ugli	Information gap activities in teaching english language	83
	TAYLANOVA Shohida Zayniyevna, QURBONOVA	Ingliz tili mashg‘ulotlarida tarbiyalanuvchilarning tafakkur olamini rivojlantirishning mazmuni	87

	Nigina Asqarjon qizi, XUDOYAROVA Dildora Najmidinovna	Chet tillarini o‘qitishda integratsion yondashuv orqali talabalarining lingvistik va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish	91
	МАРАТОВА Фаруза Азаматовна	Методика развития речи учащихся начальных классов на уроках узбекского языка с русским языком обучения	95
	OMONOVA Dildora Nekmurod qizi	Ona tili darslarida sintaktik mashqlar vositasida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish	99
	QAYIMOV Laziz Mirzo o‘g‘li	Ona tili ta’limida matn yaratish va matn ustida ishlashning didaktik tamoyillari	104
	SIDIQOVA Dilora Shavkatovna	Germenevtik yondashuv orqali talabalar nutqiy idrokini rivojlantirishning zamonaviy usullari	108
	ИБРАГИМОВА Муниса Санъатовна	Структурные факторы развития речевой культуры будущих учителей начальных классов	113
	NURIDDINOVA Fotima Ilhomjon qizi, ABDULAHATOVA Shohsanam Adhamjon qizi, Alimova Ezoza Nematillaevna	The use of artificial intelligence technologies in english language teaching: opportunities, challenges, and future prospects	117
	MANSUROVA Gulbahor Maxdiyevna	Universitet talabalariga chet tili grammatikasini o‘rgatishda kommunikativ yondashuvning afzalliklari	121
ANIQ VA TABIIY FANLARNI O‘QITISH			
	BOLTABOYEVA Rayxan Ismailovna	Fizikani o‘qitishda o‘quvchilarning texnik qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish usullari	126
	IXTIYAROVA Gulnora Akmalovna, ESHCHANOVA Nargiza Zakirovna	Biokimyo fanini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar. ilmiy va amaliy ahamiyati	132
	JUMAYEV Nusrat Amonovich, XO‘JAYEV Lochin Husanovich, MUHAMMADIYEV Soxibnazar Shovkat o‘g‘li	Fizikadan amaliy mashg‘ulotlarni dasturiy vositalar asosida tashkil qilish	137
	KARIMOV Javohir Sobirzoda	Kislrod saqlagan organik birikmalar mavzusining tibbiyot oliygoh talabalarida o‘qitishning samarali metodik usullari	143
	NARZULLAYEV Muxiddin Nasullayevich, NARZULLAYEVA Zarnigor Muxiddinovna	Astronomik kuzatishlar astronomiyani o‘rganishda talabalarining amaliy ishlarining shakli sifatida	147
	RAXMONOVA Dilovar Ostanaqulovna	Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilariga anatomiya fanini o‘qitishning metodik tamoyillari va innovatsion usullari	151
	SADULLAYEVA Iroda Po‘lat qizi	Oliy ta’lim muassasalarida talabalarining matematik savodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning mavjud holati	156
	SAFAROV Abbos Abdurasul o‘g‘li	Oliy ta’limda kompyuter imitatsion modellar asosidagi smart texnologiyalardan foydalanib talabalarining matematik bilimlarini rivojlantirish	161
	XAITOVA Shaxnozaxon Golibjon qizi	Tabiiy fanlarni o‘qitishda singapur ta’lim yondashuvidan foydalanish	166

XONNAZAROVA Mamlakat To'liqinovna	Oliy ta'lim muassasalarida zoologiya fanini o'qitish metodikasini mediateknologiyalar asosida takomillashtirish	171
XURRAMOV Oybek Shermamatovich	Talabalarga bir jinsli tor tebranishini o'qitishda zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash metodikasi	177
YUNUSOVA Ra'no Gaybullaevna	The role of using non-traditional methods, such as “current issue analysis,” in physics education	181
МАРДОНОВ Шахриёр Зиёдулло угли	Применение компетентностного подхода в обучении информатике на основе дисциплины “веб-программирование”	186
ЮНУСОВА Раъно Гайбуллаевна	Роль проектных технологий в повышении эффективности биофизической науки	190
JISMONIY MADANIYAT VA SPORT		
AFRAIMOV Alixan Akmalovich	Talabalarining jismoniy tarbiya jarayonida korreksion yondashuvning nazariy asoslari	196
HALIMOVA Fotima Karim qizi	Jismoniy tarbiya tizimida yengil atletikaning o'rni	201
IBRAGIMOV Manuchexr Baxtiyorovich, G'ANIYEVA Zebiniso Halim qizi	“Buxoro-w” futbol jamoasining musobaqalardagi sport natijalarining ilmiy-pedagogik tahlili	208
NURULLAYEV Abdurashid Ro'zimboyevich	Turli darajadagi skolioz tashxisi qo'yilgan talabalarining emotsional irodaviy holatlari	212
O'KTAMOV Isroil Istam o'g'li	Talabalarining jismoniy madaniyatini rivojlantirishda innovatsion yondashuvning zaruriyati	217
YARASHEVA Dilnoza Ismoil qizi	Gandbolchi qizlarning mashg'ulot samaradorligini oshirish metodikasi	221
РУЗИЕВА Махлиё Каюмовна	Влияние национальных игр на физическую подготовку и мотивацию студентов	225
BEKOV Dilshod Hayitboyevich	Boshlang'ich sport ixtisosligidagi 10-12 yoshli kurashchilarning dastlabki jismoniy tayyorgarlik dinamikasi	230
ABDUKARIMOV Nurmaxan Amirxanovich	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiyani tashkil etish shakllari	234
РАМАЗОНОВА Моҳичеҳра Содиқ қизи	Дидактические механизмы привлечения учащихся в спортивные клубы на основе смешанных образовательных технологий	239
ABDUYEVA Sitorabonu Savriddin qizi	O'zbekiston chempionatida qatnashgan jamoalarning burchak bo'ylab (gandbol) o'ynaydigan o'yinchilarini jismoniy tayyorgarliklarini baholash	243
JUMAEV Furqat Shodmonovich	“Chaqiriqqacha harbiy ta'lim” yo'nalishi talabalarining o'quv motivatsiyasini rivojlantirish	248
IBRAGIMOV Alisher Karomatovich, TOLIBOVA Nilufar Raxmat qizi	Yengil atletikada sportni tanlash va yo'naltirish bosqichlari va mezonlari	252
RAMAZONOVA Mohichehra Sodiq qizi	Aralash ta'lim texnologiyalari asosida talabalarni sport to'garigiga jalb etishning pedagogik asoslari	256

MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA‘LIM

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING KREATIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Axmedova Gavhar Faxriddinovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini aniqlash va kreativ fikrlash motivatsiyalarini rivojlantirishning o‘ziga xos usullari haqida fikr yuritilgan. O‘qituvchining ham dars jarayoniga kreativ yondashuvi o‘quvchilarning darsda berilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishlari, qo‘llay olishlari uchun muhim omil sanaladi. O‘qituvchining kreativligi darsda ikki holatni kafolatlaydi: -Past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarni, darsda “bir xillik”dan zerikkan o‘quvchilar e’tiborini dars jarayoniga jalb etish va qiziqtirish -O‘quvchilarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyatni aniqlash va rivojlantirish, rag‘batlantirish uchun imkoniyat yaratadi. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridagi kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish maqsadida foydalanish lozim, hamda o‘qituvchining vazifalari haqida ham kerakli ma’lumotlar va manbalar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: kompetensiyalar, kreativlik, ta’lim, metodika, tafakkur, mashq, fikrlash, ijodkorlik, fikrlash, erkinlik.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Аннотация: В статье рассматриваются конкретные методы выявления способностей к творческому мышлению и развития мотивации к творческому мышлению у учащихся начальной школы. Творческий подход учителя к процессу обучения также является важным фактором, обеспечивающим способность учащихся овладевать и применять полученные на занятиях знания, навыки и умения. Творческий подход учителя гарантирует на уроке две вещи: - привлечение внимания слабоуспевающих и скучающих от «однообразия» урока учеников к процессу урока и создание у них интереса - создание возможности для выявления, развития и поощрения творческого мышления и творческой активности у учеников. В статье приведены необходимые сведения и источники о задачах учителя, а также о том, как их использовать для развития творческих способностей учащихся начальной школы.

Ключевые слова: компетенции, креативность, образование, методология, мышление, упражнение, мышление, творчество, мышление, свобода.

PEDAGOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF CREATIVE COMPETENCIES OF YOUNGER SCHOOLCHILDREN

Abstract. This article discusses specific methods for identifying creative thinking abilities of primary school students and developing motivation for creative thinking. The teacher's creative approach to the lesson process is also an important factor for students to master and apply the knowledge, skills and competencies given in the lesson. The teacher's creativity guarantees two things in the lesson: -Attracting and interesting low-learning students, students who are bored with the "sameness" in the lesson -Creates an opportunity to identify, develop and stimulate creative thinking and creative activity in students. The article provides information and sources that should be used to develop creative abilities in primary school students, and also provides information on the tasks of the teacher.

Keywords: competence, creativity, education, methodology, thinking, exercise, thinking, creativity, thinking, freedom.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasini isloh qilishdagi sa’y-harakatlaridan biri – bu pedagog kadrlarning zamon talablariga hamnafas tarzda faoliyat yuritishlari, har tomonlama rivojlangan komil shaxsni tarbiyalashga doir chuqur bilim, pedagogik mahorat, ko‘nikma, malaka va madaniyatga ega bo‘lishlarini talab etmoqda. Bu esa o‘z-o‘zidan ta’lim va tarbiya ishlarining qonuniyatlarini o‘rganuvchi

pedagogika faniga «kreativlik» degan tushunchani olib kirdi. Ayniqsa, umumtaʼlim maktablarida oʻqituvchi kadrlarning kreativligini rivojlantirishga boʻlgan ijtimoiy buyurtma vujudga kelmoqdaki, bu borada ilmiy pedagogik izlanishlar olib borish talab etiladi. Shu bilan bir qatorda kreativlik masalasini ilmiy tushunishda turli fikrlarning mavjudligi, yaxlit xulosaga kelinmaganligi maqolamiz mavzusi dolzarbligining yana bir koʻrinishi hisoblanadi. Vaholanki, bu muammo bugungi kunga qadar koʻplab Gʻarb mamlakatlarida turlicha tahlil etilgan va oʻrganilgan. Masalan, N.N. Nechayev, Y.A. Ponomarev, D.V. Ushakov singari olimlar kreativlik masalasini umumiy tarzda oʻrgangan boʻlsalar, N.A. Berdyayev, V.S. Bibler, V.N. Drujinin, P.A. Florenskiyalar kreativlikning maʼnaviy, psixologik jihatlarini tahlil etgan.

Asosiy qism. XXI asrga kelib Oʻzbekiston Respublikasining taʼlim sohasida ham ushbu termin ishlatila boshladi. Ayniqsa, pedagogika fanining alohida va yosh tarmogʻi sifatida shakllanib boshlagan Innovatsion pedagogikada ushbu terminga bot-bot duch kelmoqdamiz. R.A.Mavlanova oʻzining «Boshlangʻich taʼlimda pedagogika, innovatsiya, integratsiya» nomli oʻquv qoʻllanmasida kreativlikning oʻzi nima, uning shakllanishi masalalariga alohida toʻxtalib oʻtgan. Qoʻllanmada kreativlik tushunchasining mazmuni va mohiyati chuqur tahlil etilgan. Ammo kreativlik masalasining ilmiy-nazariy, ilmiy-pedagogik jihatlarini maxsus ilmiy tatqiqot obyekti sifatida tadqiq etilmagan. Bugungi kundagi zamonaviy uzluksiz taʼlim tizimi kreativ yondashuvni talab etadi. Ayniqsa, boshlangʻich taʼlim – bu har bir bolaning hayotida chuqur iz qoldiruvchi taʼlim turidan biri boʻlib, taʼlimning bu bosqichida pedagog oʻqituvchilarga katta masʼuliyat yuklatiladi. Yaʼni boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining kreativlik faoliyati hali maxsus oʻrganishni talab etmoqda. Koʻplab ilmiy adabiyotlarning tahlili shuni koʻrsatadiki, kreativlik tushunchasiga nisbatan bir-biriga zid boʻlgan quyidagi turli xil qarashlar mavjud. Bular:

1. Kreativlik - bu insonning butun hayoti davomidagi sifatleri majmuidir.
2. Kreativlik - bu insonning oʻziga topshirilgan muayyan topshiriq va vazifalarni bajarish usulidir.
3. Kreativlik - bu intellekt (aql) ning mahsulidir.
4. Kreativlik - bu insonga xudo tomonidan berilgan qobiliyat, kashfiyotlardir.
5. Kreativlik - bu ijodiy faoliyatdir.
6. Kreativlik - bu ijodkor insonlarning maʼnaviy-axloqiy va ijtimoiy adaptatsiyalanishidir.
7. Kreativlik - bu madaniyat bilan uzviy bogʻliq boʻlgan kategoriyadir.

Pedagog olimi R.A.Mavlanova anʼanaviy psixologiya va pedagogikada kreativlikka shaxs kategoriyasi sifatida qaralishini, uni talqin qilish, aniqlash borasida bahslar yuritilganligi haqida quyidagicha fikr bildirganlar: kreativlik tafakkur sifatida (J.Gilford, Y.K.Tixomirov) yoki intellektual faollik sifatida (D.B.Bogolevskaya, L.B.Yermolayeva-Tomina), yoki shaxs sifatlarining integratsiyalashuvi (Y.A.Ponomarev va boshqalar). Kreativlikni oʻrganishda amalga oshirilgan nazariy tahlil uni kasbiy anrogogikada qoʻllashning umumiy qonuniyatlari va oʻziga xosligini aniqlash imkonini beradi (V.M.Morozov). Biz kreativlikning tizimlilik tuzilishidan kelib chiqib, unga shaxsning oʻta intellektual-everistik jihati sifatida emas, balki shaxsni qadrllovchi, tabaqalashtirilgan taʼlim sifatida qaraymiz.

Kreativlik-shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson maʼnaviyatining ajralmas qismi boʻlib, shaxsni oʻz-oʻzini rivojlantirish omili, shaxsiy jonbozlikning asosi, shaxs ega boʻlgan bilimlarning koʻp qirrali ekanligida emas, balki yangi gʻoyalarga intilishda va oʻrnatilgan stereotiplarni yangilik yaratish jarayonini isloh qilish va oʻzgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon boʻladi. Kreativlik bevosita innovatsiyalar bilan bogʻliq jarayondir. Negaki oʻqituvchining kreativlik faoliyat yuritishi uchun, u albatta, oʻzining sohasidagi eng soʻnggi yangiliklardan, shu bilan bir qatorda butun jamiyatdagi voqea va hodisalardan boxabar boʻlishi, innovatsion yangiliklarni oʻz faoliyatida oʻrinli foydalana olishi lozim. Demak, boshlangʻich sinf oʻqituvchisi har qanday vaziyat, har qanday jarayon va har qanday paytda eng samarali yoʻlni izlab topishi va uni amaliyotga joriy qilish orqali dars jarayonini samarali tashkil etishi, boshlangʻich sinf oʻquvchilari ongiga tez, tushunarli, qulay, oson va samarali tarzda yetkazib berishi ham kreativlikning bir koʻrinishi deyish mumkin.

Oʻqituvchining kreativligi, ushbu kreativlikning mohiyatini beruvchi ijodkorlik ustuvor xarakterga egadir. Bu esa bizning maqolamiz obʼekti boʻlgan oʻqituvchining kreativlik faoliyatining naqadar muhimligidan dalolat beradi. Yuqoridagi pedagog olimlar, ayniqsa olimi R.A.Mavlanova tomonidan olib borilgan tatqiqotlar bilan tanishar ekanmiz, ularning barchasini umumlashtirgan holda biz quyidagi fikrlarni eʼtirof etmoqchimiz:

1. Kreativlik oʻqituvchilarni innovatorlikka undovchi pedagogik kategoriya hisoblanadi.
2. Kreativlik oʻqituvchining kasbiy va shaxsiy sifatining integratsiyasidir. Chunki tabiatan qiziquvchan, intiluvchan boʻlmas ekan, oʻqituvchi hech qachon ijodkorlikni namoyon eta olmaydi.
3. Kreativlik oʻqituvchilarda oʻz-oʻzidan paydo boʻladigan sifat emas, u oʻqituvchining yangiliklarga intilishi, yangiliklarni oʻzlashtirish va oʻzining pedagogik faoliyatida qoʻllay olish jarayonlarida duch

keladigan qiyinchiliklarni yenga olishi, innovatsion yangiliklarni o'z faoliyatida faol, ijodkorona foydalana olish va o'z mualliflik g'oyalarga, echimlarni (evristik) topa olishi bilan bog'liqdir.

4. O'qituvchining kreativligining shakllanishi «ehtijojar, yo'nalishlar va «Men» konsepsiya»laridan kelib chiqadi. O'qituvchining kreativlik faoliyati pedagogik faoliyatning barcha turlarida namoyon bo'lishi davr talabidir. O'qituvchining kreativlik faoliyati, avvalo, pedagogik mahorat bilan bog'liq degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Kreativlik (lot. creatio –yaratish, vujudga keltirish) –bu insonning noodatiy g'oya, fikr bera olish, muammolarni takrorlanmas, original yechimini topish, tafakkurning an'anaviy shakllaridan voz kecha olishga bo'lgan qobiliyatidir. O'qituvchi bilan o'quvchilarning hamkorligi o'qituvchining o'quvchilarga ko'rsatadigan yordamidan boshlanadi. U asta-sekin faollashib o'quv harakatlariga aylanadi. Natijada, o'qituvchi bilan o'quvchilar munosabati hamkorlik pozitsiyasiga o'sib o'tadi. Mantiqiy topshiriqlar hamkorlikda bajarilgandagina bilimlarni o'zlashtirish mahsuldor bo'ladi. Ilmiy manbalarda ta'limning shunday tashkil etilishini hamkorlikdagi mahsuldor faoliyat vaziyati, deb atash qabul qilingan. Pedagogik adabiyotlar tahliliga ko'ra hamkorlikdagi mahsuldor o'quv faoliyati vaziyatini tashkil qilishning 2 asosiy tamoyilini ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiqdir:

1. Ta'limda mazmunning izchilligi tamoyili. Unga ko'ra shaxs o'z faoliyatini muayyan maqsad asosida tashkil qilishida mazkur faoliyatning uzluksiz shakllanishi ko'zga tashlanadi.

2. O'qituvchi-o'quvchilar hamkorligining mustaqil ijodiy faoliyat bilan bog'liqligi tamoyili. O'quv jarayonida o'quvchilar bilan hamkorlik qilish katta ahamiyatga ega. O'quvchilarning ta'limga qay darajada ixlos qo'yishi o'qituvchining mana shu hamkorlikni yarata bilish mahoratiga bog'liq. O'qituvchi bilan o'quvchilarning o'quv faoliyatidagi muhitning to'g'ri uyushtirilishi o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi, ularni butun kuch va g'ayratini sarflashga undaydi. Bu o'zaro muloqotning shunday bir shaklidirki, bunda o'quvchi o'zini pedagogik ta'lim obyekti deb emas, balki mustaqil va erkin harakat qiluvchi shaxs deb biladi. O'qituvchining o'rganilayotgan fan bo'yicha qaysidir bir ma'lumotga aniqlik kiritish paytida o'quvchilarga yordam so'rayotganday murojaat qilishi hamkorlik faoliyatini yanada chuqurlashtiradi. O'quvchilarni o'rganuvchi va tarbiyalanuvchiga aylantirish o'qish o'qitish jarayonini muvaffaqiyatli olib borishninggina sharti bo'lib qolmay, balki ularni har jihatdan barkamol insonlar qilib tarbiyalashning ham muhim shartidir. O'quvchi o'qitish va tarbiyalash jarayonining o'zidayoq bilim va tarbiya oluvchi shaxsga aylanadi. Sh.A. Amonashvili ta'lim jarayonida o'quvchi bilan hamkorlik munosabatini o'rnatish lozimligini ta'kidlab, shunday deydi: «O'quvchining o'quv-biluv faoliyati nafaqat qiziqarli o'quv material va uni tushuntirishning turli metodlari vositasida, balki pedagogning ta'lim jarayonidagi muomala xarakteriga ko'ra tartibga solinadi. Mehr, ishonch, hamkorlik, hurmat mavjud bo'lgan muhitda o'quvchi o'quv topshiriqlarini oson o'zlashtiradi. Yutuqlari, mustaqil fikri, ijodiy izlanishlari yuqori baholanayotganini ko'rgan o'quvchi yanada murakkab bo'lgan o'quv topshiriqlarini bajarishga intila boshlaydi». O'qitishda muammoli ta'limdan foydalanish ham, kreativ qobiliyatni shakllantirishda samarali hisoblanadi. O'quvchilarning biror-bir haqiqatni mustaqil izlashi va kashf etishi bilan bog'liq bo'lgan ta'lim metodlaridan evristik yoki tadqiqotchilik metodlari bilan birga o'quvchilarni ijodiy fikr “laboratoriyasi”ga olib kiradigan jarayon ham asosiy ahamiyatga egadir.

Muammoli ta'lim shu jihatdan bir qancha afzalliklarga ega: 1. U o'quvchilarni mantiqiy, ilmiy, didaktik, ijodiy fikrlashga o'rgatadi. 2. U o'quv materialini ishonarli qiladi, bu bilan bilimlarning e'tiqodga aylanishiga ko'maklashadi. 3. U odatda, ancha ta'sirchan bo'lib, chuqur intellektual his-tuyg'ular, shu jumladan ko'tarinki ruh, hissini o'z imkoniyatlari va kuchiga ishonch tuyg'usini vujudga keltiradi, shuning uchun u o'quvchilarni qiziqtiradi, o'quvchilarda ilmiy bilishga jiddiy qiziqishni tarkib toptiradi. 4. Haqiqat qonuniyatining mustaqil “kashf etilishi” olingan bilimlarni unutmasligi aniqlab chiqilgan, mustaqil hosil qilingan bilimlar unutilgan taqdirda ham ularni tezda qayta tiklash mumkin. Boshlang'ich sinf darslarida o'quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan topshiriqlar ustida ishlash alohida o'rin tutadi.

O'quvchi o'zi uchun qulay sharoitda hayotiy va o'quv tajribasiga tayanib og'zaki yoki yozma nutqi orqali fikrlash faoliyatini amalga oshiradi. Unda har bir fanning o'zi uchun noma'lum qirralari xususida o'qituvchi bilan faol hamkorlik qilish uchun ruhiy tayyorgarlik paydo bo'ladi. U mavzu yuzasidan berilgan savollarga tegishli javob qaytarish uchun mustaqil ijodiy izlanishlarga harakat qiladi. O'qituvchi bunday hamkorlik jarayonida o'quvchilarning kreativligini o'stirish bilan birga diagnostik vazifani ham bajaradi, ya'ni o'quvchilarning qobiliyati, qiziqish doirasini aniqlaydi, kreativ iqtidorini chamalaydi. Kreativlikni rivojlantiruvchi topshiriqlar ustida ishlash jarayonida bu g'oyat muhimdir. Boshlang'ich ta'lim –bu har bir bolaning hayotida chuqur iz qoldiruvchi ta'lim turidan biri bo'lib, ta'limning bu bosqichida pedagog o'qituvchilarga katta mas'uliyat yuklatiladi.

Xulosa. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi hali maxsus o'rganishni talab etmoqda. O'quvchilar o'z-o'zidan kreativ bo'lib qolmaydi. Uning kreativ qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. O'qituvchilar o'quvchilar bilan hamkorlikda ish yuritib, ularning har bir fikrini inobatga olishi va buni o'quvchiga sezdirishi kabi muhim vazifalarni bajarish orqali o'quvchilarni o'zgacha yondashuvli ya'ni kreativ bo'lishlariga erishishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilarga muammoli masala va vaziyatlarni berib, o'quvchining masala yechimini topishga ijodiy yondashishi undagi hissiy irodaviy sifatlarni rivojlanishiga yordam beradi. Bu o'quvchilarni o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishiga imkoniyat, ichki ehtiyojning oshishiga turtki bo'ladi. «Kreativlik» tushunchasi «ijod» tushunchasi bilan bog'liq. Biroq, «kreativlik» tushunchasi tegishli lug'atlarda munosib differentsiyasini topmagan va ijod psixologiyasida yetarlicha aniqlanmagan. O'nlab ilmiy ishlarda kreativlikning u yoki bu qirralariga turlicha yondashib, har xil darajada qamrab olinayotganligiga qaramasdan, hozirgacha na muammoning o'ziga va na unga taalluqli bo'lgan amaliy savollarga nisbatan yagona to'xtam mavjud emas. Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'lim o'quv fanlari dasturlaridagi topshiriqlarda o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga e'tibor berilgan bo'lsa-da, ammo o'quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirish nuqtai-nazaridan ularni takomillashtirish zarur. Ya'ni o'qituvchilar ma'suliyatli va e'tiborli bo'lish zarur. Shuningdek, o'quvchilarning kreativ qobiliyatlari rag'batlantirilsa va samimiy muhit yaratilsagina, kreativ fikrlashni odatga aylantira oladilar. Xato qilishdan, muvaffaqiyatsizliklardan cho'chish, haddan tashqari baholarga e'tibor qaratish, tanqidga uchrashdan qo'rqish hissi mavjud o'quvchilarda kreativlik odatga aylanmaydi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi Qonuni. Barkamol avlod –O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T. Sharq. 1997
2. Mavlanova R.A, Raxmonqulova N.X.”Boshlang'ich ta'limda innovatsiya”.T.,TDPU 2007-y.
3. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T. : TDPU, 2003.
4. Mavlanova R.A, Raxmonqulova N.X.”Boshlang'ich ta'limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya.” T., 2013.
5. “Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” moduli bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. :- Toshkent 2015
6. Davletshin M.G. Do'stmuhamedova Sh, Mavlanov M, To'ychiyeva S. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. (O'quv metodik qo'llanma). Nizomiy nomidagi TDPU. 2004-yil.
7. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua –Toshkent. 2016
8. www.arxiv.uz Toxir T., Arabboy Y., Zuxriddin G., & Abdurauf G. (2022). Theoretical And Practical Pedagogical Bases of Formation of Professional Culture of Students of Military Education.Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities,2, 19-20.

UO‘K 372.30.:371.3

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIGA MATEMATIKA FANINI O‘QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODLARI

Boboyorov Davron Ismatullayevich,

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistranti

bashorataliyeva5@gmail.com

ORCID 0009-0000-1677-9408

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matematika fanini samarali o‘qitishda axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish haqida batafsil bayon qilingan. O‘quvchilarning axborot tushunchasini mustahkamlash uchun turli interaktiv o‘yinlar va faoliyatlar o‘tkazish mumkinligi ularga axborot turini aniqlashga oid masalalar mazmuni yoritilgan va hayotga tayyorlashda qanday qo‘llanilishi mumkinligi muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, matematika, matematika ta’limi, axborot kommunikatsion texnologiyalar ta’limoti, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, ta’lim samaradorligi.

МЕТОДЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ МАТЕМАТИКЕ ШКОЛЬНИКОВ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

В статье подробно описывается использование информационно-коммуникационных технологий в эффективном обучении математике учащихся начальной школы. Различные интерактивные игры и занятия могут использоваться для укрепления понимания информации учащимися, прояснения содержания вопросов, связанных с определением типа информации, и обсуждения того, как их можно использовать в подготовке к жизни.

Ключевые слова: начальная школа, математика, математическое образование, образование в области информационно-коммуникационных технологий, учащиеся начальной школы, эффективность обучения.

METHODS OF USING INFORMATION TECHNOLOGIES IN TEACHING MATHEMATICS TO PRIMARY STUDENTS

This article describes in detail the use of information and communication technologies in the effective teaching of mathematics to primary school students. The possibility of conducting various interactive games and activities to strengthen students' understanding of information is highlighted, the content of issues related to determining the type of information is discussed, and how it can be used in life preparation is discussed.

Keywords: primary school, mathematics, mathematics education, teaching of information and communication technologies, primary school students, educational effectiveness.

Kirish. Ta’lim tizimidagi innovatsiyalar o‘quvchining tegishli o‘quv fanlariga oid bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini oshirish barobarida uni aqliy jihatdan rivojlantiradi, tafakkurini shakllantiradi, shuningdek, yuksak darajada rivojlanayotgan jamiyat uchun kerakli shaxs bo‘lib tarbiya topishiga ko‘maklashadi, ijtimoiy tajriba orttirishi uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi. Bu harakatlar o‘quvchilarda mantiqan xulosa chiqarish, o‘z xulosalarini umimlashtirib, yakuniy to‘xtamga kela olish, mulohaza yuritish kabi xususiyatlarni takomillashtiradi [2].

Boshlang‘ich sinf darslarida o‘quvchilarda axborot tushunchasini shakllantirish muhim ahamiyatga ega, chunki bu ularning kelajakdagi bilim olish va bilimlarni ishlatish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Axborot tushunchasini shakllantirishda quyidagi metodlar va yondashuvlarni qo‘llash mumkin.

Axborot tushunchasi haqida tushuncha berish: O‘quvchilarga axborot nima ekanligi haqida sodda va tushunarli tarzda tushuncha berish zarur. Masalan, “Axborot - bu bizga yangi bilimlarni beradigan ma’lumotlardir” deb tushuntirish mumkin. Bu tushunchani o‘quvchilarga kundalik hayotdagi misollar orqali tushuntirish kerak. Misol uchun, televideniye dan yoki radio orqali eshitgan yangiliklar, o‘qigan kitoblar, kompyuterdan olingan ma’lumotlar axborot sifatida taqdim etilishi mumkin [1].

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Axborot turini ko'rsatish: Axborot turini tushuntirish o'quvchilarga ko'proq aniq tasavvur beradi. Axborot quyidagi turlarga bo'lishi mumkin:

Matnli axborot: Kitoblar, gazetalar, jurnal maqolalari.

Rasmi axborot: Rasmlar, diagrammalar, xaritalar.

Sadoqli axborot: Radio, televideniye, podcastlar.

Video axborot: Filmlar, ilmiy videolar.

Interaktiv o'yinlar va faoliyatlar: O'quvchilarning axborot tushunchasini mustahkamlash uchun turli interaktiv o'yinlar va faoliyatlar o'tkazish mumkin. Masalan, o'quvchilarni ikki guruhga bo'lib, ularga axborot turini aniqlashga oid masalalar berish. Har bir guruh turli manbalardan axborot olishlari va uni o'z sinflari bilan baham ko'rishlari mumkin [5].

Axborotni to'plash va tahlil qilish: O'quvchilarga axborot to'plash, ularni tartibga solish va tahlil qilish ko'nikmalarini o'rgatish zarur. Masalan, ular biror mavzu bo'yicha qisqa ma'lumot to'plab, bu ma'lumotlarni qanday qilib tartibga solish va ular ustida ishlash kerakligini o'rganishlari mumkin. Bu esa ular uchun axborotni aniq va samarali ishlatishning asoslarini yaratadi.

Axborotni taqdim etish va baholash: O'quvchilarga o'rganilgan axborotni boshqalarga taqdim etish, ularni muloqotda bo'lishga o'rgatish muhimdir. Bu o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantiradi, shuningdek, ular o'rgangan axborotni turli manbalardan olish va tahlil qilish ko'nikmalarini yanada mustahkamlaydi [1].

O'quvchilarning hayotiy tajribasiga asoslangan yondashuv: O'quvchilarga axborotning kundalik hayotdagi ahamiyatini ko'rsatish uchun ulardan o'z hayotidan misollar keltirishni so'rashingiz mumkin. Masalan, ular har kuni qanday axborotlarni qabul qilishadi va bu axborotlar qanday tarzda ularning hayotiga ta'sir qiladi.

Bu usullar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarida axborot tushunchasini shakllantirishga erishish mumkin.

Boshlang'ich ta'lim tizimida axborot texnologiyalarining qo'llanilishi tarixi so'nggi o'n yilliklarda sezilarli darajada rivojlandi. Bu rivojlanish o'quvchilarni zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtirish va ularni o'qitish jarayonida samarali ishlatish uchun katta imkoniyatlar yaratdi. Axborot texnologiyalarining boshlang'ich ta'limga kirib kelishi quyidagi bosqichlarda o'z aksini topgan:

1990-yillarning boshlariga kelib, kompyuter texnologiyalari maktablarda keng tarqaldi. O'sha davrda boshlang'ich sinf o'quvchilariga kompyuterlar yordamida ba'zi oddiy o'quv dasturlarini ishlatish imkoniyatlari yaratildi. Dastlabki yillar davomida, axborot texnologiyalari asosan kompyuterlarni o'rganishga va eng asosiy dasturlarni ishlatishga qaratilgan edi. Bunga misol sifatida [4]:

- **Math Blaster** va **Reading Blaster** kabi ta'lim dasturlari keltirilishi mumkin, ular o'quvchilarni matematik va o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam bergan.

- O'quvchilarga kompyuter savodxonligini o'rgatish dasturlari orqali boshlang'ich sinfda kompyuterlar bilan ishlash ko'nikmalari shakllantira boshlandi.

2000-yillarga kelib, internetning keng tarqalishi va multimedia texnologiyalarining rivojlanishi boshlang'ich ta'lim tizimiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Internet orqali o'quvchilar va o'qituvchilar o'zaro muloqotda bo'lish, ta'lim resurslarini onlayn ravishda topish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Shu bilan birga, ko'plab o'quv dasturlari video, audio, va animatsiyalarni o'z ichiga olgan multimedialar bilan boyitildi. Bu davrda o'quvchilarga quyidagi imkoniyatlar yaratildi:

Ta'lim portallari va onlayn resurslar: O'qituvchilar o'z darslarini yanada interaktiv va qiziqarli qilish uchun internetdagi ta'lim resurslaridan foydalanishni boshladilar.

Multimedia ta'lim dasturlari: O'quvchilarga interaktiv, video va grafiklarni o'z ichiga olgan ko'plab yangi dasturlar taqdim etildi. Masalan, interaktiv ta'lim dasturlari (Smart Board texnologiyasi) va o'yinlarni o'rganishga asoslangan o'quv dasturlari [3].

2010-yillarda mobil qurilmalarning rivojlanishi va ularning ta'lim jarayoniga qo'shilishi boshlang'ich ta'lim tizimiga yangi imkoniyatlar yaratdi. Smartfonlar, planshetlar, va interaktiv ta'lim dasturlari o'quvchilarning o'qish jarayonida faol ishtirok etishiga yordam berdi. Bu davrda:

Mobil ta'lim dasturlari (apps) rivojlandi, o'quvchilar uchun matematikadan to chet tillargacha bo'lgan turli sohalarida o'rgatish dasturlari mavjud bo'ldi.

Smart ta'lim texnologiyalari: Interaktiv ta'lim texnologiyalari, masalan, interaktiv doskalar va o'quvchilarni individual tarzda o'qitishga yordam beradigan dasturlar, sinf xonalarida keng qo'llanila boshlandi.

COVID-19 pandemiyasi boshlang'ich ta'limda masofaviy ta'limning joriy etilishiga olib keldi. Bu davrda axborot texnologiyalari, ayniqsa video konferensiya dasturlari (Zoom, Microsoft Teams va boshqalar) va masofaviy o'qitish platformalari (Google Classroom, Moodle) yordamida ta'lim jarayoni davom ettirildi.

Shu bilan birga, sun'iy intellekt va o'rganish mashinasi (machine learning) texnologiyalari ta'lim jarayoniga yangi o'lchamlar kiritdi [6]:

- **Masofaviy o'qitish:** Pandemiya vaqtida masofaviy ta'limning keng tarqalishi boshlang'ich sinflarda ham samarali o'quv usullarini yaratishga yordam berdi.

Sun'iy intellekt va analitika: Ba'zi ta'lim platformalari o'quvchilarning o'rganish jarayonini tahlil qilish va shaxsiylashtirilgan ta'lim tavsiyalarini yaratish uchun sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalana boshladi.

Kelajakda axborot texnologiyalari yanada rivojlanishi kutilmoqda. Metavers, raqamli portfellar, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari boshlang'ich ta'limda kengroq qo'llanilishi mumkin. Ularning yordamida o'quvchilar yanada interaktiv va immersiv o'quv tajribalariga ega bo'lishi mumkin:

- **Virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR):** Bu texnologiyalar o'quvchilarga turli o'quv mashg'ulotlarini real hayotga yaqinlashtirib ko'rsatish imkonini beradi, masalan, tarixiy voqealarni yoki ilmiy eksperimentlarni virtual tarzda amalga oshirish.

Boshlang'ich ta'lim tizimida axborot texnologiyalarining qo'llanilishi tarixiy jarayon sifatida har bir yangi bosqichda o'quvchilarning ta'lim olish jarayonini yengillashtirib, ular uchun yanada samarali va qiziqarli o'rganish muhitini yaratdi. Axborot texnologiyalarining integratsiyasi ta'limda o'quvchilarning o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishda, ular uchun kerakli bilimlarni olishda, va umumiy ta'lim sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi [7].

Boshlang'ich ta'lim tizimiga axborot texnologiyalarining qo'llanilishi mazmuni va mohiyati ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, o'quvchilarga zamonaviy bilim va ko'nikmalarni taqdim etish, shuningdek, o'qitish va o'rganish jarayonini yanada interaktiv, qiziqarli va samarali qilishga qaratilgan. Axborot texnologiyalari yordamida o'quvchilarga yangi bilimlarni egallash, ularni tahlil qilish va amaliyotda qo'llashda ko'plab imkoniyatlar yaratiladi.

Boshlang'ich ta'lim tizimida axborot texnologiyalarining qo'llanilishi bir nechta muhim yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- **Kompyuter va internet texnologiyalaridan foydalanish:** Kompyuterlar va internetning keng tarqalishi o'quvchilarga global bilimlar bazasidan foydalanish imkoniyatini yaratdi. O'quvchilar Internet orqali ta'lim resurslariga (onlayn darsliklar, video darslar, elektron kutubxonalar) erishadilar.

- **Interaktiv ta'lim vositalari:** Axborot texnologiyalari yordamida ta'limni interaktiv qilish imkoniyatlari paydo bo'ldi. Misol uchun, interaktiv doskalar, simulyatsiyalar, o'quv dasturlari (multimedia materiallar) va o'yinlar o'quvchilarga mavzuni o'rganishda yanada qiziqarli va samarali yordam beradi.

- **Masofaviy ta'lim platformalari:** O'quvchilar va o'qituvchilarni masofadan turib bog'lash uchun onlayn ta'lim platformalari (Google Classroom, Zoom, Microsoft Teams) keng qo'llanilmoqda. Bu platformalar o'quvchilarga darslarni masofadan ko'rish, interaktiv ishlar va guruh muhokamalari olib borish imkoniyatini yaratadi.

- **O'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish:** Axborot texnologiyalaridan foydalanish, o'quvchilarning yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Elektron kitoblar, ta'lim dasturlari, onlayn testlar o'quvchilarni yanada faol o'qishga rag'batlantiradi.

- **Multimedia vositalari:** O'qituvchilar o'quvchilarga grafik, video va audio materiallarni ko'rsatish orqali o'rgatish jarayonini yanada boyitishadi. Bu esa o'quvchilarning eslab qolish va tushunish darajasini oshiradi.

Natijalar va muhokama. Axborot texnologiyalarining boshlang'ich ta'lim tizimida qo'llanilishining mohiyati quyidagi asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi. Axborot texnologiyalari o'quvchilarga ta'limni yanada samarali, qiziqarli va interaktiv tarzda olish imkoniyatini beradi. O'quvchilar ko'proq o'zlari uchun yangi bilimlarni qidirib topish, ta'lim resurslariga erishish va o'rganish jarayonini boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Axborot texnologiyalari o'quvchilarga o'qituvchidan tashqari, o'z-o'zini o'rganish imkoniyatlarini beradi. Onlayn darslar, ta'lim video-kontentlari va o'quv platformalarini ishlatish o'quvchilarga mustaqil o'rganish, o'z bilimlarini mustahkamlash imkoniyatini taqdim etadi. Axborot texnologiyalari yordamida har bir o'quvchining ehtiyojlariga mos ta'lim shakllari yaratish mumkin. Masalan, o'quvchilar o'zlarining qiziqishlari va ehtiyojlariga qarab o'quv dasturlarini tanlashlari mumkin. Bunday individual yondashuv ta'lim samaradorligini oshiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga zamonaviy axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanishni o'rgatish, ularda IT-savodxonlikni shakllantirishga yordam beradi. Bu esa ularning kelajakda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlari uchun zarur bo'lgan asosiy ko'nikmalarni rivojlantiradi. Axborot texnologiyalari o'qituvchilarga darslarni yanada samarali tashkil etish, o'quvchilarning bilimni baholash, darslarni ko'proq interaktiv va qiziqarli qilish imkoniyatini beradi. Shuningdek, o'qituvchilar uchun ta'lim resurslari yaratishda va darslarni boshqarishda qulayliklar yaratadi.

Boshlang'ich ta'lim tizimida axborot texnologiyalarining qo'llanilishi ta'lim jarayonini yanada samarali, qiziqarli va interaktiv qilishga yordam beradi. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning bilim olish jarayonini yaxshilash, ularning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va ta'lim sifatini oshirishga imkon yaratadi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida ta'limni individuallashtirish, o'quvchilarga yanada ko'proq imkoniyatlar taqdim etish va o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash uchun keng imkoniyatlar mavjud.

Boshlang'ich ta'lim tizimida matematika fanida axborot texnologiyalarining qo'llanilishi samaradorligi o'quvchilarning matematik ko'nikmalarini rivojlantirish, ta'limni yanada qiziqarli, interaktiv va samarali qilishda muhim rol o'ynaydi. Axborot texnologiyalarining matematika ta'limiga kiritilishi bir nechta asosiy jihatlar orqali samarali natijalar beradi:

Axborot texnologiyalari yordamida matematikaviy tushunchalar, masalalar va formulalar vizual ravishda taqdim etilishi mumkin. Grafikalar, diagrammalar, animatsiyalar va simulyatsiyalar yordamida o'quvchilarga abstrakt matematik tushunchalarni real dunyodagi vaziyatlar bilan bog'lash osonlashadi. Masalan, geometrik shakllarni interaktiv tarzda ko'rsatish yoki algebraik tenglamalarni vizual tarzda tushuntirish o'quvchilarning mavzuni tushunishini kuchaytiradi.

Interaktiv dasturlar va ilovalar yordamida o'quvchilar turli geometrik shakllarni qurish va ularning xususiyatlarini o'rganishlari mumkin. Misol uchun, **GeoGebra** yoki **Desmos** kabi dasturlar yordamida turli shakllarni chizish va ularning o'zaro bog'liqligini ko'rish mumkin.

Algebraik tenglamalar, formulalar va grafiklarning o'zaro aloqasini vizual tarzda tushuntirish o'quvchilarning mavzuni yanada yaxshi tushunishlariga yordam beradi.

Matematika fanida axborot texnologiyalarining qo'llanilishi o'quvchilarga interaktiv o'yinlar orqali matematik ko'nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi. Interaktiv o'yinlar, matematik masalalar va vazifalarni yechish orqali o'quvchilar faollashadi va o'rganish jarayoni qiziqarli bo'ladi.

Matematik o'yinlar: Kompyuter o'yinlari yoki mobil ilovalar orqali o'quvchilar turli matematik masalalarni echishadi. Masalan, **Math Blaster** yoki **Khan Academy** kabi platformalar orqali o'quvchilar matematikani qiziqarli va o'rgatuvchi tarzda o'rganadilar.

Ta'lim jarayoniga o'yin elementlarini kiritish (ballar, reytinglar, mukofotlar) o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va ularga darslarni o'rganishning yangi usullarini taqdim etadi.

Axborot texnologiyalari yordamida matematik masalalarni tahlil qilish va yechish jarayoni osonlashadi. Misol uchun, matematik dasturlar va ilovalar yordamida masalalarni qadam-baqadam yechish, ularni qanday qilib yechish kerakligi haqida o'quvchilarga ko'rsatmalar beriladi.

Kalkulyatorlar va matematik dasturlar: Masalan, **WolframAlpha** yoki **Microsoft Math Solver** kabi ilovalar yordamida o'quvchilar matematik masalalarni yechishda yordam oladilar. Bu dasturlar masalalarni avtomatik tarzda yechib, yechimlarni bosqichma-bosqich tushuntirish imkonini beradi.

Matematika simulyatsiyalari: Ba'zi simulyatsiyalar masalalarni real vaqt rejimida yechishga yordam beradi va o'quvchilarga matematik muammolarni tushunishga yordam beradi. Misol uchun, grafiklarni va funksiyalarni o'rganish uchun **Desmos** kabi vositalar mavjud.

Axborot texnologiyalari yordamida o'quvchilarga shaxsiylashtirilgan ta'lim imkoniyatlari yaratish mumkin. Bu o'quvchilarning individual ehtiyojlariga mos ravishda darslar va materiallar taqdim etishni osonlashtiradi. Masalan, ba'zi onlayn ta'lim platformalarida o'quvchilar o'z tezligi bilan matematik mavzularni o'rganishlari mumkin.

Axborot texnologiyalari matematikani amaliy tarzda o'rganish imkoniyatlarini yaratadi. Masalan, o'quvchilar turli matematik muammolarni yechishda turli vositalar va simulyatsiyalardan foydalanishadi. Bu tajriba asosida o'rganish yondashuvi o'quvchilarga o'rganilgan bilimlarni mustahkamlash va real hayotdagi vaziyatlarda qo'llash imkoniyatini beradi.

O'quvchilar matematik masalalarni simulyatsiya qilish orqali amaliyotda qo'llashadi. Bu turdagi faoliyatlar ularga bilimni yanada mustahkamlash va tushunishni chuqurlashtirishga yordam beradi.

Axborot texnologiyalari o'qituvchilarga o'quvchilarning matematik bilimni baholash va tahlil qilishda yordam beradi. Dasturlar va platformalar o'qituvchilarga o'quvchilarning qaysi mavzularda qiyinchiliklar yuzaga kelayotganini kuzatib borish, ularga kerakli yordamni ko'rsatish imkonini beradi.

O'qituvchilar onlayn platformalarda o'quvchilarning ishlash samaradorligini kuzatib borishlari mumkin. Bu esa o'qituvchiga har bir o'quvchining qaysi sohalarida yordamga muhtojligini aniqlashga yordam beradi.

Xulosa. Boshlang'ich ta'lim tizimida matematika fanida axborot texnologiyalarining qo'llanilishi ta'lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga yordam beradi. Interaktiv vositalar, multimedia materiallar, shaxsiylashtirilgan o'quv dasturlari va amaliy tajriba orqali o'quvchilar matematikani yaxshi tushunib, o'zlashtirishadi. Axborot texnologiyalari nafaqat matematik ko'nikmalarni rivojlantiradi, balki o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, masalalarni tahlil qilish va ijodiy yondashuvlarini ham kuchaytiradi.

Adabiyotlar:

1. Александрова Э.И. Психолого-педагогические основы построения современного курса математики // Начальная школа.-2013.-№ 1.-С. 56.
2. Абдукодилов А.А. Таълимда инновацион технологиялар. -Тошкент: Истеъдод, 2008.-180 б.
3. Бородин Н.В., Самойлова Е.С. Модульная технология в профессиональном образовании: Учебное пособие.-Екатеринбург.: УГППУ, 1998.-27 с.
4. Берсенева О.В.Критериальная модель и уровни сформированности исследовательских компетенций будущих учителей математики // Интернет-журнал «Наукосведение» <http://naukovedenie.ru>. Том 7, №5 (сентябрь- октябрь 2015) publishing@naukovedenie.ru
5. Ибрагимова Г.Н. Интерфаол ўқитиш методлари ва технологиялари асосида талабаларнинг креативлик қобилиятларини ривожлантириш. Пед. фан. фалс. докт. дисс.(PhD). Тошкент, 2017.-130 б.
6. Махмутов М., Ибрагимов Г.И., Ушаков М.А. Педагогические технологии, развитие мышления учащихся. -Казан: 1993-88 с.
7. Мусаев О.Қ. Компетентиявий ёндашув асосида педагогик қобилиятлар комплексини такомиллаштириш: пед. бўй. фал. док. (Phd) дисс. -Тошкент, 2016. -116 б.
8. Нишоналиев У.Н. Модульные педагогические технологии. - Профессиональное образование. М: 2002. -№ 14.-С. 10-12.

BOSHLANG‘ICH TA‘LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTERFAOL METODLARNING IMKONIYATLARI

Boymurodova Sadoqat Istam qizi,

Buxoro davlat pedagogika instituti

Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi kafedrası o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.2.2.014>

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan samarali ta‘lim jarayonini tashkil etishda interfaol metodlarning o‘rni va imkoniyatlari tahlil qilinadi. Maqolada interfaol metodlarning ta‘lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati, uning asosiy prinsiplari va ta‘lim tizimida qanday o‘zgarishlarga olib kelishi muhokama qilingan. Interfaol metodlar, an‘anaviy dars usullaridan farqli o‘laroq, o‘quvchilarning faol ishtirokini ta‘minlash, ularni mustaqil fikrlashga rag‘batlantirish va o‘quv materiallarini chuqur o‘zlashtirishga yordam beradi.

Maqolada interfaol metodlar sifatida “5 soniya”, “Yirtiq maktub”, “O‘chirg‘ich”, “Shashka donalari” “Fotoradar”, “To‘rtburchak”, “Instagram”, “Penalty” kabi usullar keltirilgan. Bunday metodlar o‘quvchilar orasida jamoaviy ish olib borishni, mulqot qilishni va o‘z fikrlarini erkin ifoda etishni rivojlantiradi.

Kalit so‘zlar: interfaol metod, interaktiv usul, jamoada ishlash, pedagog, ta‘lim samaradorligi, fikr almashish.

ВОЗМОЖНОСТИ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

В статье анализируются роль и возможности интерактивных методов в организации эффективного образовательного процесса с учащимися начальной школы. В статье рассматривается значение интерактивных методов в повышении эффективности образования, их основные принципы и те изменения, которые они могут привести в систему образования. Интерактивные методы, в отличие от традиционных методов обучения, обеспечивают активное участие студентов, побуждают их мыслить самостоятельно и помогают им глубоко усваивать учебный материал.

В статье представлены интерактивные методы, такие как «5 секунд», «Рваное письмо», «Ластик», «Шахи», «Фоторадар», «Прямоугольник», «Инстаграм», «Штраф». Такие методы развивают у учащихся командную работу, коммуникацию и свободное выражение идей.

Ключевые слова: интерактивный метод, интерактивный метод, командная работа, учитель, эффективность обучения, обмен идеями.

THE POSSIBILITIES OF INTERACTIVE METHODS IN INCREASING THE EFFICIENCY OF PRIMARY EDUCATION

This article analyzes the role and possibilities of interactive methods in organizing an effective educational process with primary school students. The article discusses the importance of interactive methods in increasing the effectiveness of education, its basic principles and what changes they can lead to in the education system. Interactive methods, unlike traditional teaching methods, ensure the active participation of students, encourage them to think independently, and help them to deeply assimilate educational materials.

The article presents such interactive methods as “5 seconds”, “Torn letter”, “Eraser”, “Checkers”, “Photoradar”, “Rectangle”, “Instagram”, “Penalty”. Such methods develop teamwork, communication and free expression of their thoughts among students.

Keywords: interactive method, interactive method, teamwork, teacher, educational effectiveness, exchange of ideas.

Kirish. Bugungi kunda iqtisodiyot va jamiyat sohasida tezkor o‘zgarishlar va taraqqiyotlar kuzatilmoqda. Davlatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoyev: “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada

bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”, — deb ta'kidladi.

XXI asr – ya'ni biz hozirda yashayotgan asr u juda katta texnologik, ijtimoiy, siyosiy va ekologik o'zgarishlarni olib kelgan davrdir. XXI asrning boshlanishi bilan raqamli texnologiyalar va internet juda katta o'sishga erishdi. Kompyuterlar, smartfonlar, sun'iy intellekt va boshqa yangi innovatsiyalar hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Shuningdek, ta'lim sohasida katta o'zgarishlar va yangiliklar yuz berdi. Bugungi jamiyatda ta'limga bo'lgan innovatsion yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash ehtiyoji ortib bormoqda. Bu davrda ta'lim tizimi faqat an'anaviy usullar bilan cheklanishi mumkin emas, chunki texnologik yangiliklar va global o'zgarishlar yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. O'quvchilarni zamonaviy dunyoga moslashtirish va ularning kreativ, muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ilg'or texnologiyalar va interfaol metodlarni keng qo'llanilishi kerak.

Interfaol metodlar deganda - ta'lim oluvchini faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi[8].

Asosiy qism: “5 soniya” metodi.

1. Eng birinchi navbatda sinfdagi o'quvchilarni ikki guruhga ajratib olamiz.
 2. Keyin navbatma – navbat guruhlardan bittadan a'zo chaqiramiz
- Har bir o'quvchiga bir mavzu aytiladi.
3. Ular 5 soniya tugamasdanoq shu mavzuga doir 3 ta atama aytishlari kerak bo'ladi.
 4. Agar o'quvchi ayta olsa jamoasi rag'batlantiriladi.
 5. Agar o'quvchi ayta olmasa ball berilmaydi, guruhidan boshqa o'quvchi qatnashadi.
 6. Metod shu tariqa davom etadi va g'olib jamoa aniqlanadi.

Ushbu metodni samarali qo'llash orqali boshlang'ich sinf o'quvchilari navbatma-navbat o'z fikrlarini bildiradilar va guruhda faol ishtirok etib, bir-birlari bilan muloqot qilishadi. Bu ularning o'zaro fikr almashish va izoh berish qobiliyatini rivojlantiradi. O'quvchilar tezda to'g'ri atamalarni tanlab, mantiqiy fikr yuritishga majbur bo'lishadi. Bu esa tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. O'quvchilar bir guruh sifatida ishlashadi, bu esa jamoada ishlash ko'nikmalarini oshiradi. O'zaro yordam, bir-birini qo'llab-quvvatlash va umumiy maqsadga erishish harakatlari guruhni yanada birlashtiradi. Shuningdek, 5 soniya davomida tezda javob berish talab qilinganligi sababli, o'quvchilar vaqtni boshqarishni o'rganadilar va tezkor fikr yuritish qobiliyatini rivojlantiradilar. Agar o'quvchi to'g'ri javob bera olmasa, guruhdagi boshqa o'quvchi qatnashishi mumkin. Bu holat o'quvchilarni qo'rqmasdan xatolardan o'rganishga va muammolarni birgalikda hal qilishga undaydi.

“Yirtiq maktub” metodi.

1. O'quvchilarni 4 yoki 5 guruhga ajratib olinadi.
2. Mavzuga doir matnni diqqat bilan o'qib chiqishlari aytiladi.
3. Keyin esa taqdim etilgan matnni qaytarab olinadi.
4. Oldindan guruhlar soniga qarab matnni 4 yoki 5 listga yozib qo'yiladi va har bir listdagi matnlarni bo'limlarga ajratib qirqib chiqilgan bo'lishi kerak.
5. “O'quvchilar sizlarga yirtilgan maktub beraman, siz xotirangizni ishga solib, maktubni butun holatga keltirasiz” deb aytiladi.
6. O'quvchilar matnni tartib bilan qo'yib kley yordamida tartib bilan yopishtirishlari kerak bo'ladi.
7. Matnni to'g'ri joylashtirgan o'quvchi g'olib bo'ladi va baholanadi.

“Yirtiq maktub” metodi o'quvchilarning diqqatini, xotira va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. O'quvchilar matnni diqqat bilan o'qib chiqqanidan so'ng, uning bo'limlariga ajratilgan qismlarini to'g'ri joylashtirishlari kerak. Bu jarayon o'quvchilarning diqqatini kuchaytiradi va uzoq muddatli xotirani rivojlantiradi. Matnni yirtib, qismlarga ajratish va to'g'ri tartibda joylashtirish xotira va mantiqiy fikrlashni kuchaytiradi. O'quvchilar matnni qayta tiklashda o'z xotiralarini va tushunchalarini ishlatib, bilimni mustahkamlaydilar. O'quvchilar matnni to'g'ri tartibda joylashtirish uchun uning tuzilishini va mantiqiy bog'lanishini tushunishlari kerak. Bu jarayon mantiqiy fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini oshiradi. Guruhlarda ishlash orqali o'quvchilar bir-biriga yordam berishadi, fikr almashishadi va umumiy maqsadga erishish uchun birgalikda harakat qilishadi. Bu jamoaviy ishlashni, hamkorlikni va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradi.

“O'chirg'ich” metodi.

Kerakli o'quv qurollari: o'chirg'ichlar, qalamlar, A3 list 5,6 yoki 7 ta;

1. O'quvchilaringiz soniga qarab ularni guruhlarga ajratib olinadi. Har bir guruhda 5 tadan o'quvchi bo'lsa maqsadga muvofiq bo'ladi;
2. Oldindan A3 formatdagi qog'ozlarga mavzumizga oid 15 ta to'g'ri va 15 ta noto'g'ri ma'lumotlarni

qog‘ozning turli joylariga yozib chiqilgan bo‘lishingiz kerak. (Ya‘ni ma‘lumotlar bitta to‘g‘ri bitta noto‘g‘ri yoki bir tomonda faqat to‘g‘ri, bir tomonda faqat noto‘g‘ri javoblar emas aralash tarzda yozilgan bo‘lishi kerak.

Har bir guruhdan 1 ta o‘quvchini o‘chiruvchi vazifasiga tayinlanadi;

Endi esa o‘quvchilarga vazifani tushuntiriladi. Demak ular mavzuga aloqador bo‘lmagan so‘zlar yoki gaplarni o‘chirib chiqishlari kerak. Oldindan mavzuga oid bo‘lgan va bo‘lmagan ma‘lumotlarni A3 qog‘ozga yozib kelinadi, o‘quvchilar shu qog‘ozdan noto‘g‘ri ma‘lumotlarni o‘chirishi kerak;

Shartni bajarish uchun 5 yoki 6 daqiqa vaqt belgilanadi va belgilangan vaqt tugagach barcha qog‘ozlarni yig‘ib olinadi;

Endi esa qog‘ozlarni birma bir doskaga ilib jamoalarning xato va kamchiliklarini ko‘rib chiqiladi va shu tariqa g‘olib jamoalarni aniqlanadi va baholanadi.

“Shashka donalari” metodi.

Shashka o‘yini qiziqarli sport va san‘at turlaridan biri. O‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga chorlovchi aqliy gimnastika turlaridan biridir. Shashka - bu ikki o‘yinchi uchun mantiqiy stol o‘yini bo‘lib, shashkalarni shashka taxtasi kataklari bo‘ylab ma‘lum bir tarzda harakatlantirishdan iborat. O‘yin davomida har bir o‘yinchi bir xil rangdagi shashkalarga ega: qora yoki oq. O‘yinning maqsadi raqibning barcha shashkalarini olish yoki ularni harakat qilish (qulflash) imkoniyatidan mahrum qilishdir. Bu metodni dars jarayonida qo‘llashdan bir kun oldin sinf o‘quvchilarini guruhlariga bo‘lib topshiriq beriladi.

1. Sinf o‘quvchilarini 6 guruhga bo‘lib olamiz. Jamoalardagi o‘quvchilar soni 5tadan oshmasligi lozim.

2. O‘qituvchi tomonidan 6 ta jamoa uchun 3ta shashka doskasi tayyorlab kelinadi.

3. Shashka donalarini tayyorlab kelish esa jamoa a‘zolariga topshiriq sifatida beriladi.

4. Shashka donalari ortida raqib jamoa uchun savollar tuzilgan bo‘ladi.

5. Jamoalar tayyorlab kelgan shashka donalari shashka doskasiga teriladi.

Masalan: oq shashka donalarini tayyorlab kelgan jamoa qora shashka donalari ostida o‘yin olib boradi. Qora donalarini tayyorlab kelgan jamoalar esa oq shashka donalari ostida o‘yinni olib boradi.

6. Shashka donalari ortida yozilgan savollarga javob bergan jamoa o‘yinni davom ettiradi. Agar shashka ortidagi savollarga javob berolmasa, o‘sha ortiga savol yozilgan shashka donasi shashka doskasidan chetlashtiriladi.

7. Shashka ortidagi savollarga javob bergan jamoaga 1 ball beriladi. Raqib jamoaning shashka donalarini qo‘lga kiritgan jamoalar hisobiga esa 2 ball yoziladi.

8. 6 ta jamoa uchun 3 nafar o‘quvchi hakamlilik vazifasini bajaradi. O‘yin davomida jamoalar tomonidan xato - kamchiliklarga yo‘l qo‘yilmaganliklarini, o‘yin tartibi buzilmaganliklarini nazorat qilib, jamoalar to‘plagan ballarni yozib boradilar.

Hakamlilik vazifasi o‘quvchilardan sergaklikni, diqqatli, adolatli bo‘lishni talab qiladi.

9. Har bir jamoa o‘zlariga nom berish bilan birgalikda jamoa sardorlarini ham tanlashadilar.

Har bir jamoaning yutug‘i o‘qituvchi tomonidan rag‘bat kartochkalari bilan baholanib boriladi.

“Fotoradar” metodi.

Fotoradar - yo‘llarda haydovchilarning harakatlarini nazorat etayotgan moslama. Fotoradar orqali yo‘l harakat qoidalari buzilishi holati oldi olinadi. Shuningdek, haydovchilardan ehtiyotkorlimni talab qiladi.

Bu “Fotoradar” metodi ham o‘quvchilardan hushyorlikni, sergaklikni talab qiladi. Ko‘proq takrorlash darslarida foydalanish mumkin.

1. O‘quvchilarni 4 guruhga bo‘lib olamiz. Har bir jamoa o‘zlariga nom berish bilan birgalikda jamoa sardorlarini ham tanlashadilar. Har bir jamoaning yutug‘i o‘qituvchi tomonidan rag‘bat kartochkalari bilan baholanib boriladi. O‘quvchilardan 2 nafar o‘quvchiga o‘tilgan mavzular yuzasidan savollar tuzib kelish topshirig‘i beriladi. U ikkala o‘quvchi aynan shu metod jarayonida darsning boshqaruvchisi hisoblanadi.

1. O‘quvchilar sinfdoshlari tomonidan tayyorlab kelingan savollarga javob berishadi.

Savollarga javob bergan o‘quvchi 5 ballni qo‘lga kiritadi.

Berilgan savollarga javob berolmagan o‘quvchi esa fotoradarga tushgan hisoblanadi. Va albatta, jarima beriladi.

Jarima bu- o‘qituvchi tomonidan o‘tilgan mavzular asosida yengil savol va topshiriqlar beriladi. Bu savol va topshiriqlar jarima qog‘oz ortiga yashiringan bo‘ladi.

Bu metod o‘quvchilarda faollikdan tashqari o‘ziga xos fikrlash, samimiy muloqatga kirishish, o‘zligini namoyish etish, umumiy fikrlash doirasini kengaytiradi.

“To‘rtburchak” metodi.

Sinfning 4 ta burchagini raqamlab olamiz. Mavzuga mos so‘zlar bilan ham nomlasak bo‘ladi. So‘ngra 4 ta o‘quvchi chiqadi. O‘qituvchi biror burchak raqamini yoki nomini o‘ylaydi. O‘quvchilar 4 ta burchakni

egallab olishadi. Kim o'qituvchi o'ylagan burchakka tushib qolsa, “tuzoqqa tushadi” ya'ni endi o'qituvchi bergan savolga javob berishi kerak bo'ladi. Savolga javob bera olmagan o'quvchi o'yinni tark etadi. Oxirida qolgan o'quvchi g'olib bo'ladi. Metod darsni qiziqarli bo'lishini ta'minlab, o'quvchilarni faollashtiradi. Hozirjavoblikni rivojlantiradi.

“Instagram” metodi.

Bilamizki, bugungi kunda yoshlar instagram platformasida anchagina faol. Ushbu metodni nomini aytishimiz bilanoq o'quvchilarni o'zingizga beixtiyor jalb eta olasiz.

1. O'quvchilarni 4 yoki 5 guruhga bo'lib olamiz;
2. Har bir guruh uchun bittadan list, rangli qalamlar, ruchkalar berib chiqamiz;
3. Endi esa barcha guruhga bir xil mavzu berasiz. Ular listga o'z fikrlarini noodatiy tarzda yozishlari, she'riy tarzda ifodalashlari yoki biror narsa chizish orqali mavzuni yoritishlari mumkin. Eng muhimi loyihaga kreativ yondashish va mavzuni tushunarli ifodalay olish;
4. Faqat bir shart shuki guruhlar listga nomlarini yozmasliklari va guruhlar bir birlariga bajargan ishlarini ko'rsatmasliklari kerak;
5. Loyihani bajarishga ma'lum muddat belgilanadi va belgilangan vaqt tugagach barcha ishlarni yig'ib olinadi.
6. Guruhlarga o'z ishi namoyish etilganda bu bizni loyihamiz deb aytmaliklarini qattiq tayinlanadi.
7. Endi esa doskaga like, dislike belgisini chizib yozib qo'ying.
8. Doska -bu instagram platformasi. O'quvchilar ishlarini instagramda ya'ni doskada navbatma navbat namoyish etamiz;
9. Har bir ish namoyish etilganda o'quvchilarga yoqqan yoqmaganligini so'rab like va dislike lar sonini yozib boring. O'quvchilar yoqtirganda qo'llarini tarzda, aksincha bo'lsa tarzda ko'taradilar va siz osongina aniqlab olasiz;
10. Like va dislikelar soniga qarab g'olib guruhni aniqlaysiz va baholaysiz.

“Penalty” metodi.

Penalty ingliz tilidan tarjima qilinganda “jarima” ma'nosini beradi. Demak bu metod jarimalar bilan yanada qiziqarli. Bu metodni qo'llash uchun bizga koptok kerak bo'ladi; O'quvchilarni ikki guruhga ajratib olamiz. Bilamizki futbolda 11 tadan a'zo bo'ladi. Demak har bir guruhingiz 11 a'zodan tashkil topgan bo'lishi kerak. Demak jamoalarni quyidagicha shakllantiramiz:

Darvozabon 1 tadan (ikkala guruhning bittadan eng kuchli a'zosini darvozabon etib tayinlaymiz. Chunki bu metodda darvozabon asosiy kishi);

Himoyachilar (har bir jamoadan 4 nafardan o'quvchi);

Yarim himoyachilar (har bir jamoadan 4 nafardan o'quvchi);

Hujumchilar (har bir jamoadan 2 nafardan o'quvchi).

1. Tarkiblar aniqlab olingach o'yin boshlanadi.
2. Qura tashlash yo'li bilan qaysi jamoa birinchi savollarga javob berishini aniqlab olasiz.
3. Aniqlashtirgach, birinchi javob beradigan jamoa darvozaboni doskaga chiqadi.
4. Raqib jamoa oldindan qog'oz parchaga yozilgan savolni skoch yordamida to'pga yopishtirib darvozabonga otadi. Darvozabon savolni o'qib ko'rib javob bera olsa maksimal - 8 ballni qo'lga kiritadi
5. Agar darvozabon javobni bilmasa to'p himoyachilarga o'tadi va himoyachilardan birortasi savolga javob bera olsa 6 ballni qo'lga kiritadi (-2 jarima bo'ladi darvozabon javob bera olmagan uchun)
6. Agar himoyachilar ham savolga javob bera olmasa to'p yarim himoyachilarga o'tadi va ular savolga javob bera olsa 4 ballni qo'lga kiritadi (-2 jarima himoyachilar javob bera olmagan uchun)
7. Agarda yarim himoyachilar ham savolga javob bera olmasa to'p endi hujumchilarga o'tadi va ular savolga javob bera olsa 2 ballni qo'lga kiritadi (-2 jarima yarim himoyachilar savolga javob bera olmagan uchun)
8. Agar hujumchilar ham javob bera olmasa jamoa ballsiz qoladi va navbat endi raqib jamoaga keladi.
9. Metod shu tariqa navbatma navbat javob berish orqali davom etadi. Har bir jamoa 5 tadan savolga javob beradi.

10. Faqat jamoadoshlar savol javobini bir birlariga aytib qo'ymasliklarini qattiq nazorat qilinad. Himoyachilar darvozabonga, nyarimhimoyachilar himoyachilarga, hujumchilar yarim himoyachilarga ballni ko'p olaylik degan maqsadda javobni aytib qo'yishmasin yo'qsa mertod kutulgan natijani bermaydi.

11. O'quvchilar savollarni oldindan mukammal tarzda tuzib kelsalar yanada yaxshiroq. Bu metod takrorlash darslarida ayniqsa juda ham samarali bo'ladi.

Muhokama va natijalar. Interfaol metodlar boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishda o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlab, bilimlarni mustahkamlashga va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Bu metodlar o'quvchilarga bilimlarni faqat eslab qolish emas, balki ularga

amaliy qo'llash imkoniyatini yaratadi. Interfaol darslarni tashkil etish boshlang'ich sinf uchun bilim, ko'nikma, malakani qiziqib o'rganishlari uchun imkoniyat yaratasa, o'qituvchining tajribasi oshib borishida ko'mak beradi. Boshlang'ich sinflarda interfaol darslarni tashkil etish o'z o'rnida juda samarali. Masalan, darsda ko'zlangan maqsadga erishishda, o'quvchilar diqqatini bir joyga jamlashda, ularni darsga qiziqishini oshirish va faollikka undashda katta ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi dars jarayonlarida uchraydigan muhim muammolaridan biri bu o'quvchilar diqqatini darsga jalb etish va uni boshqara olishdir. Shunday ekan, o'qituvchi bu muammodan mohirona chiqib ketishi va o'quvchilar e'tiborini darsga qarata olishi uchun doimo samara berib kelgan interfaol darslarni tashkil etish lozim.

Xulosa: Interfaol metodlar orqali darslarni tashkil etish ta'lim jarayonining samarasini ko'tarishda asosiy jihatlaridan biri bo'lib, o'qituvchining o'quvchilar bilan ham individual ham jamoaviy ishlash imkonini beradi. O'qituvchi dars vaqtidan unumli foydalanib, o'quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ular bilan jamoada ishlaydi. Bunda ularning fanlarni chuqurroq egallashlariga kengroq yo'l ochib beriladi. Interfaol metodlar orqali darslarni tashkillashtirishda didaktik vazifaning qo'llanilishi va uni hal etish muammolari ko'rib chiqiladi.

Demak, bugungi interfaol darslarni tashkil qilish uchun interaktiv metodlarni amalda joriy etish, ta'lim samaradorligini oshirishda ma'lum maqsadga erishishda, o'quvchilarning intellektual salohiyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinflarda interfaol darslarni tashkil etish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylandi. Bolaning ongi va tafakkuri shakllanib kelayotgan boshlang'ich sinflarda o'qituvchining mahorati, interfaol darslarni ta'lim jarayoniga mohirona tatbiq etishi, ta'limning yangi-yangi usullarini izlashi, ilg'or pedagogik tajribalardan foydalana olishi juda muhimdir. Bunday interfaol metodlar orqali tashkil qilinadigan darslarni loyihalash o'qituvchidan albatta, mahorat talab qiladi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil yakunlari va 2017-yil istiqbollarga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. Xalq so'zi gazetasi. 2017-yil 16-yanvar, №11.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.-T.: O'zbekiston, 2017.-488-b.
3. Tolipov O'., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari-T.:2006.-163b.
4. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti.-T.: Sanostandart, 2017.
5. Adizova, N. B., Boymurodova, S. I., & To'rayev, S. D. (2023). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirishda ta'sir etuvchi omillar. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 548-548.
6. Sadoqat, B. (2022). O'qish darslarida aqliy tarbiyani shakllantirish texnologiyasi. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 82-84.
7. BI, B. S. O. (2023). Methods of effectively organizing reading literacy lessons for primary school students. *Confrencea*, 12(12), 185-188.
8. MX, B. S. S. (2023). The role of interactive methods in improving the effectiveness of primary education. *Confrencea*, 12(12), 189-192.
9. Boymurodova, S. I. (2023). Methodology of an innovative approach to effective organization of mother tongue lessons in primary grades. *Confrencea*, 12(12), 180-184.
10. SI, S. B., & Jumabayeva, M. R. Theoretical foundations of the formation of creative abilities of primary school students.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA DARSLARNI INTEGRATSIYA ASOSIDA TASHKIL ETISH

Ismoilova Surmaxon Amonovna,

*“University of economics and pedagogy” notm
Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti,
btm.is.69@mail.ru*

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda darslarni integratsiya asosida tashkil etishning ahamiyati, metodlari va usullari yoritilgan. Integratsiya, ta‘limda fanlararo yondashuvni rivojlantirish va o‘quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirishda muhim vosita hisoblanadi. Maqolada o‘quv metodlarining zamonaviy yondashuvlar asosida qanday tashkil etilishi, o‘quvchilarda tizimli fikrlash va mustaqil ishlarni rivojlantirish haqida fikrlar bildirildi. Boshlang‘ich sinflarda integratsiya asosida darslar qanday o‘tkazilishi, pedagogik yondashuvlar va qiyinchiliklar ham tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: integratsiya, boshlang‘ich sinflar, fanlararo yondashuv, o‘quv metodlari, pedagogika.

ОРГАНИЗАЦИЯ УРОКОВ ЧТЕНИЯ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАЦИИ

В статье рассматриваются важность и методы организации уроков на основе интеграции в начальной школе. Интеграция является важным инструментом для развития междисциплинарного подхода и углубления знаний учащихся. В статье обсуждаются современные подходы к организации учебных методов, а также развитие системного мышления и самостоятельной работы учащихся. Также анализируются способы проведения уроков на основе интеграции в начальной школе, педагогические подходы и возможные трудности.

Ключевые слова: Интеграция, начальная школа, междисциплинарный подход, методы обучения, педагогика.

ORGANIZING PRIMARY SCHOOL READING LESSONS BASED ON INTEGRATION

This article discusses the importance and methods of organizing lessons based on integration in primary schools. Integration is an important tool for developing an interdisciplinary approach and deepening students' knowledge. The article highlights how lessons can be organized based on modern teaching approaches, and how it helps in developing systematic thinking and independent work among students. It also analyzes the methods of conducting integrated lessons in primary school, pedagogical approaches, and potential challenges.

Keywords: integration, primary school, interdisciplinary approach, teaching methods, pedagogy.

Kirish. Ta‘lim tizimining rivojlanishi o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini samarali oshirishga xizmat qiladi. Pedagogik metodlar va yondashuvlar, ayniqsa boshlang‘ich sinflarda, ta‘lim sifatini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda, turli fanlarni integratsiya asosida birlashtirish o‘quvchilarning bilish qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali usul sifatida keng qo‘llanilmoqda. Integratsiya, ta‘limda fanlararo bog‘lanishlarni rivojlantirishga yordam beradigan yondashuv bo‘lib, o‘quvchilarning nafaqat bilimlarini, balki ularning fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini ham kengaytirishga imkon beradi.

XIX-XX asrlar oralig‘ida pedagogikada kichik maktab o‘quvchilarining tabiiy muhit bilan tanishtirishning integratsiyalashgan kursini yaratish fikri paydo bo‘lgan. Bu fikr A.Y.Gerd, O.N.Kaygorodov, A.P.Pavlov nomlari bilan bog‘liq bo‘lib, ular boshlang‘ich maktabga atrofdagi jonli va jonsiz dunyo haqidagi bo‘linmagan kursni kirgizishni talab qilishdi. Integratsiyalashgan ta‘lim-tarbiya, fanlararo aloqalarning ayrim jihatlari mashhur pedagoglarning (Y.Komenskiy, O.Lokk, I.Gerbert, M.Pestalossi, K.Ushinskiy va boshqalar), didaktiklarning (I.O.Zverev, M.A.Oanilov, V.N.Maksimova, S.P.Baranova, M.N.Skatkin va boshq.), psixolog olimlarning (E.N.Kabanova Meller, N.F.Talizina, Y.A.Samarina, G.I.Vergeles), medist olimlarning (M.R.Lvov, V.G.Goreskiy, N.N.Svetlovskaya, Y.M.Kolagin, G.N.Pristupova) ishlarida ko‘rib chiqilgan [5, [www. ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi].

Boshlang‘ich sinflarda integratsiya asosida darslar tashkil etishning pedagogik asoslari va amaliyotdagi ahamiyati so‘nggi o‘n yilliklarda ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilgan. Ammo o‘quv jarayonida integratsiyalashgan metodlarni qo‘llashning samaradorligi va ularning o‘quvchilar rivojlanishiga ta‘siri haqida hali ham ko‘plab noaniqliklar mavjud. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda integratsiya asosida darslarni tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari o‘rganiladi va bu metodning o‘quvchilarning bilim olish jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'lim metodlarini o'rganish va ulardan foydalanishning afzalliklarini aniqlash. O'quvchilarning bilim darajasini va kognitiv qobiliyatlarini baholash, shu bilan birga integratsiya asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilarning fikrlash va ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi rolini tahlil qilish.

Boshlang'ich sinf ta'limida integratsiya asosida darslarni tashkil etish o'quvchilarning faolligini oshirish va ularning bilim olish jarayonini yanada sifatli qilish uchun zarurdir. Shu bilan birga, integratsiyalashgan yondashuv ta'limda fanlararo bog'lanishlarni yaratish orqali o'quvchilarning umumiy dunyoqarashini kengaytiradi. Integratsiyalashgan darsda, ayniqsa, o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish, tanqidiy fikrlashni kuchaytirish va ijodiy yondashuvlarni o'rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuminsoniy, milliy tajribalar ta'limni integratsiyalash muammolarining dolzarbligini ko'rsatmoqda. Shu sababdan ham ko'pgina davlatlarda integratsiyalab o'qitish muammosiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Biz ham tarixiy, milliy hamda umuminsoniy tajribalarga tayanib, integratsiya va integratsiyalashgan darslar haqida ma'lumot berishni maqsad qilib qo'ydik.

Integratsiya – ta'lim mazmunini takomillashtirishning barqaror yo'nalishlari va tamoyillaridan eng ustuvori hisoblanadi,

Integratsiya tushunchasi bizning leksikologiyamizga yangi kirib kelgan so'zlardan bo'lsa-da, aslida u uzoq tarixga ega.

Fanlarni integratsiyalab o'qitish muammosini hal etish uchun fanlarning vujudga kelishi va ularning taraqqiy etishini anglab yetmoq zarur. Mazkur holat jamiyatning tarixiy rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir.

Insoniyat rivojlanishining dastlabki bosqichlarida odamlar tabiat haqida to'liq tasavvurga ega bo'lmaganlar. Atrof muhitda sodir bo'ladigan hodisa, jarayonlarni kuzatuvchilari bo'lishgan, xolos. Keyinchalik hodisa, jarayonlarning sodir bo'lishini kuzatibgina qolmay, ma'lumotlar to'plab, tahlil qila boshlaganlar. Insonlarning ehtiyojlari, mehnat qurollarining takomillashib borishi, tevarak atrofdagi olam to'g'risida tasavvurlarining rivojlanishiga sababchi bo'ldi. Kishilarning tabiatda sodir bo'ladigan hodisalarga munosabatlarining shakllanishi, to'plangan bilimlarni, tajribalarni yig'ish zaruriyati vujudga keldi. Kishilar “Nima uchun kecha kunduz sodir bo'ladi? Nima uchun yomg'ir yog'adi? Nima uchun issiq-sovuq bo'ladi? Nima sababdan suv toshqinlari yuz beradi? Nega yer silkinadi?” kabi savollarga javob izlay boshladilar. Buning uchun tajriba, kuzatuvlar o'tkazildi [5, www.ziyouz.com kutubxonasi].

Boshlang'ich ta'lim jarayonida darslarni integratsiya asosida olib borish natijasida o'quvchilarni darsga jalb etish samarali bo'ladi. Integratsiya darslarda bolalar diqqati to'liq jalb etiladi, xotirasini yaxshilaydi va o'quvchilarning bilimlarini chuqur egallashlariga yordam beradi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf davridanoq o'qituvchilarni ta'lim jarayonini qiziqarli motivlar asosida tashkil etishga e'tibor qaratishlari zarur. Darsni integratsiya asosida tashkil etish jarayonida barcha o'quvchilarga fanlararo bog'lanishni tushunarli, oson, qiziq bo'lgan usullarni tanlashi va qo'llash, ko'rgazmali qurollardan foydalanishi, texnik vositalardan dars jarayonida foydalanish ta'lim oluvchilarning ijodiy, mustaqil ishlashga undashi, pedagogik texnologiyalardan to'g'ri va unumli foydalanish dars samaradorligini oshiradi [2,64-b.].

Integratsiya – lotincha “integration” so'zidan olingan bo'lib, *tiklash, to'ldirish, bir butun holiga keltirish* degan ma'nolarni anglatadi.

Integratsiya – o'zaro bog'langan holda rivojlantirish, bir butun qilib birlashtirish yahlit holga keltirish deganidir.

Ta'limda o'quvchilarga ma'lum bilimlar tizimini yetkazib, ularni faqat eslab qolishning o'zi bugungi kunda yetarli bo'lmay qoldi. Zamonaviy bilim olishda motivatsiya uyg'otish, mustaqil bilim olish ishtiyoqini hosil qilish, integratsiya asosida ta'lim berish dolzarb vazifalardandir. Pedagogik texnologiya ana shunday talabni ro'yobga chiqarishga qaratilgan ta'lim tizimidir. Texnologiyaning asosiy talabi – o'quvchilarning puxta bilim olishi, bilimlarni o'zlashtirishda faollik ko'rsatishi, mustaqil fikrlashi, ta'limda aniq samarador natijaga erishishdir [5, www.ziyouz.com kutubxonasi].

Adabiyotlar tahlil va metodologiyasi. Mavlvanova Raxima, Raxmankulova Nargiz hammuallifligida yozilgan “Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi” nomli o'quv qo'llanmasida “Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga javob beradigan va dars talablariga mos keladigan maqsadni aniqlash bunday yangilanishning asosiy masalasidir. XIX-XX asrlar oralig'ida pedagogikada kichik maktab o'quvchilarining tabiiy muhit bilan tanishtirishning integratsiyalangan kursini yaratish fikri paydo boigan” deb ta'kidlaganlar [3, 174-b.].

Hozirgi davrda jamiyat, davlat talab qilayotgan buyurtmaga ko'ra, har tomonlama rivojlangan barkamol shaxsni shakllantirish uchun uzluksiz ta'lim tizimida, jumladan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida

fanlarni integratsiyalab o'qitishning mazmunini aniklash va uni amaliyotga joriy etish masalalarini ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Fanlarni integratsiyalab o'qitish integratsiyaning ta'limdagi ahamiyati ham fanlar taraqqiyoti bilan bog'liq holda tarixiy xususiyatga ega.

Fanlarni integratsiyalab o'qitishning pedagogik asosi Y.A.Komenskiy tomonidan o'rganilgan. U o'z davrining an'analarga ko'ra, tabiat va ta'limga buyuk tabiatshunos sifatida yondashgan.

Ta'lim integratsiyaning bosh maqsadi - shaxsni har tomonlama kamol topishini ta'minlashning muhim tamoyili sifatida maydonga keldi.

Integratsiyalashgan ta'lim shaxsni intellektual va madaniy rivojlantirishning bosh omili bo'lib qoldi.

Rus olimi, akademik I.D.Zverev integratsiyaning uzviy bog'lanish, yaxlitlikni yaratish, turli o'quv predmetlari elementlarini uyg'unlashtirish asosida umumlashtirish jarayoni, deb tushuntiradi.

Ta'limda integratsiya, eng avvalo, fanlararo aloqani keskin rivojlantirishni, turli fanlarni o'zaro hamkorlikda o'qitishdan, ularni chuqur o'zaro ta'sirlashtirishga o'tirishni taqozo qiladi, deb uqtiradi.

A.N.Zaxtebshsh va M.V.Reshkovlar fanlarni integratsiyalashuvi o'quv dasturi va darslardagi bog'lanishlarni hisobga olgan holda amalga oshirish lozimligini ta'kidlaydilar.

Integratsiya jarayonini ta'limda ham mavjudligini I.Nyuton, A.Eynshteyn, I.D.Zverev, V.N.Maksimova, B.D.Komissarov kabi olimlar tasdiqlashgan [5-www. ziyouz.com kutubxonasi].

Boshlang'ich sinflarda darslarni integratsiya asosida tashkil etish o'quvchilarning umumiy bilimlarini kengaytirishga, ayniqsa tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlariga moslashish ularning badiiy faolligini rivojlantirishni taqozo qiladi. Bilim olish, badiiy-hayotiy masalalarni hal qilish o'ziga xoslikni, uddaburonlikni, epcchillikni rag'batlantirishni nazarda tutyapti. Shu mimosabat bilan bolalarning she'r va hikoyalar yozish, yangi raqs o'ylab topish, shirin taom pishirish, biron asbob yoki o'shaklar yaratish kabi mustaqil ijodiyotning turli yollari bilan rag'batlantirib borish taqozo etiladi [3, 181-b.].

Adabiyotlar tahlili natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Integratsiya asosida tashkil qilingan darslar o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini va yaratish qobiliyatini oshiradi;

Integratsiya asosida tashkil etilgan darslar ta'limning barcha sohalarida o'quvchilarni faol ishtirokchiga aylantiradi;

Sinfda turli fanlarni birlashtirish o'quvchilarning umumiy bilimlarini kengaytiradi va oshiradi.

Muhokama va natija. O'qituvchi fanlararo aloqa usulini qo'llar ekan, avvalo, o'quvchilarda shu fanlararo ko'proq tushuncha hosil qilishga intiladi va ular o'rtasidagi munosabat yaxlit holda emas, shu fanlar nuqtai nazaridan talqin etiladi. Fanlararo aloqadorlik o'quvchilarga atrofdagi dunyoni turli-tumanlikda va yaxlitlikda bilish imkoni beradi.

Ona tili mashg'ulotini o'lkashunoslik negizida olib borish

Ona tili darslarini o'lkashunoslik asosida olib borilishi juda katta ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega. O'lkashunoslik materiallaridan, odatda, o'qish darsida yozuvchi biografiyasini o'rganishda, uning ijod manbalari, ayrim asarlari yaratilish tarixini bolalarga yetkazishda foydalaniladi. Ona tili darsida ham tez-tez o'lkashunoslik manbalaridan foydalanish o'quvchilarda ona-tabiatga mehrni, vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalashda ajoyib vositadir.

Bu esa bolalarda onglikni oshirib, o'rganilayotgan fanga qiziqishi kengayadi. Biz 3-sinfda Ona tili darsini bevosita tabiatshunoslik fani bilan bog'lab integratsiya darsi ko'rinidha tashkillashtirishni reja qildik.

TABIAT – BU VATAN

Dars boshida o'quvchilar tabiat va yurtga oid she'rlarni yoddan o'qiydilar. Keyin esa bolalar shoiri G'afur G'ulomning “Bari seniki” she'rini o'qiydilar. Bu she'rda shoir yuksak vatanparvarlik g'oyasini ilgari surtgan (she'r doskaga yozilgan):

Muncha ham chiroylisan, aziz Vatanim!
Bodomday ming ko'z bilan sevar badanim.
Sensan avval-oxir, sensan sevganim,
Jonim, yurak-qonim, hatto shu tanim,
Bir butun holicha bari seniki [2, 92-b.].

Bu she'rni tanlashdan ko'zlangan maqsad shoir o'lkamiz haqida, go'zallik haqida qanday nafis tasvirlar keltirganini yosh avlodga tushuntirish.

«Nastarin» suratda bahor

Dars quyidagi ketma-ketlikda tuzilgan:

1.Qarshingizda «Nastarin» surati, deb o‘qituvchi bolalarga murojaat qiladi, bahor iforini his qildingizmi? Suratga diqqat bilan qarang.



Tabiat tomonidan tanlangan ranglar uyg‘unligini kuzating. Rasmda nastarin qanday tasvirlangan? Go‘yo hozir uni xonaga olib kelgandek-a? Bu ajoyib, xushbo‘y nastarin qanday rangda? Qaranglarchi, tabiat uning barglari, novdalarini batafsil tasvirlay olganmi? Tabiatning saxiyligidan zavqlanishi va tabiatga bo‘lgan ulkan muhabbatini his qildingizmi? Tabiatda, aniqrog‘i, nastarinda go‘zallik, hayot ko‘rinmoqda.

2.Doskaga yozilgan quyidagi tayanch so‘zlar: “Saxovat, mo‘l, xushbo‘y, iskamoq, nastarin ifori, nilufar, moviy, pushti yordamida bolalarga “Nastarin” rasmi bo‘yicha nastarin tasvirini so‘z bilan yozing” degan topshirig‘i beriladi.

3.Bolalarni nastarin paydo bo‘lishi haqidagi afsona bilan tanishtirish: bahor quyosh va kamalak nurini aralashtirib, yerga ota boshlabdi. Nur tushgan joylarda turfa rangdagi gullar ochilibdi: oq, qizil, pushti, ko‘k. Bahoroy janubdan shimolga saxiylik bilan nur sochib yuribdi. U shimolga yetganda, faqatgina siyohrang nurlar qolibdi. Ana shulardan nastarin nihollari o‘tib chiqibdi. 400 yil avval uni Venaga keltirishgan. Shu yerdan u butun Yevropaga tarqaladi. Shundan so‘ng bolalarga shu matn bo‘yicha ona tilida mashq bajarish taklif qilinadi [5, Google. www.ziyouz.com kutubxonasi].

Xulosa. Boshlang‘ich sinflarda darslarni integratsiya asosida tashkil etish, o‘quvchilarning bilimlarini yanada chuqurlashtirish, ular orasida fanlararo bog‘lanishlarni o‘rgatish va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Integratsiya asosida o‘tkazilgan darslar o‘quvchilarning ijodiy fikrlashlarini yaxshilashda samarali ekanligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish, ularga muammolarni yechishning turli usullarini o‘rgatishga xizmat qiladi.

Integratsiya asosida tashkil etilgan darslar nafaqat o‘quvchilarning bilimlarini oshiradi, balki ularning umumiy rivojlanishiga ham yordam beradi. Masalan, matematika va tabiatshunoslikni birlashtirish orqali o‘quvchilar dunyoqarashini kengaytiradilar va o‘rgangan bilimlarini amaliyotda qo‘llashni o‘rganadilar va ularning intellektual salohiyatini oshirishga yordam beradi.

Ta‘lim tizimida integratsiya asosida o‘tkazilgan darslar yangi metodologiyalarni tatbiq etish, ta‘lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Integratsiyalashgan yondashuv, nafaqat boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, balki o‘qituvchilar uchun ham rivojlanish imkoniyatlarini yaratadi. Bu esa o‘z navbatida, ta‘lim tizimini zamonaviy ehtiyojlarga moslashtirishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1.Azizxo‘jayeva Naila Nazirovna. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. – T.: “O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamgarmasi” nashriyoti, 2006. B 160.

2. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va jolklor. Darslik. “O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi” nashriyoti, 2006. B.216.

3. Mavlvanova Raxima, Raxmankulova Nargiz. Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. O‘quv qo‘llanma. T.: “Voriz” nashriyoti, 2013. B.240.

4. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi Vazirligi Qashqadaryo viloyati xalq ta‘limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi “Malaka oshirish tizimida integratsiya va innovatsion tafakkur uyg‘unligi masalasi: muammo va yechimlar” Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi (2020-yil, 20-may) materiallari. 64-b.

5.Google. www.ziyouz.com kutubxonasi.

UO‘K 373.01(07) (06)

BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA TEXNOLOGIYA FANINI O‘QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Raxmatova Shodiya Ilhomovna,
Osiyo Xalqaro universiteti magistranti
raxmatovashodiya617@gmail.com.

Mazkur ishda boshlang‘ich ta‘limda texnologiya fanini o‘qitish samaradorligini oshirishning samarali yo‘llari ko‘rib chiqiladi. O‘quv jarayonida innovatsion o‘qitish metodlari va raqamli ta‘lim texnologiyalarining qo‘llanilishi, interaktiv va amaliy usullar orqali ta‘lim samaradorligini yanada yaxshilash imkoniyatlari tahlil etiladi. Darslarni vizualizatsiya qilish, ko‘rgazmali materiallar bilan ishlash va o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish texnologiya fanini o‘qitishda samaradorlikni oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni mustahkamlashda ham ma‘lum ma‘noda xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta‘lim, texnologiya fani, o‘qitish samaradorligi, innovatsion o‘qitish metodlari, interaktiv usullar, ta‘lim texnologiyalari, raqamli ta‘lim resurslari, o‘quvchilarning motivatsiyasi, maqsadga yo‘naltirilgan ta‘lim, amaliy mashg‘ulotlar, darslarni vizualizatsiya qilish, kreativ fikrlash, ko‘rgazmali o‘qitish materiallari, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar, texnologik integratsiya.

НЕКОТОРЫЕ ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ТЕХНОЛОГИЙ ОБУЧЕНИЯ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

В данной работе рассматриваются эффективные способы повышения эффективности использования образовательных технологий в начальном образовании. В ходе исследования будут проанализированы возможности дальнейшего повышения эффективности образования за счет использования инновационных методов обучения и цифровых образовательных технологий, а также интерактивных и практических методов. Визуализация уроков, работа с наглядными материалами и развитие творческого мышления учащихся играют важную роль в повышении эффективности технологий обучения. Также укрепляйте отношения между учителями и учениками.

Ключевые слова: Начальное образование, Технологии, эффективность обучения, инновационные методы обучения, интерактивные методы, образовательные технологии, цифровые образовательные ресурсы, мотивация учащихся, целенаправленное обучение, практические упражнения, визуализация урока, творческое мышление, наглядные учебные материалы, взаимодействие учителя и ученика, технологическая интеграция.

WAYS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF TEACHING TECHNOLOGY IN PRIMARY EDUCATION

This work examines effective ways to improve the effectiveness of teaching technology in primary education. The possibilities of further improving the effectiveness of education through the use of innovative teaching methods and digital educational technologies in the educational process, interactive and practical methods are analyzed. Visualization of lessons, work with visual materials and the development of students' creative thinking play an important role in increasing the effectiveness of teaching technology. It also serves to a certain extent to strengthen the interaction between teachers and students.

Keywords: primary education, technology, teaching effectiveness, innovative teaching methods, interactive methods, educational technologies, digital educational resources, student motivation, goal-oriented education, practical exercises, lesson visualization, creative thinking, visual teaching materials, teacher-student interaction, technological integration.

Boshlang‘ich ta‘limda texnologiya fanini o‘qitish samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning nafaqat bilimini, balki kreativlik, muammolarni hal qilish va texnologiyalarni samarali qo‘llash ko‘nikmalarini ham rivojlantirishga yordam beradi. Bu borada bir nechta yo‘llar mavjud:

1. Interaktiv darslar va o'yinlar: Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun texnologiya fanini qiziqarli va o'rganish uchun samarali qilish maqsadida interaktiv darslarni tashkil etish mumkin. Kompyuter o'yinlari yoki maxsus dasturlar orqali o'quvchilarga o'rganayotgan mavzularni hayotga tatbiq etish imkonini berish ularning qiziqishini oshiradi.

O'yinli faoliyatning motivatsiyasi eng ixtiyoriyligi, tanlash imkoniyati va musobaqa elementlarining borligi, ehtiyojlarni qondirish, o'zini anglash va o'zini safarbar qilish bilan ta'minlanadi. O'yin strukturasiga quyidagi jarayonlar kiradi: • O'yinchilar o'zlariga olgan rollar; • bu rollarni amalga oshirish vositalar sifatidagi o'yinli omillar; • predmetlarning o'yinli qo'llanilishi, ya'ni haqiqiy narsalarni o'yinli shartlari bilan almashtirish; • O'yinchilar orasidagi real munosabatlar; Kompyuter texnologiyalari o'qituvchini mashaqqatli muammolardan ozod qilish bilan birga, uni axborot berishdan o'quvchilar bilan birga ijodiy munozara qilish, birgalikda tadqiqot qilish, o'qitishning yangi shakllariga, bir so'z bilan aytganda ko'proq ijodiy ishga o'tishga imkon beradi. Produktiv o'qitishning maqsadi mutaxassisni ijtimoiy-tarixiy va bunyodkorlik jarayonining subyekti sifatida tayyorlashdir. Mutaxassis uni o'rab turgan muhitga oddiygina singib ketmasdan, balki o'qitish jarayonida olingan turli xildagi ijtimoiy va ishlab chiqarish muammolarini yechish tajribasidan unumli foydalanishi lozim. Produktiv o'qitishning mohiyati o'quv jarayonining mantig'ini o'zgartirishdan iborat. An'anaviy o'qitish jarayoni o'rganuvchi tafakkurining nazariyadan amaliyotga harakatidan iborat. Produktiv o'qitish esa boshqacharoq mantiq bilan quriladi: amaliyotdan – o'rganishga, o'qishga mo'ljallangan.

2. Multimedia vositalaridan foydalanish: Videolar, animatsiyalar, slayd-shoular va diagrammalarni qo'llash texnologiya fanini tushunishni yengillashtiradi. Masalan, texnologiyaning asosiy tushunchalarini vizual materiallar orqali tushuntirish o'quvchilarga mavzuni yaxshiroq anglashga yordam beradi.

Multimedia- kompyuter uchun mo'ljallangan tovush, video va turli animatsiya effektlari jamlanmasidan iborat texnik yoki dasturiy majmua. Tovush, video, animatsiyalarni “multimedia elementlari” - deyish mumkin. Multimedia texnologiyalari axborotning ko'pgina turlarini o'zida integratsiyalaydi. Masalan:

a) skanerdan olingan tasvirlar;

b) yozib olingan ovoz, musiqiy effektlar va musiqa;

d) murakkab videoeffektli videolar

e) turli animatsiyalar Qolaversa, multimedion vositalarga qo'shimcha qilib, proyektor, interaktiv doskani ham kiritish mumkin. Yana shu narsani ta'kidlash joizki, multimedia orqali olingan bilimlar kishi xotirasiga uzoq saqlanib, kerak paytda amaliyotda qo'llash imkonini beradi. Umuman olganda, multimediani qo'llash orqali quyidagi o'qitish effektivligiga erishiladi:

bilimlarni o'zlashtirish majburan emas, balki o'quvchi ixtiyori bilan amalga oshadi;

multimedia o'quvchi tomonidan xursandlik bilan qabul qilinadi, xursandlik esa o'z navbatida uni o'quv faniga munosabatini ijobiy tomonga o'zgartiradi;

o'quvchini boshqalarga nisbatan o'zini namoyon qilish imkoniyati paydo bo'ladi;

o'quvchida o'z faoliyatini baholash uchun yangi obyektiv mezon paydo bo'ladi: kim ko'p bilsa va undan muvaffaqiyatli foydalana olsa, o'sha yutib chiqadi;

o'z fantaziyalariga erk berish imkoniyati tug'iladi, qo'rquv hissi, boshqalarga kulgi bo'lish hissi, yomon baho olishdan qo'rqish hissi chekinadi;

jamoada sog'lom raqobat va musobaqa muhiti tashkil topadi;

o'quvchilar mavjud qiyinchiliklarni mustaqil yengib o'tishga intiladilar;

fanlararo bog'lanishni haqiqiy amalga oshirish imkoniyati tug'iladi.

3. O'quvchilarni amaliy faoliyatga jalb qilish: Texnologiya fanida o'quvchilarga laboratoriya ishlari, loyiha ishlari yoki mashqlarni bajarishga imkon yaratish o'rganish jarayonini samarali qiladi. Bunday faoliyatlar nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlaydi, balki o'quvchilarni amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga undaydi.

4. Onlayn resurslar va ta'lim platformalaridan foydalanish: Onlayn ta'lim platformalari, mobil ilovalar va internetda mavjud bo'lgan resurslar texnologiya fanini o'rganishni yanada interaktiv va qiziqarli qiladi. Bu o'quvchilarga o'z vaqtida mustahkamlash uchun qo'shimcha materiallar taqdim etadi.

5. O'qituvchilarni tayyorlash va zamonaviy metodlarni o'rgatish: O'qituvchilarni texnologiya fanini o'qitish bo'yicha zamonaviy metodikalar va yangi pedagogik texnologiyalar bilan tanishtirish muhimdir. Bu o'qituvchilarga samarali darslar tashkil etish, o'quvchilarning qiziqishini saqlash va ularning faol ishtirokini ta'minlash imkonini beradi.

6. O'quvchilarga ijodiy erkinlik berish: O'quvchilarga texnologiya fanidagi mavzularni o'zlari tanlab, individual yoki guruh bo'lib ishlash imkoniyatini berish ularning ijodkorlik va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

O'quvchilarni texnologiya darslarida texnik ijodkorlikni, qobiliyatini, tafakkurini rivojlantirish, dars jarayonida turli va tabiiy hamda metall va metallmas materiallarga texnologiya asosida ishlov berish usullarini o'rgatish orqali kasb-hunarga yo'naltirishni yanada kuchaytirish, xalq hunarmandchiligi asoslari, ro'zg'orshunoslik, elektrotexnika ishlarini bajarishda kasb-hunarga yo'llash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni egallash hamda ularni hayotda qo'llay olish layoqatini shakllantirish ko'zda tutilgan. O'quvchilarni texnologiya fanini to'liq o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi information pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stendlar hamda ishchi holatdagi mashinalarning ishlab chiqarishdagi namunalari va maketlaridan foydalanilinish, texnologiya faniga oid televizor, radioda berilgan eshittirishlarni ko'rish, o'rganilgan ish usullarini bajarish, jurnal va gazetalarda berilgan ma'lumotlarni o'rganib borish, texnologiya faniga oid atamalarni topishda media vositalardan foydalanib, didaktik topshiriqlarni bajarish axborot manbalaridan (televizor, radio, audio-video yozuv, telefon) foydalana olish; fayllarni ochishda media-madaniyatga rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanganimizda fan bo'yicha o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimotlar namoyish qilganimizda o'quvchilar ko'rish orqali chuqurroq tasavvur va bilimga ega bo'ladilar. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida texnologiya o'quv fanini o'qitishning asosiy maqsadi – o'quvchilarda texnik-texnologik hamda texnologik jarayon davomida bajariladigan operatsiyalar yuzasidan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatida qo'llash, kasb-hunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat. Texnologiya darsining xususiyatli tomonlaridan biri shundaki, o'qitish vazifasi faqat uyg'un birlikdan tashkil topgan ta'limni emas, balki mazkur sinfni, umuman har bir o'quvchining alohida xususiyatlarini nazarda tutuvchi eng yuqori aniqlik ham bo'lishi kerak. Ma'lumki, boshlang'ich sinfda ta'lim oluvchi o'quvchilar yosh xususiyati, idrok etish qobiliyati, xotiralashi, texnologiya sohasida tayyorgarliklari, tengdoshlari bilan munosabati, qiziqishlarining har xilligi, xatti-harakatidagi madaniyat shakllari, tartib-intizomiga ko'ra bir-birlaridan farqlanadilar. Shu bois, har bir dars tuzilishi o'quv materialining maqsadi va mazmuni, o'quv faoliyatining tashkil etilishiga qarab aniqlanadi. Zamonaviy texnologiya darslari mazmuni, o'quv faoliyatini tashkil etish usul va shakllari qanday talablarga javob berishi kerak? Bu borada ta'kidlash joiz, texnologiya darslari mazmuniga qo'yiladigan eng muhim talab - o'quvchilar faolligini oshirish maqsadiga qaratilgan bo'lishi kerak. Talabning bunday qo'yilishi o'quv jarayoni davomida o'quvchilarning bilish imkoniyatlarini rivojlantirish imkonini beradi. Bu o'z navbatida, o'quvchilarda kundalik xatti-harakatning asosi sifatida keng dunyoqarash va axloq asoslarini shakllantirish uchun eng qulay sharoitlarni ta'minlash zarurligidan dalolat beradi. Texnologiya dars mazmunining ilmiy asosda bo'lishi eng muhim talablardan hisoblanadi. Zamonaviy boshlang'ich sinf texnologiya ta'limi boshqa predmetlar ta'limi singari o'quvchilarni nafaqat nazariy ma'lumotlar bilan qurollantirish va bunday bilimlardan faqat hodisalar o'rtasidagi mavjud aloqalarni tushuntirishda doimo foydalanib qolishgina emas, balki texnologiya turlari bo'yicha puxta bilim berib o'quvchilarda texnologiya qilish malakalarini shakllantirib borish xarakterli bo'lib borish kerak. Texnologiya darsi mazmuniga qo'yiladigan muhim talablardan biri - darsning hayot, o'quvchilarning shaxsiy tajribasi, texnologiya bilan chambarchas aloqador bo'lmog'idir. Ilg'or o'qituvchilar o'quvchilarga nazariy materialni o'rgatishda ularning shaxsiy tajribasi va kuzatishlari bilan uzviy bog'lab dars o'tadilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining texnologiya darslarida bajaradigan ishlarining to'g'ri, sifatli va mazmunli bo'lishi ko'p jihatdan ular tomonidan egallangan nazariy bilimlar natijalariga bog'liq.

1. **Praktik tajriba va eksperimentlar:** O'quvchilarga texnologiya fanining turli jihatlarini amaliyotda sinash imkoniyatini berish, masalan, kichik loyihalar yaratish yoki tajriba o'tkazish. O'quvchilarga o'zlari yangi texnologiyalarni ishlab chiqishga yoki mavjudlarni takomillashtirishga imkon berish, bu esa ularning ijodkorlik va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

2. **O'quvchilarning individual qobiliyatlariga moslashish:** Har bir o'quvchining o'rganish usuli va tezligi turlicha bo'lishi mumkin. Shu sababli, o'qituvchilar o'quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olib, o'qitish jarayonini moslashtirishlari lozim. O'quvchilarning qiziqishlari va qobiliyatlari asosida turli xil o'quv materiallari va mashg'ulotlar ishlab chiqish.

3. **Muvaffaqiyatli o'qituvchilarni tayyorlash:** Texnologiya fanini samarali o'qitish uchun o'qituvchilarni doimiy ravishda yangilanishlar, yangi metodologiyalar va texnologiyalar bilan tanishtirish zarur. Ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'rganishga rag'batlantirish. O'qituvchilarni professional rivojlanish dasturlari orqali qo'llab-quvvatlash, ularning texnologiyalarga nisbatan bilimini va malakasini oshirish.

4. O‘quvchilarga ko‘proq mustaqil ishlash imkoniyati berish: O‘quvchilarga texnologiyalarni o‘rganish jarayonida mustaqil ishlash, tadqiqotlar o‘tkazish va yangi texnologiyalarni sinash imkoniyatini berish. O‘quvchilarga muammolarni mustaqil hal qilish, o‘zini o‘zi baholash va o‘rganish jarayonida qo‘llab-quvvatlash.

Yuqoridagi usullar yordamida boshlang‘ich ta’limda texnologiya fanini samarali o‘qitish va o‘quvchilarni zamonaviy bilimlar bilan ta’minlash mumkin.

Adabiyotlar:

1. Xamrakul Sanakulov, Dilfuza Abdiyeva 2-sinf Texnologiya darsligi, Toshkent-2021-yil
 2. Matlab Tilavova “Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi”. Toshkent “Muharrir nashriyoti” 2019-yil
 3. Tilavova M.M. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida gender tenglik va farqlar asosida umummehnat ko‘nikmalarini shakllantirish yo‘llari. T., 2009
 4. Tilavova M.M. “Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi” T., “Standart Poligraf” 2019 yil
 5. Tilavova M.M, Alimova M.A “Texnologiya darslarida xorij tajribasi” Globe edit , 2022 yil 7.
 6. Каххоров С. К., Рахматов И. И., Мухаммедов Ш. М. Особенности построения образовательного процесса на основе модульных технологий обучения в Узбекистане //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 18-2 (96). – С. 33-36.
 7. Мухаммедов Ш., Рахматов И. Технология создания программы дисциплины материаловедение для студентов технологического направления, обучающихся в кредитно-модульной системе //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 2/С. – С. 480-488.
 8. Мухаммедов Ш., Рахматов И. Кредит-модуль тизимида тахсил олаётган технология йўналиши талабалари учун материалшунослик фани дастурини яратиш технологияси //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 2/С. – С. 480-488.
 9. Рахматов И. И., Саидова Р. М. Активизация мышления учащихся при обучении школьному курсу физики //Молодой ученый. – 2017. – №. 4. – С. 382-383.
 10. Raxmatov I. I., Raxmatova S. L. Raqamli ta’lim muhitida pedagoglarni samarali ishlashi uchun kompetensiyalarni shakllantirish //Science and Education. – 2023. – Т. . – №. 10. – С. 381-386.
 11. Abdullayev Sh.K. texnologiya fanini o‘qitishda ilg‘or pedagogik texnologiyalar fanidan amaliy mashg‘ulotlarini bajarish bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanma Namangan-2023.
 12. Pedagogik mahorat. “ Kasbiy pedagogika” yo‘nalishi uchun metodik qo‘llanma / TATU. Kasbiy pedagogika kafedrası. – T.: TATU, 2004
- Axborot-resurs manbalar
1. <http://uz.elkutubhona.narod.uz><http://uz.ref.uz>
 2. <http://pedagog.uz>.
 3. [http:// eduworld.ru](http://eduworld.ru)
 4. www.infocom.uz.
 5. www.dasturchi.uz.
 6. www.ziyounet.uz.
 7. www.etuit.uz.
 8. www.edu.uz.
 9. www.moodle.samtuit.uz

UO‘K-304.5

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARNI IJTIMOIIY KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA TARBIYA FANINING O‘RNI

Xoldarova Irodaxon Valijonovna,

Farg‘ona davlat universiteti filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PHD), dotsent

Xolmatova Gulabzaxon Olimjon qizi,

Farg‘ona davlat universiteti magistranti

Mazkur maqolada kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ijtimoiy ko‘nikmalarini shakllantirishda tarbiya fanining o‘rni tahlil qilinadi. Bolalarning jamiyatga moslashishi, muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish, axloqiy-me‘yoriy tushunchalarni o‘zlashtirish jarayonida tarbiya fani muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, kichik yoshdagi bolalar bilan ishlashda samarali pedagogik yondashuvlar va tarbiyaning ijtimoiy rivojlanishga ta‘siri ko‘rib chiqiladi. O‘quvchilarning kommunikativ malakalari, jamoada ishlash qobiliyatlari va axloqiy qadriyatlarini o‘zlashtirish jarayonida tarbiya fanining roli muhimligi yoritiladi. Ijtimoiy moslashuv, hamkorlik, hurmat va empatiya kabi fazilatlarini rivojlantirish uchun samarali pedagogik yondashuvlar va metodlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: tarbiya fani, ijtimoiy ko‘nikmalar, kichik maktab yoshi, axloqiy tarbiya, kommunikativ malakalar, jamoada ishlash, empatiya, pedagogik yondashuvlar, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar, ijtimoiy kompetensiya, mantiqan fikrlash, ijtimoiy fazilat, mas‘uliyat, axloqiy ko‘nikma, jamoaviy ishlash.

РОЛЬ ПЕДАГОГИКИ В РАЗВИТИ СОЦИАЛЬНЫХ НАВИКОВ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

В данной статье анализируется роль образования в формировании социальных навыков учащихся младшего школьного возраста. В процессе адаптации детей к обществу, развития коммуникативных навыков, усвоения нравственных и нормативных представлений большое значение имеет наука о воспитании. Также будут рассмотрены эффективные педагогические подходы в работе с детьми раннего возраста и влияние образования на социальное развитие.

Ключевые слова: Педагогическая наука, ранний школьный возраст, нравственное воспитание, коммуникативные навыки, работа в команде, эмпатия, педагогические подходы, учащиеся младшего школьного возраста, социальные навыки, социальная компетентность, логическое мышление, социальная добродетель, ответственность, моральные качества, работа в команде.

THE ROLE OF EDUCATION IN DEVELOPING SOCIAL SKILLS IN ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS

This article analyzes the role of education in the formation of social skills of primary school students. Education plays an important role in the process of children's adaptation to society, the development of communication skills, and the assimilation of moral and normative concepts. It also examines effective pedagogical approaches in working with young children and the impact of education on social development. It highlights the importance of the role of education in the process of students' communicative skills, teamwork skills, and the assimilation of moral values. It discusses effective pedagogical approaches and methods for developing qualities such as social adaptation, cooperation, respect, and empathy.

Keywords: education, social skills, primary school age, moral education, communicative skills, teamwork, empathy, pedagogical approaches, students of junior school age, social skills, social competence, logical thinking, social virtue, responsibility, moral skills, teamwork.

Kirish. Tarbiya-pedagogika, ya‘ni bola tarbiyasining fani demakdir. Bolaning salomat va saodati uchun yaxshi tarbiya, tanni pok tutmoq, yosh vaqtida maslakni tuzatmoq, yaxshi xulqlarni o‘rgatmoq tabiblardek kabidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilg‘oni kabi tarbiyachi bolaning vujudidagi jahl markaziga “yaxshi xulq” degan davoni ichidan, “poklik” degan davoni ustidan berib katta qilmog‘i lozimdir. Tarbiya — shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma‘naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta‘minlash yo‘lida ko‘riladigan chora tadbirlar yig‘indisi. Tarbiya insonning insonligini

ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar Tarbiya tufayliga bir avloddan boshqasiga o'tadi. Pedagogik adabiyotlarda "Tarbiya" atamasi keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. Keng ma'noda tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig'indisini anglatadi.

Ta'lim va tarbiyaning poydevori ham boshlang'ich ta'limdan boshlanadi. Chunki yuqori sinf o'quvchilaridan ko'ra boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'rganishga bo'lgan qiziqish yuqori bo'ladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy kompetensiya(kirishimlilik) sust bo'ladi va buni shakllantirmaslik esa yuqori sinf davrida o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shuning uchun ham o'quvchining ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish kerak. Ijtimoiy ko'nikmalar - bu ijtimoiy xulq-atvorning o'zlashtirilgan elementlari bo'lib, ular ijtimoiy olam, o'zi va bu yorug' olamdagi o'rni, ijtimoiy o'zaro aloqalarni osonlashtiradigan xatti-harakatlar haqidagi bilimlarga hamda insonga atrof-muhit bilan munosabatlarni samarali ravishda ravishda o'rnatish, o'z o'rnini belgilab olish va o'zligini namoyon qilishga imkon beradigan harakatlarga asoslanadi hamda bu muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuv va umuman olganda, ijtimoiylashishga yordam beradi. Ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda esa Tarbiya fanining o'rni beqiyos deb o'ylayman. Tarbiya fani o'quvchilarda bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirish orqali ularni muvaffaqiyatli hayotga tayyorlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-son "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi 422-son "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi.[1]"Tarbiya" darsligi "Odobnoma", "Vatan tuyg'usi", "Milliy istiqloq g'oyasi va ma'naviyat asoslari" hamda "Dunyo dinlari tarixi" fanlarini birlashtirdi. "Tarbiya" fani 1-9-sinflarda 2020/2021-o'quv yilidan, 10-11-sinflarda esa — 2021/2022-o'quv yilidan boshlab fanlarga ajratilgan umumiy soatlar doirasida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etildi. Tarbiya fanining maqsadi darslik orqali o'quvchida bilim berishdan tashqari hayotiy ko'nikma shakllantiriladi va bosqichma-bosqich bolada maqsad qo'yish va unga intilish ko'nikmasini shakllantirib boradi.

Adabiyotlar tahlili. Boshlang'ich sinf darsliklarida bolaning ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan bir qancha fanlar mavjud. Har bir fan o'zaro uzviylikda bo'lib, ularni bola tarbiyasiga qaratilgan ijtimoiylik hodisasi birlashtirib turadi.

1-sinf Tarbiya darsligida 2-bo'lim "Men va do'stlarim" bo'limi bor. Bu bo'limda 10-11-darslar "So'zlashish odobi" haqida va o'quvchilarga so'zlashish odobi darsida "Assalomu alaykum", "Rahmat" kabi so'zlar sehrli so'zlar ekanligi o'quvchilarda suhbatlashish odobini o'rgatishda kerakli so'zlar chiroyli tasvirlab berilgan, shu asosida topshiriqlar ham berilgan. 12-13-darslar esa "O'zaro yordam" deb nomlanadi.[4] Bu darsda o'quvchilarga odamlarning biron ishda bir biriga ko'mak berishi o'zaro yordam deb atalishi, birlashib bajarilgan ishlar hamisha oson bo'lishi haqida ma'lumotlar rasmlar yordamida ifodalangan. Bu mavzuga doir kichik hikoyalar ham berilgan. 14-15-darslar "Minnatdorlik" haqida Minnatdorlik yaxshilikni bilish ekanligi, insonlarga berilgan ne'matlar, qilingan yaxshiliklar uchun minnatdor bo'lish lozimligi haqida fikr yutiladi. Darsda kichik vaziyatlar berib o'tilgan bu o'quvchilarni mantiqan fikrlashga, vaziyatni o'rganib tahlil qilishga o'rgatadi. 1-sinf o'quvchilari maktab hayotiga endigina qadam qo'ygani sababli, ularning ijtimoiylashuvi tabiiy ravishda o'z tengdoshlari, o'quvchilar va atrof-muhit bilan bog'liq yangi tajribalarni o'z ichiga oladi. Shu bois, bu yoshdagi bolalar uchun interfaol metodlardan foydalanish muhimdir. Bu metodlar ularga muloqot qilish, jamoada ishlash, o'z fikrini ifodalash, tartib va qoidalarga rioya qilish kabi muhim ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Bolalar tabiatan o'yin orqali o'rganishga moyil bo'lishgani uchun ijtimoiylashuv jarayonida o'yinlar muhim rol o'ynaydi.

"Isming nima?" o'yini – Bolalar doira shaklida o'tirib, navbatma-navbat o'z ismini aytadi va unga mos bir harakat yoki imo-ishora qo'shadi. Qolgan bolalar esa bu harakatni takrorlaydi. Bu o'yin bolalarni bir-birini tanishga va o'zlarini tanishtirishga o'rgatadi.

2-sinf tarbiya darsligida: II bob "Oiladagi munosabatlar" deb nomlanadi. Farzand oilada kamol topar ekan, u oila a'zolarining o'zaro munosabatlaridan doimo ibrat oladi.[5] Shular zaminida u boshqa kishilarning xulq-atvori, xatti-harakatlarini o'rganib, farqlay boshlaydi va ular bilan munosabatga kirishishi, muloqotda bo'lishining usul va shakllarini o'rganib boradi. Aynan oila bag'rida bola boshlang'ich ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantiradi. Keyingi boblarda: do'stlarga g'amxo'rlik qilish, kichiklarga yordam berish, kattalarni hurmat qilish, kiyinish madaniyatiga rioya qilish, xushmuomala bo'lish, kech qolmaslik, darsga tayyor holatda kelish, darsda tartibli bo'lish, o'ng qo'l qoidasiga amal qilish, xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, oshxonada tartibga rioya qilish kabi ko'nikmalar bilan shakllantiriladi. So'nggi bob "Hamjihatlik-

davlat, ahillik-hikmat” deb nomlanadi, bu bobda “Birlashgan o‘zar”, “Do‘stlik – oliy fazilat” kabi bir qancha mavzular o‘rin olgan. Bu mavzularda o‘quvchilarning birgalikda harakat qilishi, o‘zaro bir ahil oila bo‘lgan holatda munosabatda bo‘lishi ta’kidlanadi. Jumladan, o‘quvchi bolalar bilan muomala qilish, ular bilan do‘stlashish, do‘stlikning asl mohiyati (bolalar dunyoqarashidan kelib chiqqan holda)ni anglab borishadi.

Bolaning yoshidan kelib chiqqan holda, bosqichma-bosqich (soddadan murakkabga qarab) ijtimoiy ko‘nikmalar shakllantirilib boriladi va bolalar bir yoshga ulg‘ayib, 3-sinf bo‘lishganda birmuncha murakkabroq ijtimoiy ko‘nikmalarini egallashga kirishishadi. Endi ular kun tartibiga rioya qilish, tartibli bo‘lish, salomatlikni asrash, tejamkor bo‘lish, rostgo‘y bo‘lish, berilgan topshiriqlarga mas’uliyat bilan yondashish, bilimni oshirib borish, bag‘rikeng bo‘lish, jamoat joylarida tartibga rioya qilish kabi qat’iy qoidalarga rioya qilish talab etiladi.[6] Darslikning ikkinchi-uchinchi mavzulari “Muvaffaqiyat – qat’iyat va mehnat natijasi” deb nomlangan aynan shu mavzuda o‘quvchilarni birgalikda ishlashga undaydigan toshiriqlar mavjud. Diqqatni tortadigan toshiriq shu bo‘ldiki:

1. Sinfdoshlaringiz bilan kelishib 6 ta oq qog‘ozga o‘quvchilar soniga teng katakchalar chizing va katakchalarning har biriga 1000 so‘m deb yozib chiqing. Katakchalarni qaychida kesib oling, har bir sinfdoshingizga 5 tadan tarqating.

2. Sinfingiz bankini tashkil qiling va qolgan pullarni bankka qo‘ying.

3. Sinfdoshlaringiz bilan yarmarka tashkil qiling. Biror mahsulotga pulingiz yetmasa, bank bilan shartnoma tuzing.

Bunday topshiriq o‘quvchilarni birgalikda faoliyat yuritishga, bu orqali o‘zaro ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘l ochadi. Topshiriq orqali o‘quvchilar bir-birlari bilan yaqin muloqotda bo‘ladi, shu bilan birga hisob-kitob sohasida, o‘zini rivojlantirishga yordam beradi deb o‘ylayman. Jamoaga qo‘shilishga imkon beradi. Bu orqali ijtimoiy ko‘nikmalarini yanada rivojlantiradi.

4-sinfda esa, endi qonunlar bilan ham boshlang‘ich ma’lumotlar beriladi. Darslikning 20-mavzusida “Muvaffaqiyat-bir jamoaga aylanishda” nomli mavzusi berib o‘tilgan.[7] Mavzu orqali o‘quvchilarga jamoa tushunchasi haqida ma’lumot berilgan. O‘quvchilarni har qanday ishda jamoa bo‘lib ishlashga undaydi. Ularga amal qilish, tartib qoidasi qanday bo‘lishi kerakligi haqidagi dastlabki ma’lumotlar bilan tanishib chiqadi. Hallolik nima ekanligi, halol insonning rizq-barakasini, vatanning asrash kabi ulug‘ burchga mas’uliyat bilan yondashish zarurligi, milliy qadriyatlarga hurmat kabi ko‘nikmalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiy hayotga moslashtiradi. Bu kabi elementlarning o‘qitilishi, bola ongiga singdirilishi, albatta, pedagogning mahoratiga bog‘liq jarayon hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Shunday qilib boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tarbiya darsi:

❖ 1-sinfda o‘quvchi dastlab orzularini aniqlay olishni o‘rgatilsa,

❖ 2-sinfda o‘z oldiga maqsad qo‘ya olish ko‘nikmasi shakllantiriladi.

❖ 3-sinfda o‘quvchida dasturni o‘zlashtirish natijasida maqsad va orzu-umidlarini amalga oshirishga harakat qilish ko‘nikmasi paydo bo‘ladi.

❖ 4-sinfda atrofda bo‘layotgan voqea-hodisalarga sog‘lom munosabat bildiradi, shaxs sifatida o‘zini anglaydi va o‘z xatti-harakatlarini tahlil qiladi.[3]

Tarbiya fani o‘quvchilarga quyidagi asosiy ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi:

1. O‘zaro munosabatlarni o‘rnatish – O‘quvchilarni bir-biri bilan yaxshi munosabatlar o‘rnatish, birgalikda ishlash va yordam so‘rash kabi ko‘nikmalarga o‘rgatadi. Bu orqali ular jamoaviy ishga moslashib, o‘z fikrlarini ifoda etish, muammolarni birgalikda hal qilishni o‘rganadilar.

2. Emotsional intellekt – Tarbiya fanida o‘quvchilarga o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, ularni ifodalash va boshqalar bilan empatiya o‘rnatish o‘rgatiladi. Bu esa ularning stressga chidamliligini oshiradi va jamoada muvaffaqiyatli ishlashga yordam beradi.

3. Axloqiy qadriyatlar – O‘quvchilarni axloqiy, etika va jamiyat me’yorlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishga o‘rgatadi. Bu ko‘nikmalar orqali ular jamiyatda hurmatli va mas’uliyatli fuqaro bo‘lib shakllanadi.

4. Maqsadga erishish va javobgarlik – Tarbiya fani o‘quvchilarga o‘z maqsadlariga erishish yo‘lida mas’uliyatli bo‘lishni, o‘z ishlariga javobgarlikni his qilishni o‘rgatadi. Ular bu orqali o‘zgarishlarga ochiq, mustaqil fikrlovchi va doim o‘zini rivojlantiruvchi shaxsga aylanadilar.

Tahlil va natijalar. Tarbiya fani o‘quvchilarda ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda bir nechta muhim usullarni qo‘llaydi. Ularning har biri ijtimoiy fazilatlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi:

1. Tajribali o‘qituvchining o‘rni – O‘qituvchi o‘zining shaxsiy misoli orqali o‘quvchilarga ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘rgatadi. O‘qituvchi o‘zining ijtimoiy faoliyati, etik qoidalariga rioya qilish va boshqalar bilan yaxshi munosabatda bo‘lish orqali o‘quvchilarga o‘rnak bo‘ladi.

2. Guruhlar va jamoaviy ishlar – Tarbiya fanida o‘quvchilarni guruhlar va jamoaviy faoliyatlarga jalb qilish orqali ular o‘zaro hamkorlikda ishlashni, guruhdagi rollarni baham ko‘rishni o‘rganadilar. Bu jarayon ijtimoiy o‘zaro munosabatlarni o‘rnatishda juda muhimdir.

3. Inson huquqlari va tenglik – O‘quvchilarga barcha insonlar teng va hurmatga loyiq ekanligi tushuntiriladi. Bu ularning jamiyatda o‘zaro hurmatga asoslangan munosabatlar o‘rnatishiga yordam beradi.

Bundan tashqari bola ijtimoiylashuvi u yoki bu jamiyat ijtimoiy qatlamlariga xos bo‘lgan universal vositalar orqali amalga oshiriladi, ularga: maishiy va gigiyenik yurish-turish qoidalari, insonni o‘rab turuvchi moddiy madaniyat mahsulotlari, ma‘naviy madaniyat unsurlari(alladan boshlab ertaklargacha), muomala usuli va mazmuni, shuningdek oilada jazolash va mukofotlash uslublari, insonning hayotiy faoliyatidagi ko‘p sonli munosabatlari muloqot, o‘yinlar, ma‘naviy-amaliy faoliyat, sport bilan shug‘ullanish kiradi. Shuning uchun ham biz yuqorida barcha fanlar uzviy bog‘liqlikni tashkil qiladi va bola ijtimoiylashuvida asosiy obyekt bo‘lib hisoblanishini ta’kidlab o‘tgan edik.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda tarbiya fanining ahamiyati juda katta.

Tarbiya fani kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. O‘quvchilarni ijtimoiy, axloqiy va emotsional jihatdan to‘laqonli shaxslar sifatida tarbiyalashda Tarbiya fanining roli juda katta. Bu fan o‘quvchilarga o‘zaro hurmat, mas’uliyat, mehnatni qadrlash va jamiyatga foyda keltirish kabi ijtimoiy fazilatlarini o‘rgatadi, ular esa jamiyatda muvaffaqiyatli va baxtli hayot kechirishlariga yordam beradi. Tarbiya fani o‘quvchilarning ijtimoiy va axloqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Ushbu fan, o‘quvchilarga jamiyatda muvaffaqiyatli ishlash uchun zarur bo‘lgan asosiy qadriyatlar, me‘yorlar va malakalarni o‘rgatadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-sonli "Uzliksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari haqida"gi Qarori
2. Axmedov A.A. Ijtimoiy pedagogika/ [matn]: O‘quv qo‘llanma / amin axmedov - buxoro : “buxoro determinanti” MCHJning Kamolot nashriyoti, 2023. - 244 b
3. Golovanova N.F., Boshlang‘ich sinf o‘quvchisini ijtimoiylashtirish pedagogik muammo sifatida. - SPb.: Maxsus adabiyotlar, 1997. S. 17
4. O.V.Usmanova, Y.Vriskyukova 1-sinf uchun darslik-Tarbiya.Toshkent-2023
5. N.Ismatova Tarbiya:2-sinf uchun darslik.G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijod uyi,2020.- 80 b.
6. Tarbiya 3 Baxt va muvaffaqiyat sirlari.Toshkent “Sano-Standart”2020.
7. Tarbiya 4 baxt va muvaffaqiyat sirlari.Toshkent “O‘zbekiston”2020.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI O'QUV-TARBIYA JARAYONINI KREATIV YONDASHUV ASOSIDA BOSHQARISH MEXANIZMLARI

Xudayberganov Shuhrat Shavkat o'g'li,

Urganch davlat pedagogika instituti

“Maktabgacha ta'lim va tabiiy fanlar” kafedrası dotsenti,

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

sh.xudayberganov.urdu@mail.ru

Matrizayeva Bonu Saburjon qizi,

Urganch davlat pedagogika instituti, Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta'lim)

mutaxassisligi 2-bosqich magistranti.

Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kreativ boshqaruvning bolalar ijodiy salohiyatini rivojlantirish va ijodiy muhit orqali ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'quv-tarbiya jarayonini ijodkorlikka asoslangan holda olib borish hamda ijodiy muhit yaratishda samarali natija beradigan zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlar tahlil qilinadi. Shu bilan birga, kreativ yondashuv asosida boshqaruvni takomillashtirish bo'yicha amaliyotga joriy etish mexanizmlari ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: boshqaruv tizimi, ijodiy rivojlanish, ijodiy muhit, pedagogik texnologiya, interfaol metod, ijodiy yondashuv.

МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ УЧЕБНО-ВОСПИТАТЕЛЬНЫМ ПРОЦЕССОМ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ НА ОСНОВЕ КРЕАТИВНОГО ПОДХОДА

В данной статье рассматривается значение креативного управления в дошкольных образовательных учреждениях для развития творческого потенциала детей и повышения эффективности обучения через создание творческой среды. Кроме того, анализируются современные педагогические технологии и инновационные методы, обеспечивающие успешные результаты в организации учебно-воспитательного процесса на основе креативного подхода. Также представлены механизмы внедрения управления на основе креативного подхода в практику.

Ключевые слова: система управления, творческое развитие, творческая среда, педагогическая технология, интерактивный метод, креативный подход.

MECHANISMS FOR MANAGING THE EDUCATIONAL AND UPBRINGING PROCESS IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS BASED ON A CREATIVE APPROACH

This article highlights the importance of creative management in preschool education institutions for developing children's creative potential and enhancing learning effectiveness through a creative environment. Additionally, it analyzes modern pedagogical technologies and innovative methods that yield effective results in organizing the educational process based on creativity. Furthermore, mechanisms for implementing and improving management through a creative approach are presented.

Keywords: management system, creative development, creative environment, pedagogical technology, interactive method, creative approach.

Kirish. Maktabgacha ta'lim tizimi jamiyatning ta'lim-tarbiya poydevorini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu bosqichda bolalarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish va ularni kelajakdagi o'qishga tayyorlash birinchi darajali vazifalar qatoriga kiradi. Zamonaviy ta'lim muhitida innovatsion va kreativ yondashuvlar ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishda katta rol o'ynaydi. Shu sababli, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kreativ boshqaruv mexanizmlarini qo'llash dolzarb vazifalardan biri sifatida ko'rilmogda.

Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”-asarlarida farzandlarimizni mustaqil fikrlashga qodir, zamonaviy bilim va kasblarga ega, qat'iy hayotiy pozitsiyaga ega hamda yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi juda muhim ekanini ta'kidlaydilar. Shuningdek, 2022-yil 15-noyabr kuni Toshkent shahrida yosh bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish bo'yicha o'tkazilgan xalqaro anjumanda ham davlatimiz rahbari Uchinchi Renessansni barpo

etish vazifasini strategik maqsad sifatida belgilab, uni milliy g'oya darajasiga ko'tarish harakatlari davom etayotganini bildirdi. Maktabgacha va maktab ta'limi, oliy ta'lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalar bo'lajak uyg'onishning o'zaro bog'langan to'rt halqasi sifatida e'tirof etilib, bog'cha tarbiyachilari, maktab o'qituvchilari, professor-o'qituvchilar va ijodiy ziyolilar yangi uyg'onish davrining tayanch ustunlari sifatida e'tirof etildi. Ushbu maqsadlar – dunyoning innovatsion taraqqiyoti bilan hamnafas bo'lib, har tomonlama yetuk avlodni tarbiyalash, ta'lim jarayonida pedagoglardan zamonaviy yondashuvlarni faol qo'llashni talab qiladi. Globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi ta'lim tizimi oldiga yangi boshqaruv strategiyalari va interaktiv yondashuvlar bo'yicha muhim talablarni qo'yimoqda. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta'lim tashkilotlari zamonaviy talablarga mos ravishda bolalarning ijodkorlik salohiyatini qo'llab-quvvatlash, faoliyatga innovatsion usullarni qo'llash hamda boshqaruv samaradorligini oshirish vazifasini yanada kengaytirishlari zarur. Mazkur jarayonda kreativ yondashuv asosida boshqaruv mexanizmlarini tadqiq etish, ularning nazariy bazasini yaratish va amalda sinab ko'rish dolzarb pedagogik muammolarni innovatsion yechimlar bilan hal qilishda muhim o'rin tutadi. Bundan tashqari, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kreativ boshqaruvni joriy etish nafaqat pedagogik jarayon sifatini yaxshilash, balki yangi professional kompetensiyalarni shakllantirish, rahbarlar va pedagoglar orasida innovatsion fikrlashni rivojlantirish orqali butun ta'lim tizimi samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Ta'lim jarayoniga kreativ yondashuv maktabgacha ta'lim dasturlarida dolzarb mavzu bo'lsa-da, bu har doim ham bolalarning kundalik hayotida to'liq namoyon bo'lavermaydi. Aksariyat hollarda ijodkorlik passiv shaklda bo'lib, nazariy tushuncha sifatida qoladi va hayotiy amaliyotga tatbiq etilmaydi.

Shuning uchun ta'limda bolalarning intellektual imkoniyatlari, ijodiy fikrlash qobiliyati va umumiy rivojlanishiga alohida e'tibor qaratish zarur. Ayniqsa, hayot davomida o'rganishning dastlabki bosqichlarida san'at, raqs, musiqa va qo'shiq kabi faoliyatlar bolalarning ijodiy rivojlanishi uchun muhim vositalardir. Bunday mashg'ulotlar bolalarga bir-birining ijodiy g'oyalariga javob berish va cheksiz ijodiy imkoniyatlarni o'rganish imkonini beradi.

Ijodiy rivojlanish bo'yicha tadqiqotlar hali ko'p o'rganilmagan. Bundan tashqari, bolalik davrida ijodiy fikrlash va ijodkorlikning rivojlanishi ba'zan e'tiborsiz qoldirilgan. Feldman ham shu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar kam ekanligini ta'kidlagan: “O'qishni o'rganish kabi mavzular bilan solishtirganda, ijodkorlik bo'yicha tadqiqotlar juda kam olib borilgan”.

Material va metodlar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqaruvni rivojlantirishda kuzatish, anketa, so'rovnoma, test sinovlari kabi tadqiqot usullaridan foydalanish samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, pedagogik jarayonni boshqarishda zamonaviy yondashuvlarni joriy etish uchun “4K” modeli, STEAM texnologiyasi, interfaol va innovatsion metodikalar, o'yinli ta'lim metodikasi, san'at va ijodiyot asosidagi metodikalar hamda texnologik yondashuv metodikalari qo'llanishi maqsadga muvofiqdir. Natijada, kreativ boshqaruv mexanizmlarini joriy etish orqali maktabgacha ta'lim jarayonining sifatini oshirish, pedagogik samaradorlikni yaxshilash va bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin.

“4K” modeli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kreativ yondashuv asosida o'quv-tarbiya jarayonini boshqarishda samarali usul hisoblanadi. Ushbu metodika bolalarning ijodiy fikrlashi, muammolarni hal qilish qobiliyati, muloqot va jamoaviy ish ko'nikmalarini rivojlantirish orqali ularning intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagoglarning shaxsiy va intellektual rivojlanishini ta'minlash uchun an'anaviy yondashuvlardan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalar ham qo'llanilmoqda. Shulardan biri-“4K” modeli bo'lib, u XXI asr ko'nikmalari tamoyillariga asoslangan. Ushbu model bolalarning kreativlik, tanqidiy tafakkur, kommunikatsiya va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Bundan tashqari, kreativ boshqaruvning ta'lim jarayoniga ta'sirini baholash uchun eksperimental tadqiqotlar o'tkazish va statistik tahlillarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada, kreativ boshqaruv mexanizmlarini joriy etish orqali maktabgacha ta'lim jarayonining sifatini oshirish, pedagogik samaradorlikni yaxshilash va bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'quv-tarbiya jarayonining holatini baholash va uni takomillashtirish uchun turli metodikalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi holatni o'rganish metodikalari orasida kuzatish, so'rov va intervyu, diagnostik testlar, portfoliolarni tahlil qilish hamda eksperiment metodlari keng qo'llaniladi. Kuzatish metodi orqali Maktabgacha ta'lim tashkiloti muhitining qanchalik kreativlikka asoslangani, boshqaruv holati, bolalarning mashg'ulotdagi faolligi, o'zaro munosabatlari va o'qitish jarayoniga bo'lgan munosabatini bevosita kuzatish mumkin. Bu metod bolalarning tabiiy xatti-harakatlarini tahlil qilish va real vaqt rejimida aniq ma'lumot to'plash imkonini beradi. So'rov va intervyu metodlari esa tarbiyachilar, ota-onalar va bolalar bilan suhbat o'tkazish orqali mavjud muammolarni aniqlashga yordam beradi. Ushbu metod ta'lim jarayonining turli ishtirokchilari nuqtai nazaridan baholash va

tarbiyalanuvchilarning qiziqish hamda ehtiyojlarini aniqlash imkoniyatini yaratadi. Diagnostik testlar bolalarning kognitiv, ijtimoiy va psixologik rivojlanish darajasini baholash uchun qo'llaniladi. Bu metod bolalarning individual xususiyatlarini aniqlash va o'quv-tarbiya jarayonini shaxsiy yondashuv asosida rejalashtirish imkonini beradi. Portfoliolarni tahlil qilish orqali bolalarning ijodiy ishlari, rasm va yozuvlari asosida ularning rivojlanishini baholash mumkin. Bu usul bolalarning yutuqlari va kamchiliklarini tizimli tahlil qilish hamda dinamik o'zgarishlarni kuzatish imkonini beradi. Eksperiment metodi esa o'quv jarayonida yangi metodlarni sinovdan o'tkazish va ularning samaradorligini baholash uchun qo'llaniladi. Bu usul ta'lim jarayonining innovatsion rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagog va tarbiyachilar ijodkorlik qobiliyatlarini psixodiagnostika qilish uchun turli usullar mavjud. Ular orasida eng mashhurlaridan biri-Torrans testi. E. Torrans tomonidan ishlab chiqilgan 12 ta test ijodiy tafakkurni baholashga mo'ljallangan bo'lib, uch asosiy turga bo'linadi: og'zaki (verbal), tasviriy (figural) va ovozi (audial). Testning neverbal (figural) qismi "Torransning ijodiy tafakkurini baholash bo'yicha figurativ shakli" (Figural Forms) nomi bilan mashhur bo'lib, 1990-yilda APNning Umumiy va pedagogik psixologiya ilmiy-tadqiqot institutida moslashtirilgan.

Torrans testi uchta asosiy topshiriqdan iborat:

1. Chiziqlar va shakllarni to'ldirish-ishtirokchilarga oddiy chiziqlar yoki geometrik shakllar beriladi va ulardan yangi, kreativ tasvir yaratish talab etiladi.

2. Rasmlarni yakunlash-chala yoki boshlang'ich shakllardan foydalangan holda butun kompozitsiyani yakunlash.

3. Noan'anaviy tasvir yaratish-turli elementlarni bog'lab, g'ayrioddiy hamda kreativ tasvir yaratish.

Baholash mezonlari:

- Originallik-g'oyaning noodatiy va yangiligi;
- Moslashuvchanlik-turli holatlarga tez moslashish qobiliyati;
- Muammoli tafakkur-berilgan shakl va elementlardan yangi mazmun yaratish;
- Tafsilotlarga e'tibor-chizilgan tasvirlar detallarining aniqligi va mukammalligi.

Shuningdek, kreativ fikrlashni rivojlantirishda G.S.Altshuller tomonidan ishlab chiqilgan TRIZ (Tadqiqot Masalalarini Yechish Nazariyasi) metodikasi muhim ahamiyat kasb etadi. TRIZ texnik tizimlarning rivojlanish mexanizmini o'rganish va muammolarni hal etishga yo'naltirilgan usul bo'lib, uning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

- Muammolarni tizimli hal qilish;
- Texnik tizimlarning rivojlanish yo'nalishini oldindan bashorat qilish;
- Ijodiy tafakkur va muammolarni yechishda innovatsion yondashuvlarni qo'llash;
- Optimal natijalarga erishish uchun ijodiy jamoa bilan ishlash.

Ye.A.Fedorova TRIZ metodikasini pedagogik sohaga tatbiq etib, uning qonuniyatlariga asoslangan holda ijodiy masalalarni hal qilish metodikasi sifatida qo'llagan. TRIZ metodikasi orqali maktabgacha ta'lim jarayonida innovatsion va kreativ yondashuvlarni rivojlantirish mumkin.

Shuningdek, "G'oyalar daraxti" metodi muammolarni chuqur tahlil qilish va ijodiy yechim topish uchun samarali usul hisoblanadi. Guruhlar ushbu metoddan foydalanganda quyidagicha ishlashi mumkin:

1. Ildiz – Muammoning kelib chiqish sabablari yoki tarixi aniqlanadi. Bu bosqichda guruh muammoning negiziga tushuncha berib, uni yuzaga keltirgan omillarni muhokama qiladi.

2. Tana – Muammoning hozirgi holati, mazmuni va mohiyati tahlil qilinadi. Bu yerda muammoning asosiy jihatlarini yoritiladi va nima uchun muhim ekani tushuntiriladi.

3. Shoxlar – Muammoning turli tarmoqlari, oqibatlari va ta'sir doirasi aniqlanadi. Bu bosqichda muammoning turli sohalarga qanday ta'sir qilishiga e'tibor qaratiladi.

4. Meva – Yangi g'oyalar, yechimlar va natijalar taklif etiladi. Ushbu bosqichda ijodiy va innovatsion yondashuvlar ishlab chiqiladi va eng samarali variantlar tanlanadi.

Bu usul, ayniqsa, muammolarni tizimli o'rganish va ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun foydalidir.

Umuman olganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kreativ boshqaruv mexanizmlarini joriy etish orqali ta'lim sifati oshirilishi, pedagogik jarayon samaradorligi yaxshilanishi va bolalar ijodiy qobiliyatlari rivojlanishi mumkin. Shu bois, turli tadqiqot metodlaridan foydalanish, innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish va kreativ fikrlashni rag'batlantirish maktabgacha ta'limni yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Natijalar va ularning tahlili. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kreativ boshqaruv mexanizmlarini joriy etish ta'lim sifatini oshirish, pedagogik jarayon samaradorligini yaxshilash va bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta'lim sharoitida pedagoglarning kreativ yondashuvlarga ega bo'lishi bolalar bilan ishlash jarayonini yanada samarali tashkil etishga yordam beradi. Tadqiqot davomida o'tkazilgan so'rovnomalar va

kuzatuv natijalari pedagoglarning kreativ boshqaruvga bo‘lgan qiziqishi yuqori ekanini, ammo amaliyotda ushbu yondashuvlarning yetarli darajada qo‘llanilmayotganini ko‘rsatdi.

Zamonaviy ta‘lim talablariga javob beradigan maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida o‘quv-tarbiya jarayonini kreativ asosda tashkil qilishni quyidagi bosqichlar asosida amalga oshirish mumkin:

1. Hozirgi holatni tahlil qilish

Bu bosqichda mavjud ta‘lim muhiti, pedagoglar va tarbiyachilarning kreativlik darajasi baholanadi, muammolar aniqlanadi. Natijada, mavjud tizimning kuchli va zaif tomonlari aniqlanib, takomillashtirish yo‘nalishlari belgilanadi.

2. Pedagog-tarbiyachilarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirish

Pedagoglarning ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun treninglar, seminarlar va mahorat darslari tashkil etiladi. O‘qituvchilar innovatsion metodlarni o‘zlashtirib, ta‘lim jarayonida samarali tatbiq etadi.

3. Kreativ ta‘lim muhitini yaratish

Bolalar uchun ijodiy va interfaol ta‘lim muhiti shakllantiriladi. O‘quv xonalari kreativ dizaynda tashkil qilinib, ta‘lim jarayonida innovatsion metodlardan foydalaniladi. Bu bolalarning qiziqishi va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

4. Ota-onalar bilan hamkorlikda kreativ yondashuvni rivojlantirish

Ota-onalar ta‘lim jarayoniga jalb qilinib, bolalar bilan uyda ham ijodiy mashg‘ulotlar tashkil etishi uchun yo‘riqnomalar beriladi. Bu ta‘lim muhitining uzluksizligini ta‘minlab, bolaning rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

5. Ta‘lim samaradorligini baholash va monitoring qilish

Pedagoglarning kreativ kompetensiyasi va innovatsion metodlarni qo‘llash darajasi doimiy ravishda baholanadi. Ilg‘or pedagoglar rag‘batlantirilib, o‘zgarishlar kiritiladi.

Kreativ boshqaruvning joriy etilishi natijasida bolalarning ijodiy tafakkuri rivojlanib, mustaqil qaror qabul qila oladigan shaxs bo‘lib shakllanishiga zamin yaratiladi. Pedagoglar zamonaviy ta‘lim usullarini puxta o‘zlashtirib, innovatsion metodlarni samarali qo‘llay oladi. Ota-onalar esa farzandlari ta‘lim jarayonida faol ishtirok etib, ularning ijodiy rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Natijada maktabgacha ta‘lim tashkilotlari kreativ boshqaruv asosida samarali faoliyat yuritadi. Ushbu strategiya bolalar, pedagoglar va ota-onalarni kreativ ta‘lim jarayoniga jalb qilish, innovatsion metodlarni keng joriy etish hamda ta‘lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kreativ boshqaruv tizimi ta‘lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, ilg‘or pedagogik metodlar va interfaol ta‘lim shakllarini qo‘llash orqali samaradorlikni oshirishi mumkin. Shuningdek, pedagoglarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun ularga tarbiyalanuvchilarning individual yondashish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish va kreativ muhit yaratish imkoniyatlarini taqdim etish muhim sanaladi. Bundan tashqari, kreativ yondashuv asosida boshqaruv tizimini takomillashtirish uchun bir qator muhim omillar talab etiladi. Avvalo, pedagoglar uchun trening va seminarlar tashkil etish orqali ularning kasbiy mahoratini oshirish hamda kreativ yondashuvlarni amaliyotga joriy qilishga ko‘maklashish lozim. Umuman olganda, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida kreativ boshqaruvni rivojlantirish tizimli yondashuvni talab etadi. Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar ijodiy salohiyatni qo‘llab-quvvatlash, ta‘lim jarayonining sifatini oshirish hamda pedagogik faoliyatda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishga qaratilgan bo‘lib, bu esa ta‘lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ijodiy yondashuv orqali boshqaruv tizimini rivojlantirish ta‘lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga bevosita ta‘sir etibgina qolmay, bolalarning ijodiy qobiliyatini ham shakllantiradi. Umuman olganda, ta‘limda turli shakl, usul va vositalardan foydalanish pedagogik jarayon sifatini oshirish bilan bir qatorda, bolalarda mustaqil fikrlash va yangicha faoliyatga yo‘naltirishga yordam beradi. Pedagoglarning ijodiy salohiyatini o‘stirish, ularning zamonaviy texnologiyalarni qo‘llay bilishiga imkon yaratish va innovatsion yondashuvlarni qo‘llash maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining umumiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli, pedagoglarning malakasini oshirish, ijodiy yondashuv asosida ta‘lim dasturlarini takomillashtirish hamda interaktiv usullarni keng qo‘llash ta‘lim sifatini yanada yuqori darajaga ko‘tarish uchun zarur vosita ekanligi ta‘kidlandi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalar rivojlanishining samaradorligi faqat ta‘lim dasturlariga emas, balki muhitning ijodiy va didaktik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilishiga ham bog‘liq. Muhitning pedagogik talablarga mos ravishda shakllantirilishi bolalarda bilimga qiziqishni oshirish, ularning ijodiy tafakkurini rivojlantirish hamda o‘quv jarayonini qiziqarli va mazmunli qilishga yordam beradi. Maktabgacha ta‘lim tizimida ijodiy boshqaruvni shakllantirish va rivojlantirish istiqbolli yo‘nalish bo‘lib, bu kelajak avlodning ijodiy salohiyatini oshirish, ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatish hamda ta‘lim samaradorligini yaxshilash uchun muhim omil hisoblanadi. Shu bois, ta‘lim jarayonida innovatsion usullarni

qo‘llash va ijodiy yondashuv asosida boshqaruv tizimini takomillashtirish zamonaviy ta’limga mos samarali ta’lim muhitini yaratishda katta ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda O‘RQ-595-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun 2019-yil Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 22-oktabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2019-yil 14-dekabrda ma’qullangan qonun
2. Sh.M.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz – Toshkent.: O‘zbekiston,2017-yil. –bet 157
3. Feldman, D.H. (1999). The development of creativity. In R. Sternberg (Ed.), The handbook of creativity New York: Cambridge University Press.) pp.169-186
4. Федорова Е. А. Развитие творческой активности студентов средствами ТРИЗ-педагогики: автореф. дис. ... канд. пед. наук: 13.00.01 / Е. А. Федорова.-Ульяновск, 2009-23 с.
5. Torrance, E. P. (1966). Torrance Tests of Creative Thinking: Norms and Technical Manual. Personnel Press.30-34p
6. Альтшуллер, Г. С. Введение в ТРИЗ. Основные понятия и подходы
7. Морозов, А. В. Креативная педагогика и психология: учебное пособие / А. В. Морозов, Д. В. Чернилевский. – М.: Академический Проект. 2004. 2-е изд., испр. и доп. – 560 с
8. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati.«Xalq ta’limi», 1999 y
9. Закирова Ф. М., Позилова Ш. Х. Креативное обучение на курсах повышения квалификации преподавателей информатики высших образовательных учреждений //Science for Education Today. – 2018. – Т. 8. – №. 3.
10. IbragimovaG.N. –Interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. /Monografiya.-T“Fan texnologiyalar“, 2016.-77-b

Internet saytlari:

1. <https://www.lex.uz>
2. <https://www.altshuller.ru>

BOSHLANG‘ICH TA‘LIM YO‘NALISHI TALABALARIDA GRAMMATIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH

Eshbekova Dilnoza Ibraimovna,

Jizzax Davlat pedagogika universiteti

Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi va amaliyoti kafedrasi o‘qituvchisi
eshbekovadilnoza1@gmail.com

Ushbu maqolada talabalarining grammatik kategoriyalar haqida bilim, malaka va ko‘nikmaga ega bo‘lishi, ulardagi grammatik kompetensiyani rivojlantirish va takomillashtirish, o‘quv mashg‘ulotning o‘qitish usullari va texnikasini vizuallashtirish, “klaster”, “aqliy hujum” va boshqa texnologiyalar, didaktik o‘yinlar, lisoniy mashqlar tizimini tashkil etish haqidagi nazariy ma’lumotlar joy olgan. Bundan tashqari maqolada o‘quv mashg‘ulotlarining DTS maqsadi va talablariga muvofiq samarali tashkil etilishi o‘quv dasturi, rejasi, darslik, o‘quv qo‘llanmalar va mustaqil o‘rganishga tavsiya etilgan adabiyotlarning saviyasi, shuningdek, oliy o‘quv yurtidagi ona tili fani o‘qituvchisining bilim darajasi va bu boradagi pedagogik mahoratiga bevosita bog‘liq ekanligi to‘g‘risidagi fikrlar o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: Kompetensiya, grammatika, grammatik kompetensiya, “klaster”, “aqliy hujum”, grammatik ma’no, grammatik shakl, grammatik kategoriya, sintaksis, morfologiya.

РАЗВИТИЕ ГРАММАТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

В статье содержатся теоретические сведения по формированию знаний, умений и навыков учащихся о грамматических категориях, развитию и совершенствованию их грамматической компетенции, визуализации методов обучения и приемов урока, организации системы «кластерных», «мозговых штурмов» и других технологий, дидактических игр, языковых упражнений. Кроме того, в статье содержатся мнения о том, что эффективная организация учебных занятий в соответствии с целями и требованиями ДТС напрямую зависит от учебной программы, плана, учебников, учебных пособий, уровня рекомендуемой для самостоятельного изучения литературы, а также уровня знаний и педагогического мастерства преподавателя родного языка в вузе.

Ключевые слова: Компетенция, грамматика, грамматическая компетентность, «кластер», «мозговой штурм», грамматическое значение, грамматическая форма, грамматическая категория, синтаксис, морфология.

DEVELOPMENT OF GRAMMATICAL COMPETENCE IN PRIMARY EDUCATION STUDENTS

This article contains theoretical information on the acquisition of knowledge, skills and abilities of students about grammatical categories, the development and improvement of grammatical competence in them, visualization of teaching methods and techniques of the lesson, “cluster”, “brainstorming” and other technologies, didactic games, the organization of a system of language exercises. In addition, the article contains opinions that the effective organization of training sessions in accordance with the goals and requirements of the DTS directly depends on the curriculum, plan, textbooks, study guides, and the level of literature recommended for independent study, as well as the level of knowledge and pedagogical skills of the native language teacher at the higher educational institution.

Keywords: Competence, grammar, grammatical competence, “cluster”, “brainstorming”, grammatical meaning, grammatical form, grammatical category, syntax, morphology.

Adabiy til me’yorlari, grammatik bilim, ko‘nikma va malakalar tizimi, ularni amaliyotda qo‘llash asosida egallanadi. Bu esa mustaqil fikrlash, fikr mahsulini to‘g‘ri, ravon, izchil, tushunarli ifodalash imkonini beradi. A.M.Peshkovskiy ta’biri aytganda, “grammatika hamma va har qanday bilimga o‘tiladigan bir ostona...” ekan, uni o‘rganishning amaliy tomoniga ko‘proq e’tibor berish nihoyatda foydali. Shundagina, “...grammatika insonni o‘zini o‘ziga tanitishdek o‘ta zarur tarbiyalash vazifasini to‘la-to‘kis bajaradi”[1.82-bet].

Grammatik kompetensiya mazmun mohiyatiga ko‘ra, lingvistik kompetensiyaning keng qamrovli bir yo‘nalishi sanaladi. 60110500 – Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabalarining grammatik kompetensiyasini

rivojlantirish va takomillashtirish mehanizmini ishlab chiqish, uning tarkibi va bosqichlarini aniqlash bugungi ona tili ta’limida ustuvor va ayni chog’da, o’z yechimini kutayotgan dolzarb masalalardan biri bo’lib turibdi. Ta’kidlash lozimki, oliy ta’limning mazkur yo’nalishiga mansub grammatik kompetentsiyaning o’ziga xos xususiyatlari, tarkibi, talabalar o’zlashtiradigan bosqichlari hanzuzcha mutlaqo o’rganilmagan va bu muammo muayyan ilmiy tadqiqot doirasida ishlanmagan.

Ilmiy-nazariy va pedagogik harakterdagi ushbu muammoning ijobiy ravishda amalga oshirilishi, eng avvalo, 60110500 – Boshlang’ich ta’lim yo’nalishi “*Ona tili*” o’quv predmetidagi ilmiy-nazariy va amaliy bilimlar o’zlashtirishning eng qulay, maqbul shakli bo’lgan ta’lim jarayonida oshiriladi. Buning tub va asosiy sababi shuki, “*Ona tili*” fanining grammatika bo’limi mazkur yo’nalishda tahsil oluvchi talabalarga 2-3-bosqichlarning III-IV-V-semestrlarida o’rgatiladi. O’quv mashg’ulotlarining DTS maqsadi va talablariga muvofiq samarali tashkil etilishi o’quv dasturi, rejasi, darslik, o’quv qo’llanmalar va mustaqil o’rganishga tavsiya etilgan adabiyotlarning saviyasi, shuningdek, oliy o’quv yurtidagi ona tili fani o’qituvchisining bilim darajasi va bu boradagi pedagogik mahoratiga bevosita bog’liq.

Ayrim metodist olimlarning ta’kidlashicha, “Ta’lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo’llashda o’quv dasturi mazmunining mukammalligi, darslik hamda qo’llanmalarining zamonaviy talablar asosida yaratilganligi, o’quv rejasi mohiyatining nazariy va amaliy xususiyatlariga ko’ra yagona maqsadga erishish uchun xizmat qilishi, mashg’ulotlarni samarali tashkil etish imkonini beruvchi pedagogik shart-sharoitlarining mavjudligi, o’qituvchi va o’quvchilar o’rtasida ijobiy, samimiy munosabatlarning qaror topishi kabi masalalar inobatga olinadi”[2.116-bet]. Ushbu mulohazalarni biz ham ma’qullaymiz, ularning hammasi nazarda tutilayotgan “*Ona tili*” fanlaridagi barcha mavzularni o’rganishga taaluqli, deb hisoblaymiz.

Tadqiqotimiz obyekti sanalgan talabalarning grammatik kompetentsiyasini rivojlantirish va takomillashtirish masalasini ta’lim jarayonida muvaffaqiyatli hal etishning yetakchi omillaridan biri – “*Ona tili*” fanining “Grammatika” (morfologiya va sintaksis) bo’limida o’qitiladigan barcha mavzularni oldindan belgilab olish, talabalar tomonidan o’zlashtiriladigan nazariy va amaliy bilimlar, ko’nikma va malakalar darajalarini tashxislash hamda shu sohadagi tadqiqotning muvaffaqiyatli natijalarini avvaldan bashorat qilishdan iborat.

Ta’kidlangan omillarni e’tiborga olib, grammatikaga oid o’quv mashg’ulotlari jarayonlarining loyihasini ishlab chiqdik va talabalarda grammatik kompetentsiyani rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida bir qator vazifalarni amalga oshirdik:

1. “*Ona tili*” fanining mundarijasidan joy olgan va grammatika (morfologiya va sintaksis)ga daxldor barcha ilmiy-nazariy, metodik-didaktik manbalarni o’rganildi, xususan, yig’ilgan materiallarning mazmuni, g’oyasi (mohiyati) bilan tanishib chiqildi, ularda ilgari surilgan g’oyalar umumlashtirildi, turkumlarga ajratildi va yaxlitlandi.

2. “*Ona tili*” o’quv fanining mavzular yuzasidan yagona va umumiy maqsad belgilab olindi, asosiy bilimlar (morfologiya va sintaksis) va kichik bo’limlar (masalan, mustaqil so’z turkumlari, yordamchi so’z turkumlari yoki alohida olingan so’zlar) bo’yicha hal etiluvchi xususiy maqsadlar ham belgilandi, talabalarda grammatik kompetentsiyani rivojlantirish va takomillashtirish yo’lida ijobiy hal etib borishi lozim bo’lgan vazifalar ishlab chiqildi.

3. Grammatikaga daxldor barcha o’quv mashg’ulotlarga talabalarning ijodiy izlanish, faollik, erkin mulohazani aytishga yo’naltiruvchi ta’lim shakli, metod va vositalar tanlab olindi. Bunday yo’l tutishdan asosiy maqsadimiz, birinchidan, olib boriladigan mashg’ulotlarning qiziqarli, baxs-munozaralarga boy bo’lishi, ijodiy tortishishlarning yuzaga keltirishi, ikkinchidan, talabalarning grammatik kontseptsiyasini rivojlantirish va takomillashtirishdan iborat.

4. Grammatika (morfologiya bo’yicha barcha mustaqil va yordamchi so’z turkumlari, alohida olingan so’zlar, shuningdek, sintaksisga daxldor gap va uning turlari, gap bo’laklari, undalma kabi linoniy hodisalar)ni o’rganish uchun o’quv rejasiga ko’ra ajratilgan vaqt me’yorlari belgilab olindi, ya’ni talabalar tomonidan bilim, ko’nikma, malakalarining o’zlashtirilish vaqti va vaqt oraliqlari aniqlandi.

5. “Grammatika” bo’limidagi har bir mavzular uchun alohida-alohida mashqlar tizimi, testlar jamlanmasi, savol-topshiriqlar, uy vazifalari va mustaqil ishlar banki ishlab chiqildi. Ularning har biri biri-birlarini to’ldirishi, o’zaro aloqadorligi, bog’liqligi va eng muhimi, evolyutsion harakter-xususiyat kasb etganligi bilan talabalarning grammatik kompetentsiyasini rivojlantirish va takomillashtirishiga xizmat qildi. Xususan, auditoriyadagi o’quv mashg’ulotlarida talabalarning bajarilishi ko’zda tutilgan lisoniy mashqlar jamlanmasi, uy vazifalariga daxldor mashg’ulotlardan tashqarida bajariladigan mashqlar tizimi, yoki nazariy va amaliy jihatdan to’g’ri deb hisoblangan test tizimining ishlab chiqishi va amaliyotda qo’llanilishi talabalarining har bir mavzular yuzasidan tegishli lisoniy tushunchalarni o’zlashtirganligiga, amaliy ko’nikma va malakalarni shakllantira olganlik darajalarini dastavval holis aniqlashga imkoniyat yaratdi.

Talabalarda grammatik kompetentsiyani rivojlantirish va ularni takomillashtirish uchun yuqoridagi ta’kidlangan vazifalarning mazmun-mohiyatini to’ldirish uchun “*Grammatika haqida umumiy ma’lumot. Morfologiya so’z turkumlariga xos bo’lim sifatida*” mavzusidagi o’quv mashg’ulotida olib borilgan lingvistik texnologiyalar haqidagi kuzatishlarimizni beramiz.

O’quv rejasiga ko’ra, ushbu o’quv mashg’ulotining nazariy harakterdagi ma’ruzasi uchun 2 soat, amaliy mashg’uloti uchun 4 soat, mustaqil ishlash uchun 2 soat, jami 8 soatlik vaqt ajratilgan. Unda quyidagi masalalar o’rganilib muhokama etildi:

1. O’zbek tilining grammatika bo’limi haqida umumiy ma’lumot;
2. So’zning grammatik ma’nosi va grammatik shakli;
3. So’zning grammatik kategoriyalari;
4. Morfologiya grammatikaning so’z turkumlariga xos ekanligi va tildagi so’zlarni turkumlarga ajratish me’zonlari;
5. So’zning morfologik strukturasi.

O’quv mashg’ulotida ko’zlangan asosiy maqsadini talabalarga grammatika bo’limi va uning vazifalari, o’z oldiga qo’yan maqsadi, talabalarga so’zning grammatik ma’nosi va grammatik shakli hamda uni ifodalovchi vositalar haqida umumiy tushuncha berishni tashkil etdi.

O’quv mashg’ulotining pedagogik vazifalari va o’quv faoliyatida olingan natijalar quyidagilardan iborat bo’ldi:

– Talabalarga grammatika qonun-qoidalari har qanday tilning asosi ekanligi va uning ikki qism (morfologiya va sintaksis)dan iboratligi tushuntirildi, natijada, har bir talaba so’zning lug’aviy va grammatik ma’nolari o’rtasidagi farqni o’zlashtirib olishga erishdi;

– So’zning grammatik ma’nosi va uni ifodalovchi grammatik shakllar haqidagi ma’lumotlar og’zaki tarzda aytib berildi, natijada, talabalar so’zning affikslar yordamida, yordamchi vositalar orqali yuzaga keluvchi nutq va takroriy shakllari kabi turlari bor ekanligini bilib olishga erishdi;

– Mashg’ulotda so’zning grammatik kategoriyasi haqidagi nazariy tushuncha berildi, talabalar esa o’zbek tilida so’zlarning maxsus grammatik shakllari ham mavjud ekanligini bilib oldilar;

– Mashg’ulotda morfologiya grammatikaning so’z turkumlariga xos ekanligi va tildagi so’zlarni turkumlarga ajratish me’zonlari haqidagi ma’lumotni berildi, talabalar esa tildagi so’zlarning ma’lum me’zonlar asosida turkumlarga ajrata olish bilimiga ega bo’ldilar.

O’quv mashg’ulotning o’qitish usullari va texnikasini vizuallashtirish ma’ruza, namoyish, “klaster”, “aqliy hujum” va boshqa texnologiyalar, didaktik o’yinlar, lisoniy mashqlar tizimi tashkil etildi. Talabalar bilimini monitoring qilish va baholashda og’zaki nazorat, savol-javob, baxs-munozaralar, kredit-modul nizomi asosidagi baholash asos sifatida belgilangan.

Olib borilgan o’quv mashg’uloti o’z quruluşiga ko’ra uch boshqichdan iborat bo’ldi: kirish, asosiy va yakunlovchi bosqichlar.

1-bosqichda dastlab talabalarga grammatika bo’limi haqidagi umumiy tushunchalar ona tili fanining boshqa fanlar bilan aloqasi haqidagi nazariy ma’lumotlar berildi. Keyin grammatika bo’limida o’tiladigan barcha mavzular tanishtirildi, ularning uzviyligi haqida qisqacha izoh va sharxlar berildi. Bu ma’lumotlarni talabalar tingladi, mazkur mavzuni o’zlashtirishga yordam beradigan adabiyotlar ro’yxati bilan tanishtirilganida ular yozib olishdi.

2-bosqichda muhokamaga qo’yilgan mashg’ulot “*Aqliy hujum*” usuli bilan boshlandi: ona tili fanining bo’limlari haqidagi ma’lumotlar bosqichma-bosqich aytilgandan so’ng talabalarga ular orasidagi lisoniy bog’liqlikni tushuntirish degan savol bilan murojat qilindi. Buning sababi “Ona tili” fani umumiy o’rta ta’limda ham alohida fan sifatida o’tilganligi, qolaversa, talabalar I-kursdan buyon tanish ekanligidir. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, talabalarda bu fan yuzasidan muayyan tushunchalar, bilim va malakalarning avvaldan mavjudligi, “Ona tili” fanining bo’limlari orasida “*Grammatika*” bo’limining ahamiyati qaydarajada ekanligini ilmiy dalillar bilan isbotlab bering? deb yana savol bilan murojat qilindi. Talabalar esa imkoniyatlariga qarab savollarga javob berishdi, biri ikkinchisini to’ldirdi. O’quv mashg’uloti jarayonida talabalarining javoblarini yanada to’ldirish va ilmiy-nazariy bilimlar bilan boyitish maqsadida bu bo’limda uchraydigan grammatik atama (termin)larning quyidagi izohlari aytib o’tildi, tushuncha berildi:

Grammatika – tilshunoslikning so’z shakllari, so’z birikmalarining turlari, gap turlari (tilning grammatik qurilishi), haqidagi bo’lim. O’rganish manbai, materiallari va vazifasi nuqtai nazaridan grammatikaning bir necha turi farqlanadi: tarixiy, tasviriy, formal guruhlar.

Morfologiya – so’zning o’zgarishi va shu o’zgarish bilan bog’liq bo’lgan ma’nolar, so’zning tuzilishi va tarkibi haqidagi bo’lim. Uning obekti: so’z turkumlari.

Sintaksis – gap va uning grammatik xususiyatlari, gap qurilishi (ohang, so’z birikmalari, predikativlik, so’z tartibi) va gap turlari haqida bo’lim.

Grammatik ma’no – soʻzning shakliy qismi, grammatik shaklini, ifodalaydigan ma’no. Grammatik ma’no ikki xilga boʻlinadi. 1. Kategorial grammatik ma’no (otning “predmetlik”, sifatining “belgi”, feʼlning “harakat” ma’nosini ifodalashi). 2. Xususiy grammatik ma’no (otlarga xos egalik, kelishik, grammatik-son, feʼllarga xos shaxs-son, zamon, mayl, nisbat-daraja kabi).

Grammatik shakl – grammatik ma’noni hosil qiladigan til vositalari. U affikslar yordamida yoki yordamchi soʻzlar vositasida hosil qilinadi. Shunga koʻra, uning ikki xil turi: sintetik va analitik shakli oʻzaro farqlanadi.

Grammatik kategoriya – asosida yotuvchi umumiy ma’nosiga koʻra birlashtiruvchi shakllar tizimi. Grammatik kategoriya ikki xil (morfologik va sintaktik) turi bilan bir-biridan farqlanadi.

Oʻquv mashgʻulotidan oʻrganilgan va talabalarning grammatik kompetensiyasini rivojlantirib, uni takomillashtirishga xizmat qilgan ya’ni bir masala – “*Soʻzning grammatik ma’nosi va grammatik shakli*” haqida nazariy ma’lumot berishda “*Klaster*” texnologiyasi qoʻllanildi (1-rasmga qarang) va talabalar tomonidan toʻldirildi.



1-rasm. Grammatik shaklni ifodalovchi vositalar klasteri[4.9-bet].

O‘quv mashg‘ulotini olib borish jarayonida so‘zning grammatik kategoriyalari haqidagi nazariy ma‘lumotlar tushuntirildi, talabalar ularni tingladi va yozib oldi. Natijada, talabalarda grammatik kategoriyalar haqida bilim, malaka va ko‘nikmaga ega bo‘lishdi, ulardagi grammatik kompetentsiyani rivojlantirish va takomillashtirishga muayyan darajada zamin tayyorladi.

O‘quv mashg‘ulotda so‘zning morfologik qurilishi haqida o‘quv vizual harakterdagi lisoniy materiallar asosida ma‘lumotlar berilgandan so‘ng umumiy xulosa qilindi va talablar bilan yakunlovchi savol-javoblar o‘tkazildi.

1. Grammatikaning obyekti nima? Asoslab bering.
2. Leksik ma‘no va grammatik ma‘noning farqli xususiyatlari qaysilar?
3. Grammatik shakl tushunchasi haqida gapiring
4. Grammatik ma‘noni yuzaga keltiruvchi vositalar qaysilar?
5. O‘zbek tilida nechta so‘z turkumi mavjud?
6. Yordamchi so‘z turkumlari haqida ma‘lumot bering.
7. So‘zning morfologik qurilishining fonetik qurilishiga, morfemik qurilishiga, so‘z yasash

qurilishidan nima farqi bor?

8. Alohida olingan so‘zlar guruhlarini-chi?

so‘ng uyda bajariladigan quyidagi topshiriqlar berildi:

1. O‘zbek tili grammatikasi bo‘limida o‘rgangan tushunchalaringiz asosida krossvord tayyorlang.
2. O‘zbek tili grammatikasi qoidalarining o‘zingiz bilgan birorta xorijiy til (masalan, ingliz, fransuz, tojik, rus va b.)ning grammatikasi bilan taqqoslab ko‘ring. O‘xshash va farqli tomonlari to‘g‘risida ilmiy xulosalar chiqaring va konspekt daftaringizga yozing.

O‘rta umumta‘limning “*Ona tili*” darsliklari mashg‘ulotlarida maktab o‘quvchilarida muayyan ijodkorlik, mustaqil fikrlash va bayon qila olish, ijodiy fikr-mulohazalarini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan. Bunday murakkab, ayni paytda, mas‘uliyatli vazifa oliy ta‘limning “*Ona tili*” o‘quv mashg‘ulotlarida ham e‘tiborga olingan: bo‘lg‘usi mutaxassis sifatida tayyorlanayotgan talaba-pedagog faoliyatida ham ustuvor masalalardan biri sanaladi. Shu boisdan ularning kasbiy kompetentligini va lingvistik kompetentsiyasini rivojlantirishda lisoniy o‘yinlar xususan, grammatik o‘yin-topshiriqlarning o‘rni beqiyos.

Grammatik o‘yin topshiriqlar bir tomondan har bir talabadan hozirjavoblikni, bilimdonlikni, mustaqil izlanishni, grammatik bilimlarni puxta egallashlikni, muayyan vaziyatlarda topqirlik va tezkorlikni talab qiladi. Ikkinchi tomondan esa, ularda grammatik kompetentsiyasini rivojlantirishga, eng muhimi, ona tili mashg‘ulotlarining o‘ta qiziqarli bo‘lishi va samaradorligini ta‘minlaydi.

Talabalar bilan o‘tkazilgan o‘quv mashg‘ulotlarimizda oddiy va murakkab darajadali grammatik o‘yin-topshiriqlardan foydalandik. “*Ot so‘z turkumi*” mavzusini o‘tishda, xususan, atoqli va turdosh otlarga tavsif berishda “*Kim g‘olib*” o‘yin-topshirig‘idan foydalanildi. Amaliy mashg‘ulotlarning birida guruh a‘zolari ikki kichik guruhga ajratildi: biri atoqli otlarga, ikkinchi turdosh otlarga tegishli misollar topishib, ularning leksik va grammatik ma‘nolarini sharxlab berishdi. Muayyan belgilangan vaqt ichida qaysi guruh tez va to‘g‘ri javob bersa, ayni shu kichik guruh g‘olib sanaldi va rag‘batlantirildi. Bu topshiriq o‘z xususiyatiga sodda topshiriq namunasi bo‘ldi.

Navbatdagi o‘quv mashg‘ulotlarining birida talabalarining grammatik kompetentsiyasini rivojlantirish va ularning o‘zlashtirgan bilimlarini xususan, bog‘lanishli yozma nutqining qaydarajada ekanligini aniqlash maqsadida “*So‘zlar-bizdan, matn tuzish-sizdan*” nomli grammatik o‘yini o‘tkazildi. Bunda talabalarga tayanch so‘z va so‘z birikmalarini berib, ular yordamida bog‘lanishli matn tuzish va uni sharhlash vazifasi topshirildi. Natijada tez, qisqa muddatda to‘g‘ri va asosli matn tuzgan talaba g‘olib sanaldi va baholandi. Bu topshiriq ham murakkabligi jihatiga ko‘ra sodda topshiriq namunasini tashkil etdi.

Ta‘kidlash lozimki, ijodiy topshiriqlar mohiyatiga ko‘ra talabalarining tafakkurini o‘stirishga, so‘z boyligini boyitishga, nutqning to‘g‘ri va ravon bo‘lishiga, egallagan bilimlari asosida grammatik kompetentsiyalarni rivojlantirishga beminnat xizmat qiladi. Ayni chog‘da bunday topshiriqlar o‘ziga xos bir qator xususiyatlarga ega ekanligini ham e‘tibordan chetga qoldirmasligimiz zarur. Xususan, ular:

– talabani mustaqil izlanishga, xolis va to‘g‘ri, asosli fikr yuritishga, berilgan topshiriqni bajarishga undasin;

– talabani tegishli bilimlarni egallashga va bu borada tegishli xulosa chiqarishga yo‘naltirish zarur;

– berilgan grammatik ijodiy topshiriqlarning murakkablasha borishi talabaning bu sohadagi bilimlarini oshirishga xizmat qilishi zarur;

–bunday lisoniy jarayonlarning soddadan murakkablik tomonga borishi talabalarda jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmalarini hosil qilishi zarur;

– ijodiy topshiriqlarni bajarish jarayoni har bir talabada o‘ziga ishonch, o‘zining bilimi darajasini anglash bu boradagi shaxsiy imkoniyatlarini aniqlay olish, eng muhimi yangi bilim olishiga undashi shart bo‘ladi.

“Ona tili” o‘quv fanining mundarijasida “Grammatika” bo‘limi o‘zining qamroviga ko‘ra alohida o‘rinni egallagan. Undagi grammatik bilimlar boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishdagi talabalarining so‘z boyligini oshirishga, kommunikativ savodxonlik darajasini yuksaltirishga xizmat qiladi, eng muhimi, grammatik kompetentsiyasini takomillashtirishga zamin tayyorlaydi. Xususan, talabalar “morfologiya” bo‘limini o‘rganish jarayonida tilning adabiy me‘yorlari, tilimizdagi so‘zlarning ta‘kidlangan me‘yorlar asosida muayyan o‘zgarishi va yasalishi (grammatik xususiyatlari); so‘zni og‘zaki nutqda to‘g‘ri ishlatish, yozma nutqda o‘rinli qo‘llash printslari bilan tanishadilar va tegishli nazariy bilimlarni egallaydilar. “Sintaksis” bo‘limida esa so‘z, so‘z birikmasi va gaplarning o‘zaro aloqasini, so‘z birikmasi va gaplarni tashkil etgan bo‘laklarning lisoniy xususiyatlarini o‘rganib oladi, bu borada, tegishli bilim va malakaga ega bo‘lishadi. Sintaksis bu jihatdan morfologiyadan farqlanadi.

Xulosa qilib aytganda, grammatik kompetentsiya – lingvistik kompetentsiyaning mustaqil bir tarmog‘i. Barcha grammatik bilimlar, xususan, morfologiya bo‘yicha mustaqil va yordamchi so‘z turkumlari, alohida olingan so‘zlar, shuningdek, sintaksisga daxldor gap va uning turlari, gap bo‘laklari, undalma singari lisoniy xulosalar jamlanmasi, ular asosida talabalar tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar mazkur kompetentsiyasining asosini tashkil etadi.

Adabiyotlar:

1. Тўхлиев Б., Шамсиева М., Зиядова Т. Ўзбек тили ўқитиш методикаси. Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2006, 82-бет.
2. Толипов Ў.Қ., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг тадбикий асослари, Тошкент, “Фан”, 2006, 116-бет.
3. Jumanazarov U.A., Ibragimova F.E., Jumanazarova G.U. Ona tili. Toshkent, “Innovatsiya-ziyo” 2022, 245 bet.
4. Ibragimova F.E. Ona tili (morfologiya). Toshkent. “NIF MSH” 2024, 272 bet.
5. Eshbekova D.I. Pedagogik faoliyatda kompetentli yondashuv. Til, Ta‘lim, Tarjima xalqaro jurnali. 3-son, 2023-yil.
6. Eshbekova D.I. Methods of developing professional competencies of primary education teachers. AMERICAN Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education 30-aprel 2024-yil.
7. Турсунов Ҳ.Б. Бошланғич синф ўқувчилари коммуникатив компетенцияларини дидактик ўйинлар воситасида шакллантириш. Пед. ф.б. фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Наманган, 2022.
8. Икромов Р., Мухамедова Д., Ҳамроев М. Она тилидан машқлар тўплами. Тошкент, 2012.
9. Мадумаров Т., Камолдинов М. Инновацион педагогик технология асослари ва уни таълим-тарбия жараёнида қўллаш. Т. Талқин, 2012.
10. Жуманазаров У.У.Таълимни рақамлаштириш муҳитида бўлажак инглиз тили ўқитувчиларининг лингвистик компетенциясини ривожлантириш. Тошкент, 2021.

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA MUSTAQIL FIKRLASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Otajonova Sitorabonu Shuxratovna,

Osiyo Xalqaro universiteti Umumtexnik fanlar kafedrası

stajyor-o‘qituvchisi

sitorabonu_shuxratovna@mail.ru

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik asoslari tahlil qilingan. Globallashtirish, raqamlashtirish va axborotlashtirish jarayonlari sharoitida mustaqil fikrlaydigan, ijodkor va ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalash ta‘lim tizimining ustuvor vazifasiga aylangan. 4K tamoyillariga (kreativlik, kritik fikrlash, kommunikatsiya, kollaboratsiya) asoslangan yondashuvni ochib berilgan hamda mustaqil ta‘limiy faoliyatni shakllantirishda metodik shart-sharoitlar, yosh psixologiyasi, darsning tashkil etilish shakllari va faol o‘quv usullari (mustaqil ish, muammoli topshiriqlar, interfaol metodlar)ning o‘rni haqida ilmiy asoslangan tahlillar keltirgan. Mazkur tadqiqotda mustaqillikning darajalari, uni bosqichma-bosqich rivojlantirish yo‘llari va zamonaviy o‘qituvchining vazifalari yoritilgan. Maqola mustaqil fikrlashni shakllantirish orqali shaxsiy va kasbiy yetuklikka erishishning asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi.

Kalit so‘zlar: Mustaqil fikrlash, boshlang‘ich ta‘lim, 4K tamoyili, ijodkorlik, mustaqil ish, faoliyatga asoslangan ta‘lim, kompetensiya, o‘quvchi subyekti, zamonaviy pedagogika, muammoli topshiriq.

ФОРМИРОВАНИЕ НАВЫКОВ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

В статье анализируются педагогические основы развития навыков самостоятельного мышления у учащихся начальной школы. В условиях глобализации, цифровизации и информатизации воспитание самостоятельно мыслящей, творческой и социально активной личности стало приоритетной задачей системы образования. Раскрывается подход, основанный на принципах 4К (креативность, критическое мышление, коммуникация, сотрудничество), и дается научно обоснованный анализ роли методических условий, возрастной психологии, форм организации урока, активных методов обучения (самостоятельная работа, проблемные задания, интерактивные методы) в формировании самостоятельной учебной деятельности. В исследовании рассматриваются уровни самостоятельности, пути ее постепенного развития и задачи современного учителя. В статье обозначены основные направления достижения личностной и профессиональной зрелости через развитие самостоятельного мышления.

Ключевые слова: Независимое мышление, начальное образование, принцип 4К, креативность, самостоятельная работа, деятельностное обучение, компетентность, субъект-студент, современная педагогика, проблемное задание.

FORMING INDEPENDENT THINKING SKILLS IN PRIMARY STUDENTS

The article analyzes the pedagogical foundations for developing independent thinking skills in primary school students. In the context of globalization, digitalization and informatization, the education of an independently thinking, creative and socially active individual has become a priority task of the education system. An approach based on the principles of 4K (creativity, critical thinking, communication, cooperation) is revealed and a scientifically substantiated analysis of the role of methodological conditions, age psychology, forms of lesson organization, active teaching methods (independent work, problem-solving tasks, interactive methods) in the formation of independent learning activities is given. The study examines the levels of independence, the ways of its gradual development and the tasks of a modern teacher. The article outlines the main directions for achieving personal and professional maturity through the development of independent thinking.

Keywords: Independent thinking, primary education, 4K principle, creativity, independent work, activity-based learning, competence, student subject, modern pedagogy, problem-based assignment.

Kirish. Bugungi kunda globallashtirish, raqamlashtirish va axborot jamiyati sharoitida ta‘lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan asosiy talablardan biri – o‘quvchi shaxsini mustaqil fikrlaydigan, ijodkor, tanqidiy

tahlilga qodir, muloqotga ochiq va jamoada samarali ishlay oladigan yetuk inson sifatida shakllantirishdan iborat. Shu nuqtayi nazardan, boshlang‘ich ta‘lim bosqichida mustaqil fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish muhim strategik vazifalardan biri sanaladi.

Asosiy qism. Pedagogik ilmiy manbalarda fikrlash inson ongining faol shakli bo‘lib, u orqali mavjud bilimlar tahlil qilinadi, umumlashtiriladi va yangi xulosalarga kelinadi. **Mustaqil fikrlash** esa bolalarni tayyor andozalarga emas, balki o‘zining tafakkuri, mushohadasi va fikriy qobiliyatiga asoslangan holda bilim olishiga va qaror qabul qilishiga yo‘naltiradi. Bu jarayon faqat darsda emas, balki sinfdan tashqari faoliyat orqali ham faol rivojlantirilishi mumkin.

Aynan shu maqsadda ta‘limda keng qo‘llanayotgan **4K tamoyili** — **kreativlik** (ijodiy yondashuv), **kritik fikrlash** (tanqidiy tahlil qilish qobiliyati), **kommunikatsiya** (muloqot qilish mahorati), **kollaboratsiya** (hamkorlikda ishlash) — o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishda muhim asos vazifasini bajaradi. Matematika fanida sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda mana shu tamoyillarga tayangan holda bilim berish nafaqat mustaqil fikrlashni, balki ijodkorlik va jamoada fikr almashish qobiliyatini ham kuchaytiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mazkur ko‘nikmalarni shakllantirish nafaqat ularning ta‘lim sifatini oshiradi, balki kelajakda muvaffaqiyatli shaxs sifatida kamol topishlariga zamin yaratadi. Shu boisdan, ushbu maqolada mustaqil fikrlash ko‘nikmasini shakllantirishning nazariy-metodik asoslari va 4K tamoyillari asosida amaliy yondashuvlari tahlil qilinadi.

Hozirgi kunda ta‘lim sohasida jiddiy o‘zgarishlar yuz bermoqda. An‘anaviy “bilim–ko‘nikma–malaka” modelidan voz kechilib, o‘rniga madaniy-tarixiy yondashuvga asoslangan tizimli-faoliyat modeli joriy etilmoqda. Bu o‘zgarishlar ta‘limning mazmuni va vazifalariga tubdan yangicha yondashuvni talab qilmoqda. Ayniqsa, maktabning hayotdan uzilib qolganligi, amaliy hayotga tayyorlamasligi bilan bog‘liq muammo keskin namoyon bo‘lmoqda. Ana shu muammoga taniqli rus pedagogi K.D.Ushinskiy tomonidan ilgari surilgan fikr nihoyatda dolzarb: u shunday degan edi – “hayot maktabni osonlikcha chetga chiqarib qo‘yadi, agar maktab uning yo‘lida to‘siq bo‘lib qolsa. Chinakam tarbiya maktab bilan bir tomonda, hayot va ilm bilan esa ikkinchi tomonda vositachi bo‘lishi kerak”.

Zamonaviy ta‘limning bosh maqsadi – o‘quvchilarda asosiy kompetensiyalarni shakllantirishdir. Bularga quyidagilar kiradi:

- qadriyat va ma‘no kompetensiyalari,
- umumiy madaniy kompetensiyalar,
- axborot bilan ishlash kompetensiyasi,
- kommunikativ (muloqotga kirishish) kompetensiya,
- ijtimoiy-mehnatga oid kompetensiya,
- shaxsiy o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi,
- o‘quv-bilim olish kompetensiyasi.

Mazkur kompetensiyalarni shakllantirishning negizida mustaqil bilim olish va faoliyat usullarini egallash yotadi. O‘quvchi o‘z-o‘zini anglay oladigan, faoliyatini o‘zi rejalashtirib, o‘z yo‘lini topa oladigan ijodiy shaxs bo‘lib kamol topishi kerak. Shu bois, ta‘lim jarayonining samaradorligi bevosita o‘quvchining o‘quv faoliyatida qanday subyektga aylanganiga, u nechog‘lik faol ishtirokchi ekani va bilim olishda mustaqilligiga bog‘liq.

Mustaqillik – bu o‘quvchining fikrlash faolligi, tashabbuskorligi va ijodkorlikka yo‘nalgan faoliyatining asosidir. Ijodiy faoliyat esa – o‘quvchining atrof-muhit bilan faol aloqasi, bu orqali u nafaqat borliqni, balki o‘zini ham ongli ravishda o‘zgartiradi, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan yangi g‘oyalar va mahsulotlar yaratadi.

Shu sababli, kelajak avlodning qanday shakllanishi, jamiyat taraqqiyotiga qanday hissa qo‘shishi maktabda o‘quvchilarni mustaqil, faol va ijodiy fikrlovchi shaxs sifatida tayyorlash darajasiga bog‘liqdir. Boshlang‘ich ta‘lim – bu nafaqat bilim beradigan jarayon, balki hayot bilan bog‘liq muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan, ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalaydigan muhim pedagogik maydondir.

Ta‘limiy faoliyatni shakllantirishdagi yakuniy maqsad — o‘quvchini mazkur faoliyatning to‘laqonli subyekti sifatida kamol toptirishdan iboratdir. Ya‘ni, o‘quvchi o‘zi mustaqil ravishda maqsad qo‘ya oladigan, vazifalarni hal qilish uchun zarur bilim va faoliyat usullarini tanlab, ularni faollashtira oladigan, harakatlarini oldindan rejalashtirib, nazorat qilib, erishilgan natijalarni belgilangan maqsad bilan solishtira oladigan, qisqasi, o‘z faoliyatini ongli ravishda boshqarishga qodir shaxsga aylanishi kerak.

Maktabga endigina qadam qo‘ygan bolaning bu kabi ko‘nikmalari tabiiyki hali shakllanmagan bo‘ladi. O‘quv jarayonining o‘zida u asta-sekin mustaqillikning yetarlicha yuqori darajasiga erishishi, turli topshiriqlarni mustaqil bajarish, muammoli vaziyatlarda yangilikni kashf qilish salohiyatini egallashi lozim.

Shuni aytish joizki, o‘quvchilarning ta‘limiy faoliyatdagi mustaqilligini oshirishga o‘zlashtirilgan bilim, harakat va munosabatlarni turli fanlar o‘rtasida uyg‘unlashtirib qo‘llash, ya‘ni intrafan (ichki)

aloqalardan interfan (tarmoqlararo) aloqalarga o'tish sezilarli darajada yordam beradi. Shuningdek, nafaqat fanlararo o'zaro bog'liqlikni, balki har bir bosqichda mazmun va faoliyat usullarining murakkablashuvini ham e'tiborga olish zarur.

Mustaqil ta'limiy faoliyatni shakllantirish quyidagi shartlar asosida amalga oshadi:

Birinchidan, mustaqillikni rivojlantirish uchun o'qituvchining bevosita ko'rsatmalaridan boshlab, o'quvchilarning o'zlari mustaqil ravishda muammo yechimi uchun zarur bo'lgan bilim va faoliyat usullarini izlashga o'tish kerak.

Ikkinchidan, o'quvchilar faoliyatning alohida elementlari ustida ishlashdan butun faoliyatni o'z ichiga olgan harakatlarni bajara olishga o'tishlari lozim. Bu o'zgarish o'quv harakatlarining umumiy va xususiy tarkibiy qismlariga hamda butun ta'limiy faoliyatga tegishlidir.

Uchinchidan, mustaqillik shuni ham talab qiladiki, o'quvchilar tayyor harakat usullarini o'zlashtirishdan o'zlari mustaqil kashf etgan harakatlar tizimiga o'tishlari zarur.

To'rtinchidan, o'quvchi faqat alohida ko'nikmani emas, balki ta'limiy faoliyatning butun tuzilmasini anglab, uni zaruriy shart sifatida qabul qilishi kerak.

Beshinchidan, mustaqillikni oshirishda o'quv topshiriqlari reproduktiv emas, balki ijodiy xarakterda bo'lishi, turli fanlar kesimida bilim va harakatlarni qo'llashni talab qilishi kerak.

Ushbu shartlar asta-sekin o'quvchiga beriladigan yordam miqdorini kamaytirib, uni ta'lim jarayonining faol subyektiga aylantiradi. Bu o'zgarishlar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi aloqalarning to'g'ri tashkil etilishi orqali ro'y beradi. Faollik asta-sekin o'quvchiga o'tadi. Mustaqillik aynan tanlov imkoniyati, o'z fikrini erkin ifoda etish huquqi, mustaqil hukm chiqarish orqali rivojlanadi. Shu sababli, o'qituvchi pozitsiyasi ham o'zgarib, hamkorlikka asoslangan muloqotga aylanishi lozim.

Zamonaviy pedagogikaning oldida turgan asosiy vazifalardan biri – o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish va ularni ijodiy faoliyatga tayyorlashdir. Bunday salohiyat o'quvchilarning bilim olishi, tarbiyalanishi hamda hayotiy tajribani egallashi jarayonida shakllanadi. Ayniqsa, maktab va talabalik davri – bu tafakkur jarayonini chuqurlashtirish, mavzu yuzasidan o'z fikrini mustaqil ifoda etish, uzviylikni ang'ay olish ko'nikmasini rivojlantirish uchun eng muhim bosqichdir. Bu davrlar, shuningdek, kelajakda kasbiy faoliyatga o'tishning muhim poydevorini tashkil qiladi.

Maktabda o'quvchilarning mustaqil fikrlash faoliyatiga quyidagi asosiy omillar ta'sir ko'rsatadi:

1. Bolalar bilan bevosita aloqa qiluvchi kattalarning psixik xususiyatlari, ular tomonidan berilayotgan ta'sir;

2. Fanlar orqali ongga singdirilayotgan mazmunlar;

3. O'quv va tarbiya jarayonining maqsadlaridan kelib chiqadigan topshiriqlarning bajarilishi.

Ushbu omillar orasida eng muhim va birinchi o'rinda turadigan omil – bu o'qituvchining o'quvchilarga ko'rsatadigan bevosita ta'siridir. Ta'limiy munosabatlarda o'qituvchi shunday muhit yaratishi kerakki, unda o'quvchining fikrlashi rag'batlantiriladi, mustaqil qaror qabul qilishga yo'naltiriladi. Har bir o'quvchining noyob nutqi, tafakkur yondashuvi, ijtimoiy harakati qadrlanib, unga o'z vaqtida ijobiy baho berilishi zarur.

Birinchi guruhdagi fanlar orqali o'quvchida o'zini tutish madaniyati, jismoniy va estetik idrok kuchayadi. Bu esa bilvosita uning mustaqil fikrlash qobiliyatiga ijobiy ta'sir qiladi. Ikkinchi guruhdagi fanlar esa mantiqiy fikrlash, abstrakt tafakkur, voqea-hodisalarni tahlil qilish, mohiyatini tushunish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ta'lim jarayonida an'anaviy o'quv uslublari, ayniqsa boshlang'ich sinflarda, ko'pincha o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qilmaydi. Chunki bu bosqichda topshiriqlar odatda aniq ko'rsatmalar bilan beriladi va o'quvchi mustaqil mulohaza yuritishga undalmaydi. O'rta sinflarda esa bunday ko'rsatmalar kamayadi, o'quvchi mustaqil izlanishga majbur bo'ladi. Ko'plab o'quvchilar bunday vaziyatga tayyor bo'lmaydi. Shuning uchun aynan o'rta maktab bosqichida mustaqil fikrlashni shakllantirishga alohida e'tibor berilishi kerak. Chunki fikrlash – bu eng faol va murakkab bilish jarayonidir.

So'nggi yillarda ta'lim jarayonini faollashtirish, ya'ni o'qitishning metod va tashkiliy shakllarini takomillashtirish tendensiyasi kuzatilmoqda. Faollashtirish – bu o'quvchilarning nazariy va amaliy faoliyatini mustaqil olib borishga yo'naltirilgan pedagogik harakatdir. Bu bilan ta'lim jarayonining samaradorligi oshiriladi, o'quvchilarni faollikka, qiziqishga, ijodkorlikka undovchi sharoitlar yaratiladi. Natijada, bilimni egallash, ularni hayotda qo'llay olish, shuningdek, mustaqil qaror qabul qilish kabi ko'nikmalar shakllanadi.

Mustaqil fikrlashni shakllantirish — bu o'qituvchi va o'quvchining o'zaro hamkorlikdagi maqsadli faoliyatidir. Bu faoliyat maxsus tashkil etilgan sharoitlarda, zamonaviy metod va texnologiyalar yordamida olib boriladi.

O‘quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishning samarali yo‘llaridan biri — bu dars jarayonida mustaqil ishlarni tashkil etishdir. Mustaqil ish — bu o‘qituvchi topshirig‘i asosida, lekin o‘quvchining o‘zi tomonidan bajariladigan faoliyat bo‘lib, bunda u shaxsiy kuch va intellektual faollikni ishga soladi. Bunday ishlar bilimni mustahkamlash, ko‘nikma hosil qilish, o‘z-o‘zini baholash, tahlil qilish va umumlashtirish uchun keng imkoniyat yaratadi.

Ta‘lim jarayonini faollashtirish va zamonaviy metodlardan foydalanish orqali o‘quvchilarga mustaqil fikrlashni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratiladi. Natijada, ular nafaqat bilim oladi, balki hayotda mustaqil qaror qabul qilish, insonlar bilan muloqot qilish, kasbiy sohalarda o‘zini namoyon qilish qobiliyatiga ega bo‘lishadi.

Xulosa. Mustaqil fikrlash – bu o‘quvchining bilishga bo‘lgan ichki ehtiyoji, mustaqil qaror qabul qilishi, o‘z fikrini asoslab berish, yangi bilimlarni egallash va ularni hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ushbu ko‘nikmalarni shakllantirish uchun o‘qituvchi metodik yondashuvni, yoshga mos psixologik xususiyatlarni, darsni tashkil etish shakllari va motivatsion omillarni chuqur tahlil qilgan holda amaliy harakat qilishi kerak. Faollashtirilgan o‘quv faoliyati, 4K tamoyiliga asoslangan interfaol metodlar, mustaqil topshiriqlar va muammoli vazifalar orqali o‘quvchi nafaqat bilim oladi, balki shaxsiy rivojlanish uchun mustahkam poydevor yaratadi. Mustaqil fikrlashga ega bo‘lgan shaxs – bu zamon talablari darajasida yashovchi, jamiyatda faol ishtirok etuvchi, o‘z taqdirini o‘zi belgilay oladigan barkamol insondir.

Adabiyotlar:

1. Ma‘murov B.B., Davronov I.E. Pedagogik kompetentlik. Darslik, Buxoro, 2022.
2. Inoyatova D. Boshlang‘ich ta‘limda o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish // University Research Base. – 2024. – C. 103-107.
3. Halimjanovna A.M., Baxromovna B.M. Muammoli ta‘lim mustaqil fikrlash omili sifatida // Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. Special Issue 14. – C. 266-270.
4. Ишанходжаев Б.М. Талабаларнинг мустақил фикрлаш қобилиятларини шакллантириш // Global Science Review. – 2025. – T. 2. – № 1. – C. 18-25.
5. Mamadaliyeva G.M. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil fikrlash jarayonini shakllantirish // Интернаука. – 2020. – №. 23-3. – C. 54-55.
6. Ismailov M.K., Ro‘ziyeva J.B. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning amaliy jihatlari // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – T. 3. – № 5. – C. 735-745.

**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINING KASBIY-METODIK
TAYYORGARLIGINI TALIS (XALQARO TADQIQOTI) ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH**

Mustafoyeva Mehrangiz Shukulloyevna,

*Buxoro davlat pedagogika instituti
Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim
pedagogikasi kafedrası o‘qituvchisi*

Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinif o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini xalqaro TALIS tadqiqoti asosida takomillashtirish masalasi chuqur o‘rganildi. Ishda TALIS xalqaro tadqiqotining mazmuni, maqsadi va tuzilmasi tahlil qilinib, ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish omillari yoritildi. O‘zbekiston ta‘lim tizimidagi mavjud pedagogik tayyorgarlik holati tahlil etilib, uning kuchli va zaif jihatlari TALIS tavsiyalari asosida baholandi. Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik savodxonligini oshirish, innovatsion yondashuvlarga asoslangan amaliy mashg‘ulotlar tizimini joriy etish, ta‘lim sifatini xalqaro mezonlar bilan uyg‘unlashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: xalqaro tadqiqot, TALIS, boshlang‘ich ta‘lim, o‘qituvchilarni tayyorlash, kasbiy-metodik tayyorgarlik, kompetensiya, innovatsion ta‘lim texnologiyalari, metodik savodxonlik, ta‘lim sifati, xalqaro tajriba, pedagogik amaliyot, o‘quvchi faoliyati, o‘qituvchi kompetensiyasi, zamonaviy metodlar, ta‘lim tizimi, malaka oshirish, kasbiy rivojlanish.

**IMPROVING THE PROFESSIONAL AND METHODOLOGICAL TRAINING OF FUTURE
PRIMARY SCHOOL TEACHERS BASED ON TALIS (INTERNATIONAL SURVEY)**

This article deeply studies the issue of improving the professional and methodological training of future primary school teachers based on the international TALIS survey. The work analyzes the content, purpose and structure of the international TALIS survey, and highlights the factors of developing professional competencies based on the experience of advanced foreign countries. The current state of pedagogical training in the education system of Uzbekistan is analyzed, and its strengths and weaknesses are assessed based on the TALIS recommendations. The article develops scientifically based proposals and recommendations on improving the methodological literacy of future teachers, introducing a system of practical training based on innovative approaches, and harmonizing the quality of education with international criteria.

Keywords: international research, TALIS, primary education, teacher training, professional and methodological training, competence, innovative educational technologies, methodological literacy, quality of education, international experience, pedagogical practice, student activity, teacher competence, modern methods, education system, advanced training, professional development.

**ПОВЫШЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ И МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ
БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ TALIS
(МЕЖДУНАРОДНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ)**

В статье подробно рассматривается проблема совершенствования профессиональной и методической подготовки будущих учителей начальных классов на основе международного исследования TALIS. В работе проанализированы содержание, цель и структура международного исследования TALIS, выделены факторы формирования профессиональных компетенций на основе опыта передовых зарубежных стран. Проведен анализ текущего состояния педагогической подготовки в системе образования Узбекистана, дана оценка ее сильных и слабых сторон на основе рекомендаций TALIS. В статье разрабатываются научно обоснованные предложения и рекомендации по повышению методической грамотности будущих учителей, внедрению системы практической подготовки на основе инновационных подходов, гармонизации качества образования с международными стандартами.

Ключевые слова: международные исследования, TALIS, начальное образование, подготовка учителей, профессионально-методическая подготовка, компетентность, инновационные образовательные технологии, методическая грамотность, качество образования, международный

Asosiy qism. Hozirgi zamon ta’limi globallashtirish va innovatsion yondashuvlar fonida tezkor sur’atlar bilan rivojlanayotgan bir davrda boshlang’ich ta’lim sifati hamda o’qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi masalasi nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, pedagogik ta’lim muassasalarida bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarini zamon talablari darajasida, xalqaro standartlarga mos ravishda tayyorlash bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, OECD tashabbusi bilan o’tkaziladigan xalqaro miqyosdagi TALIS tadqiqoti (Teaching and Learning International Survey – O’qitish va o’rganish bo’yicha xalqaro so’rovnoma) o’qituvchilik kasbiga oid eng dolzarb ma’lumotlar manbai bo’lib, ta’lim siyosatini takomillashtirish, o’qituvchilarning ehtiyojlarini aniqlash va ularni kasbiy rivojlantirish yo’llarini belgilashda muhim vosita bo’lib xizmat qilmoqda.

Boshlang’ich ta’lim — bu ta’lim tizimining poydevori bo’lib, o’quvchilarda bilim olishga bo’lgan munosabat, mustaqil fikrlash, ijtimoiy moslashuv, axloqiy qadriyatlar aynan shu bosqichda shakllanadi. Bu esa o’z navbatida ushbu bosqichda faoliyat yurituvchi o’qituvchining nafaqat pedagogik, balki metodik va shaxsiy kompetensiyalariga ham yuksak talablar qo’yadi. Shunday sharoitda bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarini tayyorlash tizimi qanchalik zamonaviy mezonlarga asoslanmasin, u xalqaro standartlar bilan uyg’unlashgan bo’lishi lozim. Ana shu nuqtada TALIS – Teaching and Learning International Survey, ya’ni O’qitish va o’rganish xalqaro so’rovnomasining natijalari va tavsiyalari muhim asos sifatida xizmat qilishi mumkin. TALIS xalqaro tadqiqoti orqali o’qituvchilarning kasbiy ehtiyojlari, dars jarayoniga yondashuvi, metodik vositalardan foydalanish darajasi, o’z ustida ishlashi va ijtimoiy qo’llab-quvvatlanishi kabi ko’plab omillar o’rganiladi. Shu boisdan, ushbu mavzuni ilmiy jihatdan tahlil qilish ham nazariy, ham amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi. Dunyo tajribasi shuni ko’rsatadiki, muvaffaqiyatli ta’lim tizimlarida o’qituvchilarning tayyorgarligi masalasi ustuvor strategik yo’nalish sifatida ko’riladi. TALIS tadqiqoti orqali Finlyandiya, Singapur, Kanada, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi ilg’or mamlakatlarda o’qituvchilarni kasbiy va metodik tayyorlash bo’yicha ilg’or modellarga asoslangan tahlillar taqdim etilgan. Ushbu mamlakatlarda pedagogik ta’lim uzluksiz amaliyot, nazariya va refleksiyani uyg’unlashtirgan, zamonaviy texnologiyalar va o’zaro hamkorlik muhitida tashkil etilgan.

Masalan, Finlyandiya ta’lim tizimida metodik tayyorgarlik alohida e’tibor ostida bo’lib, bakalavriat bosqichida o’qituvchilar yilda kamida 100 soat real maktab sharoitida amaliyot o’tashlari shart. Singapurda esa “pedagogik murabbiylik” tizimi yo’lga qo’yilgan bo’lib, har bir yangi o’qituvchiga tajribali pedagog biriktiriladi. Bu esa bilimlar almashinuvi, amaliy ko’nikmalarning shakllanishi va kasbiy yo’nalishni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot obyekti va qo’llanilgan metodlar. TALIS ma’lumotlari asosida aniqlanishicha, yuqori sifatli kasbiy tayyorgarlik quyidagi omillar bilan bog’liq: metodik kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan amaliy mashg’ulotlar, o’qituvchilarning mustaqil tahlil va o’zini baholash ko’nikmalarini shakllantirish, interfaol yondashuvlar, jamoaviy o’rganish va kasbiy hamkorlik. Ushbu omillar o’qituvchining nafaqat bilim, balki shaxsiy va professional o’sishiga zamin yaratadi.

TALIS tadqiqoti OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) tomonidan 2008-yildan beri tashkil etilib kelinayotgan xalqaro miqyosdagi keng ko’lamli so’rovnoma bo’lib, u o’qituvchilarning kasbiy faoliyati, ish muhitlari, bilim va ko’nikmalari, metodik yondashuvlari haqida chuqur tahlillarga asoslanadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — o’qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga to’sqinlik qilayotgan muammolarni aniqlash, davlatlar ta’lim siyosatida raqobatbardosh yechimlarni ishlab chiqish, shuningdek, o’qituvchilik kasbining zamonaviy holatini aniqlashtirishdan iborat.

TALIS so’rovnomasida ko’p jihatlar qamrab olinadi: o’qituvchining kasbiy o’sishidagi ehtiyojlari, o’quvchilarning xulq-atvori bilan bog’liq muammolar, metodik va didaktik yondashuvlar, o’qituvchilarning yetakchilik salohiyati, dars jarayonining tashkil etilishi, malaka oshirishning samaradorligi va boshqa ko’rsatkichlar. Ushbu indikatorlar asosida ishtirokchi davlatlarning o’qituvchilari o’rtasida o’xshashliklar va farqlar aniqlanadi. TALIS bugungi kunda 60 dan ortiq mamlakatlarda o’tkazilmoqda. Bu tadqiqot turli tipdagi ta’lim tizimlari va o’qituvchilik madaniyatlari o’rtasida solishtirma tahlil yuritish imkonini beradi. Shuningdek, natijalar siyosatchilar, ilmiy tadqiqotchilar va ta’lim rahbarlari uchun ishonchli manba sifatida xizmat qiladi.

TALIS tadqiqoti o’qituvchilarning ish sharoitlari, kasbiy ehtiyojlari, o’quv jarayonidagi metodik yondashuvlari hamda ta’lim sifati bilan bog’liq turli jihatlarni tahlil etadi. Bu tadqiqot natijalari asosida o’qituvchilik kasbining holati, uning ijtimoiy nufuzi, ta’lim tizimidagi roli va ahamiyati chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu xalqaro monitoringda ishtirok etuvchi davlatlar o’z ta’lim tizimlarini boshqalar

bilan taqqoslash, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa o‘z navbatida ta’lim siyosatini asosli va ilmiy yondashuvlar asosida shakllantirish imkonini beradi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini TALIS tadqiqoti asosida tahlil qilish orqali ularning ta’lim jarayoniga tayyorlik darajasi, metodik kompetensiyasi, innovatsion texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalari, hamkorlik madaniyati, darsni rejalashtirish va tahlil qilish malakasi, shuningdek, o‘z ustida ishlash motivatsiyasi kabi jihatlar aniqlanadi. Aynan shu yo‘nalishdagi izlanishlar, pedagogik ta’limda metodik blokni qayta ko‘rib chiqish, real maktab hayoti bilan integratsiyani kuchaytirish va zamonaviy yondashuvlar asosida o‘qituvchilarni tayyorlash muhimligini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston ta’lim tizimi ham ushbu xalqaro tendensiyalar fonida rivojlanmoqda. 2025-yilda boshlang‘ich ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, yangi avlod darsliklari, raqamli resurslar, o‘qituvchilarning malaka oshirish tizimi kabi ko‘plab yangiliklar bevosita ushbu mavzuning dolzarbligini tasdiqlaydi. Shunga qaramay, metodik tayyorgarlik darajasida kuzatilayotgan ayrim muammolar, ya’ni o‘qituvchilarning zamonaviy o‘quv texnologiyalarini qo‘llay olish malakasining pastligi, darslarda interfaol metodlardan kam foydalanish, kasbiy refleksiya yetishmasligi kabi kamchiliklar mavjud. TALIS natijalari esa ushbu holatlarni aniqlash va ular asosida ilg‘or davlatlar tajribasi bilan solishtirib, tahlil qilish imkonini beradi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, muvaffaqiyatli ta’lim tizimlarida o‘qituvchilik kasbiga alohida e’tibor qaratiladi. Masalan, Finlyandiya, Singapur, Yaponiya kabi mamlakatlarda o‘qituvchilarning tayyorgarligi pedagogik amaliyotga boy bo‘lishi, muntazam kasbiy rivojlanish, metodik ko‘mak va hamkorlik muhiti orqali yo‘lga qo‘yiladi. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchilarning nafaqat nazariy bilim, balki amaliy ko‘nikmalarni chuqur egallashiga yordam beradi. Shu asosda, O‘zbekiston oliy pedagogik ta’lim tizimida ham ushbu xalqaro mezonlar asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tayyorgarligini takomillashtirish lozim.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Zamonaviy metodik tayyorgarlik nafaqat dars o‘tish texnikasini o‘rgatish, balki talabalarning shaxsiy kompetensiyasini shakllantirish, innovatsion fikrlashini rivojlantirish, mustaqil qaror qabul qilish va ijodiy yondashish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilishi kerak. O‘qituvchi bugun faqat bilim beruvchi emas, balki ko‘rsatma beruvchi murabbiy, yo‘naltiruvchi, psixologik ko‘makchi sifatida faoliyat yuritishi zarur. Shu boisdan, metodik tayyorgarlikda kasbiy refleksiya, o‘z ustida ishlash madaniyati, talaba-o‘qituvchi hamkorligi va raqamli texnologiyalardan foydalana olish malakalari ustuvor yo‘nalishlarga aylanishi kerak.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini xalqaro TALIS tadqiqoti asosida takomillashtirish — bu nafaqat pedagogik ta’lim sifati, balki butun ta’lim tizimi samaradorligini oshirishga qaratilgan dolzarb va strategik yo‘nalishdir. Bu yo‘lda xalqaro standartlarni milliy tizimga integratsiyalash, metodik tayyorgarlik mazmunini yangilash, o‘qituvchining kasbiy rivoji uchun zarur sharoitlar yaratish va ilmiy asoslangan yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tariqa, 2025-yil ta’lim tizimining rivojlanishida asosiy buriilish nuqtasi sifatida o‘qituvchi shaxsiga va uning tayyorgarlik sifatiga ustuvor ahamiyat qaratilishi zarur.

Ta’limning uzviyligi, bosqichma-bosqichlik tamoyiliga asoslangan yangi dasturlar, darsliklar, baholash tizimi, o‘qituvchilarning malakasini oshirish va sertifikatlash kabi yangiliklar joriy etilmoqda. Biroq mavjud pedagogik ta’lim tizimi hali-hanuz klassik modeldan to‘liq voz kechmagan bo‘lib, metodik tayyorgarlikdagi ayrim zaxiralar saqlanib qolmoqda. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda nazariy bilimlar ustuvor bo‘lib, real amaliyotga yetarlicha e’tibor qaratilmayapti. Talabalar maktab amaliyotini qisqa muddatli va rasmiyatchilikka asoslangan tarzda o‘tashmoqda. Shuningdek, ularning zamonaviy interfaol metodlardan foydalanish, darslarni kreativ yondashuv asosida tashkil etish, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalari sust rivojlangan.

Ta’lim muassasalarida o‘qituvchilarni tayyorlashda metodik ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun yetarli infratuzilma, ko‘rgazmali vositalar, tajriba almashinuvi maydonchalari, laboratoriyalar mavjud emas. Bu esa kasbiy kompetensiyaning bir tomonlama shakllanishiga olib kelmoqda. Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlashda zamonaviy yondashuvlar — bu faqat texnik vositalar bilan ishlash emas, balki pedagogik refleksiya, interfaol ta’lim metodlari, o‘quvchi shaxsini markazga qo‘ygan individual yondashuvlar orqali kasbiy kompetensiyani rivojlantirishni nazarda tutadi. Kompetensiyaviy yondashuv, STEAM ta’limi, problemali va loyihaviy o‘qitish metodlari, o‘yinli pedagogika, raqamli platformalarda dars berish — bu zamonaviy pedagogning qurolidir. Tayyorgarlikni takomillashtirish uchun amaliyotga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar, ilg‘or pedagoglar bilan tajriba almashinuvi, metodik portfoliolar tayyorlash, raqamli kontentdan foydalanish, o‘z ustida ishlash madaniyatini rivojlantirish muhim strategiyalar sirasiga kiradi. Shuningdek, universitet va maktablar o‘rtasida kuchli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, mentorlik tizimini joriy etish ham talabalarning kasbiy shakllanishiga yordam beradi.

Metodik tayyorgarlik bu – faqat dars rejasini tuzish emas, balki pedagogik situatsiyalardan chiqish, fanlararo integratsiyani tashkil etish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, o'quvchining psixologik ehtiyojlarini tushunish, refleksiya yuritish va kasbiy ehtiyojlarni doimiy ravishda rivojlantirish jarayonidir. Kompetensiyaviy yondashuvda o'qituvchi – bu mutaxassis, lider, psixolog va dizayner sifatida shakllanadi. Innovatsion texnologiyalar, xususan sun'iy intellekt, AR/VR texnologiyalar, interaktiv doskalar, gamifikatsiya, mobil ilovalar orqali o'qitish samaradorligini oshirish mumkin. Shu bilan birga, pedagogik loyihalar, portfoliolar, amaliy seminarlar, dars kuzatuvlari orqali kasbiy o'sishni rag'batlantirish zarur. Bu esa o'z navbatida, O'zbekiston ta'lim tizimida raqobatbardosh o'qituvchilarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar asosida aytish mumkinki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini xalqaro mezonlar asosida takomillashtirish — bu zamonaviy ta'limning muqarrar yo'lidir. TALIS tadqiqotining natijalari bizga muhim diagnostik ko'rsatkichlarni beradi. Shu asosda O'zbekiston pedagogik ta'lim tizimi o'zining metodik tarkibini qayta ko'rib chiqishi, zamonaviy o'qituvchi modelini aniqlab, unga mos kompetensiyalarni shakllantirish yo'llarini belgilashi lozim. Ilmiy asoslangan, innovatsion, refleksiv, amaliyotga yo'naltirilgan pedagogik tayyorgarlik – bu kelajak o'qituvchisi uchun zarurdir. Bu yo'lda davlat siyosati, ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot markazlari va pedagogik jamoalarning hamkorligi muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Shu tarzda, 2025-yilda va undan keyingi bosqichlarda O'zbekistonning boshlang'ich ta'limi xalqaro miqyosda raqobatbardosh bo'lishi mumkin.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari ta'lim sohasida ham tub o'zgarishlarni talab etmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida faoliyat olib boruvchi o'qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligi ta'lim sifati va natijadorligining muhim omili sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu ilmiy ish doirasida o'tkazilgan nazariy tahlillar, xalqaro tajriba o'rganishlari va TALIS xalqaro tadqiqoti asosidagi ilmiy yondashuvlar shuni ko'rsatdiki, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini faqat an'anaviy bilimlar bilan emas, balki zamonaviy pedagogik kompetensiyalar, amaliyotga yo'naltirilgan metodik yondashuvlar va uzluksiz kasbiy rivojlanishga tayyorlik orqali shakllantirish zarur.

TALIS tadqiqotining asosiy mezonlari — o'qituvchilarning kasbiy ehtiyojlarini aniqlash, ularning ishga bo'lgan motivatsiyasi, metodik tayyorgarligi va ta'lim jarayonidagi faol ishtiroki — O'zbekiston sharoitida ham pedagogik ta'lim sifatini oshirish uchun muhim manba bo'lib xizmat qilishi mumkin. Tadqiqotning nazariy va amaliy natijalari shuni ko'rsatdiki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini TALIS tadqiqoti yondashuvlari asosida takomillashtirish orqali nafaqat pedagogik mahoratni, balki ta'lim jarayonining samaradorligini ham sezilarli darajada oshirish mumkin. Shunday ekan, ushbu ilmiy ishda asoslab berilgan ilmiy-nazariy g'oyalar va amaliy tavsiyalar O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida o'qituvchi tayyorlash strategiyasini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. OECD. TALIS 2018 Results: Teachers and School Leaders as Lifelong Learners. Volume 1. OECD Publishing, Paris, 2019. 48–52-bet.
2. OECD. Teachers and School Leaders as Valued Professionals. TALIS 2018 Results, Volume II. OECD Publishing, 2020. 117–124-bet.
3. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education. UNESCO Publishing, 2023. 36–42-bet.
4. Azizxo'jayev A.N. Pedagogika. – T.: “Ilm-Ziyo”, 2020. 75–81-bet.
5. Abduraxmonov Q.X. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat asoslari. – T.: “Fan va texnologiya”, 2021. 90–95-bet.
6. Turaqulov E., To'xtaxo'jayev N. Ta'lim sifati va o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2022. 43–49-bet.
7. Soliyeva M.X. Boshlang'ich ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: “Zarqaynar”, 2023. 55–61-bet.
8. Qodirova D.M. Zamonaviy pedagogik fikrlar va xalqaro baholash tizimlari. – Samarqand: “Registon”, 2022. 102–108-bet.
9. Sultonov Q.S. O'qituvchi faoliyatida kasbiy rivojlanish yo'llari. – T.: “O'zbekiston”, 2020. 80–86-bet.
10. Kurbangaliyevna G. D. Professional Training of Future Primary School Teachers: Methodological Aspects. European Journal of Research, 2023. 29–35-bet.
11. Darling-Hammond, L. The Flat World and Education: How America's Commitment to Equity Will Determine Our Future. – Teachers College Press, 2020. 112–120-bet.

FILOLOGIYA VA TILLARNI O'RGANISH

TALABALARNING TIL KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA AUTENTIK MATERIALLARNING DOLZARBLIGI

Azimova Dिल्фуза Sobirovna,

Mirzo Ulug'bek nomidagi

O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

dilfuzazimova89@gmail.com

Hozirgi paytda ta'lim talaba yoshlar shaxsida jamiyat va shaxsiy manfaatlar orasidagi muvozanatni vujudga keltiruvchi ta'sir mexanizmlarini ishlab chiqishga, shaxslarning o'zlarini takomillashtirib borishi va hayotda o'z o'rnini topib, jamiyatda samarali mehnat qilish yo'llarini o'rgatishga yo'naltirilmoqda. Ta'lim sifatini oshirish uchun uning holati va rivojlanish tendensiyalarini uzluksiz monitoringini olib borish va talabalarning o'quv yutuqlarini obyektiv va adekvat baholashni amalga oshirish zarur. Bugungi kunda dunyo miqyosida talaba shaxsidagi til mahorati (xorijiy tilda)ning taraqqiy ettirishning insonparvarlikka asoslangan ko'p parametrlı konsepsiyalari ilgari surilmoqda. Bular orasida talabalarning til o'qitish ko'nikmasini autentik materiallar jumladan, o'qish uchun mo'ljallangan materiallar asosida rivojlantirish juda muhimdir.

Kalit so'zlar: *til ko'nikmalari, an'anaviy ta'lim, autentik, didaktik vositalar, produktiv ko'nikma, til tuzilishi.*

THE IMPORTANCE OF AUTHENTIC MATERIALS IN DEVELOPING STUDENTS' LANGUAGE SKILLS

Currently, education is aimed at developing mechanisms of influence that create a balance between social and personal interests in the student, teaching individuals how to improve themselves and find their place in life and work effectively in society. To improve the quality of education, it is necessary to continuously monitor its status and development trends and to carry out an objective and adequate assessment of students' academic achievements. Today, multi-parameter concepts based on humanism are being put forward worldwide for the development of language skills (in a foreign language) in students. Among them, it is very important to develop students' language learning skills on the basis of authentic materials, including materials intended for reading.

Keywords: *language skills, traditional education, authentic, didactic tools, productive skills, language structure.*

ЗНАЧИМОСТЬ АУТЕНТИЧНЫХ МАТЕРИАЛОВ В РАЗВИТИИ ЯЗЫКОВЫХ НАВЫКОВ УЧАЩИХСЯ

В настоящее время образование направлено на развитие механизмов воздействия, создающих баланс между общественными и личностными интересами у обучающегося, на обучение личности тому, как совершенствовать себя, находить свое место в жизни и эффективно работать в обществе. Для повышения качества образования необходимо постоянно отслеживать его состояние и тенденции развития, проводить объективную и адекватную оценку учебных достижений обучающихся. Сегодня в мире выдвигаются многопараметрические концепции, основанные на гуманизме, для развития языковых навыков (на иностранном языке) у обучающихся. Среди них очень важным является развитие языковых навыков обучающихся на основе аутентичных материалов, в том числе материалов, предназначенных для чтения.

Ключевые слова: *языковые навыки, традиционное образование, аутентичные, дидактические средства, продуктивные навыки, языковая структура.*

Kirish. Bugungi kunda pedagogik tadqiqotlarda aksariyat yondashuvlar talaba shaxsining o'z o'zini rivojlantirishiga qaratilgandir. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim muammosi bir qator pedagog olimlar P.G'. Safarova, J.G'. Yuldashev, E.Seytxalilov, E.R.Axliddinov, B.R.Adizov, Sh. Qurbonov, U. Musayev, B.

Ma'murov, V.M. Monaxov va Y.V.Bondarevskaya kabilar tomonidan tadqiq etilgan. Olimlarning ta'kidlashicha, talaba shaxsiy aqliy taraqqiyotining muayyan bosqichlarida unga tizimli tarzda pedagogik ta'sir ko'rsatish lozim. Talabalardagi til ko'nikmalarini rivojlantirish muammosi bu sohada bir qator yondashuvlar mavjudligiga qaramasdan hamon dolzarb pedagogik muammo sifatida o'z yechimini kutmoqda. Ayniqsa, 1-2 kurs talabalarini xorijiy til ko'nikmalarini, ayniqsa o'qishni rivojlantirish muammosi didaktik jihatdan ochib berilmagan.

Talaba yoshlarni har tomonlama rivojlantirish muammosining yechimi jamiyat hayotida alohida ahamiyatga ega. Buning uchun bugungi kunga qadar ta'lim jarayonida mavjud bo'lgan ayrim an'analardan voz kechish zarurati tug'ilmoqda. Jumladan, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan an'anaviy ta'lim jarayoni orasida mutanosiblikni ta'minlagan holda talabalarining til ko'nikmalarini rivojlantirish tizimini belgilab berish muhim masalalardandir. Talabalarda mavjud bo'lgan bilimlar paradigmasi hamda ular taraqqiyotining o'ziga xos jihatlari orasida aloqadorlikni ta'minlagan holda shaxsning o'z-o'zini rivojlantirishi, ularning o'quv jarayonidagi taraqqiyotlari orasida dinamik aloqadorlikni ta'minlash lozim. Talabalarining xorijiy til ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan narsa bu autentik materiallardir. Uning ahamiyatligi shundaki, bu jarayonda o'quv vaziyati barqaror rivojlanadi va talabalarga samarali pedagogik ta'sir ko'rsatish imkoniyati vujudga keladi. Birinchidan, mazkur muammoning amaliyotdagi holati tahlili shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar talabalarining til mahoratlariga, ayniqsa gapirishga aksariyat hollarda e'tibor qaratmaydilar. Ikkinchidan, ta'lim sohasidagi islohotlar natijasida talabalarni til ko'nikmalarini rivojlantirishda yangi pedagogik imkoniyatlar vujudga keldi. Talabalarining til mahoratlarini rivojlantirish masalasi o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab o'rganila boshlandi. Biroq, bu masalaga hozirgi kunda yangicha pedagogik paradigm asosida yondashilmoqda. Jumladan, ushbu masalaga jamiyathunoslar va psixologlar birinchilardan bo'lib e'tibor qaratganlar. Juda ham kam miqdorda talabalar chet tilidagi til ko'nikmalarini rivojlantirish hamda autentik materiallar haqida tasavvurga ega ekanliklari ma'lumdir. Ularning juda kam qismigina bu masala haqida muayyan bilimga egadirlar. Aksariyat talabalar o'quv predmetlaridan dars beradigan pedagoglarning talabalarda til ko'nikmasini tarkib toptirishga yetarlicha e'tibor qaratmaydilar, ayrimlari esa bu ota-ona yoki tutorning vazifasi deb bilishadi. Talabalarining til ko'nikmalarini rivojlantirish hamda xorij madaniyati va hayotini autentik materiallar orqali talabaga yetqazib berish va dars o'tish zarurati mavjud. Ta'lim jarayoni, undagi o'zgarishlar, uning ko'p faoliyati didaktik maydonga aylanishi talaba shaxsiga nisbatan yangicha pedagogik munosabatni qaror toptirishni taqozo qilmoqda. Bugun talabaning til ko'nikmalarini rivojlantirish o'quv jarayonining ustuvor maqsadiga aylandi. Keying yillarda o'quv jarayoni subyektlariga nisbatan qadriyatli munosabat pedagogik madaniyatning tarkibiy qismiga aylanib ulgurdi. Ta'lim jarayonining demokratlashuvi talaba shaxsiga nisbatan qadriyatli munosabatning shakllanishiga asos bo'lmoqda. Bugungi kunda talabalarni har tomonlama rivojlantirish va buning uchun qulay pedagogik muhitni vujudga keltirishning konseptual asoslari yaratilgan. Nazariy manbalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonida talabalarining til ko'nikmalarini rivojlantirish sohasida bir qator xorijiy davlatlarda katta pedagogik tajriba to'plangan. Chunonchi, AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Avstriya kabi mamlakatlarda talaba yoshlarni til ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan davlat miqyosida dasturlar va rejalar mavjud. Bu mamlakatlarning tajribalaridan shu narsa a'yonki, ularda ta'lim jarayonida talabalarining til ko'nikmalarini rivojlantirish uchun keng ko'lamli pedagogik muhit tarkib toptirilgan. Bundan tashqari pedagog o'z fani va talabalaridan kelib chiqqan holda talabaga nafaqat dasrga oid noautentik material, balki autentik material taqdim etish orqali ularning til ko'nikmalarini, tanqidiy fikrlash va ijtimoiy kirishimlilik qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Jahonda Autentik materialni til ko'nikmasiga moslagan holda to'g'ri tanlash muammosi bilan talabalarni o'quv jarayoniga yo'naltiruvchi maxsus pedagogik xizmat xodimlari shug'ullanadilar. Bunday xodimlar o'quv muassasasi ma'muriyatidan mustaqilliklari bilan ajralib turadi. Faylasuflar ham qadimdan shaxsni til ko'nikmalarini rivojlantirish muammosi bilan bevosita shug'ullanib kelganlar. Ular har bir shaxsning individual rivojlanish istagi va imkoniyatlarini, uning shaxsiy sifatleri o'zgarishi bilan bog'liq holda o'rganganlar. Bunda ular insonning shaxsiy, ichki, erkin, ixtiyoriy nuqtai-nazarga tayandilar. Talabalarining til ko'nikmalarini rivojlantirishga ko'maklashadigan tashqi pedagogik ta'sirlar qanchalik ko'p bo'lsa, uning tarkibiy qismlari ham shunchalik izchil bo'ladi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, talaba yoshlarni til ko'nikmalarini rivojlantirish ichki manbalari mohiyatining ortib borishi natijasida, ularning mustaqil fikrlash darajalari ortadi va o'zining qiyofasi o'zgaradi. Bu jarayonda talabaning fikriy barqarorligi va atrofda o'zgarishlarga nisbatan bir xildagi o'ziga xos munosabati qaror topadi. Ta'lim jarayonida talaba yoshlarga talab va maqsaddan kelib chiqqan holda to'g'ri va mos autentik material bilan ta'minlash orqali til ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan izchil didaktik tizimni vujudga keltirish lozim. O'rganuvchining ichki nomustaqilligi unga ta'sir qiluvchi tashqi hamda ichki kuchlarni tushunmasligiga olib keladi. Bunday talabalar o'z oldilariga aniq maqsad qo'ya olmaydilar. Talabalarining mustaqil fikrlash

faoliyatlarini ta'minlash orqali ularning faolliklari va til mahoratlarini rivojlanishlarini ta'minlash mumkin. N.N. Podyakov talaba taraqqiyotining quyidagi yo'nalishlarini aniqlab bergan edi: aqliy, jismoniy, axloqiy, ma'naviy, ijodiy rivojlanish kabi. Yoshlarni til ko'nikmasini rivojlantirishga nisbatan mavjud bo'lgan nazariy yondashuvlarga tayanilgan holda shuni aytish mumkinki, bunday rivojlantirishning muhim shartlaridan biri, ularning o'zlarining maqsadlarini tog'ri anglashlaridadir. Talabalar o'z faoliyatlari mohiyatini anglamasdan turib, uni izchil tarzda amalga oshira olmaydilar. Ularni kelajakka bo'lgan ishonchi va hayot xavfsizligini ta'minlovchi ehtiyojlar va hokazo. Talabaning ijtimoiy ehtiyojlari, kimga yoki nimaga aloqador bo'lish hissi, uni boshqalar ham qabul qilishi, ijtimoiy hamkorlik bilan chambarchas bog'langanligi va qo'llab-quvvatlanishini his etadi. Ularning minnatdorchilikka bo'lgan ehtiyojlari ularning o'z ustida ishlashlariga va individual tarzda o'z til mahoratlarini rivojlantirishga sabab bo'ladi. Qachonki talaba autentik holatlarni ko'rsagina, his etsagina, xorijiy tilda o'sha holatni seza oladi, his qiladi va albatta gapirishga, tushunishga bo'lgan qobiliyatni shakllantiradi. Bu shundan dalolat beradiki, talabalarni rivojlanishida xalqning ijtimoiy tajribasi, dunyoviy va milliy madaniyat hamda fan-texnika yutuqlari singdiriladi. Bu yutuqlarga esa autentik materiallarni berish orqali, dunyoni tanitish orqali erishiladi. Talabalar bunday tajribalar va bilimlarni o'zlashtirishlari o'quv faoliyati davomida amalga oshiriladi va uning natijasida ularda mustaqil o'quv, intellektual hamda ijodiy ko'nikmalar hosil bo'ladi. Shuningdek, bunday faoliyat tajribasi talabalarni kursdoshlari, o'qituvchilari, ota-onalari va atrofdegillar bilan o'zaro muloqotlari davomida muntazam bo'yidi. Shu tariqa talaba rivojlanishining ichki, ya'ni pedagogik va tashqi-ijtimoiy jihatlari o'zaro uyg'unlashadi. O'quv jarayonining yaxlitligi g'oyasiga tayangan holda, talabalar til mahoratlarini rivojlantiruvchi didaktik vositalarni faollashtirish talab etiladi. Bunda talabalarni til ko'nikmalarni rivojlantiruvchi didaktik vositalarni faollashtirish talab etiladi.

Asosiy qism. A.M.Kamenskiy, N.N.Surtayeva, A.N.Yesev, M.A.Nazmutdinova, R.Safarova, Sh. Abdullayeva, B. Adizov, U.Musayev larning fikrlaricha, talaba yoshlar o'quv jarayoni haqida to'liq axborot olishning turli usul va vositalarini o'zlashtiradilar. Jumladan, o'qish, tushunish, kompyuter dasturlari bilan ishlash, yodda saqlash, o'zlashtirish, ma'ruzalarni tinglash va konspektlashtirish kabilar shular sirasiga kiradi. Bu jarayonda talabalarni til ko'nikmlari shakllanadi. Buning uchun talabalarga imkon qadar ko'proq, kengaytirilgan o'quv materiallarini hamda haqiqiy matnlarni taqdim etish lozim. Shu bilan bir qatorda, talabalarga o'quv materiallari bilan ishlash, mashqlar bajarish maqsadida didaktik jihatdan qulay sharoitlarni yaratish uchun, ularning nazariy bilimlarni mustaqil egallash imkoniyatlarini kengaytirish talab etiladi. Bunday yondashuvni o'quv jarayoniga keng tatbiq etish lozim. Buning natijasida talabalar til ko'nikmalari, ayniqsa gapirish yaxshilanadi hamda mustaqil fikrlash va ijodkorlik faoliyatlari kengayadi. Bu esa ulardagi qiziqishlar doirasining kengayishida namoyon bo'ladi. Natijada, talaba yoshlar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlar, ularning moddiy olamni anglashlariga ko'maklashadi. Bu esa, talabalarni mustaqil va tanqidiy fikrlash jarayonlarini rivojlantirish uchun nihoyatda muhimdir.

Talabalar autentik materiallardan foydalanganlarida, ular kontekstda autentik xorijiy tili bilan shug'ullanishlari mumkin, bu ularning til ko'nikmalarini sezilarli darajada oshirishiga yordam beradi. Produktiv ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradigan autentik materiallarning ba'zi usullari quyida keltirilgan:

1. Lug'at boyligini boyitish: Autentik materiallar talabalarni hayotiy vaziyatlarda qo'llaniladigan lug'atning, ya'ni so'z boyligining keng doirasini ochib beradi. Bu ularning so'z boyligini kengaytirishga va xorijiy tilda so'zlashuvchilar tomonidan keng tarqalgan muloqot iboralari, idiomalar va birikmalar bilan tanishishga yordam beradi.

2. Madaniy tushuncha: Autentik materiallar o'rganilayotgan tilning madaniyati, urf-odatlar va an'analari haqida tushuncha olishga, o'quvchilarga tili qo'llanilayotgan madaniy kontekstni tushunishga yordam beradi. Bu ularning hayotiy vaziyatlarda produktiv va to'g'ri muloqot qilish qobiliyatini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

3. Til tuzilishi: Autentik materiallar bilan tanishish o'quvchilarga xorijiy tilda grammatika, sintaksis va jumla tuzilishining amaliyotda ishlatilishini kuzatish imkonini beradi. Bu ularga til qoidalarini o'zlashtirishga yordam beradi va grammatik jihatdan gaplarni to'g'ri tuzish qobiliyatini oshiradi.

4. Autentik muloqot: Autentik materiallar o'quvchilarga muloqot jarayonida tildan qanday foydalanilishining amaliy misollarini beradi. Bu turli kontekstlarda produktiv muloqot qilish uchun misollarni taqdim etish orqali ularning nutq va yozish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Autentik materiallarni til o'rganish faoliyatiga kiritish o'quvchilar uchun juda foydali bo'lishi ham ijtimoiy jihatdan, ham metodik jihatdan isbotlangan. O'qituvchilar xorijiy tilda faol muloqot qilish va o'zaro ta'sirga yordam beradigan qiziqarli va mazmunli mashg'ulotlarni yaratish uchun autentik materiallardan foydalanishlari joiz. Larsen-Freeman, D., & Andersonlar fikricha, o'qituvchi o'quvchilardan yangilik maqolasini tahlil qilishni, ijtimoiy tarmoqdagi postga javob yozishni yoki autentik matnda muhokama

qilingan dolzarb masala asosida munozaraga kirishishni soʻrash mumkin. Bundan tashqari, texnologiya butun dunyo boʻylab autentik materiallarga kirishni har qachongidan ham osonlashtirdi. Internet yordamida oʻquvchilar turli formatdagi, masalan, podkastlar, videolar va onlayn maqolalar kabi koʻplab autentik manbalardan foydalanishlari mumkin, ulardan til oʻrganishda tajribasini oshirish uchun keng miqyosda foydalanish mumkin. Til oʻrgatishda haqiqiy materiallardan foydalanish koʻplab tadqiqotchilar tomonidan metodik jihatdan ham qoʻllab-quvvatlanadi. Tadqiqotchilarning fikricha, haqiqiy materiallar oʻquvchilarni ragʻbatlantirishi, ularni haqiqiy hayotda duch kelishi mumkin boʻlgan haqiqiy tilni oʻrganishga qiziqishni uygʻotishga katta hissa qoʻshadi. Guariento & Morely (2001) nashrida aytilganki, haqiqiy materiallar oʻquvchilarni oʻzlarini his qilish orqali tilni oʻrganishga undashga va ijtimoiy hayotda oʻz fikru-gʻoyasini erkin ifodalashga yordam beradi.

Haqiqiy materiallar adabiy tushunish va tahlilni qoʻllab-quvvatlaydi, chunki u Tilni sunʼiy va diskret sifatida kiritish oʻrniga, haqiqiy til sifatida tabiiy elementlar funktsiyalarining vazifalarini bajaradi. Kirish gipotezasi nazariyasi (Input hypothesis Theory)ga koʻra haqiqiy materiallar soddalashtirilgan yoki mustaqil matnlarga nisbatan koʻproq tushunarli va shuning uchun kommunikativ tilda kattaroq qiymatga ega ekanini taʼkidlashadi. Akademik tildan foydalanish sohasida, Cognitive Academy of Language Proficiency (CALP) oʻqituvchilarni asl materiallar orqali kontekst bilan bogʻlangan va soddalashtirilmagan tilni tanishtirishni taklif qildi.

Haqiqiy materiallar orqali oʻquvchilar oʻz qobiliyatlarini namoyish eta oladilar, va oʻqish strategiyalaridan foydalangan holda fonetik belgilarni ham tushuna oladilar. Adabiyotga asoslangan taʼlim tabiiy tilni taʼminlaydi, talabalar umumiy boʻlgan kengroq grammatik konstruksiyalar bilan tanishadilar, tabiiy nutqda haqiqiy misollar bilan ishlashadi. Oʻquv materiallarining haqiqiy tabiati tufayli oʻquvchilar haqiqiy til lugʻat boyligi bilan tanishadilar. Ivey va Broaddus tomonidan olib borilgan tadqiqotda tadqiqotchilar tadqiqot jurnalida qayd etishicha (sana 2004 yil 26 aprel), ushbu tadqiqotda ishtirok etgan bitta talabaning asl materialni nafaqat ravon oʻqish, balki materialni yaxshi tushunish qobiliyati tez shakllanadi.

Haqiqiy materiallar, shuningdek, koʻp sonli birlashtiruvchi qurilmalarni oʻz ichiga oladi, bu matnlarning tushunarligini oshiradi. Haqiqiy nutq bu maʼlumotni qayta ishlashda va oʻqishni salohiyatini oshirishda qoʻllaniladigan muhim vositadir. Oller (2005) tadqiqotida tadqiqotchi oʻrganuvchi tushunishini oshirish uchun “pi” gipoteza dan foydalanishni yoqlaydi va qoʻllab-quvvatlaydi. Unga koʻra, yangi tilni oʻrganishda mazmunli va murakkab haqiqiy materialga murojaat qilish orqali oʻrganuvchida anglab olish va xorijiy tilda ifoda etish qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi taʼkidlagan. Bu nazariya toʻgʻriligi boshqa jahondagi bir nechta tajribalarda isbotlandi.

Xulosa. Haqiqiy audio va video materiallardan foydalanish, shuningdek, singdirish, ulardagi ijtimoiy-madaniy va lingvistik va madaniy maʼlumotlar talabalarning tegishli natijaga erishishlari uchun zaruriy shartdir. Bundan tashqari, madaniyatlararo talab qilinadigan ijtimoiy-madaniy kompetensiya darajasi ham bunga aloqadordir. Ushbu materiallarni tanlashda, shuningdek ularni tartibga solish jarayonida chet tilini oʻqitish tamoyillari umumiy didaktik va uslubiy tamoyillarga amal qilish kerak. Ijtimoiy madaniyat kompetensiyalarini shakllantirish uchun materiallarni tanlashga qoʻyiladigan talablar:

- ishlatilgan materiallarning haqiqiyligi;
- axborot boyligi;
- qabul qiluvchi uchun maʼlumotlarning yangiligi;
- zamonaviylik va zamonaviy tarixchilik;
- talabalar (shu jumladan, kasbiy) manfaatlarini hisobga olish, shuningdek sevimli mashgʻulotlari, afzalliklari;

- nutqiy gaplarning oʻrganilayotgan mavzuning adabiy meʼyoriga mos kelishi ;
- materiallarning mintaqaviy va lingvistik ahamiyati;
- oʻquv materiallarini darajalarga muvofiq tanlash va ulardan foydalanish

Ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirishning samarali usullaridan biri bu-talabalar real vaziyatlarda yozilgan audio matnlarni oʻqishi yoxud tinglashidir.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirish uchun eng samarali har qanday sinf yoki ish turlarini takrorlaydigan darslar quyidagilar:

sayohat, ekskursiya, dars - (rolli) oʻyin, dars-tanlov, dars-viktorina va boshqa. Ijtimoiy-madaniy bilim va koʻnikmalarni oʻzlashtirib, talabalar haqidagi yangi maʼlumotlar orqali ularning til va madaniy ufqlarini kengaytirish oʻrganilayotgan tilning mamlakati, uning fani, madaniyati, voqeliklari, mashhur kishilari nutq faoliyatining har xil turlaridan foydalanish tinglash, gapirish, oʻqish va yozishni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Стаматиаду Э. Лексико-семантические, структурные и функциональные особенности архитектурной лексики: на материале английского, немецкого, греческого и русского языков. Дисс. ... канд.филол.наук Россия. 2010, стр. 7.
2. Миронова Е.Е. Сопоставительный системный анализ английской и русской лексики: На материале лексики архитектурных конструкций. Дисс. ... канд.филол.наук Россия. 2001. Стр 8.
3. Weekly E. An Etymological Dictionary of Modern English. London 1921. 864 pages.
4. Klein E. A Comprehensive Etymological Dictionary of the English Language. Amsterdam. London. New York. 1966. 903 pages.
5. Barnhart R. The Barnhart Dictionary of Etymology. USA, 1988. 1326 pages.
6. Хакиева З.У. Англоязычная терминология строительства и строительных технологий: структура, семантика и динамика развития. Дисс. ... канд.филол.наук. 2013. Стр 186.
7. Муталлибов С.М. Махмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони /Девону луғотит турк/. Таржимон ва нашрга тайёрловчи Муталлибов С.М. - 1.1,-т.: ЎзССР ФА, 1960. - 499 с.
8. Нашрга тайёрловчи Юнусов А. „Таржумон" - XIV аср ёзма обидаси. Тошкент: Ўзбекистон ССР «Фан» нашриёти, 1980. – 128 с.
9. Шамсиев П., Иброҳимов С. Навоий асарлари луғати. Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972.
10. Умаров Э.А., Эски ўзбек луғатлари. – Тошкент: Фан, 1992
11. Шоабдурахмонов Ш ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-қисм. Тошкент: “Ўқитувчи” нашриёти. – 1980. 110 - бет
12. <http://www.dictionportal.eu/de/ctlg/?objLang=en&dicType=ety>
13. <https://www.etymonline.com/> <https://civilengineering.files.wordpress.com/2014/10/dictionary-of-civil-engineering.pdf>

UDC - 37.02

CULTURAL AESTHETIC STEREOTYPES IN LANGUAGE TEACHING AND DIDACTIC APPROACHES

Isokova Sitora Shamsiddin qizi,

PhD Student, Department of Pedagogy,
Shakhrisabz State Pedagogical Institute,
Shakhrisabz, 181301, Uzbekistan
isoqovasitora97@gmail.com

This article examines the influence of cultural and aesthetic stereotypes on the pedagogical process of language teaching, focusing on how these stereotypes can hinder effective communication and intercultural understanding. It explores the ways in which such stereotypes affect students' learning experiences and suggests didactic approaches that educators can employ to counteract these barriers. The article highlights innovative teaching strategies, interactive methods, and the role of cultural exchange in overcoming stereotypes. By emphasizing the need to adapt pedagogical practices, the study aims to improve language education and create more inclusive, culturally sensitive learning environments.

Keywords: cultural stereotypes, aesthetic stereotypes, language teaching, pedagogical process, intercultural understanding, didactic approaches, innovative teaching methods, interactive learning, cultural exchange, inclusive education.

ВЛИЯНИЕ КУЛЬТУРНЫХ ЭСТЕТИЧЕСКИХ СТЕРЕОТИПОВ НА ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ПРОЦЕСС ПРЕПОДАВАНИЯ ЯЗЫКОВ И ДИДАКТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ИХ ПРЕОДОЛЕНИЮ

В этой статье рассматривается влияние культурных и эстетических стереотипов на педагогический процесс преподавания языков, с акцентом на то, как эти стереотипы могут препятствовать эффективной коммуникации и межкультурному взаимопониманию. Исследуется, каким образом такие стереотипы влияют на опыт обучения студентов и предлагаются дидактические подходы, которые преподаватели могут использовать для преодоления этих барьеров. В статье подчеркиваются инновационные стратегии обучения, интерактивные методы и роль культурного обмена в преодолении стереотипов. Акцентируя внимание на необходимости адаптации педагогических практик, исследование направлено на улучшение языкового образования и создание более инклюзивных и культурно чувствительных образовательных сред.

Ключевые слова: культурные стереотипы, эстетические стереотипы, преподавание языков, педагогический процесс, межкультурное взаимопонимание, дидактические подходы, инновационные методы обучения, интерактивное обучение, культурный обмен, инклюзивное образование.

TILLARNI O'QITISHDAGI PEDAGOGIK JARAYONGA MADANIY ESTETIK STEREOTIPLARNING TA'SIRI VA ULARNI YENGIB O'TISHDAGI DIDAKTIK YONDASHUVLAR

Ushbu maqola madaniy va estetik stereotiplarning til o'qitish pedagogik jarayoniga ta'sirini o'rganadi, ayniqsa, bu stereotiplar samarali muloqot va madaniyatlararo tushunishga qanday to'sqinlik qilishi haqida to'xtaladi. Maqola bunday stereotiplarning talabalar o'qish tajribasiga qanday ta'sir qilishini va o'qituvchilar bu to'siqlarni yengib o'tish uchun qanday didaktik yondashuvlarni qo'llashi mumkinligini tahlil qiladi. Unda innovatsion o'qitish strategiyalari, interaktiv metodlar va stereotiplarni yengib o'tishda madaniy almashinuvning roli ta'kidlanadi. Pedagogik amaliyotlarni moslashtirish zarurligini ta'kidlab, ushbu tadqiqot til o'qitishni yaxshilash va yanada inklyuziv, madaniy jihatdan sezgir o'quv muhitlarini yaratish maqsadida olib borilgan.

Kalit so'zlar: madaniy stereotiplar, estetik stereotiplar, til o'qitish, pedagogik jarayon, madaniyatlararo tushunish, didaktik yondashuvlar, innovatsion o'qitish metodlari, interaktiv o'qish, madaniy almashinuv, inklyuziv ta'lim.

Introduction. Language teaching involves more than just imparting linguistic skills; it plays a key role in fostering intercultural communication, mutual understanding, and respect for diversity. However,

throughout the language teaching process, cultural and aesthetic stereotypes can significantly influence the experiences of both educators and students. These stereotypes are often deeply embedded in societal norms and cultural assumptions, and they can shape how individuals perceive others from different backgrounds. As a result, these preconceptions can create barriers to effective communication, hinder students' ability to fully engage with the language, and limit their understanding of diverse cultures. Cultural and aesthetic stereotypes manifest in various aspects of language teaching, including the representation of native speakers, the selection of learning materials, and the methods used for instruction. These stereotypes often reinforce narrow and biased views of cultures, perpetuating misunderstandings and ultimately undermining the goal of promoting global awareness, empathy, and cross-cultural competence. For example, when students approach a new language with preconceived ideas about the people who speak it, they may find it difficult to connect with the language on a deeper level, as they view it through a distorted lens. The impact of these stereotypes on the pedagogical process is multifaceted. Not only do they influence the learning environment, but they also shape how students perceive the relevance, value, and authenticity of the language they are learning. In many instances, educators themselves may unknowingly contribute to the perpetuation of these stereotypes through their teaching methods and classroom practices, which can reinforce students' existing biases. Therefore, it is essential to carefully examine the role these stereotypes play in the language learning process and to explore strategies that can challenge and dismantle them.

This article aims to investigate the ways in which cultural and aesthetic stereotypes affect the pedagogical process of language teaching and how they hinder effective communication and intercultural understanding. The study will propose practical didactic approaches that educators can adopt to address these barriers and foster a more inclusive, culturally sensitive learning environment. It will emphasize the importance of adapting teaching strategies, integrating cultural exchange opportunities, and using interactive teaching methods to confront and overcome stereotypes. By addressing these challenges, the study seeks to contribute to the advancement of language education, encouraging a deeper appreciation of cultural diversity and the promotion of inclusive and meaningful learning experiences.

Methodology and literature review. This research is based on a **qualitative methodology**, aiming to explore the impact of cultural and aesthetic stereotypes on language teaching in Uzbekistan. The study focuses on understanding how these stereotypes affect the pedagogical process and student learning experiences in the context of Uzbek language education, including both Uzbek and foreign language teaching. It aims to examine how cultural stereotypes are manifested in classroom practices, educational materials, and student-teacher interactions, and how they may impact students' understanding and acquisition of language. To provide a comprehensive perspective, the study uses a combination of **literature review**, **interviews**, and **classroom observations**. This mixed approach ensures that the research captures a wide range of insights from the educational environment in Uzbekistan, including various school settings, language programs, and teacher-student dynamics.

1. Literature Review.

Recent studies have highlighted the crucial role of foreign language learning in the development of global competence, which is essential for effective intercultural communication and understanding. Guo et al. (2024) emphasize that learning a foreign language is not only about acquiring linguistic skills but also about developing cultural awareness and global competence. The authors suggest that different cultural contexts influence how learners engage with foreign languages, and how these interactions shape their perceptions of the world and their place in it. [1]

In terms of student motivation, Jin (2024) explores the role of emotional factors such as **L2 grit** and **foreign language enjoyment** in motivating students to actively participate in English as a Foreign Language (EFL) classrooms. Jin's findings suggest that fostering these emotional connections with the language can significantly improve student engagement and persistence in language learning. [2]

The aesthetic aspects of language use also play a critical role in education, particularly in multilingual settings. Pandey and Ozarkar (2024) examine the challenges of reworking the aesthetics of language to accommodate multilingualism. Their work highlights the need for a more inclusive approach to language education that respects linguistic diversity while also promoting the use of multiple languages for global communication. [3]

Additionally, Sun (2023) discusses **pedagogies of discomfort** and **empathy** in foreign language education, proposing that critical global thinking can be fostered through literature and art. This approach encourages students to engage deeply with foreign cultures and histories, allowing them to critically analyze global issues through the lens of language and cultural expression. [4]

Lastly, Vo et al. (2024) investigate the factors influencing **classroom engagement** in second language learners, particularly focusing on task value beliefs and teacher emotional support. Their study suggests that

a supportive emotional environment and the intrinsic value students place on tasks are key factors that enhance engagement and language learning outcomes. [5]

Overall, these studies underline the importance of integrating emotional, aesthetic, and intercultural factors into foreign language education to foster more meaningful, engaging, and globally competent learning experiences.

2. Interviews.

Semi-structured **interviews** were conducted with both **language teachers** and **students** across different educational institutions in Uzbekistan. Teachers were asked about their experiences in teaching languages (both Uzbek and foreign languages) and whether they noticed any cultural or aesthetic stereotypes influencing their students' learning. The interviews revealed that many teachers were not fully aware of the stereotypes that students held, particularly in relation to language proficiency, culture, and identity. For instance, one teacher reported that when teaching English, students often associated English speakers with **wealth** and **modernity**, leading them to overestimate the abilities of native speakers while underestimating their own potential. Conversely, some teachers acknowledged that they held biases, such as assuming that students from rural areas were less proficient in language skills compared to those from urban areas like Tashkent. This assumption led to a tendency to offer more attention and resources to urban students, unintentionally creating disparities in learning opportunities. The student interviews provided insight into how these stereotypes affect students' self-perception and engagement in language learning. Students from rural areas, for example, felt self-conscious about their accents when speaking foreign languages, and some students from minority ethnic groups expressed that their cultural backgrounds were often overlooked in language lessons. They described feeling disconnected from the content and even discouraged from speaking, due to the perceived emphasis on "standard" accents or behavior patterns.

3. Classroom observations.

Classroom observations were a critical part of the research methodology. The researcher observed **language lessons** in different schools, focusing on how language was taught and whether cultural stereotypes were evident in teaching methods, classroom materials, or teacher-student interactions. In one school in Tashkent, for example, the curriculum heavily focused on the **globalization** of English, presenting it as a tool for economic success and international communication. However, in doing so, the lessons often depicted Western cultures in a **positive light** while overlooking the rich cultural diversity within Uzbekistan. This limited the students' ability to see the value in their own cultural identities while learning a foreign language. In contrast, another language teacher in a regional school in Bukhara integrated cultural elements from various ethnic groups within Uzbekistan (such as **Tajiks, Kazakhs, and Karakalpaks**) into language lessons. This practice not only enriched the language learning experience but also helped students develop a greater understanding and respect for cultural diversity. Teachers who used local songs, proverbs, and folk tales found that students were more engaged and motivated, as the content was more relatable to their own experiences.

Results. The interviews with language teachers and students in Uzbekistan revealed several important findings regarding cultural and aesthetic stereotypes in language teaching.

1. **Teacher Awareness of Stereotypes.** Many teachers were unaware of the cultural and aesthetic stereotypes that students held, particularly in relation to language proficiency. Teachers noted that students often associated **English speakers** with wealth and modernity, which led them to **overestimate native speakers' abilities**. Some teachers also acknowledged biases, particularly towards **rural students**, assuming they were less proficient than their **urban counterparts**.

1. **Students' Perceptions and Engagement.** Students from rural areas often felt **self-conscious** about their **regional accents** and were hesitant to speak in foreign languages due to fear of judgment. Additionally, students from **minority ethnic groups** (e.g., Tajiks, Karakalpaks) reported that their cultural backgrounds were often overlooked, which caused them to feel disconnected from the language lessons.

2. **Disparities in Teacher-Student Interaction.** Teachers from **urban areas** tended to give more attention to students from **Tashkent** or other larger cities, unintentionally creating a **disparity in learning opportunities** for rural students. Rural students felt less encouraged, which affected their **participation and motivation**.

3. **Impact on Motivation and Participation.** The presence of stereotypes led to **lower participation and engagement** in class, especially in speaking exercises. Students who felt their accents or cultural backgrounds were viewed negatively showed less interest in actively participating.

Classroom observations. The classroom observations revealed significant differences in how language teaching methods were implemented in various schools and the role of cultural representation in shaping students' perspectives. The findings suggest that while some educational approaches emphasized

global perspectives, others more successfully incorporated local cultural identities, thus offering a more holistic learning experience.

In Tashkent, the focus on globalization and the economic advantages of English, although valuable for students' global outlook, inadvertently reinforced a one-sided cultural narrative. The curriculum's portrayal of Western cultures as models of success led to an underrepresentation of local cultural diversity, especially the ethnic and historical richness of Uzbekistan. This created a gap in students' understanding of their own cultural heritage, limiting their ability to see the intrinsic value of their own identities in the context of foreign language learning. Despite the modernized, globalized language instruction, students in Tashkent appeared to struggle with connecting the foreign language to their own cultural experiences. In contrast, the observations at the regional school in Bukhara illustrated a more inclusive and culturally diverse approach to language education. The teacher's integration of local ethnic cultures (such as Tajik, Kazakh, and Karakalpak) into the curriculum fostered an environment where students could learn a foreign language while simultaneously gaining a deeper understanding of their own cultural backgrounds. The inclusion of local songs, proverbs, and folk tales in the lessons enhanced the students' engagement and motivation, as the content resonated more deeply with their personal lives. This approach not only made language learning more relevant but also helped students develop a broader, more respectful appreciation for cultural diversity. Overall, the findings suggest that language instruction that includes a balance of global and local cultural elements can have a positive impact on students' motivation, engagement, and understanding of both the target language and their own cultural identity.

Discussion. The findings of this study shed light on the significant role that cultural and aesthetic stereotypes play in the pedagogical process of language teaching in Uzbekistan. Through interviews with both teachers and students, it became evident that these stereotypes influence not only how language is taught but also how students perceive their own abilities and potential.

One of the major findings was the lack of awareness among teachers regarding the cultural stereotypes their students held. Many teachers did not realize the extent to which students, particularly in urban settings, associated English with wealth, modernity, and success. This created a situation where students overestimated the abilities of native speakers, while simultaneously undervaluing their own language potential. This situation reflects a broader societal tendency to idealize foreign cultures, particularly Western ones, while neglecting local cultural identities. For example, students from rural areas often felt that their accents were inferior or not "standard," which created a significant barrier to their language learning. This issue points to a deeper, more ingrained bias in education systems that favor urban students, often leading to unequal opportunities and educational disparities. Moreover, the interviews revealed that students from minority ethnic groups, such as Tajiks and Karakalpaks, felt alienated due to the lack of representation of their cultural backgrounds in language lessons. This absence of cultural inclusivity not only discouraged students from participating in class but also led to a lack of engagement with the material. Students who felt their culture was undervalued or excluded from the curriculum were less likely to see the relevance of the language they were learning, which in turn diminished their motivation. This issue raises important questions about the role of cultural diversity in language education and the need for inclusive teaching practices that reflect the multicultural nature of the classroom.

The classroom observations further reinforced these findings. In Tashkent, the focus on the globalization of English, often portrayed as a gateway to economic success, came at the expense of local cultural identity. The curriculum's emphasis on Western cultures, as models of progress, overlooked the rich cultural diversity within Uzbekistan itself. By focusing primarily on the advantages of learning English for global communication and economic success, the lessons failed to incorporate local cultural nuances, thus limiting students' ability to connect with the content in a meaningful way. This narrow approach to teaching foreign languages diminished the students' sense of cultural pride and, in some cases, led to a disconnection from the language itself.

These findings suggest that the integration of local and global cultural elements in language teaching is essential for creating a more inclusive and engaging classroom environment. By acknowledging and addressing cultural stereotypes, educators can encourage students to embrace their own cultural identities while also learning to appreciate and respect the cultures of others. It is clear that language learning is not simply about acquiring linguistic skills; it is also about fostering a sense of identity, belonging, and mutual respect in a diverse world.

New Approaches to Addressing and Teaching Cultural Stereotypes in Language Learning.

To effectively teach language while addressing the impact of cultural and aesthetic stereotypes, educators need to adopt innovative and inclusive approaches that challenge these biases and promote cross-cultural

understanding. Here are several strategies that can be implemented in the classroom to help students critically engage with stereotypes and develop a deeper appreciation of cultural diversity:

- **Incorporating Critical Thinking and Reflection.** One of the most powerful ways to address cultural stereotypes is by encouraging students to engage in critical thinking. Teachers can facilitate discussions that ask students to reflect on their own cultural assumptions and stereotypes. For example, teachers might ask students how they perceive speakers of the target language and whether these perceptions are based on stereotypes. This approach helps students identify and challenge their own biases, making them more aware of how stereotypes shape their learning experiences.

- **Utilizing Diverse and Authentic Materials.** Textbooks and learning materials often present a narrow view of language and culture, which can reinforce stereotypes. To combat this, teachers should incorporate authentic resources that showcase a variety of perspectives. For instance, using songs, literature, news articles, films, and guest speakers from different cultural backgrounds can broaden students' understanding of the target language and its diverse speakers. Exposure to real-life experiences and diverse cultural expressions helps dismantle stereotypes and encourages students to engage with the language in a more meaningful way.

- **Promoting Intercultural Exchange and Collaboration.** Encouraging students to interact with native speakers or peers from different cultural backgrounds can be an effective way to overcome stereotypes. Setting up language exchange programs, virtual communication with international students, or collaborative projects with students from other cultures can provide opportunities for firsthand cultural experiences. These exchanges help students see beyond stereotypes and develop a more nuanced understanding of cultural identities.

- **Inclusive Curriculum Design.** Educators should design curricula that reflect not only the global aspects of language but also the local cultural contexts. This could involve integrating the history, traditions, and perspectives of students' own cultures into language lessons. For example, when teaching English, rather than focusing solely on Western cultural references, teachers could include elements from the students' local cultures (e.g., literature, folklore, art) to create more relatable content. This helps students feel more connected to the material, increasing their motivation and engagement.

- **Creating a Safe and Open Classroom Environment.** It is crucial to foster an environment where students feel comfortable discussing their own cultural identities and sharing their experiences. Teachers should encourage open dialogue about cultural diversity and ensure that students feel valued and heard. By creating a space where stereotypes can be discussed openly and respectfully, students are more likely to confront their biases and develop a greater understanding of others.

- **Using Role-Playing and Simulations.** Role-playing activities and cultural simulations can help students step into the shoes of people from different cultural backgrounds. This experiential learning approach can deepen students' empathy and understanding, as they experience firsthand the challenges and perspectives of others. For example, students can role-play real-life scenarios involving intercultural communication, which will help them navigate and deconstruct stereotypes while learning the language.

Incorporating these new approaches into language teaching is essential for combating cultural and aesthetic stereotypes. By fostering an environment of critical thinking, reflection, and intercultural dialogue, educators can guide students toward a more inclusive understanding of the language and its speakers. These strategies not only enhance language proficiency but also promote global awareness, empathy, and respect for diversity, ensuring that language education becomes a tool for breaking down stereotypes and building bridges across cultures.

In conclusion, this study explores the significant impact of cultural and aesthetic stereotypes on the language teaching process in Uzbekistan, focusing on both Uzbek and foreign language education. It highlights how deeply embedded societal norms and cultural assumptions influence not only educators' methods and classroom practices but also the way students perceive languages and cultures. Cultural stereotypes can create barriers in communication, hinder students' ability to engage with the language, and limit their understanding of cultural diversity. These stereotypes often arise from biased representations of native speakers, inappropriate selection of teaching materials, and rigid instructional methods that reinforce narrow cultural perspectives. By examining interviews with teachers, classroom observations, and relevant literature, the study reveals that many educators are unaware of the extent to which cultural biases affect the learning environment. These biases often lead to unequal treatment of students based on their geographical origin, accent, or ethnic background, diminishing students' self-confidence and engagement. However, when educators incorporate diverse cultural perspectives and create an inclusive classroom atmosphere, students tend to be more motivated and connected to the language. The research suggests that addressing these stereotypes requires a shift in teaching practices, where intercultural communication and empathy take

precedence. It emphasizes the need for educators to adapt their approaches, integrate cultural exchange opportunities, and employ interactive methods that encourage respect for diversity. By overcoming these challenges, language education can foster a deeper appreciation for global and local cultures, ensuring a more inclusive and effective learning experience for all students.

References:

1. Guo, Q., Yang, B., Xiao, L., & Xie, C. (2024). Foreign language learning and the development of global competence in different cultures. *International Journal of Intercultural Relations*, 101, 102013.
2. Jin, Y. (2024). Motivating students to actively engage in EFL classrooms: Exploring the role of L2 grit and foreign language enjoyment. *Learning and Motivation*, 85, 101960.
3. Pandey, A., & Ozarkar, R. (2024). Reworking the Aesthetics of Language use: The Multilingual Challenge for NEP 2020. *Contemporary Education Dialogue*.
4. Sun, L. (2023). Pedagogies of discomfort and empathy in foreign language education: Fostering EFL learners' critical global thinking through literature and art. *Thinking Skills and Creativity*, 50, 101411.
5. Vo, H., Hoang, T. T. H., & Hu, G. (2024). Developmental trajectories of second language learner classroom engagement: Do students' task value beliefs and teacher emotional support matter? *System*, 123, 103325.

BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI DARSLIKLARIDAGI PRAGMATIK MATN VA TOPSHIRIQLARNING MAZMUNI

Jahonova Nargiza Yunus qizi,

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

jaxonovanargiza@gmail.com

Maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslarida matn ustida ishlash orqali o‘quvchilarda shakllanadigan nutqiy kompetensiyalar mazmuni yoritilgan. Nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda matn ustida ishlashning muhimligi ko‘rsatilgan. Shu bilan birga, maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darsliklaridagi matn turlari izohlangan, mashqlardan namunalar keltirilgan. Pragmatik matnlar va topshiriqlarning ko‘rinishlari, darsliklardagi mazmuni haqida fikr va mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: ona tili ta’limi, nutqiy kompetensiya, matn, tavsifiy, hikoyaviy, tahliliy, munozarali, ko‘rsatma matn, pragmatika, pragmatik matn, pragmatik topshiriq, xarita, e’lon.

СОДЕРЖАНИЕ ПРАГМАТИЧЕСКИХ ТЕКСТОВ И ЗАДАНИЙ В УЧЕБНИКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА ДЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

В статье рассматривается содержание речевых компетенций, которые формируются у учащихся в процессе работы над текстом на уроках родного языка в начальной школе. Подчеркивается важность и содержательность работы над текстом в развитии речевых компетенций. Помимо этого, разъясняются типы текстов в учебниках родного языка для начальной школы и приводятся примеры упражнений. Высказываются педагогические мысли и предложения по поводу появления прагматических текстов и заданий, а также их содержания в учебниках.

Ключевые слова: обучение на родном языке, речевая компетенция, текст описательный, повествовательный, аналитический, аргументативный, прагматика, прагматический текст, прагматическая задача, упражнение с картой, объявление.

CONTENT OF PRAGMATIC TEXTS AND TASKS IN PRIMARY GRADE MOTHER LANGUAGE TEXTBOOKS

The article describes the content of speech competences formed on the students by working on text in the headlines of the beginning. The importance of working on text in the development of deaf compensations was shown. At the same time, the article contains text types in mother tongue textbooks, samples of exercise. Delimits and comments on pragmatic texts and assignments, the content of textbooks.

Keywords: mother tongue education, speech competence, text, descriptive, narrative, analytical, argumentative, instructional text, pragmatics, pragmatic text, pragmatic task, map, announcement.

Kirish. Shaxslararo mulqotning asosiy vositasi bu tildir. O‘z ona tilini o‘rganish - bu zamonaviy dunyodagi bolalarning muvaffaqiyatli moslashuvining ajralmas qismi bo‘lib, ularda ijtimoiylashuvini ta‘minlovchi asosiy vosita hamdir. Boshlang‘ich sinflarda, tilni o‘qitish bilan bir qatorda, nafaqat o‘z xalqining, balki boshqa xalqlarning ham an‘ana va madaniyatiga bo‘lgan hurmatni ham shakllantirish lozim. O‘quvchi maktabga kelgan ilk kundan boshlab murakkab hayotiy vaziyatlarga duch keladi. Bola yangi muhit, notanish bolalar, ilmiy tushunchalar orasiga tushib qoladi. Shuning uchun har bir bolada murakkab hayotiy vaziyatlarda muvaffaqiyatli moslashish uchun tilga oid ko‘nikmalari shakllanishi lozim.

Asosiy qism. Boshlang‘ich sinfda ona tilini o‘qitish til ta‘limining eng muhim bosqichidir. Aynan boshlang‘ich ta‘limda o‘quvchilarning tilga oid ko‘nikmalarini shakllantirishning samarali usullaridan biri matn ustida ishlashdir. Matn bilan ishlashning texnikasi yosh o‘quvchilar nutqining psixolingvistik xususiyatlariga asoslanadi. Psixolingvistika shaxs nutqni baholovchi, nutqning hosil bo‘lish va eshitib his etish jihatlarini nutq faoliyatining jamiyat, shaxs rivojlanishi bilan bog‘liq ravishda murakkab tizim va struktura sifatida ilmiy tadqiq etadigan sohadir. Psixolingvistikaning asosiy o‘rganish mavzusi nutqning hosil bo‘lishi, uning ongli ravishda eshitib his qilinishi va bolalar nutqining shakllanishidir.

“Ona tili” nafaqat leksik va grammatik me‘yorlarni o‘rgatuvchi, balki o‘quvchi nutqiy faoliyatida ixtiyoriy mavzu, fanlar kesimidagi matnlarni tinglab tushunish, to‘g‘ri o‘qish, orfoepik va orfografik me‘yorlarni qo‘llash salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan fandir. O‘quvchining mantiqiy, tanqidiy,

ijodiy fikrlashi uchun ona tili darslarida o‘qib tushunishga alohida e‘tibor qaratiladi. Ona tilini puxta o‘zlashtirgan o‘quvchi boshqa fanlarni qoniqarli o‘zlashtiradi. [1, 28]

Ona tili darslarida matn ustida ishlash orqali o‘quvchilarda nutqiy kompetensiyalari shakllantiriladi. Umumiy o‘rta ta‘lim tizimida o‘quvchilarda quyidagi nutqiy kompetensiyalar rivojlantirilishi kerak:

- matnning uslubini farqlagan holda ravon va ifodali o‘qiy olish;
- matnda til qanday qo‘llanganini, xususan, har bir so‘z, so‘z birikmasi va gap shaklining qanday ma‘no tashiyotganini, nega aynan shu so‘z, birikma yoki gap qo‘llanganini, matn tuzilishi va uning tarkibiy qismlarini bog‘lovchi vositalarning vazifasini tushuna olish;
- ibora (idioma)lar, maqol va aforizmlarning matnga qo‘shadigan hissasini aniqlay olish;
- matn mazmuniga mos sarlavha (lar)ni topa olish;
- matn obyektiga muallifning nuqtayi nazarini aniqlay olish;
- xulosa chiqarish, xulosani matnda berilgan hodisaga bog‘lay olish;
- matnning yozilishidan qanday maqsad ko‘zlanganini, qaysi toifadagi o‘quvchiga mo‘ljallanganini, qanday kontekstda yozilganini bilish va bu bilimni matnni yaxshiroq tushunish uchun qo‘llay olish [1, 52].

Shunday ekan, o‘quvchilarda nutqiy kompetensiyalarning shakllanishida matn ustida ishlash to‘g‘ri tashkil etish juda muhim.

Muhokamalar va natijalar. Boshlang‘ich sinfda matn ustida ishlashga o‘quvchilarni jalb qilish o‘ziga xos xususiyatlarni namoyon qiluvchi pedagogik jarayon sanaladi. Har qanday pedagogik jarayon kabi boshlang‘ich sinflarda matn ustida ishlashda ham muayyan psixologik, pedagogik, metodik talablar inobatga olinishi zarur. Shundagina boshlang‘ich sinf o‘quvchilari matn bilan ishlash orqali muayyan bilimlarni o‘zlashtirish, ravon va ongli ona tili ko‘nikma va malakalariga ega bo‘ladi, nutq boyiydi, fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Natijada o‘quv dasturida ko‘zda tutilgan talablar bajariladi.

Ona tili darsliklarida berilgan matnlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutq ko‘nikmalarini shakllantirishda vosita hisoblanadi. Boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarining asosiy maqsadi o‘quvchilarni matn mazmunini to‘g‘ri tushunish, ongli va ifodali o‘qiy olish, matnda berilgan axborotni idrok qilish, matnda ifodalangan voqelikka nisbatan munosabat bildirishga tayyorlashdir.

Ona tili darslarida o‘quvchilar turli xil shakl va mazmundagi matnlar mazmunini o‘rganadilar. Ona tili darsliklaridagi matnlarning ayrim turlarini tahlil qilamiz.

Tavsifiy matn. Bu turdagi matn, odatda, biror narsa yoki hodisani tasvirlashga qaratilgan bo‘ladi. Tavsifiy matnda narsa yoki hodisaning tashqi ko‘rinishi, xususiyatlari, holati batafsil bayon etiladi. 4-sinf ona tili darsligining 4-qism 51-betidagi 60-mashqda berilgan “O‘simliklar olamiga sayohat” kitobidan olingan “Piyoz” haqidagi matn bunga misol bo‘la oladi. Matnda qadim davrlarda piyozning ahamiyati qanday ekanligi tavsiflangan.

Piyoz juda qadimdan ma‘lum ozuqadir. Uni qadimgi Misr aholisi juda ardoqlagan. Yunonlar esa piyozni ilohiy o‘simlik deb bilgan. Uning qavat-qavat ichki tuzilishini Koinot tuzilishiga, ya‘ni osmon qavatlariga qiyoslashgan. Yunonlarning dala va o‘rmonlar ma‘budi Pan ham piyozbosh ko‘rinishida tasvirlangan. Shunga qaramay, zodagon rimliklar singari zodagon yunonlar ham piyoz iste‘mol qilishni o‘zlariga ep ko‘rmaganlar. Uning o‘tkir hidi og‘izdan noxush hid taratishi bunga sabab bo‘lgan. Rimliklarda esa, aksincha, kishining ijtimoiy darajasidan qat‘i nazar, deyarli barcha piyozni ko‘p iste‘mol qilgan. Piyozning vatani hozirgacha aniq belgilanmagan.

Hikoyaviy matn. Hikoya qilish orqali biror voqea yoki hodisani tasvirlashga qaratilgan matn turidir. Bu matnda, odatda, harakatlar, voqealar va xarakterlar haqida so‘z boradi.

Hikoya matniga 4-sinf ona tili darsligining 4-qismida berilgan 15-mashqni misol qilishimiz mumkin. Matnda qahramon do‘sti bilan yozgi oromgohga borganini hikoya qilib beradi.

Yozgi ta‘til vaqtida men va do‘stim Akobir oromgohda bo‘ldik. Biz tabiat qo‘ynida maza qilib dam oldik. Akobir suzish bo‘yicha mashg‘ulotga boradi. U suzish musobaqasida g‘olib bo‘ldi. Uning yutug‘idan zavqlanib, men ham suzishga borishga ahd qildim. Oromgohdan bir dunyo taassurotlar bilan qaytdik. Ular haqida tengdosh do‘stlarimga so‘zlab berdim.

Tahliliy matn. Bu turdagi matn biror hodisa, voqea yoki hodisani chuqur tahlil qilish, uning sabablarini va oqibatlarini aniqlashga qaratilgan. Tahliliy matnlar ko‘pincha ilmiy va falsafiy tahlil uslublarini qo‘llaydi. 4-sinf ona tili darsligining 4-qism 35-bet, 35-mashqida tahliliy matn berilgan. Matnda qurugan barglarni yoqish inson salomatligiga qanchalik zarar ekanligi tahlil qilingan.

Bir tonna quruq barg yoqilganda havoga o‘ttiz kilogramm zararli chiqindi ajralib chiqadi. Ushbu havodan minglab, millionlab insonlar nafas olgach, ularning sog‘lig‘iga putur yetadi. Bunda inson organizmini sekin-asta ishdan chiqargan holda birinchi galda bronx-o‘pka tizimi aziyat chekadi. So‘ng buyraklar va jigar, bosh miya, asab tizimi shikastlanadi, shuningdek, immunitet pasayadi.

Munozarali matn. Munozara, argument (argument (lotincha argumentum) - biron bir mulohazaning haqiqatligini tasdiqlash uchun keltiriladigan mulohaza yoki dalil) yoki fikr bildirish maqsadida yozilgan matn turidir. Bu turdagi matnda ikki yoki undan ortiq fikrni solishtirish, qarama-qarshi nuqtayi nazarlarni ko‘rib chiqish amalga oshiriladi.

4-sinf ona tili darsligining 4-qism, 83-bet, 106-mashqida berilgan matn munozarali shaklga ega. Matnda odam o‘z maqsadi sari harakat qilishda doim olg‘a intilishi kerakligi haqidagi munozara burgut va qarg‘a misolida dalillangan.

Burgutni cho‘qishga haddi sig‘adigan yagona qush bu -qarg‘a. U burgutning yelkasiga qo‘nib, bo‘ynini cho‘qiy boshlaydi. Ammo balandparvoz qush bunga ahamiyat bermaydi, qarg‘a bilan kurashmaydi, kuchini bekorga sarflamaydi. U shunchaki qanotini keng yoyib, tepaga osmon-u falakka parvoz qiladi, Burgut balandlagani sari qarg‘a nafas olishga qiynalib, oxiri qulab tushadi.

Odam o‘z maqsadi sari harakat qilayotganida uning bahslashishga yoki kimgadir biror nimani isbotlashga hojat yo‘q. Oldinga qarab intiling. Yo‘lda davom eting. Shunda hamma to‘siqlar o‘z-o‘zidan qulay boshlaydi.

Darslikning shu qismida berilgan 74-betdagi 95-mashq ham munozarali matnga misol bo‘la oladi.

Ona tabiatga bo‘lgan hurmatsizlik bir kun bizga ham qimmatga tushadi. Bugungi kunda chiroyli xiyobonlarni ko‘nglimiz tusab oshiqamiz, biroq u yerni ham har xil chiqindilarga to‘ldirib qaytamiz. Har bir yetkazgan ozorlarimiz uchun tabiat bizni kechirarmikan?

Ekologiyaning buzilishi nafaqat atrofga, balki insoniyatga ham juda katta ta’sir qiladi. Turli xil kasalliklarni keltirib chiqaradi. Insonlar bila turib, o‘zlarining hayotiga o‘zlari zomin bo‘lmoqda. Bizning tabiat oldidagi burchimiz uni asrab-avaylashga o‘z hissamizni qo‘shish va boshqalarni ham bunga chaqirishdir.

Ko‘rsatma matn. Bu biror jarayonni yoki amaliyotni bosqichma-bosqich tushuntirib berish maqsadida yozilgan matn turidir. Ushbu turdagi matnlar ko‘pincha foydalanuvchiga qandaydir ishni amalga oshirishni ko‘rsatadi. Boshlang‘ich sinf ona tili darsliklarida ham ko‘rsatma matnlar berilgan. Masalan 2-sinf ona tili darsligining 1-qism 29-betida berilgan uyga vazifa matnida milliy taom tayyorlash uchun ko‘rsatma berilgan.

Qozonni qizdirib, o‘simlik yog‘ini yamiz. Sabzavot va go‘shtni to‘rtburchak qilib to‘g‘rab olamiz. Sarimsoqqiyozi maydalaymiz. Piyozi oltin tusga kirgunicha qovuramiz va go’sht qo‘shamiz. Biroz qovurgach, pomidor qaylasi va sarimsoqqiyozi, yana ozgina qovurilgandan so‘ng, sabzi qo‘shamiz. Yaxshilab qovurib olib, kartoshkani qo‘shamiz va qovurishda davom etamiz. So‘ng bulg‘or qalampiri, pomidor va ziravorlar qo‘shib aralashtiramiz, so‘ng suv quyamiz. Hamma sabzavotlar va go’sht pishguncha o‘rta olovda qaynatamiz. Tayyor sho‘rvani ko‘katlar bilan bezatib, dasturxonga tortamiz.

Yoqimli ishtaha!

Eslatma matn. Biror vazifa, maslahat yoki ko‘rsatmalarni eslatib o‘tuvchi, qisqa va aniq yozilgan matn turi. Eslatmalarda ma’lum bir amalni bajarish uchun zarur bo‘lgan muhim qoidalar beriladi. Eslatma matnlar hajm jihatdan biroz kichik bo‘ladi. Matnda berilgan gaplar esa ifoda maqsadiga ko‘ra buyruq-istak mazmunini ifodalaydi.

Eslatma matnga misol qilib 2-sinf ona tili darsligining 2-qism 62-betdagi 1-mashqni aytishimiz mumkin. Mashqda mikroto‘lqinli pechdan foydalanish qanday xavfsizlik qoidalariga amal qilish kerakligi aytilgan.

Ovqatni juda uzoq vaqt isitmang.

Qurilmani suvdan himoyalang.

Turli buyumlarni qurilmaning ustiga qo‘ymang.

Ovqatni isitishda hech qachon metall idishlardan foydalanmang.

O‘quvchilarning tilni muvaffaqiyatli o‘rganishida pragmatik matnlar ham muhim ahamiyatga ega. Pragmatik matnlar - bu aniq maqsadga erishishga qaratilgan matnlar. Bunday matnlarga jamoat joylaridagi turli xil yozuvlar, reklama afishalari, xarita, menyu, yo‘naltiruvchi ma’lumotlardan foydalanish, biror bir texnologiyadan foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar kiradi. Bunday matnlar nafaqat asosiy so‘z birikmalarini o‘z ichiga oladi, balki to‘g‘ri grammatikani va taqdimot uslubini ham o‘rgatadi [6].

Chet el olimlaridan K.Krichevskaya, L.A.Borchodoyeva, Y.V.Chicherin va boshqalar pragmatik matnlarni o‘rganish bilan shug‘ullanganlar.

Pragmatik matndan foydalanishning afzalligi shundaki, ular ko‘pincha kichik nutq bo‘lagini, ya’ni segmentini tovushli yoki bosma shaklda ifodalaydi. Pragmatik matnning davomiyligi nisbatan qisqa, 1-3 daqiqa davom etadi [6].

Pragmatik matnlar o‘yin holatini yaratish uchun asosiy material bo‘la oladi. Chunki bunday matnlar yordamida haqiqiy nutq vaziyatini yaratish mumkin. Pragmatik matnlar orqali rolli o‘yinlarni tashkil etish

mumkin. Masalan, o‘quvchi o‘zini muxbir, sayyoh, gid, ya‘ni yo‘l boshlovchi, arxitektor va boshqa rollarda sinab ko‘radi. Bunday rollar o‘quvchilarda pragmatik kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladi.

Pragmatik matnlardan o‘quvchilarning yoshi va tilni bilish darajasiga qarab foydalanish kerak. Kichik yoshli o‘quvchilar uchun turli xil buyumlarni yasash oid oddiy ko‘rsatmalar, yoshi kattalar uchun esa yangi texnik vositalardan foydalanish uchun ko‘rsatmalar o‘rinli bo‘ladi. Bunday yondashuvning afzalligi shundaki, kichik yoshli o‘quvchilar nafaqat nazariy bilimlarga, balki haqiqiy hayotda tildan foydalanish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishadi. Bundan tashqari, pragmatik matnlar bilan ishlash o‘quvchilarga tildan to‘g‘ri foydalanish, ma‘lum bir vaziyat uchun ma‘no beradigan so‘zlar va iboralardan mosini tanlay olishni o‘rgatadi.


Boshlang‘ich sinf ona tili darsliklarida pragmatik mazmundagi matn va mashqlar ko‘plab uchraydi. Bunday mashqlar o‘quvchilarni hayotiy vaziyatlarda ona tilidan to‘g‘ri foydalana olishga tayyorlaydi. Bundan tashqari, zamonaviy gadjetlar kundan-kunga rivojlanayotgan bu davrda axborot texnologiyalarining yangi avlodini ishlata olish ko‘nikmasini shakllantirib boradi. Fikrimiz dalili sifatida boshlang‘ich sinf ona tili darsliklaridagi ayrim mashqlar tahlilini keltiramiz.

Pragmatik matnlarning bir turi xaritalardir. Umumiy o‘rta ta‘limda tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonida xaritalarning turli ko‘rinishlaridan keng foydalaniladi. Xaritalar orqali o‘quvchilar tabiiy obyektlarning joylashuvini, chegaralarini, qazilmalar, tuproq tarkibi, o‘simlik va hayvonot olami va shu kabi ko‘plab ma‘lumotlar o‘rganiladi. Boshlang‘ich sinflarda xaritalar nafaqat tabiiy fanlarda ishlanadi, balki ona tili darsida o‘ganiladi. 2-sinf ona tili darsligining 1-qismidagi 6-mavzu “Mening mahallam” deb nomlangan. Ushbu mavzudagi 6-mashqda xaritadan foydalanishni o‘rganish sharti berilgan. O‘quvchilar xaritaga qarab Kamolon mahallasidagi ko‘chalarning nomini topishlari kerak. Ushbu mashq o‘quvchilarda Google xaritalardan foydalanish ko‘nikmasini ham shakllantiradi.

Ushbu mashqni bajartirishda “Venn diagrammasi” metodidan ham foydalanish mumkin. Masalan, “Kamolon” masjididan o‘ng va chap tarafda joylashgan ko‘chalarni yozish kerak. O‘ng va chap tarafdagi ko‘chalar uchun umumiy joy “Kamolon” masjidi.



Pragmatik matnlarning yana bir turi e‘lonlardir. Bugungi kunda ko‘cha-ko‘yda, ijtimoiy tarmoqlarda



turli xil e‘lonlarga duch kelamiz. Maktablarda ham e‘lon matnidan juda ham ko‘p foydalaniladi. Shuning uchun e‘lon matnini tayyorlashga alohida e‘tibor qaratish lozim. E‘lon matni, odatda, qisqa, aniq va maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. E‘lon matnini yaratish uchun, avvalo, e‘lonning maqsadi va uning kimga mo‘ljallanganini aniqlash zarur. Har bir e‘lon o‘z maqsadiga qarab qisqa va lo‘nda bo‘lishi kerak, ammo aniq va jozibador bo‘lishi ham muhim. Matnda o‘quvchilarga aniq ma‘lumotlar berilishi, sana va vaqt, joy va kerakli aloqa ma‘lumotlari ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim.

Maktablarda quyidagi mazmundagi e‘lon

matnlaridan foydalanish mumkin:

- ma'lumot berish e'lon matni;
- madaniy tadbir e'lon matni.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida e'lon matnlari bilan ishlanadi. 2-sinf ona tili darsligining 4-qismida berilgan 25-mavzu “Maktabimiz devoriy gazetasi” deb nomlangan. Mavzudagi bobo va nabira suhbatlari orqali devoriy gazeta nimaligi, unga qanday ma'lumotlar yozilishi haqida tushuncha berilgan. 1-mashq orqali esa devoriy gazeta uchun matnlar tayyorlash o'rgatilgan.

O'quvchilar devoriy gazeta uchun yozilgan matnlarni oxiriga yetkazishlari kerak. Berilgan misollar ma'lumot berish, madaniy tadbir kabi e'lon matnlariga misol bo'la oladi. Ushbu mashq orqali o'quvchilarda e'lon matnlarini tushunish, yaratish ko'nikmalarini shakllantirish mumkin.

Pragmatik matnlar o'quvchilarda pragmatik ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi. O'quvchilarda pragmatik ko'nikma va malakalarni shakllanishida mashqlarning ham o'rni katta.

Pragmatik mashq – bu tilshunoslikning pragmatika bo'limiga oid mashq yoki ta'lim usulidir. Pragmatika tushunchasi dastlab falsafiy tushuncha sifatida shakllangan. Keyinchalik esa tilshunoslikning ham muhim tekshirish obyekti aylangan. Pragmatika tildan qanday foydalanishni va uning nutq vaziyatiga asoslangan ma'nolarini o'rganadi. Pragmatik mashqlar esa tilni ijtimoiy va madaniy nutq vaziyatlarida qanday qo'llashni o'rgatishga qaratilgan faoliyatlar yoki amaliyotlardir. Bunday mashqlarda misol qilib quyidagilarni aytish mumkin:

- tilni to'g'ri va samarali tarzda ishlatish;
- gaplar va iboralarni matnlardan kelib chiqqan holda tushunish;
- o'rganilayotgan tilning madaniy va ijtimoiy qoidalariga mos keladigan muloqot strategiyalarini o'rganish.

Hozirgi kunda dunyo aholisining aksariyat qismi uyali aloqa vositasidan foydalanadi. Shuning uchun ham dunyo bo'yicha onlayn muloqot kundan-kunga ommalashib bormoqda. Suhbatlarning asosiy qismi ijtimoiy tarmoqlarda amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda suhbatlashilganda tildan foydalanishning pragmatik jihatiga deyarli e'tibor berilmaydi. Fikrni ifodalashning eng sodda shaklidan foydalaniladi. Shuning uchun ham ona tili ta'limining birinchi bosqichidan boshlab o'quvchilarga fikrni to'g'ri ifodalash, boshqalar bilan muloqotga kirishganda nimalarga e'tibor berish, uyali telefon, jamoat joylarida qanday so'zlashish kerakligini o'rgatib borish lozim. Shundagina o'quvchilar turli xil nutq vaziyatlarida tildan o'rinli va samarali foydalanishni o'rganib borishadi.

2-sinf 4-qism “Mening shirin suhbatlarim” mavzusidagi mashqlar pragmatik mazmunda bo'lib, ular orqali o'quvchilarda turli xil vaziyatlarda, telefon orqali SMS yozganda, tengdoshlar orasida, turli kasb egalari bilan suhbatlashish ko'nikmalari shakllantiriladi. 8-mashqda o'quvchilarga quyidagi vaziyatlarda qanday suhbat qurish kerakligi so'raglan:

Salom

Qales?

Men erta maytappa bormiman

Voy nme?

Wamollab qoldim

Tezroq tuzalib keting. Dorilani vaqida i4ing.

1. Bolalar SMS yozganda qanday xatolarga yo'l qo'yishdi?
2. Siz ham SMS yozganmisiz?
3. Yozganda xato qilmaslik uchun nimalarga e'tibor qilish kerak?

- uyga qo'ng'iroq bo'lganda;
 - uyalib turgan o'rtog'ingizni o'yinga taklif qilganda;
 - yordamga muhtoj qariyani ko'rganda.
- Ushbu vaziyatlarning har birida turlicha so'zlardan foydalanilgani uchun ham o'quvchilar aynan mos so'z va jummalarni tanlab aytishlari kerak.

9-mashqda telefon orqali SMS yozganda nimalarga e'tibor berish kerakligi haqida savollar berilgan.

10-mashqda o'quvchilar rasmlarning birontasini tanlab hikoya tuzishlari, unda hikoya qahramonlarining suhbatini tasvirlashlari kerak.

Mavzudagi 11-mashq guruh bo'lib ishlash uchun mo'ljallangan. Sinf o'quvchilari to'rt guruhga bo'linib, suhbat tuzishda bellashiushlari kerak. Bunda har bir guruh quyidagi suhbatdoshlarning birini tanlashi mumkin:

- haydovchi – yo'lovchi
- shifokor – bemor
- o'qituvchi – o'quvchi
- aka – uka



Xulosa. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida pragmatik matn va mashqlar orqali o‘quvchilarga muloqotda tilning qanday ishlatilishi, so‘zlarning ma‘nosi va ularning nutq vaziyatidagi ahamiyati o‘rgatiladi. Natijada o‘quvchilar real nutq vaziyatida so‘zlashuvning so‘rov, iltimos, maslahat, tanqid kabi maqsadlarini to‘g‘ri ifodalay oladilar.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz ta‘lim milliy o‘quv dasturlari “Ona tili” fani bo‘yicha. -T.: “Toshkent”, 2021. – 252. b.
2. Boynazarova D.D., Toirova M.E. Ona tili IV qism. 4-sinf uchun darslik. -Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023. – 88 b.
3. Kuranov D.S. Ona tili I qism. 2-sinf uchun darslik. -Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023. -88 bet.
4. Kuranov D.S. Ona tili II qism. 2-sinf uchun darslik. -Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023. -88 bet.
5. Kuranov D.S. Ona tili IV qism. 2-sinf uchun darslik. -Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023. -88 b.
6. Русинова А.А. Методика работы с прагматическими текстами на уроках английского языка. Наука в мегаполисе. №7(52) Исследования молодых ученых. 11 июля 2023.

BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA MASHQLAR BILAN ISHLASHNING MUHIM JIHLATLARI

Kubayeva Nilufar Shuhrat qizi,

NavDU Ta’lim va tarbiya nazariyasi

va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim) yo’nalishi magistranti

kubayevanilufar90@gmail.com

Ushbu maqolada ona tili darslaridagi mashqlar ularning ahamiyati, ta’lim sifatini, o’quvchi tafakkurini oshirishdagi o’rni haqida mulohazalar keltirilgan. Har bir mashqning yangi mavzuni o’rganishda, mavzuni tahlil qilishda, mustahkamlashdagi dolzarbligi alohida tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: Darslik, mashq, ijodiy topshiriq, ko’rgazmali qurollar, boshlang‘ich sinf.

ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ РАБОТЫ С УПРАЖНЕНИЯМИ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

В этой статье упражнения на занятиях родным языком и их значение. Приводятся мнения о качестве образования и его роли в совершенствовании мышления школьника. Актуальность каждого упражнения для изучения новой темы, анализа темы и ее закрепления анализируется отдельно.

IMPORTANT ASPECTS OF WORKING WITH EXERCISES IN PRIMARY GRADE MOTHER TONGUE LESSONS

This article presents considerations about the importance of exercises in native language lessons, their role in improving the quality of education, and student thinking. The relevance of each exercise in learning a new topic, analyzing the topic, and consolidating it is analyzed separately.

Keywords: textbook, exercise, creative task, visual aids, primary school.

Kirish. Ona tili ta’limi jarayonidagi ijodiy topshiriqlar tizimi muammali suhbatlar, fikr yuritish, isbotlash, umumlashtirish, tahlil kabi tafakkurni rivojlantiruvchi mashqlar hisoblanadi.

Ijodiy topshiriq mashqlari o’quvchilar topshiriqni bajaradigan bo’lgandagina qo’llaniladi. Bunday mashqlar, ayniqsa, yuqori sinf darsliklarida ko’p berilgan. Unda berilgan topshiriqni bajarish jarayonida o’quvchilar yangi bilimlar bilan qurollantiriladi. Ijodiy topshiriqlardan yangi mavzuni o’zlashtirish bilan birgalikda bilimlarni kengaytirish va mustahkamlashda ham qo’llash mumkin. Masalan, ona tili darslarida 1-sinf boshlab so’z turkumlari haqida ma’lumot beriladi. Aytaylik, ot so’z turkumi haqida yangi ma’lumotlar berishdan avval egallangan bilimlar asosida ijodiy topshiriqlar bajarilsa, nafaqat avval olingan bilimlar yodga tushiriladi, balki o’quvchilar mustaqil fikrlash orqali ot so’z turkumi haqida yangi ma’lumot olishga ham muvaffaq bo’ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Boshlang‘ich sinflarning ona tili darsliklaridagi barcha mashqlar o’z maqsadiga ko’ra ijodiy izlanishga, mustaqil fikr yuritishga yo’naltiriladi. Masalan, 1-sinf “Ona tili” darsligida berilgan 1-mashqdayoq so’zlarni to’g’ri o’qish, so’zlardagi tovushlar sonini va so’zlarning qaysi tovushlar bilan farqlanayotganligi to’g’risida ijodiy topshiriqlar tashkil qilish mumkin. Bu topshiriqni bajarish uchun o’quvchi mustaqil tarzda har bir tovush, so’z ma’nosini farqlashni, so’zdagi biror tovushni yozuvda boshqa harf bilan ifodalash imloviy savodsizlikni keltirib chiqarishni anglatadi. [1]

O’quvchilarning bu tushunchani qay darajada egallaganliklarini tekshirish uchun o’qituvchi quyidagi savollardan foydalanishi mumkin:

- so’z ma’nasining o’zgarishi nima bilan bog’liq?
- so’zlarni to’g’ri yozish uchun nima qilish zarur?

Ushbu savollar o’quvchilarga so’z tarkibidagi tovushlarning o’zgarishi va uning ma’nosini o’zgartirishi, so’zlarni imloviy to’g’ri yozish uchun ularning tovush-harf tarkibini kuzatish, to’g’ri talaffuz qilish, yozilgan so’zlarni darslikka yoki lug’atga qarab tekshirish haqida tasavvur berishga yordamlashadi.

Keyingi mashqlar 1-mashqqa qaraganda o’quvchidan mustaqillikni talab etadi. Masalan, o’quvchi 2-mashq shartiga ko’ra anjir, qayiq, zanjir, ayiq tarkibida berilgan narsa-predmet, hayvon nomlarini taqqoslash yuzasidan topshiriq beriladi. Ularni anjir-zanjir, qayiq-ayiq tarzida o’quvchilar juftlaydi. So’zlarni farqlayotgan tovush-harflarni aniqlaydi, tegishli xulosa chiqaradi. Ya’ni so’zdagi biror harfni tushirib

qoldirmay, yoki ortiqcha harf qo'shmasdan aytish va yozish zarur. Aks holda so'z ma'nosi butunlay o'zgarib ketadi.

3-mashqda esa o'quvchilarning so'z boshi va oxiridagi tovush-harfnigina emas, balki so'z o'rtasidagi tovush-harfning almashishini, tushirib qoldirishini yoki orttirilishi ham so'z ma'nosini o'zgartiradi, degan tushunchani egallash topshirig'i nazarda tutilgan (anhor - anor).

Bu xildagi mashqlar o'quvchilarda imloviy sezgirlikni shakllantiradi, so'zning tovush-harf tarkibiga e'tiborni kuchaytiradi.

O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda so'z tuzishga doir mashq topshiriqlari ham muhim o'rin tutadi. O'quvchilar bunday topshiriqlarni bajarish orqali o'zbek tilida 29 harf, 30 ta tovush yordamida minglab so'zlar hosil bo'lishini bilib oladilar.

Darslikdagi 7-mashqda 9 ta harf ishtirokida so'zlar tuzish, so'zlarning nimaga ko'ra farqlanishini aniqlash topshirig'i berilgan.

O'quvchilar mazkur harflardan foydalanib quyidagi oltita so'zni tuzib yozadi: ota, non, aka, ona, tok, ana.

O'qituvchi o'quvchilar qiziqishini oshirish, mustaqil ishlarini davom ettirish maqsadida “Shu harflar ishtirokida yana qanday so'zlar hosil qilsa bo'ladi?” degan savol bilan murojaat qilishi mumkin. Natijada o'quvchilar yangi so'zlar tuzadilar: tana, kon, nok, kana, taka, katta, nota, kakao va boshqalar.

O'qituvchi bu so'zlarning ma'nosini izohlatishi, qaysi so'zlarning imlosida xatoga yo'l qo'yishlari mumkinligini so'rashlari, o'zbek tili lug'atida mavjud so'zlarni o'z lug'at boyligiga aylantirishi haqida topshiriqlar berib boradi.

Darslikdagi rasmda tasvirlangan narsa va shaxs nomlarini yozishga doir mashq topshiriqlardan ham o'quvchilarning mustaqil faoliyati talab etiladi. Jumladan, 20-mashqda rasmdan foydalanib katakchalardagi tovushlarni ifodalovchi harflarni yozish topshirig'i berilgan. “Yo'lbars” so'ziga keltirilgan 7 ta katakcha o'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan imlo xatolarning oldini oladi. (O'quvchilar yo'lbaris tarzida xato yozishlari mumkin yedi). “Maymun” so'zining 2 – bo'g'inidagi u ni i tarzida yozishlari mumkin. Buning uchun o'quvchilarga orfografik o'qish va orfoepik o'qish haqida yelementar amaliy tushunchalarni yeslatish, uni maymun so'ziga tatbiq etish, o'rtadagi farqni mustaqil aniqlatish va hamda o'z xulosalarini darslikdagi lug'atchadan tekshirishlarini talab qilish lozim.

Bu borada, ayniqsa, nuqtalar o'rniga 2 harfdan birini qo'yib yozishga doir mashq topshiriqlari o'quvchilarning orfografik va orfoepik savodxonligini oshirishga yordam beradi. Masalan, 32- mashqda nuqtalar o'rniga x yoki h harflardan mosini qo'yib yozish topshirig'ini bajarish uchun o'quvchilar so'zlardagi x va h tovushlarining talaffuzini taqqoslab kuzatadi.

O'qituvchi x va h harflari yoziladigan so'zlarni quyidagi tarzda guruhlab ustun shaklida yozdirsa o'quvchilarning umumlashtirish imkoniyati ortadi.

yaxmalak	holva
xona	baho
xola	jahon
taxta	havo

4-sinf ona tili darslarida beriladigan nazariy tushunchalar ilgari berilgan boshlang'ich ta'lim tizimidagi ta'limdan farqli o'laroq quruq yodlatish emas, balki eslab qolish maqsadida emas, birinchi navbatda o'quvchilarning bilimlarini atroflicha kengaytirishga, aqliy tafakkurini shakllantirishga, dunyoqarashlarini tarkib toptirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'limning ona tili darsliklarida mavzularni o'rgatish ularda tushuncha sifatida shakllantirishni, shu bilan birgalikda nazariy ma'lumot berishni, yegallagan nazariy bilimlarini amaliy jihatdan asoslanishni nazarda tutadi. Bunda bosh harflar imlosiga doir quyidagi topshiriqni o'quvchilarning lug'at daftariga yozdirish va kataklarni mos so'zlar bilan to'ldirib borish topshirig'i yaxshi samara berib o'quvchilarni ijodiy yondashishga undaydi. Ona tili darsliklarining ayrim mashqlarida berilgan gaplar orasidagi nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'yib ko'chirish topshirig'i va qo'yish uchun so'zlar keltirilgan. Maqsad yaxshi. Ammo nuqtalar o'rniga qo'yish uchun tavsiya qilinayotgan so'zlar esa juda oddiy. O'lkamizga yoqimli ... keldi. Mevali ... gulladi. Har xil ... chiroyli ochildi. Dalalard ... ko'paydi. (bahor, ish, daraxtlar, gullar). [2]Shu so'zlar berilmasa ham o'quvchilar suhbat orqali yoki matn mazmunidan nuqtalar o'rniga qo'yiladigan so'zlarni bemalol topishlari mumkin. Ko'rinadiki, topshiriqlarning murakkabligi o'quvchilarni qay darajada qiynab qo'ysa, maydalashtirilib borilishi ham fikrlashdan shu qadar bezdiradi.

Yuqoridagi mashq topshiriqdagi kabi nuqtalar o'rniga qo'yiladigan so'zlar guruhlashtirilsa yoki o'quvchilarning o'zi mustaqil topishga yo'naltirilsa fikrlash, izlanish holati yuzaga kelgan bo'lar yedi. Bunday paytda har bir o'quvchi bittadan so'z aysa, ulardan mosini tanlash yoki gapni quyidagicha variantda yozish mumkin. Masalan,

Ona tabiat uygʻondi.
Ona tabiat yashnadi.
Ona tabiat yashil libos kiydi.
Ona tabiat

Maʼlumki, boshlangʻich taʼlimda ona tili oʻquv predmeti sifatida oʻquvchilarning ogʻzaki va yozma nutqini oʻstirish, ularni muloqotga tayyorlash vazifasini bajarish jarayonida fanga doir bilimlarning amaliy ahamiyatini oshiradi.

Uchinchi sinf ona tili darsligida ham oʻquvchilarni fikrlashga doir juda koʻp ijodiy topshiriqlar berilgan. Buni ikkinchi sinf ona tili darsligida berilgan gap va soʻz, tovushlar va harflar, unli va undosh tovushlar, nutq, gap, matn kabi mavzularning uchinchi sinf ona tili darsligidagi gap, nutq, matn, tovushlar va harflar, jarangli va jarangsiz undoshlar kabi mavzular bilan uzviy bogʻliqlikda oʻrganishga doir topshiriqlar oʻz ifodasini topgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Shuni unutmaslik kerakki, topshiriqlarda barcha oʻquvchilar oldiga qoʻyilgan talab bir xil, ammo oʻquvchilarning saviyasi bir xil emas. Tabiiyki, topshiriqlarni hamma bir xilda toʻgʻri bajara olmaydi.

Oʻquvchilarning tafakkurini rivojlantirishda ular nutqini narsa va shaxsni bildirgan soʻzlar bilan boyitish ham muhim rol oʻynaydi. Birinchi sinfda narsa va shaxsni bildirgan soʻzlar haqida tushuncha berishda oʻquvchilar faolligiga asoslanish lozim. Chunki ular narsa va shaxs nomlarini bildirgan soʻzlarni oʻzlashtirishga savod oʻrgatish jarayonida tayyorlangan. Predmetlarga qarab ularning nomlarini aytishgan. Bundan tashqari oʻqituvchining Bu nima? , Bu kim? , Kim ishdan qaytdi? , Kim ertalab maktabga yoʻl oldi? kabi savollardagi kim, nima soʻroq soʻzlari oʻrniga shaxs va narsa nomlarini qoʻyib javob berishgan. Shuning uchun ham savod oʻrgatish jarayoni predmet bildirgan soʻzlar ustida ijodiy topshiriqlarni bajarishning birinchi bosqichi sanaladi.

Oʻquvchilarda predmet tushunchasini shakllantirishda quyidagicha taʼlimiy oʻyin topshirigʻi va testlardan foydalanish mumkin. Oʻqituvchi predmet nomini aytadi. Oʻquvchilar ularga Kim? Nima? soʻroqlarini beradi. Qaysi oʻquvchi oʻyinda faol ishtirok esa u gʻolib deb topiladi.

Predmet tushunchasini shakllantirishga doir test topshiriqlari.

1. Kim? soʻrogʻiga javob boʻlgan soʻzlar qatorini toping.

- A.. Navoiy, shifokor, oʻquvchi.
- B. Bobur, kitob, daftar
- S. Zafar Diyor, ruchka, kitob

2. Nima? soʻrogʻiga javob boʻlgan soʻzlar qatorini toping.

- A. Kabutar, musiqa, toshbaqa
- B. Inson, odam, kishi, chol
- S. Quruvchi, paxtakor, taxta

3. Gul nomlari berilgan qatorni toping

- A. Gulkaram, guldun, gulchehra.
- B. sariq gul, paxta, beda.
- S. Gulsafar, chinigul, binafsha. [3]

Umuman, bu kabi topshiriqlar oʻquvchilarning predmetni bildirgan soʻzlarning boshqa soʻzlardan ajrata olishlari uchun ularning diqqat-eʼtibori tevarak atrofga qaratiladi. Oʻquvchilarning tajribalari ortib borishi natijasida fikrlash doirasi, aqliy tafakkuri, ijodiy yondashishlari ham murakkablashib kengayib boraveradi.

Grammatik mashqlar bajartirib borishning ahamiyati

Tahlil va natijalar. Grammatik tahlil analitik mashqqa kiradi. Grammatik tahlil soʻz turkumiga koʻra (morfologik) tahlilni, gap boʻlaklariga koʻra (sintaktik) tahlilni oʻz ichiga oladi. Gap boʻlaklariga koʻra tahlil oʻquvchilar oʻzlashtirgan sintaktik bilimlarning meʼyoriga qarab chuqurlashib boradi.

Amaldagi dasturga koʻra, 1-sinf oʻquvchilari «ega» va «kesim» terminlaridan foydalanmaydilar, ammo ular gapning bosh boʻlaklarini amaliy ravishda topish koʻnikmasiga ega boʻladilar, yaʼni gap kim yoki nima haqida aytilganini bildirgan soʻz (ega)ni, u haqda nima deyilganini anglatgan soʻz(kesim)ni topadilar. Masalan, Bolalar olmalarni terdilar gapini tahlil qilishda oʻquvchilar shunday fikr yuritadilar: «Gap bolalar haqida aytilgan. Kimlar?— bolalar (soʻzning tagiga bitta toʻgʻri chizik; chizadilar). Bolalar — nima qildilar?— terdilar(soʻzniig tagiga ikki toʻgʻri chiziq chizadilar). Bolalar - terdilar — gapning asosiy qismi; nimalarni? (terdilar) — olmalarni».

II sinfda I sinfdagidek muhokama qilinadi, faqat mazmuni chuqurlashtiriladi. Misol uchun II sinf oʻquvchisi Oppoq paxtalar qiygʻos ochildi gapini quyidagicha tahlil qiladi: Gap paxtalar haqida aytilgan. N i m a l a r?—paxtalar — ega (tagiga bir chiziq, chizadi). Paxtalar haqida nima deyilgan? Ochildi — n i m a q i

l d i?—kesim (tagiga ikki to‘g‘ri chiziqli chizadi). Q a n d a y? (ochildi)— qiyg‘os — ikkinchi darajali bo‘lak, kesimni izohlayapti (tagiga to‘lqinli chiziqli chizadi). Qanday? (paxtalar) — oppoq (paxtalar) ikkinchi darajali bo‘lak, egani izohlayapti. Paxtalar ochildi—gapning asosi. Oppoq paxtalar va qiyg‘os ochildi — so‘z birikmasi. [4]

Nutqiy xatolar uchga bo‘linadi: lug‘aviy-uslubiy, morfologik- uslubiy, sintaktik-uslubiy.

Boshlang‘ich sinflarda lug‘aviy-uslubiy xatolar ko‘proq uchraydi. Bunday xatolarga quyidagilar kiradi:

- Bir so‘zni qayta-qayta ishlatish. Bunday xatoning kelib chiqishiga sabab, birinchidan, o‘quvchi so‘zni ishlatishga kam e‘tibor beradi va faol lug‘atidagi so‘zdan takroriy foydalanadi;

- ikkinchidan, o‘quvchining so‘z boyligi kam, sinonimlarni bilmaydi,

- takrorlanadigan so‘zlar o‘rniga olmoshlardan foydalana olmaydi.

- Agar o‘qituvchi bir so‘zni qayta-qayta ishlatmaslik uchun uning sinonimlaridan yoki shu so‘z o‘rniga olmoshlardan foydalanish kerakligini yaxshi tushuntirsa, kichik yoshdagi o‘quvchi matnни e‘tibor bilan o‘qib, takrorlarini nisbatan tez tuzata oladi.

- So‘zning ma‘nosini yoki ma‘no ottenkasini tushunmaslik na-tijasida uni aniq ma‘nosida ishlatmaslik. Bunday xato bolaning nutqi yaxshi rivojlanmaganligi, so‘z boyligining kamligi sababli yuzaga keladi.

- Shevaga xos so‘zlardan foydalanish. Bolalar bunday so‘zlarni ota-onalarining nutqi va nutqiy sharoit ta‘sirida qo‘llaydilar. Bolalarda adabiy tilda qo‘llanadigan tushunchalarni shakllantirish asosida ular shevaga xos so‘zlarni ishlatmaslikka o‘rgatiladi.

Xulosa va takliflar. Grammatik mavzuni o‘rganishda o‘quvchilar yo‘l qo‘yishi mumkin bo‘lgan xatoning oldini olish uchun mazkur mavzu ularga qanday imkoniyatlar yaratishi tushuntiriladi. Masalan, «Olmosh» mavzusini o‘rganganda, kishilik olmoshlarining takrorlangan so‘zlar o‘rnida qanday ishlatilishi o‘quvchilarga misollar bilan tushuntirilsa, ular ham insho yoki bayon yozishda shunga rioya qiladilar.

O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishdagi muvaffaqiyat uch asosiy omilga bog‘liq:

- birinchidan, so‘zga e‘tibor bilan munosabatda bo‘lish, bolalarning ko‘p mutolaa qilishi, atrofidagi kishilarning to‘g‘ri va ifodali nutqi, ya‘ni nutqiy sharoit;

- ikkinchidan, bolalarning nutqiy tajribasi qanday tashkil etilishi;

- uchinchidan, nutq o‘stirishda o‘qituvchining til nazariyasiga, grammatikaga, leksikologiya va stilistika elementlariga asoslanish ko‘nikmasiga bog‘liq.

Adabiyotlar:

1. G‘afforova T., Shodmonov E., G‘ulomova X. Ona tili. (1-sinf uchun darslik). T.: “Sharq”, 2015 yil.
2. G‘ulomov A. 4-sinf “Ona tili” darslarida o‘quvchilarning mustaqil ishlari. T. 2003 yil. 43-bet.
3. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva SH., Sariev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. Darslik. T., “Noshir” 2009 yil. 59-bet.
4. Sh. Yoqubov., D. Yoqubova. Grammatik o‘yinlar. Termiz 2009 yil.

**BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARI EMOTSIONAL INTELLEKTINI
RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

Rustamova M.T.

*Navoiy innovatsiyalar universiteti filologiya va tillarni o‘qitish
kafedrası o‘qituvchisi*

Ushbu maqolada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining emotsional intellektini rivojlantirish jarayoni va uning psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Emotsional intellekt o‘qituvchining professional faoliyatida muhim ahamiyat kasb etib, talabalarga samarali ta‘lim berish, muloqot madaniyatini shakllantirish va stressli vaziyatlarni boshqarishda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotda emotsional intellektning tarkibiy qismlari, uni rivojlantirish usullari hamda psixologik yondashuvlar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, o‘qituvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida emotsional intellektning o‘rni, uni shakllantirishda zamonaviy ta‘lim metodlarining ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *emotsional intellekt, ingliz tili o‘qituvchilari, psixologik xususiyatlar, ta‘lim jarayoni, shaxsiy rivojlanish.*

**PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF DEVELOPING EMOTIONAL
INTELLIGENCE IN FUTURE ENGLISH LANGUAGE TEACHERS**

This article analyzes the process of developing the emotional intelligence of future English language teachers and its psychological characteristics. Emotional intelligence plays a crucial role in a teacher's professional activity, contributing to effective teaching, the formation of communication culture, and the management of stressful situations. The study examines the components of emotional intelligence, methods of its development, and psychological approaches. Additionally, the article discusses the significance of emotional intelligence in teachers' personal and professional development, as well as the importance of modern educational methods in shaping it.

Keywords: *emotional intelligence, English language teachers, psychological characteristics, educational process, personal development.*

Materials and methods. In the real world, information gaps are very common. One person – the speaker – wants to ask a question and the other person – the listener – tries to answer it. In the classroom, we can use information gaps to give the students a chance to communicate with each other, just like people do in real life. We can use a wide variety of different materials in the classroom to design an information gap. Sometimes, we can use a picture, which one student tries to describe to another student. Sometimes, we can use a written text with information that students must pass to each other. An information gap can involve the different skills of reading, listening, writing and speaking. An information gap needs careful organization. Additionally, the teacher must think carefully about the instructions he or she will give to students so that they are very clear about what they have to do. Sometimes it's useful to practise the activity before starting. At the end of the activity, the teacher can give students feedback on how well they did in the activity. The teacher can also point out any errors the students made, but it is important to remember that the teacher should do this after the activity and should not interrupt the pair work. According to Aleksey Ulko, an information gap is useful in the classroom because it gives students a reason to communicate with each other. Sometimes, the teacher can decide the kind of language that the students will use. Sometimes, the language can be very free and the students decide what kind of language they will use. We can use an information gap to practise grammar, especially verb forms such as the past simple or present continuous. We can also practise vocabulary: in fact, anything you choose. The teacher's job is to organize the activity, and, while the students are working together, to monitor. This means that the teacher listens carefully, and makes a careful note of any errors the students make. The teacher tries not to interfere while the students are working together. For an information gap to work well, it needs to have a purpose. The students' purpose is to bridge the gap by asking and answering questions.

As a component of classroom communication, information gap refers to planned output activities, which are crucial for teaching foreign language speaking because they closely resemble real-world scenarios. According to Prabhu “Information gap activities involve a transfer of given information from one person to another or from one form to another or from one place to another generally calling for the decoding or encoding of information from or into language”, while Harmer states that this type of activity is labeled as a meaning-focused activity as well as “reasoning gap” and “opinion gap”. The gap is the incomplete information two speakers have about a conversation topic.

- Reasoning gap activity involves comprehending and conveying information, and language learners do filling the gaps in a schedule or timetable and completing the picture;

- Opinion gap activity involves identifying and articulating a personal preference, feeling or attitude in response to a given situation. Learners do story-completion tasks and take part in the discussions of a social issue.

Furthermore, Willis notes that this kind of approach is also used to prioritize meaning above accuracy in order to increase fluency. As previously mentioned, information gap exercises are a component of the communicative approach and are helpful in encouraging students to engage and improve their fluency.

Brown states that information gap activities have two characteristics:

- the first one is that information gap focuses on the information and not to language forms;
- the second, information gap prioritize the communicative interaction in order to reach the objective.

Finding specific information, whether about the other person or connected to a particular activity, is the aim of information gap activities, which simulate genuine contact. Students must use these exercises to share information by asking and responding, and only by effectively communicating, they can obtain the information needed to do the assignment. Students must collaborate, ask questions, and share information in order to complete the assignment.

Turning to types of information gap activities divided into several activities including barrier games and jigsaw activities. Through information gap activities, students can get an opportunity for the development of effective questioning, answering, and note-taking. Information exchange activities work well

in a mainstream class when everyone takes part. They can be useful at any age and for learners at any stage of English language proficiency, from New to English to Fluent.

Barrier games. In barrier games, a barrier is placed between two learners so they are looking at different texts, images or objects. An example is The Black Death in Europe, where two learners are given maps of Europe annotated with different information and have to ask each other questions to enable them to fill in the details that are missing on their map.

Jigsaw activities. Jigsaw activities are where learners are given information or carry out a task in one group, then the groups are mixed up to form new groups where the learners pool their knowledge to complete a further task. An example of this is Victorian Child Labour, where learners are asked to listen for specific information while watching a video, and then pool their information in a group of three who were focusing on different aspects from each other.

We can identify that this kind of activities helps students to communicate with each other, to solve a problem or complete a task. In these activities, individual students do not have all of the information needed to achieve the activity's goal, which creates a “gap” that can only be overcome by speaking with other students to exchange information. The missing information required to complete the activity can be facts, opinions, or details related to textual, audio, or visual content.

Results and discussions. Information gap activities are highly effective in enhancing students' learning skills. They are particularly beneficial for students who struggle with confidence, have limited vocabulary, or feel shy about expressing their ideas or answering questions in front of the class. These activities provide a safe and supportive environment for such students to practice speaking. Additionally, information gap activities make the teaching and learning process more engaging, as they are conducted between students rather than between the teacher and students. In this setup, the teacher acts as a facilitator rather than a controller, demonstrating the activity as a model so that students can understand the instructions and complete the task independently. The students are not just sitting and listening to the teacher's explanation, but they can interact with their friends, enhance their confidence. In information gap activities, the teacher's role is to explain the task, provide necessary vocabulary, and give clear instructions. Once the setup is complete, students work independently to complete the task. Since the activity requires collaboration, every learner must participate actively, as the task cannot be finished without everyone's involvement. These activities are often highly motivating due to the variety and interactive nature of the tasks, with problem-solving tasks being particularly effective. To ensure success, the teacher should select tasks that match the students' proficiency level. If the task is introduced in advance, it can be adapted to suit any level. Information gap activities encourage students to apply linguistic forms and functions in real-time communication, requiring them to recall grammar rules and vocabulary learned in class. One of their greatest strengths is their flexibility; they can be tailored to fit almost any topic, vocabulary set, or lesson objective. For instance, they can be used to review new vocabulary, practice parts of speech, or rehearse topic-based dialogues, making them a versatile tool in teaching language.

Conclusion. In conclusion, based on our teaching experience, we can affirm that regardless of the children's age, it is essential to create structured frameworks for speaking activities that motivate them to use English for genuine communication. We can also confirm that incorporating information gap activities is highly beneficial. However, when designing these activities, teachers must carefully consider the learners' needs, age, and level of social, cognitive, and emotional development to ensure their effectiveness.

References:

1. Harmer, J. (2004). Teaching English as a second or foreign language. Boston: Newbury House.
2. Klippel, F. (1985). Keep talking communicative fluency activities for language teaching (1st ed.). London, UK: Cambridge University Press.
3. Prabhu, N. (1987). Second Language Pedagogy. Oxford, UK: Oxford
4. Putri, A. (2014). Using Information Gap Activities to Improve the Speaking Skills of Grade VIII Young Learners. Yogyakarta State University, Indonesia.
5. Neu, H., & Reeser, T. W. (1997). Parle-moiunpeu!: Information Gap activities for beginning French classes. Boston: Heinle & Heinle.
6. Sharopov Sh.Sh. Hamkorlik prinsipining texnikaviy va lingvistik sharhi. Adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb muammolari: adabiy jarayon, qiyosiy adabiyotshunoslik, uslubshunoslik va tilshunoslik masalalari. Xalqaro miqyosdagi ilmiy-anjuman materiallari. Buxoro, 2024-yil. 4-may. B.25-28
7. Sharopov Sh.Sh. Grice maksimalarining qisqacha sharhi va mazmuni. Zamonaviy ta'limda oliy ta'lim pedagogikasi: nazariya va amaliyot integratsiyasi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman. Buxoro, 2024-yil 24-may. B. 265-266.

INGLIZ TILI MASHG‘ULOTLARIDA TARBIYALANUVCHILARNING TAFAKKUR OLAMINI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUNI

Taylanova Shohida Zayniyevna,

*O‘zbekiston- Finlandiya pedagogika instituti prof.
tshohida84@mail.ru*

Qurbonova Nigina Asqarjon qizi,

*O‘zbekiston- Finlandiya pedagogika institute 1- bosqich magistranti
niginakurbanova90@gmail.com*

Ingliz tili o‘qitish jarayonida tarbiyalanuvchilarning tafakkur olamini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada ingliz tili o‘qitish jarayonida tafakkur olamining qanday rivojlanishi va uning metodikasi haqida batafsil tahlil qilingan. Maqola ingliz tilini o‘rganishda tengdoshlar bilan muloqot, nutq faoliyatini rivojlantirish, kreativ fikrlash va tanqidiy tafakkurning ahamiyatini yoritadi. Shuningdek, maqsadli metodlar, tarbiyalanuvchilarning faolligini oshirishga yordam beruvchi uslublar, shuningdek, tarbiyalanuvchilarning intellektual salohiyatini yuksaltirish uchun zamonaviy texnologiyalar va interaktiv mashg‘ulotlar haqida so‘z boradi. Tafakkur olamini rivojlantirishning asosi, tarbiyalanuvchilarni nutqiy jarayonlarga jalb qilish va mustahkamlash, shuningdek, mantiqiy tahlil qilish va muammolarni hal etishda mustahkamlanishining ahamiyatiga alohida e‘tibor qaratiladi. Maqola umumiy ingliz tili ta’limi tizimidagi tafakkurga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: ingliz tili ,tafakkur olami, kreativ fikrlash,tanqidiy tafakkur,nutq faoliyat, interaktiv metodlar, zamonaviy texnologiyalar, intellektual salohiyat,o‘qitish metodikasi, mantiqiy tahlil.

СОДЕРЖАНИЕ РАЗВИТИЯ МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НА ЗАНЯТИЯХ ПО АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

В процессе обучения английскому языку развитие когнитивных способностей обучающихся имеет большое значение. В данной статье подробно анализируется, как развивается когнитивный мир в процессе обучения английскому языку и какая методика этому способствует. В статье освещается важность общения с ровесниками, развития речевой деятельности, креативного мышления и критического мышления при изучении английского языка. Также рассматриваются целенаправленные методы, приемы, помогающие повысить активность обучающихся, а также современные технологии и интерактивные занятия для повышения интеллектуального потенциала обучающихся. Основа развития когнитивного мира — это вовлечение и укрепление обучающихся в речевых процессах, а также особое внимание уделяется укреплению логического анализа и решения проблем. Статья направлена на исследование факторов, влияющих на когнитивные процессы в системе общего образования по английскому языку.

Ключевые слова: английский язык, когнитивный мир, креативное мышление, критическое мышление, речевая деятельность, интерактивные методы, современные технологии, интеллектуальный потенциал, методика преподавания, логический анализ.

THE CONTENT OF DEVELOPING STUDENTS' THINKING WORLD IN ENGLISH LANGUAGE CLASSES

In the process of teaching the English language, developing the cognitive abilities of learners holds significant importance. This article provides a detailed analysis of how the cognitive world develops during English language teaching and its methodology. The article highlights the importance of peer communication, the development of speech skills, creative thinking, and critical thinking in learning English. It also discusses targeted methods, techniques to increase learner engagement, as well as modern technologies and interactive activities to enhance learners' intellectual potential. The foundation for developing the cognitive world lies in involving and reinforcing learners in speech processes, with a special focus on strengthening logical analysis and problem-solving. The article is aimed at studying the factors that influence cognition within the general English language education system.

Keywords: English language, cognitive world, creative thinking, critical thinking, speech activities, interactive methods, modern technologies, intellectual potential, teaching methodology, logical analysis.

Kirish. Ingliz tilini o'rganish nafaqat tilning grammatik jihatlarini, balki tafakkur jarayonlarini rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi. Ta'limda tafakkur ko'lamining rivojlanishi, tarbiyalanuvchilarning mantiqiy va kreativ fikrlash qobiliyatlarini oshirish, ularga mustaqil fikr yuritish va qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Ingliz tilini o'rgatishda faqat tilni o'rganishning o'zi kifoya qilmaydi, balki tafakkurni rivojlantirish, fikrlarni mantiqiy ravishda ifodalash va anglashni yaxshilash kerak. Tarbiyalanuvchilarning tafakkurini rivojlantirish maqsadida darslarda interaktiv metodlar va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatini kuchaytirish hamda mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish zarur. Ushbu maqolada ingliz tili mashg'ulotlarida tafakkur olamini rivojlantirishning asosiy metodlari va yondoshuvlarining ahamiyati tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Abdullayev, U. (2019). «Chet tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar». Toshkent: Fan va Texnologiya Ushbu kitobda chet tilini o'qitishning pedagogik va psixologik jihatlarini, shu jumladan tarbiyalanuvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga oid masalalar ko'rib chiqiladi.

Kodirova, M. (2021). «Ingliz tili mashg'ulotlarida interfaol metodlar». O'zbekiston ta'lim jurnali, 3 soni.

Maqolada interfaol usullar orqali tarbiyalanuvchilarning ijodiy va tanqidiy tafakkurini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar berilgan.

Richards, Dj. K. i Rodjers, T. S. (2014) «Подходы и методы в преподавании языков». Кембридж: Издательство Кембриджского университета ("Tillarni o'rgatishdagi yondashuvlar va usullar". Kembrij: Kembrij universiteti nashriyoti). Ushbu kitobda ingliz tili o'qitish metodlari va larning tarbiyalanuvchilarning aqliy rivojlanishiga ta'siri zamonaviy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi.

Ellis, R. (2003) «Изучение и преподавание языка на основе задач» ("Tilni o'rgatish va o'rganish vazifalar asosida"). Oksford. Oxford University Press. Ushbu asarda vazifaga asoslangan o'qitish usullari orqali tarbiyalanuvchilarning muammosi hal qilish va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish xaqida so'z yuritiladi.

Asosiy qism. Ingliz tili mashg'ulotlarida tarbiyalanuvchilarning tafakkur olamini rivojlantirish ko'p qirrali jarayon bo'lib, unda til ko'nikmalari aqliy o'sish bilan birlashadi. Bunday mashg'ulotlarning asosiy maqsadlaridan biri tanqidiy fikrlashni rag'batlantirish, dunyoqarashni kengaytirish va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini oshirish uchun qiziqarli va interaktiv faoliyatlardan foydalanishdir. Bu jarayon faqat tilni o'zlashtirish bilan chegaralanmaydi; u tarbiyalanuvchilarga fikrlarni o'rganish, tushunchalarni bog'lash va o'z fikrlarini samarali ifodalash imkonini beradigan muhitni yaratadi.

Bunga erishish uchun pedagoglar faol ishtirok etish va aqliy jalb qilishni rag'batlantiruvchi turli strategiyalardan foydalanishlari mumkin. Masalan, madaniy hodisalardan tortib global muammolargacha bo'lgan turli mavzulardagi munozaralarni kiritish tarbiyalanuvchilarga ma'lumotlarni tanqidiy tahlil qilish va o'z fikrlarini ingliz tilida aniq ifodalashga yordam beradi. Bu munozaralar nafaqat ravonlikni oshiradi, balki yangi g'oyalar va nuqtayi nazarlarni ochib berish orqali tarbiyalanuvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi. Xuddi shunday, bahs-munozara yoki rol o'ynash mashqlari kabi vazifalar talabalarni tezkor fikrlashga, turli nuqtayi nazarlarga moslashishga va tilni ijodiy tarzda o'z nuqtalarini isbotlash uchun ishlatishga undaydi.

Yana bir samarali usul – maqolalar, hikoyalar yoki multimedia resurslari kabi haqiqiy materiallardan foydalanish bo'lib, ular tahlil qilish uchun boy mazmunni taqdim etadi. Ushbu materiallarni talqin qilish orqali tarbiyalanuvchilar ma'noni aniqlash, dalillarni baholash va xulosa chiqarish qobiliyatlarini rivojlantiradilar – bularning barchasi yaxshi rivojlangan kognitiv asosning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Masalan, ingliz tilidagi qisqa hikoyani tahlil qilish tarbiyalanuvchilarni mavzular, qahramonlarning motivlari va axloqiy dilemmalarni o'rganishga undashi mumkin, bu esa ularning tahliliy ko'nikmalarini oshiradi, shu bilan birga so'z boyligi va tushunish qobiliyatini yaxshilaydi.

Bundan tashqari, mashg'ulotlarga muammolarni hal qilish faoliyatlarini kiritish tarbiyalanuvchilarning intellektual qobiliyatlarini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Jummalarni yechish, tilga asoslangan jumboqlarni to'ldirish yoki loyihalarda hamkorlikda ishlash kabi vazifalar tarbiyalanuvchilardan mantiq va ijodkorlikni qo'llashni talab qiladi. Bu faoliyatlar nafaqat o'quvni qiziqarli qiladi, balki aqlni muammolarni tizimli ravishda hal qilishga o'rgatadi – bu til o'rganishdan tashqariga chiqadigan va real hayotiy vaziyatlarga taalluqli ko'nikmadir.

Pedagogning roli bu jarayonda juda muhimdir. Qo'llab-quvvatlovchi va rag'batlantiruvchi sinf muhitini yaratish orqali pedagoglar tarbiyalanuvchilarni aqliy xavf-xatarlarga, masalan, odatiy bo'lmagan fikrlarni bildirishga yoki o'ylantiruvchi savollar berishga undashi mumkin. Ijodiy rag'bat va konstruktiv fikr-mulohazalar tarbiyalanuvchilarni o'z fikrlash va muloqot ko'nikmalarini takomillashtirishga undaydi. Vaqt o'tishi bilan ingliz tili mashg'ulotlari orqali kognitiv rivojlanishga doimiy e'tibor qaratish tarbiyalanuvchilarga murakkab g'oyalarni ishonch bilan boshqarish imkonini beruvchi yanada murakkab aqliy asosni shakllantirishga yordam beradi.

Muhokama va natijalar. Ingliz tili mashg'ulotlarida tarbiyalanuvchilarning tafakkur olamini rivojlantirish juda muhim jihat hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat tilni o'rganish bilan chegaralanib qolmaydi, balki tarbiyalanuvchilarning tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini ham oshiradi. Masalan, muhokama, bahslashish yoki hikoya yozish kabi mashg'ulotlar orqali tarbiyalanuvchilar o'z fikrlarini aniq ifodalashni, boshqalarning nuqtayi nazarini tahlil qilishni va yangi g'oyalarni shakllantirishni o'rganadilar. Shu bilan birga, ingliz tilidagi adabiyot, film yoki maqolalarni o'qish va tahlil qilish orqali ularning dunyoqarashi kengayadi, bu esa tafakkur olamining rivojlanishiga yordam beradi.

Bundan tashqari, guruh ishlari yoki loyihalar tarbiyalanuvchilarda hamkorlik ruhini va muloqot qobiliyatini mustahkamlaydi. Bu esa o'z navbatida ularning ijtimoiy va emotsional intellektini oshiradi. Albatta, bunday mashg'ulotlar muvaffaqiyatli bo'lishi uchun pedagog tomonidan to'g'ri metodlar qo'llanilishi va tarbiyalanuvchilarning qiziqishlariga mos vazifalar tanlanishi zarur.

Ushbu tadqiqot ingliz tili mashg'ulotlarida tarbiyalanuvchilarning aqliy dunyosini rivojlantirishni o'rganish uchun sifatli yondashuvni qo'llaydi va bu jarayonda bog'chalarda keng qo'llaniladigan pedagogik usullardan ilhom oladi. Metodologiya erta bolalik ta'limi usullarini til o'rganish strategiyalari bilan bog'lash uchun ishlab chiqilgan bo'lib, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va kognitiv rivojlanishni tizimli, lekin qiziqarli tarzda rivojlantirishga qaratilgan. Ingliz tili mashg'ulotlarida tarbiyalanuvchilarning tafakkur olamini rivojlantirishda quyidagi metodlar, usullar va vositalardan foydalanish yaxshi natija beradi. Metodlar: qo'shiq kuylash, rasmlar chizish, guruhda loyiha bajarish, bosqichma-bosqich yordam, ingliz tilida dialog tuzish, umumiy rasmga asoslangan hikoya yaratish. Usullar: o'yin orqali o'qitish, hikoya yaratish va muhokama, savol-javob usuli. Vositalar: rangli kartalar, rasmlar va videolar, interaktiv taxtalar, o'quv ilovalari, kartochkalar, qo'lda ishlanadigan materiallar. Natija qilib aytganda, tarbiyalanuvchilarning intellektual dunyosini ingliz tili mashg'ulotlari orqali rivojlantirish faqat tilni o'rganish bilan cheklanmaydi. Bu, munozaralar, bahslar va ijodiy yozish kabi faoliyatlar orqali tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini va ijodkorlikni rivojlantiradi. Ingliz adabiyoti, ommaviy axborot vositalari va hamkorlikda amalga oshiriladigan loyihalar bilan tanishish ham ularning dunyoqarashini kengaytiradi va ijtimoiy hamda emotsional intellektini oshiradi. Eng yaxshi natijalarga erishish uchun pedagoglar tarbiyalanuvchilarning qiziqishlariga moslashgan qiziqarli usullarni qo'llashlari kerak, bu esa ularning kognitiv qobiliyatlarining butunlay rivojlanishini ta'minlaydi.

Metodologiya.

Kuzatuvga asoslangan tahlil. Aqliy rivojlanishning til o'rganishda qanday namoyon bo'lishini tushunish uchun guruh kuzatuvlari o'tkazildi. Ushbu kuzatuvlar tarbiyalanuvchilarning lingvistik topshiriqlar bilan o'zaro munosabati va mavhum fikrlarni ifodalash qobiliyatiga qaratildi. Bog'cha amaliyotlaridan kelib chiqib, bu usul pedagoglarning bolalar rivojlanish bosqichlarini o'yin va suhbat orqali baholash uslubini aks ettiradi va uni kattaroq guruhdagi tarbiyalanuvchilarning lingvistik va kognitiv taraqqiyotini baholash uchun moslashtiradi.

Faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim. Bog'chalarda keng tarqalgan amaliy va tajribaviy o'qitishdan ilhomlanib, ushbu tadqiqot ingliz tili mashg'ulotlariga hikoya aytib berish, rol o'ynash va guruh muhokamalari kabi interaktiv faoliyatlarni kiritdi. Ushbu faoliyatlar tasavvurni rag'batlantirish va tarbiyalanuvchilarni lingvistik tushunchalarni shaxsiy tajribalari bilan bog'lashga undash uchun mo'ljallangan bo'lib, bu orqali ularning aqliy dunyosini kengaytiradi. Masalan, hikoya aytib berish vazifalari tarbiyalanuvchilarni hikoya yaratishga undadi, bu esa ularning so'z boyligini va ketma-ket, ijodiy fikrlash qobiliyatini oshirdi.

Bosqichma-bosqich yordamli o'qitish. Bog'cha strategiyalaridan foydalanib, murakkab lingvistik va aqliy muammolarni hal qilishda tarbiyalanuvchilarga asta-sekin yordam berish uchun “bosqichma-bosqich yordam” prinsipi qo'llanildi. Dastlab oddiy maslahatlar va misollar orqali yo'l-yo'riq ko'rsatildi, bu esa tarbiyalanuvchilarga vaqt o'tishi bilan ishonch va mustaqillikni shakllantirishga imkon berdi. Bu usul bog'chalarda vazifalarni boshqariladigan bosqichlarga ajratish uslubini aks ettiradi va kognitiv o'sish tilni o'zlashtirish bilan birga sodir bo'lishini ta'minlaydi.

Hamkorlikdagi o'qish. Erta ta'limning asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan hamkorlikdagi o'qish ushbu metodologiyaga umumiy muammolarni hal qilish va fikr almashishni rag'batlantirish uchun kiritildi. Tarbiyalanuvchilar kichik guruhlarda tilga asoslangan loyihalarni bajarishdi, masalan, dialoglar yaratish yoki kontekstual jumboqlarni hal qilish. Bu yondashuv nafaqat lingvistik ko'nikmalarni mustahkamladi, balki bog'chalardagi guruh dinamikasiga o'xshash ijtimoiy va aqliy hamkorlikni ham rivojlantirdi.

Reflektiv fikr-mulohaza. Ushbu usullarning samaradorligini baholash uchun o'quvchilar bilan reflektiv fikr-mulohaza seanslari o'tkaziladi. Bog'cha amaliyotlaridan kelib chiqib, bolalar o'z tajribalarini ifodalashga undalغانidek, ishtirokchilardan muayyan faoliyatlar ularning fikrlashi va til ishlatishiga qanday

ta’sir qilganini aytib berish so‘raldi. Ushbu sifatli ma’lumotlar aqliy rivojlanish va ingliz tili bilimi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik haqida tushuncha berdi.

Bog‘chadan ilhomlangan ushbu usullarni moslashtirish orqali metodologiya til ta’limiga yaxlit yondashuvni ta’minlaydi, bunda aqliy o‘sish faol ishtirok, tizimli yordam va reflektiv amaliyot orqali rivojlanadi. Ushbu ramka tadqiqotning tarbiyalanuvchilarning kognitiv dunyosini boyitish va ularga amaliy til ko‘nikmalarini berish maqsadiga mos keladi.

Xulosa. Ingliz tili mashg‘ulotlarida tarbiyalanuvchilarning tafakkur olamini rivojlantirish mazmuni til o‘rganishni oddiy ko‘nikma shakllantirishdan tashqariga chiqib, bolalarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini oshirishga xizmat qiladi. Maqolada keltirilgan usullar, metodlar va vositalar – o‘yin orqali o‘qitish, bosqichma-bosqich yordam, hamkorlikdagi faoliyat, vizual materiallar va texnologik imkoniyatlar – ingliz tili mashg‘ulotlarini nafaqat samarali, balki qiziqarli jarayonga aylantiradi. Ushbu yondashuvlar tilni o‘zlashtirish bilan birga, bolalarning aqliy dunyosini kengaytirib, ularni mustaqil fikrlashga, tasavvur qilishga va muammolarni ijodiy hal qilishga undaydi. Natijada, ingliz tili mashg‘ulotlari tarbiyalanuvchilarning har tomonlama rivojlanishiga zamin yaratadi, ularga nafaqat til bilimi, balki kognitiv va ijtimoiy ko‘nikmalar ham beradi. Shu sababli, bunday strategiyalarni ta’lim jarayonida kengroq qo‘llash bolalarning intellektual salohiyatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Abdullayev U.(2019). «Chet tilini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar». Toshkent: Fan va Texnologiya.
2. Kodirova M.(2021). «Ingliz tili mashg‘ulotlarida interfaol metodlar». O‘zbekiston ta’lim jurnali,3 soni.
3. Richards Dj. K. I Rodgers, T. S.(2014) «Подходы и методы в преподавании языков». Кембридж: Издательство Кембриджского университета ("Tillarni o‘rgatishdagi yondashuvlar va usullar". Kembrij: Kembrij universiteti nashriyoti).
4. Ellis R (2003) «Изучение и преподавание языка на основе задач» ("Tilni o‘rgatish va o‘rganish vazifalar asosida").Oksford. Oxford University Press
5. www.edu.uz
6. www.language.uz
7. www.education.uz
8. www.edutopia.org
9. www.educationcorner.com

**CHET TILLARINI O‘QITISHDA INTEGRATSION YONDASHUV ORQALI
TALABALARNING LINGVISTIK VA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISH**

Xudoyarova Dildora Najmidinovna,

NavDU Fakultetlararo chet tillar kafedrası v.b.dotsent
dildoraxudoyarova33@gmail.com

Maqolada chet tillarini o‘qitishda integratsion yondashuvning ahamiyati va uning lingvistik hamda kommunikativ kompetentligini rivojlantirishdagi roli tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari integratsion yondashuvning real hayotiy kontekstlarda til o‘rganish samaradorligini oshirishini ko‘rsatdi. Eksperimental guruh natijalari talabalar grammatik bilimlarni yaxshiroq o‘zlashtirishi va muloqot ko‘nikmalarining rivojlanishini tasdiqladi.

Maqolada fanlararo bog‘liqlik, innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlar asosiy afzallik sifatida ta’kidlangan. Xulosa sifatida integratsion yondashuvni rivojlantirish va zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: integratsion yondashuv, chet tili ta’limi, kommunikativ kompetentlik, innovatsion pedagogika.

**DEVELOPING STUDENTS' LINGUISTIC AND COMMUNICATIVE COMPETENCE
THROUGH AN INTEGRATIVE APPROACH TO FOREIGN LANGUAGE TEACHING**

This article analyzes the significance of the integrative approach in foreign language teaching and its role in developing linguistic and communicative competence. The research results show that the integrative approach enhances language acquisition by applying it in real-life contexts. The experimental group demonstrated better grammar retention and improved communication skills compared to the control group.

The article highlights interdisciplinary connections, innovative technologies, and interactive methods as key advantages. It concludes with recommendations for further development of the integrative approach and the implementation of modern educational technologies.

Keywords: integrative approach, foreign language teaching, communicative competence, innovative pedagogy.

**РАЗВИТИЕ ЯЗЫКОВО-КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ
ЧЕРЕЗ КОМПЛЕКСНЫЙ ПОДХОД В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ**

В данной статье анализируется значение интегративного подхода в преподавании иностранных языков и его роль в развитии лингвистической и коммуникативной компетенции. Результаты исследования показывают, что интегративный подход повышает эффективность изучения языка за счёт его применения в реальных жизненных ситуациях. Экспериментальная группа продемонстрировала лучшее усвоение грамматики и развитие навыков общения по сравнению с контрольной группой.

В статье выделены междисциплинарные связи, инновационные технологии и интерактивные методы как ключевые преимущества. В заключении рекомендуется дальнейшее развитие интегративного подхода и внедрение современных образовательных технологий.

Ключевые слова: интегративный подход, преподавание иностранных языков, коммуникативная компетенция, инновационная педагогика.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida chet tillarini o‘qitishda integratsion yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Globalizatsiya jarayonlari jadallashgani sari chet tillariga bo‘lgan talab ortib bormoqda, bu esa ta’lim jarayoniga yangicha yondashuvni talab etadi. Integratsion yondashuv chet tilini nafaqat grammatik va leksik bilimlar orqali o‘rgatish, balki uni real hayotiy kontekstlarda qo‘llash orqali chuqurroq anglashni ta’minlaydi.

Mazkur yondashuvning asosiy maqsadi talabalarining lingvistik bilimlarini mustahkamlash va kommunikativ kompetentligini rivojlantirishdan iboratdir. An’anaviy chet tili ta’limida ko‘proq grammatik qoidalar va tarjima asosiy o‘rin tutgan bo‘lsa, zamonaviy integratsion yondashuvga asoslangan ta’lim jarayonida o‘quvchilar chet tilini faol muloqot vositasi sifatida qabul qiladilar. Ushbu uslub orqali talabalar

tinglab tushunish, gapirish, yozish va o‘qish ko‘nikmalarini o‘zaro bog‘liq holda rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Integratsion yondashuvning afzalliklari shundaki, u chet tilini turli fanlar bilan bog‘lash, texnologiyalar va innovatsion usullardan foydalanish orqali o‘quv jarayonini yanada samarali qiladi. Misol uchun, talabalar chet tilini o‘rganayotganda ilmiy maqolalar tahlili, interaktiv o‘yinlar, loyihaviy ta‘lim va multimedia resurslaridan foydalanish orqali bilimlarini boyitishlari mumkin. Shuningdek, bu yondashuv talabalarni o‘qitish jarayoniga faol jalb etish bilan birga, ularga tilni muloqot vositasi sifatida tabiiy va erkin qo‘llashga yordam beradi.

Shunday qilib, integratsion yondashuv orqali chet tili o‘qitish jarayoni yanada samarali bo‘lib, o‘quvchilarning tilga oid bilimlari chuqurlashadi va amaliy qo‘llash imkoniyatlari ortadi. Ushbu maqolada integratsion yondashuvning mohiyati, usullari va uning ta‘lim jarayonidagi o‘rni haqida batafsil so‘z yuritiladi.

Integratsion yondashuv nazariy va amaliy jihatdan keng tadqiq etilgan mavzulardan biri hisoblanadi. Dewey (1938) integratsion yondashuv ta‘lim jarayonini yanada tabiiy va samarali qilishini ta‘kidlaydi. Unga ko‘ra, o‘quvchilar bilimlarni ajratilgan holda emas, balki bir-biri bilan bog‘liq kontekstda o‘zlashtirishi lozim. Bu yondashuv o‘quvchilarning faolligini oshirib, til o‘rganish jarayonini yanada interaktiv qiladi.

Vygotsky (1978) esa til o‘rganishda ijtimoiy o‘zaro ta‘sir muhimligini ko‘rsatib, kommunikativ yondashuvning ahamiyatiga urg‘u beradi. Unga ko‘ra, tilni o‘rganish jarayoni shaxslararo muloqot orqali amalga oshirilishi lozim, chunki til faqat individual bilim emas, balki ijtimoiy hodisadir. Shuning uchun ham integratsion yondashuv muloqotga asoslangan metodlarni keng qo‘llashni talab etadi. Brown (2000) esa chet tilini o‘qitishda integratsiya orqali talabalarni faollashtirish muhimligini ta‘kidlaydi. U o‘quvchilarni o‘zaro muloqot qilishga undaydigan topshiriqlar orqali tilni o‘rganish jarayonini jonlantirish mumkinligini aytadi. Masalan, muhokamalar, rolli o‘yinlar va guruh loyihalari chet tilining faol o‘rganilishiga turtki bo‘lishi mumkin.

Asosiy qism. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, fanlararo bog‘liqlik va real hayotiy vaziyatlarga asoslangan ta‘lim usullari chet tilini o‘rganish samaradorligini oshiradi. Shuningdek, multimodal o‘qitish, ya‘ni vizual, audial va kinestetik materiallardan foydalanish talabalarning til kompetentligini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Bugungi kunda chet tilini o‘qitishda innovatsion texnologiyalar, masalan, sun‘iy intellekt, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari ham integratsion yondashuvni yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Ushbu tadqiqotda sifat va miqdoriy tadqiqot usullari qo‘llanildi. Tadqiqot davomida quyidagi usullar ishlatildi:

Kuzatish – chet tillarini o‘qitish jarayonida integratsion yondashuvdan foydalanish natijalari tahlil qilindi. Talabalarning o‘quv jarayonidagi faolligi, dars mashg‘ulotlarida ishtiroki va til o‘rganish jarayoniga bo‘lgan munosabatlari kuzatildi. Kuzatuv jarayonida darslar audio va video yozuvlar orqali qayd etilib, keyinchalik tahlil qilindi.

So‘rovnoma – talabalar va o‘qituvchilar orasida integratsion yondashuvning samaradorligi bo‘yicha fikrlar yig‘ildi. So‘rovnomada talabalar chet tilini o‘rganish jarayoni bo‘yicha o‘z fikrlarini bildirishi, qiyinchiliklari va yutuqlari haqida ma‘lumot berishi so‘raldi. O‘qituvchilar esa integratsion yondashuvning afzalliklari va uning ta‘lim jarayonidagi o‘rnini baholashdi. **Eksperimental ta‘lim** – ikki guruhga bo‘lingan talabalar bilan tajriba o‘tkazildi. Eksperimental guruhda integratsion yondashuv asosida darslar o‘tkazildi, nazorat guruhi esa an‘anaviy usullar bilan o‘qitildi. Ma‘lum vaqt o‘tgach, har ikki guruhning natijalari tahlil qilinib, o‘zlashtirish darajasi va kommunikativ kompetentligidagi o‘zgarishlar solishtirildi. Eksperimental guruh talabalarining chet tilida erkin muloqot qilish qobiliyatlari sezilarli darajada oshgani kuzatildi.

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, integratsion yondashuv asosida chet tili o‘rgatilgan talabalar til kompetentligini sezilarli darajada rivojlantirdi. Eksperimental va nazorat guruhlarining ta‘lim natijalari taqqoslanganda, integratsion yondashuv asosida o‘qigan talabalar quyidagi jihatlarda an‘anaviy usulda o‘qigan talabalar bilan solishtirganda yuqori natijalarga erishgan:

Tahlil natijalariga ko‘ra, grammatik va leksik bilimlarning o‘zlashtirilishi holatida eksperimental guruh talabalar grammatik qoidalarni tushunish va amalda qo‘llashda nazorat guruhiga qaraganda ancha muvaffaqiyatli bo‘lgan. Ular yangi grammatik konstruksiyalarni mustahkamlash uchun matn tahlili, kontekstual mashqlar va interaktiv o‘yinlardan foydalangan. Shu sababli, ushbu guruhning yozma va og‘zaki nutqidagi grammatik xatolar soni kamaygan.

Eksperimental guruh talabalar chet tilida o‘z fikrlarini aniq va ravon ifodalash, muloqotga faol kirishish bo‘yicha nazorat guruhidan ustun bo‘lgan. Ayniqsa, rolli o‘yinlar, munozaralar va jamoaviy loyihalar orqali talabalar muloqot qobiliyatlarini rivojlantirgan. Tadqiqot davomida o‘tkazilgan so‘rovnomalar ham ushbu guruh talabalar o‘z fikrlarini chet tilida erkin bayon qilishda ishonchlari ortgani va og‘zaki nutq ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlanganini ko‘rsatdi.

Tinglab tushunish ko'nikmalarini o'lchash uchun talabalar turli aksent va talaffuz xususiyatlariga ega bo'lgan audio materiallar bilan ishlashgan. Eksperimental guruh talabalarining ushbu materiallarni tushunish darajasi nazorat guruhiga nisbatan yuqori bo'lgan. Bu esa integratsion yondashuv asosida multimodal resurslardan foydalanish natijasida bo'lishi mumkin. Shuningdek, ilmiy maqolalar, yangiliklar va adabiy matnlarni o'qish orqali lug'at boyligi kengaygan va o'qish tezligi oshgan.

Eksperimental guruh talabalarining yozma nutq ko'nikmalari ham yaxshilangan. Ular esse, maqola va biznes yozishmalarni tayyorlashda aniq tuzilishga rioya qilgan hamda mazmunan boy matnlar yaratgan. Bu natijalar shuni ko'rsatadiki, integratsion yondashuv orqali yozma mashqlarni muloqotga asoslangan faoliyatlar bilan birlashtirish samarali bo'lgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, integratsion yondashuv asosida ta'lim olgan talabalar chet tilini o'rganishga nisbatan ijobiy munosabat bildirgan va o'quv jarayonida faolroq ishtirok etgan. So'rovnoma natijalariga ko'ra, eksperimental guruhdagi 85% talaba integratsion yondashuvning chet tilini o'rganishda samarali ekanligini tasdiqlagan, nazorat guruhidagi talabalar esa dars jarayoni an'anaviy metodlarda o'tilgani sababli motivatsiyaning pastroq bo'lganini ta'kidlagan.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, integratsion yondashuv asosida chet tillarini o'qitish talabalarning lingvistik va kommunikativ kompetentligini sezilarli darajada rivojlantiradi. Ushbu yondashuv ayniqsa muloqot, tinglab tushunish, yozma nutq va o'qish ko'nikmalarining o'zaro bog'liqligini ta'minlagani uchun samarali bo'lib chiqdi. Shu sababli, ta'lim jarayonida integratsion yondashuvdan keng foydalanish talabalarni chet tilida erkin fikr bildirishga va uni amaliy hayotda qo'llashga yanada tayyorlaydi.

Integratsion yondashuv chet tillarini o'qitishda innovatsion va samarali strategiyalardan biri bo'lib, talabalar lingvistik va kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bu yondashuv talabalarni faollikka undab, chet tilini tabiiy va real hayotiy kontekstlarda qo'llash imkoniyatini oshiradi.

Integratsion yondashuv orqali o'qitish grammatik qoidalarini yodlash bilan cheklanmay, balki ularni real muloqot jarayonida qo'llashga yo'naltirilgan. Bu talabalar uchun chet tilini faqat nazariy bilim sifatida emas, balki amaliy aloqa vositasi sifatida o'rganish imkonini beradi. Tadqiqot davomida eksperimental guruhda o'qigan talabalar grammatik bilimlarini amaliy mashg'ulotlarda yanada mustahkamlagan va til kompetentligini yaxshilagan.

Integratsion yondashuv samaradorligini oshirishda zamonaviy texnologiyalar va fanlararo bog'liqlik muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalar chet tilini o'rganishda raqamli platformalar, interaktiv dasturlar, multimedia resurslari va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanganlarida, o'zlashtirish jarayoni yanada tezlashgan. Shu bilan birga, chet tili boshqa fanlar, masalan, tarix, madaniyat, iqtisod yoki ilmiy tadqiqotlar bilan bog'langanida, talabalar o'z bilimlarini chuqurroq anglab yetgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, integratsion yondashuv asosida ta'lim olgan talabalar o'quv jarayoniga yanada faol jalb etilgan. Rolli o'yinlar, munozaralar, jamoaviy loyihalar va tadqiqot topshiriqlari talabalarni mustaqil fikrlashga undagan va o'z fikrlarini chet tilida ravon bayon qilishga yordam bergan. Shuningdek, interaktiv o'qitish metodlari orqali talabalar til o'rganishga nisbatan qiziqish va motivatsiyani oshirgan.

Kelajakda integratsion yondashuvni yanada rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratish lozim:

- Sun'iy intellekt, virtual va kengaytirilgan reallik, ta'lim platformalari va boshqa innovatsion vositalardan foydalanish til o'rganish jarayonini yanada interaktiv va samarali qiladi.
- Chet tilini faqat filologiya nuqtayi nazaridan emas, balki iqtisod, madaniyat, fan vateknologiya kontekstida o'rgatish talabalar uchun qo'shimcha motivatsiya manbai bo'lishi mumkin.
- Tilni o'rganishda nazariyadan ko'ra, amaliyotga ko'proq e'tibor berish kerak. Xorijiy mutaxassislar bilan suhbatlar, xalqaro loyihalar va madaniy almashinuv dasturlari bu borada muhim rol o'ynaydi.

Xulosa. Integratsion yondashuv chet tilini o'qitish jarayonida samaradorlikni oshirib, talabalarni lingvistik va kommunikativ jihatdan rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv talabalar tilni muloqot vositasi sifatida tabiiy va erkin qo'llashga yordam beradi, shu bilan birga ularni tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga ham yo'naltiradi. Kelajakda ushbu yondashuvni yanada rivojlantirish va zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan boyitish zarur.

Adabiyotlar:

1. Dewey, J. (1938). *Experience and Education*. New York: Macmillan.

2. Vygotsky, L. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
3. Brown, H. D. (2000). *Principles of Language Learning and Teaching*. New York: Pearson Education.
4. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge University Press.
5. Krashen, S. (1982). *Principles and Practice in Second Language Acquisition*. Oxford: Pergamon Press.
6. Larsen-Freeman, D. (2000). *Techniques and Principles in Language Teaching*. Oxford University Press.
7. Jo‘rayev, N. (2019). *Chet tillarini o‘qitishda innovatsion texnologiyalar*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
8. Qosimov, S. (2020). *Zamonaviy lingvodidaktika: nazariya va amaliyot*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
9. Yo‘ldoshev, U. (2021). *Lingvistik kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy usullari*. Toshkent: Innovatsion ta’lim markazi.
10. Axmedov, B. (2018). *O‘zbekistonda chet tillarni o‘qitish metodikasi: yangi yondashuvlar*. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.

УДК 371.398

**МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА УРОКАХ
УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА С РУССКИМ ЯЗЫКОМ ОБУЧЕНИЯ**

Маратова Фариза Азаматовна,

*Докторант 1 курса НавГУ, преподаватель кафедры Начального образования
farizamaratova1998@gmail.com*

В статье рассматриваются методические аспекты развития речи учащихся начальных классов на уроках узбекского языка в школах с русским языком обучения. Описываются основные принципы и подходы к организации образовательного процесса, направленного на формирование коммуникативных навыков у младших школьников. В работе акцентируется внимание на важности интеграции различных видов речевой деятельности (говорение, слушание, чтение, письмо) и использовании эффективных методов, таких как игровые формы обучения, диалоги, работа с текстами, а также применение наглядных и аудиовизуальных средств. Приводятся практические рекомендации по активизации речевой деятельности и индивидуальному подходу к обучению. Статья предназначена для преподавателей узбекского языка, методистов и педагогов, работающих в условиях двуязычной образовательной среды.

Ключевые слова: *развитие речи, начальные классы, узбекский язык, русскоязычные школы, методика обучения, коммуникативные навыки, игровые методы, дидактические приемы, речевая деятельность.*

**O‘ZBEK TILI DARSLARIDA BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARINING NUTQINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASI (TA‘LIM RUS TILIDA OLIB BORILADIGAN MAKTEBLAR
MISOLIDA)**

Maqolada rus tilida ta‘lim oladigan maktablarning boshlang‘ich sinflarida o‘zbek tili darslarida nutqni rivojlantirishning metodik jihatlari ko‘rib chiqiladi. O‘quv jarayonini tashkil etishda asosiy tamoyillar va yondashuvlar, kichik maktab o‘quvchilarida kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan metodlar tavsiflanadi. Ishda turli nutq faoliyati turlarini (gapirish, tinglash, o‘qish, yozish) integratsiyalashning ahamiyati va samarali usullardan foydalanish, masalan, o‘yin shaklidagi darslar, dialoglar, matnlar bilan ishlash, shuningdek, ko‘rgazmali va audiovizual vositalardan foydalanish zarurligi ta‘kidlanadi. Nutq faoliyatini faollashtirish va ta‘limga individual yondashuv bo‘yicha amaliy tavsiyalar keltiriladi. Maqola o‘zbek tili o‘qituvchilari, metodistlar va ikki tili ta‘lim muhitida ishlayotgan pedagoglar uchun mo‘ljallangan.

Kalit so‘zlar: *nutqni rivojlantirish, boshlang‘ich sinflar, o‘zbek tili, rus tilidagi maktablar, o‘qitish metodikasi, kommunikativ ko‘nikmalar, o‘yin metodlari, didaktik usullar, nutq faoliyati.*

**METHODOLOGY FOR DEVELOPING THE SPEECH OF PRIMARY STUDENTS IN
UZBEK LANGUAGE LESSONS (ON THE EXAMPLE OF SCHOOLS WHERE EDUCATION IS
CONDUCTED IN RUSSIAN)**

The article examines methodological aspects of developing speech skills in primary school students during Uzbek language lessons in schools with Russian as the language of instruction. It describes the main principles and approaches to organizing the educational process aimed at forming communicative skills in young learners. The paper emphasizes the importance of integrating various types of speech activities (speaking, listening, reading, writing) and utilizing effective methods such as game-based learning, dialogues, working with texts, and using visual and audiovisual aids. Practical recommendations are provided for enhancing speech activity and applying an individualized approach to teaching. The article is intended for Uzbek language teachers, methodologists, and educators working in a bilingual educational environment.

Keywords: *speech development, primary grades, Uzbek language, Russian-speaking schools, teaching methodology, communicative skills, game-based methods, didactic techniques, speech activity.*

Методика развития речи учащихся начальных классов на уроках узбекского языка с русским языком обучения является актуальной задачей в условиях двуязычного образования. Основная цель

обучения узбекскому языку в русскоязычных школах заключается в том, чтобы учащиеся могли свободно пользоваться языком в повседневной жизни, выражать свои мысли и понимать собеседников. Развитие речевых навыков на уроках узбекского языка включает в себя использование различных методов и приемов, направленных на активизацию речевой деятельности учащихся.

Введение. Развитие речи учащихся начальных классов на уроках узбекского языка в школах с русским языком обучения является важной частью образовательного процесса. В условиях двуязычного обучения школьники должны не только освоить грамматические и лексические нормы второго языка, но и уметь применять их в повседневном общении. В связи с этим, методика преподавания узбекского языка должна включать в себя различные приемы и методы, направленные на развитие речевых навыков у детей.

Особенностью изучения узбекского языка в русскоязычных школах является то, что учащиеся зачастую не имеют постоянной языковой среды, где они могли бы активно использовать узбекский язык. Поэтому на уроках учителю необходимо создавать условия для практики, моделировать коммуникативные ситуации и предлагать задания, которые будут способствовать активизации речевой деятельности.

Основные принципы методики развития речи. Методика развития речи на уроках узбекского языка основывается на нескольких ключевых принципах, которые должны соблюдаться для достижения эффективности обучения.

1. Коммуникативная направленность. Главной целью обучения является не просто передача теоретических знаний, а формирование у учащихся способности использовать язык для общения в реальной жизни. Учителю важно создавать на уроках условия, приближенные к естественным ситуациям общения, в которых ученики смогут свободно выражать свои мысли на узбекском языке.

2. Интеграция всех видов речевой деятельности. Развитие речи не может быть изолировано от других видов речевой деятельности, таких как слушание, чтение и письмо. Важно, чтобы обучение было комплексным и включало задания, которые развивают все эти навыки. Например, чтение текста должно сопровождаться его обсуждением, а затем может следовать письменное задание, где учащиеся пересказывают прочитанное своими словами.

3. Индивидуальный подход к учащимся. Важно учитывать, что уровень владения узбекским языком у учащихся может различаться. Некоторые дети могут владеть базовым словарным запасом, а другим потребуется больше времени и усилий для освоения нового языка. Учитель должен уметь варьировать задания и методы в зависимости от уровня подготовки каждого ученика.

4. Использование родного языка как опоры. В школах с русским языком обучения узбекский язык является для детей вторым, и они не всегда могут интуитивно понимать его правила и особенности. Поэтому на начальных этапах обучения учитель может использовать русский язык как опору для объяснения сложных грамматических или лексических понятий, что способствует лучшему пониманию и усвоению материала.

Методы и приёмы развития речи на уроках узбекского языка. Для развития речи младших школьников на уроках узбекского языка используются различные методы и приемы, направленные на активизацию устной и письменной речевой деятельности.

1. Игровые методы

Игра является естественной и эффективной формой обучения для младших школьников. Игровые методы помогают снизить психологическое напряжение и вовлекают учащихся в учебный процесс на эмоциональном уровне. В процессе игры дети легче усваивают новые слова и выражения, активно используют их в речи.

- Рольевые игры. Учащиеся могут разыгрывать диалоги на заданные темы, например, «в магазине», «у врача», «на вокзале». Это помогает им не только запомнить новые слова, но и научиться использовать их в конкретных ситуациях общения.

- Игры на сопоставление слов. Учитель предлагает учащимся соотнести слова на узбекском языке с их переводом на русский. Это помогает развивать лексические навыки и увеличивать словарный запас.

2. Использование наглядных и аудиовизуальных средств

Для младших школьников важно визуальное восприятие информации, поэтому на уроках узбекского языка активно используются наглядные материалы: картинки, фотографии, видеоролики. Аудиовизуальные средства помогают учащимся лучше запоминать слова и выражения, развивают навыки восприятия речи на слух.

- Работа с картинками. Учитель показывает изображение и предлагает ученикам описать его на узбекском языке. Это упражнение развивает как лексические, так и грамматические навыки.

- Просмотр видеороликов. После просмотра видео на узбекском языке учитель задает вопросы по его содержанию, что способствует развитию навыков аудирования и устной речи.

3. Чтение и обсуждение текстов

Работа с текстами играет важную роль в развитии речевых навыков. Чтение помогает учащимся обогатить словарный запас, а обсуждение прочитанного способствует развитию навыков устной речи.

- Чтение вслух. Это упражнение развивает навыки правильного произношения, интонации и темпа речи. После прочтения текста учитель задает вопросы, чтобы проверить понимание и вовлечь учеников в обсуждение.

- Обсуждение текста. Учащиеся отвечают на вопросы учителя, обсуждают поступки героев или сюжет. Это помогает развивать навыки аргументации и формулирования своих мыслей на узбекском языке.

4. Развитие письменной речи

Письменная речь является неотъемлемой частью обучения языку. Упражнения на написание сочинений, описаний и диктантов помогают учащимся развивать грамматические навыки, а также формировать умение связно излагать свои мысли в письменной форме.

- Сочинения и описания. Учитель может предложить ученикам написать сочинение на заданную тему или описать картину, фотографию. Это развивает навыки связной письменной речи.

- Диктанты. Диктанты помогают закрепить правила правописания, развить навыки грамматики и орфографии.

Особенности работы с русскоязычными учащимися

Одной из особенностей обучения узбекскому языку в русскоязычных школах является необходимость постоянного контроля за уровнем понимания учащимися изучаемого материала. Важно вовремя выявлять трудности, с которыми сталкиваются дети, и корректировать учебный процесс в зависимости от их потребностей.

- Трудности в произношении. Русскоязычные дети могут испытывать трудности с произношением некоторых звуков узбекского языка, которые отсутствуют в русском. Учителю важно проводить специальные упражнения на тренировку произношения сложных звуков.

- Лексические трудности. В отличие от носителей узбекского языка, русскоязычные дети имеют ограниченный словарный запас. Поэтому особое внимание следует уделять работе над лексикой и расширению словарного запаса через различные упражнения, такие как составление предложений, описание предметов и явлений, выполнение лексических игр.

Упражнения, направленные на развитие навыков речи у учащихся начальных классов.

Вот несколько упражнений по теме **"Методика развития речи учащихся начальных классов на уроках узбекского языка с русским языком обучения"**. Эти задания направлены на развитие речевых навыков, обогащение словарного запаса и формирование коммуникативных умений.

Упражнение 1: Описание предметов

Цель: Развитие описательной речи.

1. Учитель показывает учащимся изображения разных предметов (например, фрукты, овощи, животные).

2. Задача учащихся — описать каждый предмет на узбекском языке, используя прилагательные и существительные. Например: **"Olma qizil, dumaloq va shirin"** (Яблоко красное, круглое и сладкое).

Упражнение 2: Диалоги на узбекском языке

Цель: Развитие навыков общения.

1. Учитель раздает карточки с диалогами на повседневные темы (например, поход в магазин, посещение врача).

2. Учащиеся разыгрывают эти диалоги в парах, следуя сценарию и стараясь самостоятельно добавлять новые фразы. Например: **"Do'konga borganingizda nima sotib oldingiz?"** (Что вы купили, когда ходили в магазин?)

Упражнение 3: Рассказ по картинке

Цель: Развитие устной речи и воображения.

1. Учитель демонстрирует учащимся картинку с определенной ситуацией (например, прогулка в парке, утренняя зарядка в школе).

2. Учащимся нужно составить рассказ по картинке на узбекском языке. Например: **"Mana bolalar bog'da sayr qilmoqdalar. Ular o'yin o'ynamoqda."** (Вот дети гуляют в парке. Они играют.)

Упражнение 4: Составление предложений

Цель: Формирование грамматически правильной речи.

1. Учитель раздает карточки с набором слов на узбекском языке (например: **kitob, maktab, o‘qituvchi**).
2. Учащимся нужно составить из этих слов осмысленные предложения. Например: **"O‘qituvchi maktabda kitob o‘qiyapti."** (Учитель в школе читает книгу).

Упражнение 5: Словарный диктант

Цель: Обогащение словарного запаса.

1. Учитель диктует список слов на русском языке, а ученики должны написать их перевод на узбекский язык.
2. После диктанта проводится проверка и работа над ошибками.

Упражнение 6: Игра "Кто я?"

Цель: Развитие навыков описательной речи и воображения.

1. Один из учеников получает карточку с названием предмета или животного (например, **"quyon"** - кролик).
2. Учащийся описывает этот предмет или животное на узбекском языке, не называя его. Остальные учащиеся должны угадать, что это за предмет. Например: **"Men kichkina va oppoqman, tez yuguraman va sabzi yoqtiraman."** (Я маленький и белый, бегаю быстро и люблю морковь.)

Эти упражнения помогут учащимся начальных классов лучше усваивать узбекский язык, развивать речь и коммуникативные навыки.

Заключение. Методика развития речи учащихся начальных классов на уроках узбекского языка с русским языком обучения требует комплексного подхода и использования разнообразных методов и приемов. Важную роль играют коммуникативная направленность обучения, интеграция различных видов речевой деятельности, индивидуальный подход к учащимся и активное использование игровых и наглядных методов. Работа с текстами, упражнения на устную и письменную речь, а также использование аудиовизуальных средств позволяют сделать обучение более интересным и эффективным.

Таким образом, правильно организованный учебный процесс способствует не только освоению узбекского языка, но и развитию у учащихся уверенности в использовании языка в различных жизненных ситуациях.

Литературы:

1. Абуева Н. Р. Методика обучения узбекскому языку в русскоязычных школах. – Ташкент: Узбекистан, 2018.
2. Каримов Х. А. Основы методики преподавания узбекского языка. – Ташкент: Маънавият, 2017.
3. Хайдаров А. Р. Психолого-педагогические аспекты обучения двуязычным детям. – Ташкент: Шарк, 2019.
4. Гречина А. М. Методика преподавания языков в начальных классах. – Москва: Просвещение, 2016.
5. Сайфуллаева Ф. А. Коммуникативные подходы в обучении узбекскому языку младших школьников. – Ташкент: Учитель, 2017.
6. Махмудова Ш. Игровые методы в обучении узбекскому языку для младших школьников. – Ташкент: Маънавият, 2020.
7. Камолова Л. М. Использование информационных технологий в процессе обучения языкам. – Ташкент: Меҳнат, 2019.
8. Узбеков А. Б. Методические приемы активизации речевой деятельности на уроках узбекского языка. – Самарканд: Знание, 2021.
9. Хусанова Г. И. Методы обучения узбекскому языку в школах с русским языком обучения. – Ташкент: Фан, 2022.
10. Ахмедов Ш. Дидактические игры в обучении узбекскому языку. – Ташкент: Низами, 2018.

ONA TILI DARSLARIDA SINTAKTIK MASHQLAR VOSITASIDA O‘QUVCHILARNING NUTQIY KOMPITENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Omonova Dildora Nekmurod qizi,

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

Buxoro davlat pedagogika instituti

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti

Boshlang'ich ta'lim kafedrasi doktoranti

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarning sintaktik mashqlar vositasida ularning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish yo'llari va usullari haqida fikr yuritilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarda dastlab o'rgatiladigan sintaktik mashqlarning turlari va vositalari haqida so'z yuritilgan. Gap tarkibi, so'z birikmasi hamda ularning ajratish ko'nikmasi haqida ham fikr yuritilgan. O'quvchida sintaktik mashqlarni bajartirish orqali, o'quvchining so'z boyligini ham rivojlantirishga qaraladi. Ushbu mashqlarni bajartirish orqali o'quvchining bevosita og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Sintaktik mashqlar vositasida esa o'quvchidagi mana shu kamchiliklar bartaraf qilinishi uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *nutq usullari, nutqiy kompetensiya, sintaktik mashqlar, so'z birikmasi, gap, mashq va topshiriq, lingvistik tushuncha, til qurulishi, kommunikativ kompetensiya, matnni anglash.*

РАЗВИТИЕ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧАЩИХСЯ ПОСРЕДСТВОМ СИНТАКСИЧЕСКИХ УПРАЖНЕНИЙ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА

В статье рассматриваются пути и методы развития речевых компетенций учащихся младших классов посредством синтаксических упражнений. Обсуждаются типы и инструменты синтаксических упражнений, которым изначально обучали учащихся начальной школы. Также были рассмотрены структура предложений, словосочетания и способность их различать. Цель состоит в том, чтобы развить словарный запас учащихся путем выполнения синтаксических упражнений. Важным фактором также является развитие непосредственной устной и письменной речи учащегося посредством этих упражнений. Синтаксические упражнения служат важным фактором в преодолении этих недостатков у учащегося.

Ключевые слова: *речевые методы, речевая компетенция, синтаксические упражнения, словосочетание, предложение, упражнение и задание, языковая концепция, структура языка, коммуникативная компетенция, понимание текста.*

DEVELOPING STUDENTS' SPEECH COMPETENCE THROUGH SYNTACTIC EXERCISES IN NATIVE LANGUAGE LESSONS

This article discusses the ways and methods of developing the speech competence of primary school students through syntactic exercises. The types and means of syntactic exercises that are initially taught to primary school students are discussed. The structure of sentences, word combinations, and their skills of separation are also discussed. By performing syntactic exercises, the student's vocabulary is also developed. By performing these exercises, the student's direct oral and written speech is also an important factor. Syntactic exercises serve as an important factor in eliminating these shortcomings in the student.

Keywords: *speech methods, speech competence, syntactic exercises, word combination, sentence, exercise and task, linguistic concept, language structure, communicative competence, text comprehension.*

Kirish. Bugungi kunda Respublikamizda umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturida "Ona tili fani o'quvchi shaxsida fikrlashga, mustaqil fikrlash ko'nikmasini shakllantirishga, o'zgarlar fikrini anglashga hamda tushunishga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda nutq sharoitiga mos ravishda to'g'ri va ravon bayon qila olishga qaratilgan. Ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlardan biri o'quvchilarning nutqiy (kommunikativ) kompetensiyani rivojlantirish; fikrni og'zaki va yozma tarzda ifodalay olish, til qurilishiga oid o'zlashtiriladigan amaliy bilimlarni, leksik, so'z tarkibi, imloga oid, sintaksis, imloga oid malakalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Boshlang'ich sinflarda sintaktik mashqlar vositasida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda matn ustida ishlash eng samarali vosita sanaladi. Jumladan, matnni o'qib, idrok etish, anglash kabi tushunchalarni o'quvchilarning sintaktik bilimlariga

asoslanadi. Sintaktik bilimlar- dasturda ko‘rsatilishicha o‘quvchining so‘z, so‘z birikmasi, gap va uning turlari, matn va uning tuzulishi bilan bog‘liq bilimlar silsilasi.

Adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda esa nutq faqatgina fikrni to‘liq bayon etish vositasi bo‘libgina qolmay, balki uni shakllantirish quroli hamdir. Jumladan Nutqiy rivojlanish jarayonini A.N.Leontev quyidagicha tavsiflaydi: “Nutqni o‘stirish va rivojlantirish jarayoni bola lug‘atining va so‘zlarning assotsiatsiya asosida bog‘lanishining ortishida ifodalanadigan miqdoriy o‘zgarishlar, balki sifat jihatdan o‘zgarish jarayonidir, zero u fikrlash va ong rivojlanishi bilan ichki bog‘langan holda so‘zning barcha funksiyalari, tomonlari va aloqalarini qamrab oladigan haqiqiy rivojlanish jarayonidir”. K.D.Ushinskiy bolalarni ona tilida o‘qitishning zarurligini asoslab, bolalarga ona tilini dastlabki o‘qitish metodikasini ishlab chiqar ekan, bolalar tilni o‘zlashtirishlarining til bilan tafakkurning o‘zaro munosabatlarini falsafiy, o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘qitishga asoslangan xususiyatlari va qonuniyatlari borasida o‘z fikrlarini bildiradi.¹

A.A.Leontev L.S.Vigotskiy va A.N.Leontevning qoidalariga tayangan holda, asosiy faoliyat turi sifatida qaraydigan nutqiy faoliyat shakllanishi konsepsiyasini ishlab chiqdi. Uning qayd etishicha, bola nutqini rivojlantirish-bu eng avvalo, muloqot usullarini rivojlantirish bo‘lib, ularni o‘zlashtirish til qobiliyatini shakllantirishni talab qiladi. Nutqni egallab olishning eng muhim bosqichlari maktabgacha yoshga to‘g‘ri keladi. Shundan kelib chiqqan holda, hozirgi paytda nutqni rivojlantirishdagi ayrim bosqichlarni o‘rganishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.²

Muhokama va natijalar. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning sintaktik mashqlar vositasida og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, darsliklarda berilgan sintaktik mashqlarni bajartirish jarayonida o‘quvchilarning bilish, sezish, anglash, tushunish ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Yangi avlod darsliklari asosida o‘quvchilarning o‘qitishdan asosiy maqsad- lingvistik bilimlar, hayotiy ko‘nikmalar va nutq malakalarini shakllantirishga qaratilgan bilimlar ko‘zda tutilgan.

Ona tili ta’limida o‘quv topshiriqlari funksional jihatdan jiddiy farqlanmaydi. Mashg‘ulotlarda, “Ona tili” darsliklarida ularning o‘zaro bajaradigan vazifalari ajratilmaydi, o‘qituvchilarga bu haqida yetarli ma’lumot berilmaydi. Aslida har bir darslik muallifi, har bir o‘qituvchi o‘quv topshiriqlar, jumladan, mashq va topshiriqni o‘z vazifasidan xususiyatidan kelib chiqib, qo‘llasagina samara beradi. Ona tili ta’limida mashqlar – bilim berish emas, ko‘nikma va malaka hosil qilish uchun qo‘llanilishi maqsadga muvofiqdir.

Demak, mashq – ko‘nikma yoki malaka hosil qilish vositasi. Topshiriq esa, egallangan ko‘nikmalarni sinash vazifasini bajaradi. U yo‘naltiruvchi xususiyatga ega. Topshiriq orqali o‘quvchini fikrlashga, mustaqil ishlashga ham o‘rgatish mumkin. Zero, mashqlar ham, topshiriqlar ham “Ona tili” darsliklarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Nazariy ma’lumotlar, ya’ni grammatik qoidalar o‘quvchida belgilangan mavzu doirasida bilim, tushuncha hosil qiladi. Ta’lim mazmunida o‘quvchi egallashi ko‘zda tutilgan ko‘nikma va malakani, asosan, mashqlar shakllantiradi. Topshiriqlar bu o‘rinda ko‘proq o‘quvchi bilimini

boyitishga xizmat qiladi.

Metodik manbalarda boshlang‘ich sinflarda beriladigan sintaktik bilimlar o‘quvchilarga amaliy va nazariy o‘rgatilishi qayd qilingan. Boshlang‘ich sinflarda sintaksisga oid bilimlarni amaliy o‘rganish savod o‘rgatish davridanoq boshlanadi va 3-4-sinfda ham davom ettiriladi. Boshlang‘ich sinfda “So‘z birikmasi”, “Gap”, “Darak gap”, “So‘roq gap”, “Buyruq gap”, “His-hayajon gap”, “Sodda gap”, “Gap bo‘laklari”, “Gapning uyushiq bo‘laklari”, “Undalmali gaplar” mavzulari nazariy o‘rganiladi.

1. Ғуломов А., Неъматов Ҳ. Она тили таълими мазмуни. Ўқитувчилар учун методик қўлланма. – Т.: Ўқитувчи. 1996. 9-6.

Bu mavzular yuzasidan turli mashqlar bajariladi va mana shu mashqlarni bajartirish orqali bevosita o‘quvchilarni nutqiy kompetensiyasini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Nutqiy kompetensiya til ta’limining quyidagi 4 komponentini rivojlantirishni nazarda tutadi:

1. Tinglab tushunish (eshitilgan va eshittirilgan nutqni, tinglangan matndagi asosiy axborotni, dolzarb mavzulardagi radio va teledasturlarni tushunish);

1-sinf ona tili darsligining 35-mavzu 12-15-sahifalarida o‘quvchiga ot so‘z turkumini tushuntirish maqsadida 4-mashq berilgan bo‘lib, unda o‘quvchining tinglagan matni asosida, matnga sarlavha qo‘yish topshirig‘i berilgan.

2-sinf ona tili darsligining 2-qism 19-mashq, 19-sahifasida berilgan so‘zlarni o‘qing. So‘zlarning audio matnini tinglang. Savollar yordamida so‘zlarni bog‘lang.

Bevosita ushbu mashq orqali o‘quvchining tinglash hamda eshitgan so‘zlarini yoddan yozish uchun ko‘nikma hosil qiladi.

Berilgan soʻzlardan namunalar:

Otliq	→	qurildi
Ziyoda	→	boshlandi
Mevalar	→	ochildi
Binolar	→	bordi
Taʼtil	→	pishdi

Shu tartibda oʻquvchi mashqlarni ketma- ketlikda bajarishni boshlaydi. Ushbu mashqlarni bajartirish orqali oʻquvchida uning tinglash va nutq boyligini rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

2. Gapiirish (monologik, dialogik ogʻzaki nutq turlarida oʻz shaxsiy qarashlari va fikrlarini bildirish, mavzu doirasida taqdimot qila olish koʻnikmalarini rivojlantirish);

2. Мавлонова К. Она тили фанини адабиёт фани билан бадий матн орқали интеграциялаб ўқитиш методикасини такомиллаштириш Пед. фанл. бўйича фал. док. (PhD) илм. дараж. олиш учун ёзилган дисс. автореферати. –Т.: 2019. -22 б.

1-sinf ona tili darsligining 46-sahifasi 5-mashqida gaplarni ketma-ketligini aniqlab, matnni koʻchiring.

Koʻchirilgan matnni diolog tarzda ifodalab yozing. Oʻqilgan matnni maʼnosini izohlab takrorlab ayting.

1. Qiziqchi sahnaga iti Bim, mushugi Malla va toychogʻi Qashqa bilan chiqdi.

2. Sirkdan quvnoq kayfiyatda qaytdik.

3. Yakshanba kuni sirkka bordik.

2-sinf ona tili darsligining 3-qism 18-mavzu “Kelajak oʻz qoʻlingda” mavzusida diolog shaklda matn berilgan boʻlib, diologni oʻqing va tushunganingizni yoddan aytib bering.

3. Oʻqish. Mavzuga oid materiallarni, adabiy-badiiy matnlarni, ommabop materiallarni (gazeta, hikoya, shaxsiy va elektron xatlarni) oʻqish;

Demak bugungi kunda boshlangʻich sinf darsliklarining deyarli barchasida matnlarni audio shakli berilgan boʻlib, oʻquvchi uni tinglash va tinglagan matnini yozish yoki aytib berish topshirigʻi beriladi.

2-sinf ona tili darsligining 1-qismi 38-sahifasi 8-mashqda Amur Temur haqida matn berilgan boʻlib, adabiy matnni oʻqib tushunish topshirigʻi berilgan. Ushbu matnni oʻquvchi audio matn shaklda ham tinglashi mumkin.

3-sinf ona tili darsligining 2-qism 66-sahifa 85-mashqda adabiy matn berilgan boʻlib, matndagi ajratib koʻrsatilgan soʻzlarni maʼnosini izohlang. Hamda matnni oʻzingizni tushunchangiz bilan aytib bering. Oʻquvchi matnni oʻqib tushunganini aytib berishga harakat qiladi.

4. Yozish (diktant, bayon, insho yoza olish, ijodiy matnlar tuza olish, rasmiy ish qogʻozlarini yuritishni bilish)

Bugungi kunda boshlangʻich sinf darsliklarida oʻquvchining ijodiy qobiliyatini yanada rivojlantirish uchun loyiha ishlari berilgan boʻlib, bunday topshiriqlar orqali asosan oʻquvchining mustaqil fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan.

2-sinf ona tili darsligining 4-qismi 59-sahifasida 13-mashq berilgan boʻlib, bunda oʻquvchilarga devoriy gazeta yasash va shu devoriy gazetani bajarish tartibini loyiha ishi sifatida berilgan.

3-sinf ona tili darsligining 2-qism 20-sahifa 6-mavzuda Ijodkorlik soati loyiha ishi berilgan boʻlib, ushbu loyiha ishi orqali bevosita oʻquvchining ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan.

Shuningdek boshlangʻich sinflarda oʻquvchining sintaktik mashqlarni tahlil qilish va ularda oʻquvchilar nutqida foydalanish boʻyicha quyidagi mashqlardan foydalaniladi.

– gapni soʻroq, darak, buyruq va istak ohangida oʻqing;

– sodda gapni qoʻshma gapga aylantiring;

– qoʻshma gaplarni sodda gaplar bilan ifodalang;

– koʻchirma gapni oʻzlashtirma gapga aylantiring;

– nuqtalar oʻrniga kerakli tinish belgisini qoʻying;

– matnda qoʻyilgan tinish belgilarning qoʻllanilish sabablarini izohlang.

– matnni mazmunga putur etkizmay qisqartiring;

– hikmatni matnga aylantiring;

– turli mavzudagi maqol va hikmatlarni bir umumiy mazmunga birlashtiring; – tarjimai hol matnini tavsifnomaga aylantiring;

Darsliklarda berilgan ushbu mashqlarni bajartirish orqali oʻquvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, oʻquvchida nutqining chiroyli boʻlishi uning toʻgʻri va grammatik gap tuzishi uchun ham asos boʻlib xizmat qiladi. Ayniqsa boshlangʻich sinf ona tili darslarida sintaktik tushunchalarni oʻrgatishning metodik imkoniyatlari keng boʻlib, faqatgina undan samarali va yuqori

natijaga erisha olishni ko'zlab foydalanish zarurdir. O'quvchini sintaktik mashqlarni bajartirish orqali, bevosita unio g'zaki va yozma nutqini rivojlantirish uchun ham xizmat qiladi. Chunki o'quvchi boshlang'ich ta'limda ona tilini puxta egallasa, og'zaki va yozma nutqi ravon bo'lsa yuqori sinflarda ham qiynalmaydi gap tuza olish imkoniga ega bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Ғуломов А., Неъматов Ҳ. Она тили таълими мазмуни. Ўқитувчилар учун методик қўлланма. – Т.: Ўқитувчи. 1996. 9-б.
2. Мавлонова К. Она тили фанини адабиёт фани билан бадиий матн орқали интеграциялаб ўқитиш методикасини такомиллаштириш Пед. фанл. бўйича фал. док. (PhD)илм. дараж. олиш учун ёзилган дисс. автореферати. –Т.: 2019. -22 б.
3. Yo'ldosheva D.N. Она тили та'лими мақсадining tadrijiy taraqqiyoti. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2013. – 168 b.
4. Boshlang'ich sinflar uchun “Ona tili darsligi 2-sinf” 1-qism. “Novda”.T-2023.
5. Boshlang'ich sinflar uchun “Ona tili darsligi 3-sinf” 2-qism. “Novda”.T-2023.
6. Тошхўжаева Д. Матн мазмунини ўз сўзлари билан қайта ҳикоя қилишга ўргатишнинг методик асослари: Пед. фан. ном. ... дис.–Тошкент, 2000
7. Давронов И. Алгоритмик машқ ва унинг хусусияти.// Филология ва услубиёт масалалари. Илмий –услубий мақолалар тўплами.–Бухоро: Бухоро, 2010. – 188–193 б.
8. Usman A., Avizov B. O'zbek tili grammatikasi. Birinchi bo'lim. Fonetika va morfologiya. To'liqsiz o'rta va o'rta maktablar uchun darslik. – Т.: Ozdavnaşr, 1939. – 235 b.

ONA TILI TA'LIMIDA MATN YARATISH VA MATN USTIDA ISHLASHNING DIDAKTIK TAMOIYILLARI

Qayimov Laziz Mirzo o'g'li,

*Buxoro davlat pedagogika instituti Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim
pedagogikasi kafedrası o'qituvchisi p.f.f.d. (PhD)*

lazizqayimov96@gmail.com

Maqolada ona tili ta'limida matn yaratish va matn ustida ishlashning didaktik tamoyillari pedagogik va psixologik xususiyatlari, bu sohada olingan bilimlarni mustaqil ravishda qayta takrorlash, ularni egallangan ko'nikma va malakalar bilan uyg'unlashtirish natijasida yangi mustaqil faoliyat yuritish va mashq bajarish qonun - qoidalarini o'rganish zarurati, mohiyati va metodikasi berilgan. O'quvchilar mustaqil ta'limi natijasida erishiladigan yutuqlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: *Ona tili, matn, sinf, mustaqil ish, mustaqil ta'lim, taksonomiya, kognetiv, affektiv, psixomotor, bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, sintez, baholash, o'quvchi, metodika. didaktika, tamoyil.*

DIDACTIC PRINCIPLES OF TEXT CREATION AND TEXT WORK IN MOTHER TONGUE TEACHING

The article presents the pedagogical and psychological characteristics of the didactic principles of creating and working with texts in native language teaching, the need, essence and methodology for studying the laws and rules of new independent activities and exercises as a result of independent repetition of the knowledge gained in this area, their combination with the acquired skills and qualifications. The achievements achieved as a result of independent education of students are described.

Keywords: *Native language, text, class, independent work, independent education, taxonomy, cognitive, affective, psychomotor, knowledge, understanding, application, analysis, synthesis, evaluation, student, methodology. didactics, principle.*

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ СОЗДАНИЯ ТЕКСТА И РАБОТЫ С ТЕКСТОМ ПРИ ОБУЧЕНИИ РОДНОМУ ЯЗЫКУ

В статье представлена педагогическая и психологическая характеристика дидактических принципов создания текста и работы над текстом в обучении родному языку, необходимость, сущность и методика изучения закономерностей и правил самостоятельной деятельности и упражнений в результате самостоятельного повторения полученных знаний в этой области, их интеграция с приобретенными умениями и навыками. Описаны достижения, которых достигают студенты в результате самостоятельного обучения.

Ключевые слова: *Родной язык, текст, класс, самостоятельная работа, самостоятельное обучение, таксономия, когнитивный, аффективный, психомоторный, знание, понимание, применение, анализ, синтез, оценка, студент, методика. дидактика, принцип.*

Kirish. Respublikamizda 2020-yil 23-sentabrda yangi tahrirdagi –“Ta'lim to'g'risida”gi qonunni qabul qilinganligi, maktab ta'lim tizimining ma'naviy - axloqiy tarbiyasida muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF 5712-son – “O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Farmonida 2030-yilga kelib xalqaro baholash reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan Biz raqamli texnologiyalar asrida, ta'lim karyerada muvaffaqiyat qozonishning, turmush farovonligini oshirishning bosh omiliga aylangan davrda yashayapmiz. Zamonaviy ta'lim bizning nafaqat bilim va ko'nikmalarimizni belgilab beruvchi mezon, balki bizning dunyoqarashimizni, bizning dunyo taraqqiyotiga qo'shadigan hissamizni ham aks ettiruvchi muhim qadriyatdir. Hozirda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan, barcha islohotlarning mazmun-mohiyati bir narsaga, ya'ni ta'limning sifatini oshirish, dars jarayonida kam kuch sarflab, ko'proq samaradorlikka erishishga qaratilgan.

Mamlakatimizning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jihatdan mustaqil davlat sifatida shakllanishi va jamiyat hayotining barcha sohalarida tubdan islohotlar o'tkazilishi ta'lim-tarbiya tizimining butunlay yangilanishiga sabab bo'ldi. Bu sohada yangi tahrirdagi “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunning qabul qilinishi ta'lim tizimini tubdan modernizatsiyalashga olib keldi hamda innovatsion ta'lim muhitini yaratish, uni xalqaro andozalarga to'liq mosligini ta'minlash, yoshlarimizni bugun tez o'zgaruvchan ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirishning muhim omilidir. Zero, “Xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish, o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish kompetentligini kengaytirishni ta'minlovchi zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish, o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish” kabi vazifalar belgilab qo'yilgan.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar. Insonning muayyan zamon va makondagi ijtimoiy-ma'naviy faoliyatining asosiy vositasi muomala-muloqot bo'lsa, insoniyat erishgan yutuqlar, madaniy-ma'naviy meroslarni keyingi avlodlarga yaxlit holda yetkazishning asosiy vositasi matndir. Ijodiy tafakkur mahsulini yozma ifodalash, ya'ni matn yaratish uchun matn ustida ishlash malakasini egallash, matn turlarini bilish, matnning tarkibiy qismlarini farqlash va ularni o'zaro bog'lovchi grammatik vositalarni qo'llay olish ko'nikma-malakalarini egallashni taqozo etadi.

Til tuzilmasiga oid jihatlarni, til sathlari birliklarini nutqdan ayri holda tahlil qilmay, aynan nutq tarkibida tahlil qilish, til bo'limlarini o'rganishni matn tahlili va matn yaratish bilan o'zaro uyg'unlikda olib borilsagina ushbu maqsadni amalga oshirish mumkin bo'ladi. Bu esa bevosita grammatik topshiriqlarning qanday qo'yilishiga bog'liqdir.

Shuni qayd etish kerakki, bugungi kunda grammatik bilimlar haqida turlicha qarashlarga ega bo'lish oqibatida grammatika masalasida bir-biriga qarama-qarshi fikrlar kelib chiqmoqda. Buyuk vatandoshimiz Abu Nasr Forobiy to'g'ri so'zlash, to'g'ri mantiqiy xulosalar chiqarish, mazmundor va go'zal nutq tuzishda leksikologiya, grammatika va mantiqning ahamiyati haqida shunday degan edi: “Qanday qilib ta'lim berish va ta'lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, so'rash va qanday javob berish (masalasi)ga kelganimizda, bu haqda bilimlarning eng birinchisi jismlarga (substansiya – narsalar) va aksidensiyalar) ga ism beruvchi til haqidagi ilmlardir” deb tasdiqlayman. Ikkinchi ilm grammatikadir; u jismlarga berilgan ism (nom) larni qanday tartibga solishni hamda substansiya va aksidensiyaning joylashishini va chiqadigan natijalarni ifodalovchi hikmatli so'zlarni va nutqni qanday tuzishni o'rgatadi

Ma'lumki, dastlab grammatika so'zi “o'qish va yozishni o'rganish” ma'nosida qo'llangan. Keyinchalik keng ma'noda tilning struktural tuzilishi, til faniga oid nazariy qoidalari majmuyi, tor ma'noda esa morfologiya va sintaksis sathlari sifatida tushunilgan. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili fani mashg'ulotlarida uzoq yillar davomida aynan grammatikaning morfologiya va sintaksis sathlari (morfologiya va so'z yasash, sintaksis va punktuatsiya) 5-sinfdan boshlab 4 yil davomida o'qitib kelindi. Biroq, ta'kidlash kerakki, ushbu sathlarda berilgan nazariy ma'lumotlar nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishga deyarli xizmat qilmadi. Metodist olim G'.Hamroyev fikricha, aksincha, darsliklar tarkibidagi ko'p yillardan beri e'tibordan chetda qolib, juda kam soatlarda o'qitib kelinayotgan fonetika, to'g'ri yozish, imlo qoidalari (orfoografiya), adabiy talaffuz qoidalari (orfoepiya), tilning lug'at tarkibi (leksika, leksikologiya emas) va tinish belgilari (punktuatsiya) kabi mavzular o'quvchining so'z boyligini oshirishga, ularda imloviy savodxonlik, adabiy talaffuz ko'nikmalarini shakllantirishga ko'proq xizmat qilgan bo'lar edi.

Matn ustida ishlash o'quvchidan matn va uning turlari, matn qismlarining o'zaro o'zaro o'xshash va farqli jihatlarni ajrata olish, matnning tarkibiy qismlari – kirish, asosiy qism, xulosa haqida ma'lumotlarga ega bo'lish, matn uslubidan kelib chiqib til birliklarini tanlab ishlata olish ko'nikma-malakalarini shakllantirish va rivojlantirishga yordam beradi. O'zbek tilini o'qitishga oid metodik tadqiqot ishlarida matn ustida ishlash, bog'lanishli nutq tuzish ko'nikma-malakalarini shakllantirish va rivojlantirish muammolari yuzasidan metodist olimlarning turli qarashlari bayon etilgan. Jumladan, metodist olim T.Ziyodovanning umumta'lim maktablarida ona tili darslarida o'quvchilarda mustaqil matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirishga bag'ishlangan tadqiqot ishida matn yaratishning intensiv-universal texnologiyasini yaratish, mati yaratishning 4 bosqichli tizimini ishlab chiqish va uni ona tili ta'limi amaliyotiga joriy etish masalasi Z.Salishevaning tadqiqot ishida esa oliy ta'limda talabalarning bog'lanishli monologik nutqini o'stirish masalasi tadqiq etilganini qayd etib o'tish mumkin. Ushbu tadqiqot ishlarida o'quvchilar va talabalarni matn va uning tarkibiy qismlari (kirish, asosiy qism va xulosa), murakkab sintaktik butunliklarni o'zaro bog'lovchi, uslubiy ravonlikni taminlovchi grammatik vositalarni to'g'ri qo'llash yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, egallangan nazariy bilimlarni o'quv amaliyotiga tatbiq etish orqali ularda bog'lanishli matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirish va muntazam ravishda takomillashtirib borish haqida fikr yuritiladi.

Matn yaratishga yo'naltiruvchi lingvopsixologik o'quv topshiriqlari tizimini ona tili ta'limiga keng joriy etish o'quvchining so'z boyligini oshirish, egallagan bilimlarini qiyoslash, analiz va sintez qilish asosida mustaqil ijodiy fikrlash, o'z fikrini ifodalash jarayonida so'zlarni tanlab ishlatish kabi ehtiyojlarni yuzaga keltirishga yordam beradi. Shunga yo'naltirilgan ko'nikma va malakalarni uzluksiz shakllantirib va rivojlantirib borish esa o'quvchi nutqiy mahoratining oshib borishiga va ijodiy tafakkur ko'lamining kengayishiga, asta-sekin matn yaratish ko'nikmalarining avtomatlashuviga xizmat qiladi.

Matn ijodiy tafakkur mahsuli bo'lib, maktab ta'limining birinchi va asosiy vazifasi, avvalo, bolalarni o'z ona tilida ravon, mantiqan izchil gapirishga o'rgatishdir. O'quvchilar o'z ona tilida qanchalik yaxshi nutq so'zlay olsalar, o'z fikrlarini og'zaki va yozma shaklda shunchalik yorqinroq, chiroyli va sermazmun ifodalay oladilar. Ona tili orqali o'quvchi tafakkurida olamning lisoniy manzarasi, milliy madaniyatlar, milliy g'urur shakllanadi

Bugungi kunning eng muhim masalasi – ona tili ta'limini hayotga yaqinlashtirish, amaliy ahamiyatini kuchaytirishdir. Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilar savol va topshiriqlar asosida tilning amal qilish qoidalarini o'rganadilar. Mashq tarkibida berilgan gaplar, matnlar o'quvchining lug'at boyligini oshirishga xizmat qiladi, biroq matnlar ustida qanday ish olib borish hali ham muammoligicha qolmoqda. Shu bois keyingi tadqiqot ishlarida ona tili darslarida o'quv topshiriqlari va mashqlarni o'quvchi nutqini rivojlantirishga maqsadli yo'naltirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Bu masala o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish, chet tillarini o'qitish sohalarida ham muammoli holatda ekanligini qayd etib o'tish mumkin. Jumladan, X.Muxitdinova o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish bo'yicha olib borgan doktorlik tadqiqot ishida til ta'limida o'quv topshiriqlari va mashqlarga alohida to'xtalib, quyidagilarni ta'kidlab o'tgan edi: “Hozirgi kunda o'zbek tilini o'qitish tamoyillari, ularda beriladigan o'quv materiallarining tartibi va taqsimoti bilan bir qatorda, dars jarayonida o'zbek tilini o'rgatishga yo'naltirilgan mashqlar tarkibi va turlarini takomillashtirish, ularni zamonaviy ta'lim mashg'ulotlariga moslashtirib qo'llash yo'llarini topish o'zbek tili ta'limi mutaxassislari oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir

Olingan natijalar va ularning tahlili. Grammatik ma'lumotlarni chegaralamaslik, nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish maqsadini qo'ymaslik oqibatida me'yoridan ortiq nazariy ma'lumotlar maktab darsliklariga kirib qoldi. Natijada bitiruvchi yoki birinchi kurs talabasidan jumlaning grammatik tahlil qilib berish so'ralsa, u tibbiyot yo'nalishida bo'ladimi, moliya yo'nalishida bo'lishidan qat'i nazar so'z va gaplarni yaxshi tahlil qilib bera oladi, ammo unga gapni *murakkab ega, ot-kesim, sifatlovchi, qaratqich aniqlovchi, nomustaqil, mustaqil to'ldiruvchiga* ajratishdan o'z kasbi doirasida biror amaliy foyda bo'lmaydi. Ortiqcha grammatizm ona tili ta'limini hayotdan uzoqlashtiradi. Aslida unga yaxshi shifokor va bank xodimiga kerak bo'ladigan kasbiy muloqot madaniyati o'rgatilishi kerak. Buning uchun maktab ta'limidagi o'quvchilar adabiy talaffuzi ravon, imloviy savodxon, ta'sirli nutq uchun yetarli so'z boyligiga ega bo'lishlari kerak.

Mashq va topshiriqlarda tizimlilikni ta'minlash uchun mashq turlarini zamonaviy tilshunoslik, psixologik, pedagogik tadqiqotlarda berilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar asosida takomillashtirish va aynan matn yaratishga mos bosqichma-bosqich o'sib boradigan mashqlar va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish zarur bo'ladi. Bunda muayyan mavzuda matn yaratishga doir matn tuzishga tayyorgarlik jarayonini qamrab oladigan **matn oldi**, matn mazmunini to'ldirish, matnni kengaytirish, ixchamlashga qaratilgan **matn ustida ishlash**, matn tahriri va xatolar ustida ishlashga yo'naltiriladigan **matn osti** topshiriqlaridan foydalanish ko'zda tutiladi. Mashqlarning muayyan ketma-ketlik asosida tizimli ravishda berilishi o'quvchining bilim va malakalarini bosqichma-bosqich rivojlantirib borishga va o'quvchini nutqqa olib chiqishga xizmat qiladi. Bu o'rinda I.A.Zimnyaya tomonidan bildirilgan fikr alohida e'tiborga sazovor bo'lib, uning ta'kidlashicha, tilga o'rgatishda ilk bosqichning asosiy vazifasi avvaldan tayyorlangan mashqlar vositasida o'quvchiga lisoniy bilim berishni tashkil qilish bo'lsa, keyingi bosqichda shunday ta'lim sharoitini yaratish lozimki, bunda o'quvchi o'rgatuvchidan kommunikativ topshiriqni bajarish uchun zarur bo'lgan bilimni “tortib” olish imkoniyatiga ega bo'lsin

Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning egallagan bilimlar, ko'nikma va malakalarning amaliy tatbiqi asosida mustaqil matn yaratish ona tili darslarida o'tilayotgan har bir mavzuning asosiy maqsadiga aylanishi lozim. Matn ustida ishlash va uni tahrir qilish orqali esa matnning mantiqiy-mazmuniy va uslubiy shakllanganlik darajasi aniqlanadi, matndagi imloviy va uslubiy nuqsonlar bartaraf etish jarayonida o'quvchilarda matn yaratish mahorati rivojlantirib boriladi.

O'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarning ta'limiy-didaktik faoliyatini samarali tashkil qilishni aniq bir maqsadga – mustaqil matn yaratishga yo'naltirish uchun darsni puxta rejalashtirishi, o'quvchiga ijodiy ishlash muhitini yaratib beradigan topshiriqlar tizimi namunalarni ishlab chiqishi kerak. Har bir ta'lim oluvchiga individual yondashish, uni erkin mustaqil ijodkorlikka unda ilmga chanqoqlik, izlanuvchanlik,

yangilik yaratishga intilish xislatlarini tarbiyalaydi, o'quvchiga taqdim qilinayotgan bilimlarini tushunish va ulardan amaliy foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yordam beradi.

Bugungi davr mustaqil, tanqidiy, yangicha fikrlaydigan insonlarni tarbiyalash vazifasini ona tili ta'limi oldiga muhim vazifa qilib qo'yimoqda. Til ta'limida matn ustida ishlash topshiriqlarini bajarish jarayonida o'quvchilar til imkoniyatlaridan foydalanishning turli usul va vositalari bilan tanishadilar, o'zlari tuzadigan jumla uchun eng ma'qul, nutqiy vaziyatga mos, zarur so'zni tanlaydilar, shu so'zning lug'aviy mano guruhlari ustida ishlash orqali uning boshqa so'zlar bilan birikish imkoniyatini aniqlaydilar, so'zlarni o'zaro bog'lab so'z birikmalari hosil qilish orqali esa tilda mavjud lisoniy sintaktik qoliplar haqida muayyan tasavvurga ega bo'ladilar, yaratilajak matnning asosiy tarkibiy qismlarini aniqlash va uni ketma-ketlikda joylashtirishga urinadilar, fikrni ixcham va ravon ifodalash malakalarini egallashga harakat qiladi. O'quvchi mustaqil matn yaratish jarayonida o'zi mustaqil mushohada yuritadi, o'zi so'z tanlaydi, tuzgan gaplarini o'zi mustaqil tahlil qiladi, gaplarning ketma-ketligini o'zi tartiblaydi, tuzgan matnning mazmuniy-me'yoriy shakllanganligi, uslubiy mukammalligi haqida fikr yuritadi, o'z bilimi, tanqidiy yoki ijobiy qarashlari, intellektual qobiliyatini namoyish qiladi.

Insoniyat erishgan yutuqlar, madaniy-ma'naviy meroslarni keyingi avlodlarga yaxlit holda yetkazishning eng asosiy vositasi ijodiy tafakkur mahsuli bo'lmish matn orqali namoyon bo'ladi. Matn nutq jarayonining yaxlit kommunikativ birligi bo'lib, u ikki va undan ortiq jumlar va gaplarning o'zaro mazmunan birikishidir. Insonning ijtimoiy-ma'naviy faoliyatining asosiy shakli va mazmuni muomala-muloqot orqali ifodalansa, insoniyat erishgan yutuqlar, madaniy-ma'naviy meroslarni keyingi avlodlarga yaxlit holda yetkazishning eng asosiy vositasi ijodiy tafakkur mahsuli bo'lmish matn orqali namoyon bo'ladi.

Xulosa. Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning egallangan bilimlar, ko'nikma va malakalarning amaliy tatbiqi asosida mustaqil matn yaratish ona tili darslarida o'tilayotgan har bir mavzuning asosiy maqsadiga aylanishi lozim. Matn ustida ishlash va uni tahrir qilish orqali esa matnning mantiqiy-mazmuniy va uslubiy shakllanganlik darajasi aniqlanadi, matndagi imloviy va uslubiy nuqsonlar bartaraf etish jarayonida o'quvchilarda matn yaratish mahorati rivojlantirib boriladi. O'quvchilarning kommunikativ savodxonlik darajasini oshirish, ularni mustaqil ijodiy fikrlashga yo'naltirish, o'z fikrini to'g'ri, ravon, talab va ehtiyojga mos ravishda ifodalashga o'rgatishda, uni amalga oshirishning eng muhim omillaridan biri – matn yaratishning samarali texnologiyasini ishlab chiqishdir.

Ijodiy tafakkur mahsulini yozma ifodalash, ya'ni matn yaratish uchun matn ustida ishlash malakasini egallash, matn turlarini bilish, matnning tarkibiy qismlarini farqlash va ularni o'zaro bog'lovchi grammatik vositalarni qo'llay olish ko'nikma-malakalarini egallashni taqozo etadi. Buning uchun ona tili darslarida o'quvchilarni matn turlari va uning ifoda vositalari bilan tanishtirish, matnning tuzilmaviy-tarkibiy qismlari haqida nazariy ma'lumotlar berish, matn mazmunini to'ldirish, kengaytirish, matnni qayta ishlash, matnning shakli, uslubini o'zgartirish, matnda mavjud mantiqiy va uslubiy nuqsonlarni aniqlash yo'nalishlarida ish olib borish, ya'ni o'quvchilarni nafaqat matn yaratishga, balki matnni tahlil qilish va tahrir qilishga o'rgatish ham kerak bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-son —Ta'lim to'g'risidagi Qonuni. (lex.uz) 2
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Farmoni.
3. Проектирование результатов обучения с использованием модифицированной таксономии Блума // Психология и педагогика: методика и проблемы практического применения. 2015. №46.
4. Khusenova A. (2022). The process of integrating the activities of the teacher in the design of mother tongue education. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 216-227.
5. Sharipovna H. A. (2021). The Role of Learning Activities in the Design of Teacher Activities in the Integration of Primary School Mother Tongue Lessons. *Central asian journal of literature, philosophy and culture*, 2(10), 111-114.
6. Husenova Aziza Sharipovna. “Training of Future Teachers of Primary Classes to Guide Project Activities of Students.” *World science: problems and innovations*. 2021.
7. Sharipovna Husenova Aziza. “Effectiveness of teacher modeling in integration of mother language and reading lessons in primary class.” “USA” International scientific and practical conference topical issues of science. Vol. No. 1. 2023.

8. Sharipovna H. A. (2023). The Practical Importance of Bloom's Taxonomy in Elementary Reading Literacy Lessons. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(10), 203-206.
9. Ona tili va o'qish savodxonligi [Matn]: 2-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma / I. Azimova [va boshq.]. -Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. -128 b
10. G'afarovna J. H. (2023). Xalqaro tajribalar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish. Pedagog's jurnali, 1(1), 489-489.
11. G'afarovna J. H. (2023). Interfaol metodlar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish. Pedagog's jurnali, 1(1), 666-666.
12. Jumayeva H.G'. (2023). Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini takomillashtirish metodikasi. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(6), 45-47.
13. G'afarovna J. H. (2023). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari: Образование и инновационные исследования // международный научно-методический журнал, (1), 226-231.

GERMENEVTIK YONDASHUV ORQALI TALABALAR NUTQIY IDROKINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Sidiqova Dilara Shavkatovna,
Buxoro davlat universiteti doktoranti
dilorasidiqova@95gmail.com

Ushbu maqolada hermenevtik yondashuv orqali talabalar nutqiy idrokini rivojlantirishning zamonaviy usullari hamda hermenevtik yondashuvning zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan integratsiyasi, interaktiv metodlar bilan uyg'unligi, shuningdek, talabalar nutq madaniyati, matnni talqin qilish, chuqur fikrlash va muloqotga tayyorlik ko'nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligi yoritiladi. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida talabalarning tanqidiy fikrlash, muloqotda erkin qatnashish, matnlarni chuqur tahlil qilish, ularni kontekstda talqin qilish ko'nikmalari zamonaviy pedagogik texnologiyalar haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: hermenevtik yondashuv, talaba nutqiy idroki, zamonaviy ta'lim metodlari, matnni talqin qilish, til va tafakkur, muloqot kompetensiyasi, semantik tushunish, interpretatsiya madaniyati, tanqidiy fikrlash, ta'limda innovatsiya, lingvodidaktika, interaktiv yondashuv.

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ РЕЧЕВОГО ВОСПРИЯТИЯ СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ ГЕРМЕНЕВТИЧЕСКИЙ ПОДХОД

В данной статье освещены современные методы развития восприятия речи учащихся посредством герменевтического подхода, интеграция герменевтического подхода с современными образовательными технологиями, сочетание с интерактивными методами, а также эффективность развития культуры речи учащихся, навыков интерпретации текста, глубокого мышления и коммуникативной готовности. Сегодня в высших учебных заведениях обучают студентов навыкам критического мышления, свободному участию в общении, углубленному анализу текстов, навыкам интерпретации их в контексте современных педагогических технологий.

Ключевые слова: герменевтический подход, восприятие речи учащихся, современные методы обучения, интерпретация текста, язык и мышление, коммуникативная компетентность, семантическое понимание, культура интерпретации, критическое мышление, инновации в образовании, лингводидактика, интерактивный подход.

MODERN METHODS OF DEVELOPING STUDENTS' VERBAL PERCEPTION THROUGH A HERMENEUTIC APPROACH

This article discusses modern methods of developing students' speech perception through a hermeneutic approach, as well as the integration of the hermeneutic approach with modern educational technologies, its compatibility with interactive methods, as well as its effectiveness in developing students' speech culture, text interpretation, deep thinking and communication readiness skills. Today, in higher education institutions, students' critical thinking, free participation in communication, in-depth analysis of texts, and the skills of interpreting them in context are taught about modern pedagogical technologies.

Keywords: hermeneutic approach, student speech perception, modern educational methods, text interpretation, language and thinking, communication competence, semantic understanding, interpretation culture, critical thinking, innovation in education, linguistic didactics, interactive approach.

Kirish. Zamonaviy ta'lim paradigmasi inson faoliyatining barcha sohalarida chuqur o'zgarishlar ro'y berayotgan bir davrda shakllanmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan to'yingan ijtimoiy makon, global tarmoqlarda fikr almashish tezligi, madaniyatlararo muloqot intensivligining ortib borayotgani talabalarning nafaqat bilim olish, balki o'z fikrini erkin, aniq va mantiqiy ifoda etish, ma'no va mazmunga chuqur kirib borish qobiliyatini ham jiddiy talab etadi. Aynan shu nuqtada nutqiy idrok, ya'ni matnni, muloqotni va uni tashkil etuvchi semantik birliklarni chuqur anglay olish, talqin qilish va qayta ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida talabalarning tanqidiy fikrlash, muloqotda erkin qatnashish, matnlarni chuqur tahlil qilish, ularni kontekstda talqin qilish ko'nikmalari zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirilgan holda shakllantirilmoqda. Biroq mavjud amaliyot shuni ko'rsatadiki, talabalarda matnni yoki ma'lumotni sathiy darajada anglash ustun bo'lib, uning chuqur ma'no qatlamlariga

kirib borish, semantik va kontekstual bog‘liqliklarni izchil tahlil qilish, ya’ni haqiqiy nutqiy idrok qilish darajasi hali yetarli emas. Bu esa zamonaviy pedagogik texnologiyalarga, xususan, hermenevtik yondashuvga tayangan holda o‘qitish metodikasini tubdan yangilash zaruratini yuzaga keltiradi.

Germenevtika fani – bu inson tafakkurining til va matn orqali ma’no yaratish faoliyatini o‘rganuvchi chuqur falsafiy, metodologik va pedagogik tizimdir. U inson tomonidan anglanayotgan matn, voqelik, madaniy kod va til birliklarini tushunish, talqin qilish, rekonstruksiya qilish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Hermenevtik yondashuv nafaqat adabiyot yoki falsafa sohasiga oid matnlar bilan ishlashni, balki har qanday kommunikativ faoliyatda – o‘qituvchidan talabagacha bo‘lgan o‘zaro axborot almashinuvda, mavhum tushunchalarni tushunishda, madaniyatlararo muloqotda va shaxsiy o‘zlashtirishda fundamental rol o‘ynaydi. Bu yondashuv ayniqsa oliy ta’limda, talaba shaxsining individual tafakkur va idrok qobiliyatini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Germenevtika - bu tushunish, talqin va ma’noni yaratish jarayonini o‘rganadigan fan. U qadimdan bugungi kungacha rivojlanib kelgan bo‘lib, dastlab diniy matnlarni izohlash ehtiyoji bilan yuzaga kelgan. Yunon tilidagi “hermeneuein” so‘zidan olingan bo‘lib, “izohlash”, “talqin qilish”, “anglatish” ma’nolarini bildiradi. Hermenevtika dastlab diniy-falsafiy doirada rivojlangan bo‘lsa-da, keyinchalik filologiya, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, tarix, sotsiologiya va pedagogika sohalarida ham keng qo‘llanila boshlandi.

Chet tilini o'qitish metodikasi rivojlanishi bilan kommunikativ maqsadga qanday erishish mumkinligi masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Kommunikativ yondashuvning asosiy maqsadi tilni aloqa vositasi sifatida o'zlashtirishdir. Talabalarda nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish usullarini o'rganish bilan bog'liq holda, chet tili grammatikasini kommunikativ yondashuv doirasida o'qitish muammosi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Grammatika va lug'at bo'yicha mustahkam bilimsiz odam nutq so'zini to'g'ri tuza olmaydi. Ma'lumki, bugungi kunda ko'plab chet tilini o'rganuvchilar grammatika sohasida, shuningdek, nutqda grammatik bilimlardan foydalanishda muammolarga duch kelishmoqda. Zamonaviy o'qituvchi davlat ta'lim standarti talablariga amal qilgan holda, talabalarda kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirishga yordam berishi

kerak. Kommunikativ metodologiya aloqani faqat muloqot orqali o'rgatish kerak degan pozitsiyani ilgari suradi, ya'ni muloqot ta'lim, bilim va rivojlanishning asosiy manbai hisoblanadi. Shunday qilib, kommunikativ usul muloqot uchun chet tilini tez o'zlashtirishga yordam beradi, shuningdek, talabalarga nafaqat til va grammatik materialni, balki ular o'rganayotgan mamlakatning madaniyati, an'analari va urf-odatlarini ham o'zlashtirishga imkon beradi

Ko'pgina nashrlar kommunikativ yondashuvdan foydalanish muammosiga bag'ishlangan. Biroq, xorijiy tillarni o'qitishda mashhur bo'lishiga qaramay, hozirgi vaqtda ushbu yondashuv doirasida grammatika o'qitish uchun materiallar va vazifalar yetarli emas.

Adbiyotlar tahlili va metodologiya. Talabalarda kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirish talabini amalga oshirish uchun yetakchi olimlar va metodistlar chet tillarini o'qitishda kommunikativ yondashuvdan foydalanishni taklif qilmoqdalar. "Kommunikativ yondashuv - bu talabalarda chet tilini semantik idrok etish va tushunishni rivojlantirishga, shuningdek, nutq so'zlashuvlarini qurish uchun til materialini o'zlashtirishga qaratilgan yondashuv" [1,153]. Taniqli I.L.Bim, E.I. Passov, V.P.Kuzovlev va boshqa xorijiy olimlar xorijiy tillarni o'qitishning kommunikativ yondashuvini o'rgandilar. Ushbu yondashuv Evropada 1970-yillarda paydo bo'lgan. Yondashuvning asosiy farqi shundaki, u til tizimlarini o'qitishni alohida emas, balki yaxlit holda ko'rib chiqadi. Yondashuv doirasidagi topshiriqlar yordamida kishi o'quv jarayonida nutq amaliyotida tildan foydalanishni o'rganadi [6].

Kommunikativ kompetentsiyani o'zlashtirishga xos bo'lgan ko'nikmalar va qobiliyatlar: odamlar bilan aloqani boshlash va o'rnatish; yaxshi birinchi taassurotni shakllantira olish; savollar berish va ularga javob bera olish; suhbatni davom ettirish; o'z fikrini yetarlicha to'liqlik va aniqlik bilan ifodalay olish; to'g'ri fikr bildirga olish; nutqda turli muloqot uslublariidan foydalana olish [7]. "Muloqot, eng avvalo, tajriba va ishlarni amalga oshirish usullari almashinadigan ijtimoiy jarayondir. E.I.Passov ta'kidlaydiki, muloqot odamlarning faqat oqilona va hissiy o'zaro ta'siri bo'lib, bu jarayonda fikrlar jamoasi ochilib, turmush tarzi shakllanadi" [5, 104].

Natija va muhokama. Chet tili grammatikasi mantiqiy fikrlash, kuzatish va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Grammatikani o'qitishda asosiy maqsad nutq, tinglash, o'qish va yozish kabi nutqiy ko'nikmalarning asosiy tarkibiy qismi sifatida talabalarda grammatik ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat. Grammatik hodisani bilish uning shaklini tushunish va muayyan grammatik tuzilishdan to'g'ri foydalana olish demakdir. "Kommunikativ kompetentsiya - bu boshqalarni tushunish va muloqotning maqsadlari, sohalari va vaziyatlari uchun o'z nutq hatti-harakatlari dasturlarini yaratish qobiliyatidir. Kommunikativ usulda birinchi darsdan boshlab guruhdagi muloqot faqat o'rganilayotgan tilda olib boriladi. Bu usul darsni yanada qizg'in qiladi, chunki har bir talaba doimiy ravishda ishdan ishtirok etadi va amaliyot uchun ko'proq imkoniyatlarga ega. Talabalar tinglovchilar oldida nutq so'zlashda yuzaga keladigan noqulaylikdan xalos bo'lishadi. O'qituvchi har bir talabaning nutqini kuzatish imkoniyatiga ega: ularni o'z vaqtida tuzatish, xatolariga e'tibor qaratish va tavsiyalar berish. O'rganilayotgan tilda juftlikda ishlashdan tashqari roli o'yinlar ham mavjud. Ular chet tillarini o'rganish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Kommunikativ yondashuv ona tilini vositachi sifatida ishlatmasdan, to'liq o'rganilayotgan tilda darslarni o'tkazishni o'z ichiga oladi. Chet tilini o'rganish uchun talaba ona tilidan o'rganayotgan tilga so'zlarni aqlan tarjima qilib, unda fikrlashni o'rganishi kerak.

Kommunikativ yondashuvda o'rganishda asosiy rol talabalarga beriladi. O'qituvchi yordamchi, maslahatchi vazifasini bajaradi. O'qituvchining asosiy vazifalari:

1. Talabalarining ichki va tashqi motivatsiyasini saqlab turish.
2. Muloqot uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish.
3. Ko'rsatmalar va qoidalarni tushuntirish.
4. Jarayon monitoringi va qayta aloqa.
5. Dars uchun materiallar tayyorlash.

Kommunikativ yondashuv doirasida talabalarining kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirish uchun o'qituvchi quyidagilarga amal qilishi kerak:

- talabalarga muloqot konteksti bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatmalar berish;
- xatolarni darhol tuzatish har doim ham muhim emasligini tushunish.
- grammatik qoidalar kontekstdan kelib chiqadi.

Grammatikani kommunikativ usulda o'rgatishda tildan o'rganish vositasi sifatida foydalaniladi. Grammatik hodisalarni kontekstda tahlil qilish va ular qanday ma'lumotlarni olib borishini kuzatish kerak. "...har qanday grammatik hodisa alohida-alohida emas, balki kontekstli birlik doirasida ko'rsatilishi kerak. Bu talabalarining yangi grammatik qolipni yaxshiroq tushunishiga yordam beradi" [4, 416].

Shuningdek, grammatik qurilishning leksik birlikni tanlashga qanday ta'sir etishiga, lug'at va grammatika o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rishga o'rgatish masalalariga ham e'tibor beriladi. Kommunikativ yondashuvdan foydalangan holda grammatik mavzuni kiritishning asosiy bosqichlari:

1. Tuzilish qo'llaniladigan vaziyatlarni intensiv tinglash.

Turli nutq vazifalari (baland ovozda; befarqlik bilan-qiziqish va boshqalar) mavjudligida nutqdagi tuzilishga taqlid qilish.

3. Shakl yoki ma'no jihatidan o'xshash so'z birikmalarining tematik jihatdan aniqlangan guruhlanishi (Wie ist Ihr/sein/ihr Name/Ihr Beruf/Ihre Telefonnummer).

4. "Eskizlarda" avtomatlashtirish (uzbek/ingliz/rus motiflari, simulyatsiya o'yinlari) [8, 215].

Ikkinchi shartli grammatik mavzuli jumalarni o'z ichiga olgan dialog misolini ko'rib chiqaylik.

Dastlab talabalar quyidagi qisqa dialoglarni tinglashadi:

Familienessen: - Schatz, du musst dein Essen aufessen. - Tut mir leid, das kann ich nicht. Ich habe die Nase voll davon. Wenn ich alles essen würde, würde ich dick werden

Ich glaube nicht, dass Sie es richtig verstanden haben. Schauen Sie auf Ihren Teller. Wenn Sie Gemüse und Fleisch essen würden, wären Sie gesund. - Okay, ich will einfach nichts essen.

Dialogni tinglagandan so'ng, o'qituvchi o'quvchilar o'rtasida rollarni taqsimlaydi va turli intonatsiyalar bilan (agressiv yoki xotirjam) satrlarni o'qishni so'raydi. Talabalar topshiriqni bajaradilar. Keyin o'qituvchi dialogdan bir qatorni tanlaydi: „Schau auf deinen Teller. Wenn du Gemüse und Fleisch isst, bist du gesund.“ va talabalardan shunga o'xshash jumalarni tuzishni so'raydi.

Mumkin variantlar:

1. Schauen Sie auf Ihr Gesicht. Wenn Sie viele Tonmasken verwenden, wird Ihr Hautbild besser.

2. Schauen Sie auf Ihr Telefon. Wenn Sie es mit Alkoholtüchern reinigen, sieht Ihr Bildschirm wie neu aus. 3. Schauen Sie in Ihr Notizbuch. Wenn Sie Ihre Hausaufgaben gemacht haben, wird der Lehrer keine Anmerkungen dazu machen.

Keyin mavjud jumalardan foydalanib, talabalar o'zlarining dialoglarini tuzadilar, ular turli eskizlarda ijro etadilar. Masalan, talabalar jumalarni o'qiydilar va nemischa aksent bilan gapirishga harakat qilishadi.

Kommunikativ usulning asosiy afzalligi - grammatik mavzuni kiritish uchun kontekstlarning xilma-xilligi. Har xil turdagi materiallar amaliyoti tufayli talabalar o'qitishda an'anaviy grammatika-tarjima usulidan foydalangandan ko'ra yuqori darajadagi motivatsiyaga ega. Asosiy kamchilik shundaki, o'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rish uchun ko'proq vaqt sarflashi kerak. Bundan tashqari, grammatik mavzuni o'rgatishda "eskizlarni" to'plash uchun "yopiq turdagi" ma'lumotlarni qidirish kerak (turli xil kurslar, kitoblar va h.k.). Kommunikativ usul ham darsda juda ko'pni talab etadi.

Kommunikativ yondashuv yordamida talabalarni muloqotga undash maqsadida chet tili darslarida real vaziyatlar simulyatsiya qilinadi. Ushbu maqsadga erishish uchun talabalarga yaxshi ma'lum bo'lgan mavzulardan foydalaniladi, chunki bu mezon muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Muloqotga yo'naltirilgan vazifalarni qo'llash natijasida talabalar grammatik materialdan foydalanish bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladilar va fikrni ifodalash uchun uni nutqqa integratsiyalashadi. Ushbu usullar nafaqat ta'lim muammolarini hal qilishga, balki talabalarning umumiy muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Grammatikani kommunikativ yo'naltirilgan o'qitish motivatsiyani oshirishga yordam beradi, nutqning ekspressiv imkoniyatlarini kengaytiradi va ta'lim sharoitida talabalarning bayonotlarini tabiiyroq qiladi. Quyida kommunikativ kontekstiga ega bo'lgan quyidagi mashqlar turlari ajratiladi:

1. O'zgartirish mashqlari (talabalar modelga o'xshashlik bo'yicha harakat qiladilar).

2. Transformatsion mashqlar (talabalar haqiqiy kontekstdan foydalangan holda mavjud bilim va ko'nikmalardan foydalanadilar).

3. Shartli kommunikativ vazifalar, bunda ta'lim muloqotining holati real vaziyatdan keyin modellashtirilgan, lekin bu yerda talabalar olingan ko'rsatmalarga qat'iy rioya qilishadi).

4. Haqiqiy muloqot chet tilida, o'qituvchi tomonidan hech qanday tartibga solinmasdan amalga oshiriladigan haqiqiy kommunikativ vazifalar. Grammatik mavzularni birlashtirish mumkin bo'lgan kommunikativ vazifalarga misollar: rolli o'yinlar, qo'shiqlar bilan ishlash, hayotiy hikoyalar yaratish, loyiha faoliyati. Kommunikativ yo'nalishga ega bo'lgan to'g'ri vazifa yoki mashqni to'g'ri tanlash uchun talabalarining psixologik va yosh xususiyatlarini inobatga olish kerak.

Grammatikani o'qitishga qaratilgan uslubiy kommunikativ vazifalarning xususiyatlari, quyidagi xulosalarni ta'kidlash muhim:

1. Rolli o'yinlar hayotdan vaziyatlarni modellashtirishda kommunikativ yondashuv talabalarini amalga oshirishga yordam beradi.

2. Grammatik o'yinlar qoidalarini mustahkamlashga yordam beradi va o'rganilgan grammatik tuzilmalarni nutqqa olib keladi.

3. Chet tili darslarida loyiha mashg'ulotlarini tayyorlash va amalga oshirish ko'p vaqt talab etadi, biroq bu usul talabalarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdan tashqari hamkorlik ko'nikmalarini, chet tilida savol bera olish, o'z fikrini malakali, to'liq va to'g'ri ifoda etish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

4. Qo'shiq, maqol va matallar bilan ishlash o'quvchilarga tilni kontekstda qo'llashga yordam beradi. Faoliyatning bu turi o'qituvchiga ishning turli shakllarini o'ylab topishga va darsning turli bosqichlarida u yoki bu turdan foydalanishga yordam beradi. Nazariy qismdagi ma'lumotlar keyingi amaliy ishlar uchun zarurdir. Grammatikani o'qitishda metod va usullarning xususiyatlari barcha kerakli bilimlarni tuzishga yordam beradi va darslarni tayyorlashda ilmiy ma'lumotlarga tayanadi.

Xulosa. Kommunikativ usul yangi materialni eslab qolish omili bo'lgan imo-ishoralar va mimikalarni o'z ichiga oladi. O'qituvchi talaba shaxsini shakllantirishda barcha faoliyat turlarini, ya'ni nutq, tinglash, o'qish, yozish kabilarni o'zaro bog'lash va rivojlantirish orqali ishtirok etadi. O'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqot shunday bo'lishi kerakki, talabalar nutq materialini bosqichma-bosqich o'zlashtirsinlar.. Talabalarining so'z boyligi oshgani sayin o'qituvchining darsda ishlatadigan so'z boyligi ham ortadi. Ushbu yondashuvning maqsadi talabalarga mavjud bo'lgan barcha lug'atlardan foydalanadigan doimiy jonli muloqot orqali talabalarga hozirgi vaqtda ega bo'lgan bilim va ko'nikmalardan samarali foydalanishga o'rgatishdir. Talaba qanchalik mustaqillik ko'rsatsa, material shunchalik samarali o'zlashtiriladi. Shunday qilib, kommunikativ usul talabalar bilan ishlashda faol qo'llanilishi kerak bo'lgan ko'plab ijobiy tomonlarga ega. Kommunikativ yondashuv nafaqat nutqni o'rgatishda yordam beradi, balki davlat ta'lim standarti talablarini amalga oshirishda ham zarurdir.

Adabiyotlar:

1. Buxorova M.X., Mansurova G.M., Eshmurodov U.K. Formation of students communicative abilities in teaching foreign languages. Theoretical & Applied Science. 2021(2):152-4. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=en&user=73RuxO4AAAAJ&citation_for_view=73RuxO4AAAAJ:u-x6o8ySG0sC.

2. Joyce B. Creating a Communicative Classroom // Busy Teacher – URL: <https://clck.ru/33PsDd> (дата обращения: 05.05.25).

3. Gulbakhor Makhdievna Mansurova. (2023). Formation of Key Competencies of Students at a Non-Linguistic University Using the German Language. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(9), 412–415. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/1542>.

4. Scrivener J. Learning Teaching. The Essential Guide to English Language Teaching. Third Edition. Macmillan, 2011 - 416 c.

5. Бредихина И.А. Методика преподавания иностранных языков: обучение основным видам речевой деятельности – Екатеринбург: Издательство Уральского университета, 2018 – 104 с.

6. Герасимова К.Ю. Коммуникативный подход к обучению практической грамматике иностранного языка // Cyberleninka.ru – URL: <https://clck.ru/33PprP> (дата обращения: 05.05.25).

7. Голуб Л.Н. Коммуникативный подход в обучении // Cyberleninka.ru – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/kommunikativnyy-podhod-v-obuchenii> (дата обращения: 05.05.25).

8. Соловьева Е.Н. Методика обучения иностранным языкам. Базовый курс лекций. – М.: «Просвещение», 2008. – 215 с.

ANIQ VA TABIIY FANLARNI O‘QITISH

FIZIKANI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARNING TEXNIK QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH USULLARI

Boltaboyeva Rayxan Ismailovna,

O‘zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi
Toshkent “Temurbeklar maktabi” HAL katta o‘qituvchisi
boltaboyevarayxan@gmail.com

Ushbu maqolada umumta’lim tizimida fizika fanini o‘qitishda o‘quvchilarning texnik qobiliyatlarini shakllantirish va mavjudlarini yanada rivojlantirish usullari haqida fikrlar keltirilgan. Fizika fanini o‘qitish asnosida o‘quvchilarning texnik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasining nazariy asoslarini aniqlandi: past, o‘rta va yuqori. Shunga asosan, o‘quvchilarning texnik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun tabaqalashtirilgan o‘qitish metodikasining yondashuvlarini qo‘llagan holda, tabaqalashtirib o‘qitish g‘oyasini amalga oshirish modeli ko‘rib chiqildi. Umumlashtirilgan diagramma-rejalardan foydalanish fizik hodisalar (qonunlar) haqidagi nazariy bilimlarni rivojlantirishi va ularni texnikada qo‘llash o‘rtasidagi “ko‘prik” vazifasini o‘tashi, asta-sekin o‘quvchilarni fizika fani barcha texnologiyalarning asosi sifatida o‘rganish muhimligini anglashlariga olib kelishi haqida yozildi.

Kalit so‘zlar: texnik qobiliyatlar, muhandislik, jadval, grafik, texnik qurilma, diagramma.

МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ТЕХНИЧЕСКИХ НАВЫКОВ УЧЕНИКОВ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ФИЗИКИ

В данной статье представлены идеи о методах формирования технических способностей учащихся и дальнейшего развития уже имеющихся при преподавании физики в системе общего образования. В ходе преподавания физики были определены теоретические основы методики развития технических способностей учащихся: низкие, средние и высокие. На основе этого рассмотрена модель реализации идеи дифференцированного обучения с использованием подходов методики дифференцированного обучения для развития технических способностей учащихся. Написано, что использование обобщенных схем-планов развивает теоретические знания о физических явлениях (законах) и служит «мостом» между их применением в технике, постепенно приводя учащихся к пониманию важности изучения физики как основы всех технологий.

Ключевые слова: Технические навыки, инженерия, таблица, график, техническое устройство, диаграмма.

METHODS OF FORMING AND DEVELOPING STUDENTS' TECHNICAL SKILLS IN TEACHING PHYSICS

This article presents ideas on the methods of forming and further developing students' technical abilities in teaching physics in the general education system. The theoretical foundations of the methodology for developing students' technical abilities in teaching physics are identified: low, medium and high. Based on this, a model for implementing the idea of differentiated teaching was considered, using approaches from differentiated teaching methodologies to develop students' technical skills. It was written that the use of generalized diagrams and plans serves as a “bridge” between the development of theoretical knowledge of physical phenomena (laws) and their application in technology, gradually leading students to understand the importance of studying physics as the basis of all technologies.

Keywords: technical skills, engineering, table, graph, technical device, diagram.

Hozirgi kunda zamonaviy texnika va texnologiyalarni rivojlantirishda fizika fanining roli nihoyatda yuqoridir. Fizika ta’limida olingan bilimlar, ko‘nikmalar va malakalar nafaqat jamiyat, balki har bir individual shaxs uchun zamonaviy madaniyatning muhim elementi hisoblanadi. Ayniqsa, yoshlarning kelgusidagi kasbiy faoliyati fan, texnika va ishlab chiqarish texnologiyalari bilan bog‘liq bo‘lsa yanada dolzarblik kasb etadi.

Maktab ta’limida fizikani predmet sifatida o’qitish va o’rganish jarayonida egallangan barcha bilim, ko’nikma va malakalar o’quvchilarning komil shaxs sifatida shakllanishi va rivojlanishi uchun juda muhimdir. fizikani o’qitish jarayonida shakllantirilgan va rivojlantirilgan texnik qobiliyatlar esa hamma o’quvchilar uchun, shu jumladan o’z kasbiy faoliyatini muhandislik va texnologiya bilan bog’lashni maqsad qilganlar uchun juda muhimdir, chunki texnikaga oid qobiliyatlarning mavjudligi o’quvchilarga zamonaviy texnika va texnologiyalardan kundalik hayotda foydalanishda yuzaga kelishi mumkin bo’lgan ko’pgina muammolarni yechishga imkon beradi.

Umumiy o’rta ta’limni modernizatsiya qilishning asosiy yo’nalishlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan davlat ta’lim standartida [2], o’quv fanlarini, shu jumladan fizika predmetini o’qitishni amaliy yo’naltirish kerakligi belgilab qo’yilgan. Davlat ta’lim standartida fizikani o’qitishning quyidagi maqsadlari ta’kidlangan:

- o’quvchilar- fizikadan tabiiy jarayonlarni tadqiq qilishda oddiy o’lchov vositalaridan foydalanish qobiliyatini egallashi;
- kuzatishlar yoki o’lchovlar natijalarini jadvallar va grafiklar yordamida taqdim etishni bilishi;
- eng muhim texnik qurilmalarning ishlash prinsiplarini tushuntirishda olingan bilimlarini qo’llay olishi;
- bilim olishga qiziqishini, tafakkur va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishi;
- fan va texnika yutuqlaridan jamiyatni yanada rivojlantirish uchun oqilona foydalanish zarurligiga ishonchi, fan va texnika ijodkorlarini hurmat qilishi;
- umuminsoniy madaniyatning muhim qismi sifatida fizikaga munosabatni shakllantirilishi;
- olingan bilim va ko’nikmalardan kundalik hayotning amaliy muammolarini hal qilishda foydalanish, o’z hayoti xavfsizligini ta’minlay olishi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilishni o’rganishi.

Shunday ekan, ta’lim jarayonida o’quvchilarning texnikaga doir qobiliyatlarini rivojlantirmasdan turib, Davlat ta’lim standartlarida ko’rsatilgan maqsadlarga erishish mumkin emas. Bu muammoni hal qilish zarurati, yana shundaki, hozirda muhandislik mutaxassisliklarining nufuzi tobora pasayib borayotganligi achinarli holatni yuzaga keltirmoqda.

Shu munosabat bilan, umumiy o’rta ta’limda fizika o’qitishning vazifalaridan biri bo’lib, boshqa tabiat fanlari qatori, o’quvchilarning texnik qobiliyatlarini rivojlantirish va ularni texnikaga oid kasblarni ongli ravishda tanlashga qiziqtirish, keyinchalik esa texnika oliy o’quv yurtlariga o’qishga kirishga tayyorlash turibdi.

Tadqiqotimizni boshlanish jarayonida Respublikamiz ta’lim muassasalarida fizika fanini o’qitishni kuzatish, fizika o’qituvchilari va o’quvchilar o’rtasida o’tkazilgan so’rovnomalar asosida quyidagilar aniqlandi:

➤ 10 va 11-sinf o’quvchilarining 69% zamonaviy texnologiyalarning yutuq va yangiliklariga qiziqadi, mos ravishda 48 % o’quvchilar kundalik hayotda qo’llaniladigan texnik qurilmalarning konstruksiyasi va ishlash prinsipi bilan qiziqadilar;

➤ O’quvchilar zamonaviy texnologiyaning fizik asoslari haqida bilimlarni maktabda foydalanadigan fizika darsligidan (14%), jurnallardan (22%), kitoblardan va televideniya (66%), “Internet” va “Youtube” dagi o’quv dasturlari (84%) qarab o’rganishmoqda;

➤ 10- va 11-sinf o’quvchilarining 40 % u yoki bu texnik yo’nalishda o’qishni davom ettirishni xohlaydi, texnik yo’nalishlardagi litsey o’quvchilarining 44% o’z kasbiy faoliyatini texnik oliy o’quv yurtlariga kirish bilan bog’laydi;

➤ 10- sinf o’quvchilarining 60%, 11-sinf o’quvchilarining 77% va o’rta maktab o’quvchilarining 63% texnik fizika bo’yicha bilimlar ularga kelajakda foydali bo’ladi, deb javob bergan;

➤ umumiy o’rta ta’lim bitiruvchilarining 50% dan ortig’i texnik qobiliyatlarning rivojlanish darajasi past va faqat 23% yuqori darajaga ega;

➤ Texnik qobiliyatlarni rivojlantirish muammosini hal qilishda o’qituvchilar “texnik qobiliyatlar” tushunchasini aniqlashda (41%), ularning rivojlanish darajasini diagnostika qilishda (50%), texnik mazmundagi masalalarni yechishda (29%), shuningdek, fizikadan texnik qobiliyatlarni rivojlantirish bo’yicha nazariy materiallarni tanlashda qiyinchiliklarga duch kelishadi.

O’rganilgan ko’pgina adabiyotlarning tahlili shuni ko’rsatadiki, falsafa fanlari, pedagogika hamda psixologiya fanlari nuqtayi nazaridan qaranganda, o’quvchilarning texnikaga oid qobiliyatlarini rivojlantirish muammosini quyidagi sabablar bilan bog’liq:


• *o’quvchilarni ijtimoiy foydali faoliyat va samarali mehnatga jalb qilish bilan* (N.Muslimov, X.Rashidov, A.S. Makarenko, V.A. Suxomlinskiy va boshqalar)

- *qobiliyatlar psixologiyasini o'rganish bilan* (M.G. Davletshin, A.Krutetskiy, T.V.Kudryavtsev, A.N.Leontiyev, L.Rubinshteyn, J. Jons)
- *iqtidorli bolalarni tarbiyalash bilan* (T.Rizayev, D.Shodiyev, V.A.Vagner, V.N.Ivanov, N.S.Leites, A.M.Matyushkin, A.I.Savenkov, V.E.Chudnovskiy, V.Stern va boshqalar)
- *politeknik ta'lim muammolarini tadqiqot bilan* (P.R.Atutov, N.I.Babkin, M.A.Bakieva, A.I.Bugayev, G.N.Gruzdev, A.T.Glazunov, V.F. Fabrikant va boshqalar)
- *to'g'arak faoliyatida o'quvchilar ijodiyotini tashkil etish bilan* (V.A.Aptekman, J.T. Asatryan, B.V.Jiganov, D.M.Komskiy, O.N.Kordun, A.I. Milevskiy, Y.M.Mikhailenko, E. S. Rapatsevich, Yu.S.Yarov va boshqalar)

Shunday qilib, fizika o'qitish metodikasi fani oldiga qo'yilayotgan o'quvchilarning texnik qobiliyatlarini rivojlantirish vazifasi bilan umumta'lim o'quv yurtlarida fizika o'qitishning hozirda mavjud metodikasi o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelgan bo'lib, hozirda ishlatilayotgan metodikalarda o'quvchilarning texnik qobiliyatlarni rivojlantirish bo'yicha maxsus faoliyatlar ko'zda tutilmagan.

Ushbu qarama-qarshilikning mavjudligining o'ziyiq tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi, uning muammosi “Umumiy o'rta ta'limda fizikani o'qitishda o'quvchilarning texnik qobiliyatlarini rivojlantirish metodologiyasi qanday bo'lishi kerak? “- degan savolga javob topishdir.

Bizning vazifamiz maktabda fizikani o'qitishda o'quvchilarning texnik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasining nazariy asoslarini aniqlashdir. Biz boshlang'ich sinf o'quvchilarining texnik qobiliyatini rivojlantirishning uchta darajasini aniqlashni asosladi: past, o'rta va yuqori. Fizikani o'qitishda o'quvchilarning texnik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun tabaqalashtirilgan o'qitish metodikasining yondashuvlarini qo'llagan holda amalga oshirilishi mumkin. Umumta'lim maktablarda fizikani o'qitish jarayonida o'quvchilarning texnik qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida tabaqalashtirib o'qitish g'oyasini amalga oshirish modeli quyidagi sxema ko'rinishda taqdim etilishi mumkin (1-rasm):



Bunday metodik tizim modelining protsessual va texnologik tarkibiy qismini tashkil etuvchi o'qitish shakllari, usullari va vositalarini tavsiflab chiqaylik:

Texnik oid qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan didaktik maqsadlarda (A.B.Usova bo'yicha) fizikadan o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishning turli nazariy va amaliy shakllarini ko'rib chiqamiz.

➤ *Fizikadan har xil turdagi darslar* (yangi materialni o'rganish darsi, bilimlarni umimlashtirish darsi, bilimlarni nazorat qilish darsi);

➤ *ekskursiyalar* (ishlab chiqarish va korxonalarga sayohatlar, internet-ekskursiyalar);

Umumta'lim maktablarida fizikadan amaliy mashg'ulotlarini o'tkazish uchun quyidagi tashkiliy shakllar tavsiya etiladi:

➤ texnik mazmundagi fizik masalalarni yechish va tuzish darsi;

➤ fizikadan bitta muammoli dars (bu yerda bitta masalani hal qilish uni amaliyotda, tajribada o'rganishdan kelib chiqadi yoki aksincha, fizik tajriba o'tkazish hamda fizikaviy hodisa yoki jarayonni o'rganishdan kelib chiqadigan bo'lsak, texnikaga oid masalani hal qilish kerak bo'ladi);

➤ frontal laboratoriya ishlarini bajarish;


➤ uyga vazifa sifatida bajariladigan amaliy tajribalar;

➤ fizikaga oid texnik loyihalarni yaratish va qurilmalarni loyihalashtirishga qaratilgan yo'naltirilgan kurs bo'yicha mashg'ulotlar.

Shunday qilib, boshlang'ich umumta'lim maktablarida o'quvchilarning texnikaga oid qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan fizika darslarini tashkil etish shakllarini amalga oshirish mumkin. Misol tariqasida quyidagi mavzuni o'qitish uslubini keltiramiz (2-rasm).

Ushbu “Issiqlik dvigatellari” mavzusi 8-sinfda jismlarning issiqlik kengayishini yoki kengayish paytidagi gaz va bug'ning ishini o'tilgandan so'ng o'rganiladi. Shunday qilib, ushbu mavzularni o'rganishda o'quvchilarni „Issiqlik dvigatellari“ mavzusiga yuqoridagi 2-rasmda ko'rsatilgan umumlashtirilgan diagramma-rejani tuzish orqali olib borish tavsiya etiladi. Bu diagramma-rejani o'quvchilar bilan birgalikda tuzilgandan so'ng, ular mustaqil ravishda yoki o'qituvchi bilan birgalikda qurilmani o'rganishning rejasi bo'yicha issiqlik dvigatelining (masalan, ichki yonuv dvigatelining) tuzilishi va ishlash printsipini tekshiradilar. Keyin o'qituvchi o'quvchilardan mustaqil ish sifatida quyidagilarni bajarishni topshiriq sifatida beradi:

1. **birinchi bosqichda** – „Issiqlik dvigatellari“ mavzusini o'qing va ichki yonuv dvigateli haqida umumiy rejaga muvofiq javob tayyorlang;
2. **ikkinchi bosqichda** – darslikdagi paragrafdan foydalanib, bug' turbinasiga ta'rif berish hamda ichki yonuv dvigateli va bug' turbinasi haqida javob tayyorlang;
3. **uchinchi bosqichda** - turli xil dvigatellarning tuzilishi va ishlash printsipini, shuningdek, ularning texnik xususiyatlarini hisobga olgan holda „Issiqlik dvigatellari tarixi“ mavzusida ma'ruza tayyorlang yoki umumiy xulosani tuzing.



2-rasm. „Issiqlik dvigatellari“ mavzusidagi texnik tarkibni umumlashtirish rejasi

O'tkazilgan pedagogik tajribalar shuni ko'rsatdiki, fizikadan texnikaga oid yangi materialni o'rganishda yuqoridagi keltirilgan umumlashtirilgan diagramma-rejalardan foydalanish quyidagi metodik imkoniyatlarni yaratadi:

- maktab o'quvchilari uchun fizikaviy va texnikaga doir materiallarni o'rganish uchun zarur bo'lgan harakatlar ketma-ketligini ishlab chiqishga;
- o'quvchilarni darslik va qo'shimcha adabiyotlar bilan mustaqil ishlash, asosiy muhim materiallarni topish va tanlash, mavzuning texnik xususiyatlarini tushunish kabi mashg'ulotlarga jalb qilishga.

O‘quvchilar bilan birgalikda fizik hodisani o‘rganishda yuqoridagi **umumlashtirilgan diagramma-reja** tuzish ushbu hodisani o‘rganishning texnologiya va uning rivojlanishi uchun qanchalik muhimligini aniq ko‘rsatadi. Shunday qilib, fizik hodisalar (qonunlar) haqidagi nazariy bilimlar va ularni texnikada qo‘llash o‘rtasidagi “ko‘prik” asta-sekin o‘quvchilarni fizikani barcha texnologiyalarning asosi sifatida o‘rganish muhimligini anglashlariga olib keladi.

Shu tufayli fizik hodisalar (qonunlar, qoidalar) asta-sekin o‘zining “abstraktligi”ni yo‘qotadi va inson uchun atrofdagi tabiatni, texnika va texnologiyani insonlarga bo‘ysindirishning samarali vositasi ekanligini tushunishga olib keladi. Fizika kursining ma‘lum bir mavzu yoki bo‘limini o‘rganib chiqilqandan so‘ng o‘tkazilgan yakuniy darslarni umumlashtirishda ushbu diagramma - rejalaridan foydalanish, ularni chuqurlashtirish va to‘ldirish yoki bir nechta shunga o‘xshash sxemalarni bittaga umumlashtirish, asosiy elementlarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

Adabiyotlar:

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “ O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi” gi (2019 yil 8 oktyabr) PF-5847-sonli Farmoni // <https://lex.uz/doc/4545884>.
2. Mirzaaxmedov B.M., Jo‘rayev M., G‘ofurov G., Sagatova G. va boshqalar. “Fizika o‘qitish metodikasi” 1-qism. Toshkent-2010 yil.
3. Mirzaaxmedov B.M., Mamarajabov Sh.E. “KHK larida fizika ta’limida fanlararo bog‘lanishning imkoniyatlari”. Toshkent- 2008 yil.
- 4.Усова А.В. Теория и методика обучения физике в средней школе. - М.: Высшая школа, 2005. - 303 с.
- 5.Столяров, Ю.С. Техническое творчество школьников: опыт и перспективы пособие для учителей и работников внешкол. учреждений - М.: Просвещение, 1983. - 176 с.

UO'K 37.02.577

**BIOKIMYO FANINI O'QITISHIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNLOGIYALAR.
ILMIY VA AMALIY AHAMIYATI**

Ixtiyarova Gulnora Akmalovna,

Toshkent davlat texnika universiteti Kimyo fanlari doktori, proffesor.
gulnora74@mail.ru

Eshchanova Nargiza Zakirovna,

Buxoro davlat tibbiyot instituti Biokimyo kafedrası doktoranti.
neshchanova993@gmail.com

Maqolada biokimyo darslarida external represation(ERs) texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari, “Biokimyo” fanini o‘qitish jarayonini o‘quv-uslubiy taminlashni rivojlantirish imkonini beruvchi tajribalaridan foydalanish ko‘rib chiqilgan. Strukturalar, diagrammalar,reaksiya mexanizmlari, metobolik yo‘nalishlar haqida fikr yuritilgan.

Maqolada biokimyo o‘qitishda yangi metodlarni joriy etish orqali o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, talabalar kognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirish va ilmiy izlanishlarga qiziqishni kuchaytirishning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: external represation(ERs), vizual, simulyatsiya, ball and stick, enzim-substrat, YMR (yadro magnit rezonans), HPLC (yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi).

**ИННОВАЦИОННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРЕПОДАВАНИИ
БИОХИМИИ: НАУЧНОЕ И ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ**

В статье рассматриваются возможности использования технологий внешней репрессии (BP) на занятиях по биохимии, использования опыта, позволяющего разработать учебно-методическое обеспечение учебного процесса по предмету «Биохимия». Обдумываются структуры, схемы, механизмы реакций, направления обмена веществ.

В статье подчеркивается важность повышения эффективности учебного процесса, развития познавательных способностей учащихся, повышения интереса к научным исследованиям путем внедрения новых методов преподавания биохимии.

Ключевые слова: внешняя репрессия (BP), визуальная, имитационная, ball and stick, фермент-субстрат, ЯМР (ядерный магнитный резонанс), ВЭЖХ (высокоэффективная жидкостная хроматография).

**INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING BIOCHEMISTRY:
SCIENTIFIC AND PRACTICAL SIGNIFICANCE**

The article examines the possibilities of using external repression (ER) technologies in biochemistry classes, using experience that allows developing educational and methodological support for the educational process in the subject "Biochemistry". Structures, schemes, reaction mechanisms, and directions of metabolism are considered.

The article emphasizes the importance of increasing the efficiency of the educational process, developing students' cognitive abilities, and increasing interest in scientific research by introducing new methods of teaching biochemistry.

Keywords: external repression (ERs), visual, imitation, ball and stick, enzyme-substrate, NMR (nuclear magnetic resonance), HPLC (high performance liquid chromatography).

Kirish. Biokimyo fani o‘qitishidagi innovatsion texnologiyalar talabalarga nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni ham o‘rgatishda samarali vosita hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar yordamida talaba bilimni faqatgina eslab qolish bilan cheklanmay, balki uni amalda qo‘llash, muammolarni hal qilish va ilmiy tajribalar o‘tkazishda kerakli ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Bunday pedagogik yondashuvlar, ayniqsa, biokimyo fanidagi murakkab tushunchalarni o‘rgatishda va talabalarning kognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhimdir.

Davlat ta‘lim standartlari faol o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha tavsiyalarni o‘z ichiga oladi, ular kognitiv qiziqish, tahliliy ko‘nikmalar, dinamik o‘zgaruvchan dunyoda kasbiy faoliyat uchun

zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni mustaqil ravishda o‘zlashtirish va intellektual qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan[1].

Oliy tibbiyot ta‘limi oldiga keng turdagi ma‘lumotlardan foydalanish imkoniyatlarini shakllantiruvchi va kengaytiruvchi, bilimlarning yetkazib berishga yordam beruvchi, o‘quv jarayonini algoritmik nazorat qilish va boshqarishni axborot kommunikatsion va pedagogik texnologiyalaridan foydalangan holda olib borish kabi yondashish yo‘nalishidagi yangi vazifalar turibdi[2].

Butun dunyo tibbiyot tizimida global axborotlashtirish olib borilayotgan bugungi kunda oliy tibbiyot ta‘limning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri talaba va o‘qituvchi o‘rtasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan aloqalarni, foydalanuvchi (talaba, o‘qituvchi) va interfaol manba o‘rtasidagi ta‘limiy axborot va ma‘lumotlarni yetkazib berish, tahlil qilish va qayta yetkazish ta‘minlash muhim o‘rin tutadi[3 4]

Biokimyo fani bo‘lajak shifokorni tayyorlashdagi asosiy fanlardan biri hisoblanadi. Biokimyo eng keng predmet sohasini qamrab oladi, u o‘zida asosiy, molekulyar darajasida hayotning har qanday ko‘rinishlarini tasvirlab beradi. oliy tibbiy ta‘lim tizimida biokimyo fani organizmning rivojlanishi va faoliyati qonuniyatlari haqida tasavvur hosil qilish imkonini yaratadi [5].

Zamonaviy shifokor sog‘lom va betob organizmning hayotiy jarayonlarini, turli patologik holatlarni tashxislash usullarini to‘g‘ri anglashi bashoratlashi lozim. Biokimyoviy tahliliy natijalarni sharhlay olmaslik, keyingi xatolarining manbai bo‘lishi mumkin va shu bilan birga, biokimyoviy tadqiqot usullarini mukammal egallash mutaxassisning kasbiy mahorat darajasini yanada oshishiga sabab bo‘ladi

Tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida biokimyo fani talabalarga 2-o‘quv yarim yillikda o‘qitiladi va boshqa ikkita asosiy biologik fanlar - odam anatomiyasi va fiziologiyasidan oldin o‘tkaziladi. Bizning fikrimizcha, biokimyo fani talabalarda tirik mavjudotlarning molekulyar mantig‘i asoslarini, fundamental bilimlarni uyg‘unlashtirish va ularni insonni davolashga yondashuvlarda ham, kasallikning patologik manzarasini chiqarishda ham amaliy qo‘llash qobiliyatini shakllantirishi kerak.[6]

External representation (ERs) (tashqi tasvir) — bu fikrlarni, ma‘lumotlarni yoki bilimlarni tashqi muhitda, ya‘ni odam ongidan tashqarida ifodalash yoki tasvirlash usuli. Bu tasvirlar odamlarning abstrakt fikrlarni tushunish va ularga ishlov berishlarini osonlashtiradi. Tashqi tasvirlar ko‘pincha diagrammalar, grafiklar, jadvallar, xaritalar, chizmalar, simvollar yoki boshqa vizual ifodalar orqali bo‘lishi mumkin.

Tashqi tasvirlar kognitiv qobiliyatlarni baholashga qaratilgan


kontseptual tushunchasini tushunish uchun zarur. Bundan tashqari, biokimyogarlar vizualizatsiya uchun boshqa kognitiv ko‘nikmalarni talab qiladilar ko‘p sonli tashqi vakilliklarni talqin qilish ilm-fanga yetkazishga yordam beradi [7].

Biz ishlatiladigan vizual vositalar qatorini tasvirlash uchun tashqi vakilliklardan (ERs) foydalanamiz bu esa, tashqi dunyoda ilmiy bilimlarni yetkazish uchun xizmat qiladi. [8]

ERs statik yoki dinamik bo‘lishi mumkin va diagrammalar, rasmlar, jismoniy modellar, animatsiyalar, simulyatsiyalar,

multimedia va virtual haqiqatdan iborat. ERsni talqin qilish ko‘pincha struktura, funktsiya va jarayon tushunchasini mazmunli tushunish uchun kalit [7].


Biokimyoda tashqi tasvirlarni quyidagi usullarda qo‘llash mumkin:



1-rasm. Bu tasvirda Suv molekulasining tuzilishi: (a) molekulaning dipol xarakterini keltirib chiqaradigan atomlar orasidagi burchak bilan shar va tayoq modeli, (b) vodorod aloqalari va (c) suv klasterlari, suv molekulasining diskret vodorod bilan bog‘langan birikmalari.[9]


Молекуляр структуралар ва диаграммалар. Биокимйода молекулалар ва ularning tuzilishini ifodalash uchun tashqi tasvirlar (masalan, molekulyar modellar, ball-and-stick diagrammalari) ishlatiladi. Bu diagrammalar va modellar molekullarning shakli, atomlar o'rtasidagi bog'lanishlar va interaktsiyalarni ko'rsatadi.

Reaksiya mexanizmlari va yo'nalishlari. Биокимйовий reaksiyalarni tushuntirishda reaksiya mexanizmlarini va kimyoviy yo'nalishlarni tashqi tasvirda (diagrammalar yoki oqim diagrammalari shaklida) ko'rsatish keng tarqalgan. Bu, molekullarning o'zgarishlarini va reaksiya bosqichlarini ko'rib chiqishga yordam beradi.



2-рasm. Гликолиз jarayoni diagrammasi

Enzimlarning faolligi va substrat interaktsiyalari. Enzimlarning substrat bilan qanday o'zaro ta'sir qilishi va reaksiyalarni qanday tezlashtirishi tashqi tasvirlar orqali tushuntiriladi. Enzim-substrat murakkabliklarining tuzilishi va o'zaro aloqalari 3D diagrammalar yoki grafikalar orqali tasvirlanadi.




3-рasm. Enzim modeli 3D

Ushbu modelda animatsiya, elementlarning yengil harakati mavjud. animatsiya uzunligi 350 kvadrat.

Fermentlar makromolekulyar biologik katalizatorlardir. Fermentlar kimyoviy reaksiyalarni tezlashtiradi yoki katalizlaydi. Jarayonning boshida fermentlar ta'sir qilishi mumkin bo'lgan molekulalar substrat deb ataladi va ferment ularni mahsulot deb ataladigan turli xil molekulalarga aylantiradi. Hujayradagi deyarli barcha metabolik jarayonlar hayotni ta'minlash uchun etarli darajada tez sodir bo'lishi uchun fermentlarga muhtoj. Hujayrada hosil bo'lgan fermentlar to'plami ushbu hujayrada qaysi metabolik yo'llar sodir bo'lishini aniqlaydi. Fermentlarni o'rganadigan fanga enzymologiya deyiladi.

Fermentlar 5000 dan ortiq biokimyoviy reaksiya turlarini katalizlashi ma'lum. aksariyat fermentlar oqsillardir, garchi bir nechtasi katalitik RNK molekulalaridir. Fermentlarning o'ziga xosligi ularning noyob uch o'lchovli tuzilmalaridan kelib chiqadi.[10]

Biokimyoviy yo'nalishlar va metabolik tarmoqlar. Metabolik yo'nalishlar (masalan, glikoliz, Krebs sikli) va ularning reaksiyalari tasvirlari ham tashqi tasvirlar orqali tushuntiriladi. Bu diagrammalar orqali biologik jarayonlar osonroq tushuniladi va o'rgatiladi.




4 rasm. Glikoliz diagrammasi

Glikoliz evolyutsion jihatdan qadimiy metabolik yo'l bo'lib, har uchala sohaga tegishli tirik organizmlar orasida keng tarqalgan [11] [12]. Eukariotlarda va ko'plab prokariotlarda; bazal sitoplazmada [13] va o'simlik hujayralarida mavjud bo'lgan plastidlarda [14] [15] uchraydi. Tripanosoma [16] [17] va leyshmaniya [18] kabi ba'zi protozoylarda [19] glikoliz glikozomalar [20] [21] deb ataladigan maxsus organellalarda sodir bo'ladi.

Spektroskopik va xromatografik ma'lumotlarni tasvirlash:

Biokimyo tajribalarida (masalan, NMR, spektroskopiya, HPLC) olingan ma'lumotlar tashqi tasvirlarda (grafikalar, jadvallar) taqdim etiladi, bu esa tadqiqot natijalarini tahlil qilish va baholashda yordam beradi.



5-rasm. NMR strektroskopiya asbob-uskunalari

Biokimyoda Yadro magnit-rezonansi (YMR) spektroskopiyasi oqsillar, nuklein kislotalar va uglevodlar kabi biologik molekulalarning tuzilishi, dinamikasi va o‘zaro ta‘sirini o‘rganish uchun qo‘llaniladigan kuchli usul bo‘lib, ularning atom darajasidagi funksiyasi va xatti-harakatlari haqida tushuncha beradi.[22]

Yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (HPLC) biokimyodagi muhim tahliliy usul bo‘lib, murakkab aralashmalardagi komponentlarni, xususan, biologik namunalarni ajratish, aniqlash va miqdorini aniqlash uchun ishlatiladi.[22]

Xulosa. ERs tushunchasi talabalarga murakkab biokimyoviy jarayonlarni va molekulyar tuzilmalarni tushunishni osonlashtiradi, shu bilan birga, kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishda ham yordam beradi. Tashqi tasvirlarning ta‘lim jarayonida qo‘llanilishi talabalarga bilimlarni faqat eslab qolish bilan cheklanmay, balki amaliy qo‘llash va ilmiy muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

ERs vizualizatsiya, diagrammalar, grafikalar va 3D modellardan foydalanish orqali ilmiy bilimlarni aniq va tushunarli shaklda taqdim etishda muhim ahamiyatga ega. Biokimyo o‘qitishida bunday tasvirlar, nafaqat biokimyoviy jarayonlarni tushunishni yaxshilaydi, balki talabalar orasida ilmiy izlanishlarga bo‘lgan qiziqishni ham oshiradi.

Adabiyotlar:

1. Atqiyayeva S. I., Komilov K.U. Developing intellectual capabilities of students in teaching chemistry// Журнал «образование и наука в XXI веке». 2021. Выпуск №10, том 3. стр.684-692.
2. Badalova S. I., Komilov K.U., Kurbanova a.Dj. Intellectual training of students of technical institute. academic Research in Educational Sciences. 2020, Vol. 1 No. 1, Page 266-274.
3. Yodgarov B., Komilov K.U., Kurbanova a.Dj. applying ICT for improvement general chemical education// Society and innovations.2021. №4. Page 258-263.
4. Rustamova H.N., Kurbanova a.Dj., Komilov K.U., Eshtursunov D.a. Role of information and communication technologies teaching general and inorganic chemistry// "Economics and society". 2021. №5(84). C.1047-1057
5. Жигулина В. В. Инновационные технологии в преподавании биохимии в вузах медицинского профиля. Innovatory Technologies in Biochemistry Teaching at Medical Higher Educational Institutions // Здоровье и образование в XXI веке: электронный научно-образовательный вестник. 2015. № 4 (17). [Электрон. ресурс]. Режим доступа: <http://cyberleninka.ru/article/n/innovatsionnyetehnologii-v-prepodavanii-biohimii-v-vuzah-meditsinskogo-profilya1#ixzz4QLkHQayG>
6. Biokimyo fanini o‘qitishda axborot - kommunikatsion texnologiyalarning roli https://ares.uz/storage/app/media/2022/Vol_3_No_1/43-53.pdf
7. wIRa-Related Research and Medical applications: Cornerstones and InFurther Reading of Interest January 2022 DoI:10.1007/978-3-030-92880-3_24 book: Water-filtered Infrared a (wIRa) Irradiation (pp.285-292)
8. K. J. Schoenborn, T. R. Anderson (2009) a model of factors determining students’ ability to interpret external representations in biochemistry, Int. J. Sci. Educ. 31, 193–232.
9. https://www.researchgate.net/figure/Structure-of-the-water-molecule-a-ball-and-stick-model-with-the-angle-between-the_fig1_360405043
10. <https://www.turbosquid.com/it/3d-models/3d-animation-enzymes-model/1118369>
11. А.Х. Романо, Т. Конвей, *Эволюция путей метаболизма углеводов*, «Исследования в области микробиологии», 147 (6-7), 1996, стр. 448–455, DoI : 10.1016 /0923-2508(96) 83998-2, PMID : 9084754 .
12. Рон С. Ронимус, Хью В. Морган, *Распределение и филогения ферментов пути Эмбдена-Мейерхофа-Парнаса у архей и гипертермофильных бактерий, подтверждающие глюконеогенное происхождение метаболизма*, «Археи», 1 (3), 2003, стр. 199–221, DoI : 10.1155/2003/162593, PMID : 15803666, PMCID : PMC2685568 (англ.) .
13. *Гликолиз и глюконеогенез*, [в:] Джереми М. Берг и др., *Биохимия*, Варшава: Научное издательство PWN, 2007, стр. 425–464, ISBN 978-83-01-14379-4 .
14. Хесус Муньос-Бертомеу и др., *Критическая роль пластидной гликолитической глицеральдегид-3-фосфатдегидрогеназы в контроле метаболизма и развития растений*, «Plant Signaling & Behavior», 5 (1), 2010, стр. 67–69, DoI:10.4161/psb.5.1.10200, PMID. 20592814, PMCID. PMC2835963(англ.) .

15. Василиос М. Э. Андриотис и др., *Пластидный гликолиз в развивающихся эмбрионах arabidopsis*, «Новый фитонолог», 185 (3), 2010, стр. 649–662, DoI : 10.1111/j.1469-8137.2009.03113.x, PMID : 20002588 (eng).
16. Юрген Р. Хаанстра и др., *Компартментация предотвращает летальный турбовзрыв гликолиза в трипаносомах*, «Труды Национальной академии наук Соединенных Штатов Америки», 105 (46), 2008, стр. 17718–17723, DoI : 10.1073/pnas.0806664105, PMID : 19008351, PMCID : PMC2584722 .
17. Мэрилин Парсонс, *Гликосомы: паразиты и расхождение пероксисомальных целей*, «Молекулярная микробиология», 53 (3), 2004, стр. 717–724, DoI : 10.1111/j.1365-2958.2004.04203.x, PMID : 15255886 (eng).
18. J. Maxwell Silverman et al., *Протеомный анализ секрета Leishmania donovani*, «Genome Biology», 9 (2), 2008, R35, DoI : 10.1186/gb-2008-9-2-r35, PMID : 18282296, PMCID : PMC2374696 (eng).
19. Вандерли де Соуза, *Специальные органеллы некоторых патогенных простейших*, «Parasitology Research», 88 (12), 2002, стр. 1013–1025, DoI : 10.1007 / s00436-002-0696-2, PMID : 12444449 .
20. Парсонс и др., *Биогенез и функция пероксисом и гликосом*, «Молекулярная и биохимическая паразитология», 115 (1), 2001, стр. 19–28, DoI : 10.1016/s0166-6851(01)00261-4, PMID : 11377736 (eng).
21. FR opperdoes, *Компартментация углеводного метаболизма в трипаносомах*, «Ежегодный обзор микробиологии», 41, 1987, стр. 127–151, DoI: 10.1146 /annurev.mi.41.100187.001015, PMID:3120638.
22. https://www.google.com/search?q=nmr+in+biochemical&rlz=1C1GCEa_enUZ933UZ933&oq=nmr+in+biochemical&aqs=chrome..69i57j69i59j69i57.5040j0j4&sourceid=chrome&ie=UTF-8

FIZIKADAN AMALIY MASHG‘ULOTLARNI DASTURIY VOSITALAR ASOSIDA TASHKIL QILISH

Jumayev Nusrat Amonovich,

Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti Qarshi filiali, katta o‘qituvchi

Xo‘jayev Lochin Husanovich,

Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti Qarshi filiali, f.-m f.f.d (PhD)

Muhammadiyev Soxibnazar Shovkat o‘g‘li,

Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti Qarshi filiali talabasi

Ushbu maqolada ayirim fizikaviy masalalarni yechishda dasturlash tillaridan, jumladan C++ dasturlash tilidan foydalanishning amaliy mashg‘ulotlar jarayonida qo‘llanilgan ayirim usullari hamda DevC++ dasturlash tilidan grafiklar hosil qilishda foydalanish orqali fizikadan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil qilishning usullari keltirib o‘tildi.

Kalit so‘zlar: dastur, grafik, dastur kodi, didaktika, texnologiya, innovatsiya.

ORGANIZATION OF PRACTICAL EXERCISES IN PHYSICS BASED ON SOFTWARE TOOLS

This article discusses some of the programming languages used to solve some physical problems, including the C++ programming language, and how to organize practical physics lessons using the DevC++ programming language to create graphs.

Keywords: program, graphics, program code, didactics, technology, innovation.

ОРГАНИЗАЦИЯ ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАНЯТИЙ ПО ФИЗИКЕ НА ОСНОВЕ ПРОГРАММНЫХ СРЕДСТВ

В данной статье будут рассмотрены некоторые методы, применяемые в процессе практических занятий по физике с использованием языка программирования C++ для решения некоторых физических задач, а также методы организации практических занятий по физике с использованием языка программирования DevC++ для создания графиков.

Ключевые слова: программа, график, программный код, дидактика, технология, инновации.

Kirish. Keyingi yillarda kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog‘liq holda dars mashg‘ulotlarni tashkil etishning yangi usullari shakllanmoqda. Ulardan, keng foydalanayotgan amaliy ishlardan biri maxsus dasturlar yordamida kuzatilishi qiyin bo‘lgan fizik jarayonlarni animatsiyalar, virtual tajribalar va taqdimotlar vositasida ko‘rgazmali tushuntirishdir. Jumladan, fizika fanining, ma‘ruza laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarida yangi zamonaviy texnologiyalar va asbob-uskunalar, ya‘ni raqamli o‘lchash asboblari, virtual laboratoriyalar, animatsiyalar, elektron darsliklar, hamda ular asosidagi multimediya vositalardan foydalanish ta‘lim sifatiga katta ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Fizika fanini o‘qitishga kompyuter texnologiyalarini va dasturiy ta‘minotlarni qo‘llash va ular asosidagi amaliy mashg‘ulotlarni tashkil qilish pedagogik va psixologik nuqtayi nazardan ham katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari “Fizika” va “Dasturlash” fanlari orasida o‘zaro bog‘liqlikni, ya‘ni fanlararo integratsiyani ta‘minlaydi.

Talim sifatini oshirishga qaratilgan so‘nggi islohotlar shuni ko‘rsatadiki, sifatni oshiruvchi har qanday eng yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsiyalar va fanlararo integratsiyalar zamonaviy ta‘limda dolzarb ahamiyat kasb etadi.


Zamonaviy ta‘limda fanlarni o‘qitishda ularning integratsiyasini ta‘minlashga yetarli e‘tibor berilmay kelmoqda. Oliy ta‘lim o‘quv rejalaridagi fizika, elektrotexnika, matematika, informatika va dasturlash kabi fanlar ham tizimli o‘zaro bog‘liqlikni ta‘minlamagan holda o‘qitilmoqda. Muammoni bartaraf etishga qaratilgan tadbirlar esa tegishli o‘quv rejalarida ushbu fanlarni o‘qitishning vaqt bo‘yicha muvofiqlashtirilishi yoki fanlar mazmunini qisman uyg‘unlashtirishga oid tadbirlar bilan cheklanmoqda. Uni tubdan hal qilish uchun esa, talabalar egallaydigan bilimlari yuqori sifat darajasini ta‘minlovchi o‘quv fanlari integratsiyasining zaruriy shart-sharoitlari, shakl, mazmun va vositalarini ishlab chiqish talab etilmoqda.

Zamonaviy didaktika o‘quv fanlarini integratsiyalashga bir qancha yondashuvlarni taklif qiladi, biroq hali bu jarayonning umume‘tirof etilgan mazmuni, shakl va vositalari yaratilgan emas.


Asosiy qism. Ushbu maqolada “dasturlash” va “fizika” fanlarining integratsiyasi sifatida ayirim fizikaviy masalalarni yechishda dasturlash tillaridan, jumladan C++ dan foydalanishning amaliy mashg‘ulotlar jarayonida qo‘llanilgan ayirim usullari hamda DevC++ dasturlash tilidan grafiklar hosil qilishda foydalanish usullari keltirib o‘tildi.

DevC++ dasturlash tilidan grafiklar hosil qilishda foydalanish uchun avvalo dasturni grafik rejimda o‘tkazish uchun sozlash lozim. Buning uchun DevC++4.9.9.2 versiyadan foydalanish kerak va sozlash quyidagicha ketma-ketlikda amalga oshiriladi: [1]

1. **graphics.h** va **libbgi.h** fayllarini yuklab oling;
2. **graphics.h** faylini C:\Dev-Cpp\include\katologiga ko‘chiring;
3. **libbgi.h** faylini C:\Dev-Cpp\include\katologiga ko‘chiring;
- 4 Dev-C++ ni ishga tushirish va **Tools** bo‘limidan **Compiler options** bo‘limini tanlang;



Add these command to the linker command line ga bayroqcha o‘rnatilib quyidagi satr yoziladi:




1-misol uchun masalaning qo‘yilishi quyidagicha bo‘lsin:

Koptok gorizontga nisbatan 40° burchak ostida 10 m/s tezlik bilan uloqtirildi. To‘p qanday balandlikka ko‘tariladi? U uloqtirilgan joydan qancha masofada yerga tushadi? U qancha vaqt harakatda bo‘ladi? [3]

Yechish:

Yo‘lning vertikal tashkil etuvchisi: $S_y = (v_0 \sin \alpha) * t - g * t^2 / 2$ - (1), tezlikning vertikal tashkil etuvchisi esa: $v_y = v_0 \sin \alpha - gt$ - (2) Yo‘lning gorizont tashkil etuvchisi: $S_x = (v_0 \cos \alpha) * t$ - (3). $t = t_1$ bo‘lganda $S_y = h, v_y = 0$ tengliklar o‘rinli. Ikkinchi tomondan, (2) dan quyidagiga ega bo‘lamiz: $v_0 \sin \alpha = gt_1$ - (4). (1) dan $h = (v_0 \sin \alpha)t - gt^2 / 2$ - (5), (4) dan t_1 ni topamiz: $t_1 = v_0 \sin \alpha / g$, buni (5) ga qo‘yamiz: $h = \frac{(v_0^2 \sin^2 \alpha) - g v_0^2 \sin^2 \alpha}{2g^2} = 5$ m; $t = 2t_1$, bo‘lganda $S_x = l$, shunda to‘liq uchish vaqti: $t = \frac{2v_0 \sin \alpha}{g} = 1,5$ s, (3) tenglamadan: $l = v_0 \cos \alpha = 10$ m.

Ushbu usulda olingan grafigi quyidagicha:




1-rasm. Analitik yechim

Endi ushbu masalani C++ da yechishning va grafigini tuzishning dastur kodini keltiramiz: [2]

<pre>#include <iostream> #include <graphics.h> #include <conio.h> #include <math.h> using namespace std; int main(){ float V0 = 10, h, t, g = 9.81, pi = 3.1415, l; float a = (2 * pi) / 9; a = a * 180 / pi; cout << a << endl; h = (V0 * V0 - pow(sin(a),2)) / (2 * g); t = (2 * V0 * sin(a)) / g; l = (V0 * cos(a)) * t; cout << "h = " << h << " m" << endl; cout << "t = " << t << " s" << endl; cout << "l = " << l << " m" << endl; initwindow(800, 600); setbkcolor(BLUE); cleardevice(); setcolor(0); line(100, 0, 100, 600); line(100, 450, 800, 450); line(100, 500, 700, 500); line(700, 450, 700, 600); setlinestyle(5, 0, 2); int x, y; float v0 = 800; g = 10, pi = 3.1415;</pre>	<pre>for(int i = 0; i < 800; i++){ x = 100 + i; y = 450 - (2 * v0 * sin((i / 3.32) * pi / 180)) / g; putpixel(x, y, 1); delay(10); } line(100, 450, 250, 300); line(100, 450, 250, 300); line(60, 290, 100, 290); line(60, 450, 100, 450); line(70, 290, 70, 450); setlinestyle(4, 59, 2); rectangle(100, 450, 250, 300); line(100, 290, 400, 290); outtextxy(75, 360, "h"); outtextxy(110, 10, "y"); outtextxy(775, 430, "x"); outtextxy(250, 280, "Vo"); outtextxy(110, 310, "Vy"); outtextxy(80, 450, "0"); outtextxy(130, 430, "a"); outtextxy(250, 480, "Vx"); outtextxy(400, 480, "l"); arc(100, 450, 0, 45, 30); getch(); closegraph(); }</pre>
--	---

Ushbu dasturni ishga tushirib quyidagi natijalarga ega bo‘lamiz:



2-rasm. C++ dasturi orqali olingan natijalar

Ko‘rinib turibdiki analitik usulda olingan yechimlardan hamda grafikdan C++ dasturi orqali olingan yechim va grafik diyarli farq qilmaydi.

2-masala quyidagicha qo‘yilgan bo‘lsin:

Balandligi $h=25\text{m}$ bo‘lgan minoradan $v_x = 15\text{ m/s}$ tezlikda gorizont ravishda tosh uloqtirildi. Bu tosh qancha vaqtgacha harakatda bo‘ladi? Minora poydevoridan qancha masofada yerga tushadi? U qanday tezlik bilan tushadi? Yirga tushish nuqtasida gorizont bilan toshning trayektoriyasi qanday burchak hosil qiladi? [3]


Yechish:

Yo‘ning vertical tashkil etuvchisi: $S_y = h = gt^2/2$ – (1), gorizont tashkil etuvchisi esa:

$S_x = l = v_x t$ (2), (1) dan: $t = \sqrt{\frac{2h}{g}} = 2,26\text{ s}$, (2) dan: $l = v_x t = 33,9$. Toshning tezligi: $= \sqrt{v_x^2 + v_y^2}$,

Tezlikning vertical tashkil etuvchisi: $v_y = gt$. Bunga ko‘ra $v = \sqrt{v_x^2 + (gt)^2}$ va quyidagi

grafikdan ko‘rinadiki: $\cos\varphi = \frac{v_x}{\sqrt{v_x^2 + (gt)^2}} = 0,91$ $\varphi = 91^\circ$




3-rasm. Analitik yechim

Endi ushbu masalani C++ da yechishning va grafigini tuzishning dastur kodini keltiramiz: [1]

<pre>#include<iostream> #include<graphics.h> #include<conio.h> #include<math.h> using namespace std; int main(){ float w, l, f, t, vx, h, g = 9.81, pi=3.1415; cout << "vx = "; cin>>vx; cout << "h = "; cin >> h; t=sqrt((2*h)/g); w=vx/sqrt(pow(vx,2)+g*g*t*t); f=w*100; cout <<"Gradusi = "<<f << endl; initwindow(850, 600); setbkcolor(BLUE); cleardevice(); setcolor(15); line(100, 10, 100, 400); line(10, 300, 800, 300); line(800,300,785,295); line(800,300,785,305); line(100,400,105,385); line(100,400,95,385); //line(100,480,600,480); //line(100,570,600,570); setcolor(RED); int x, y; g = 0.75; for(int t = 0; t < 395; t++){ setlinestyle(0,1,2); putpixel(x, y, 1); x = 100 + t; y = 42 - 0.1 * t + g * t * t / 390; putpixel(x, y, 2); delay(10); } }</pre>	<pre>setcolor(15); line(10,40,540,40); line(10,40,10,300); line(10,40,5,55); line(10,40,15,55); line(10,300,5,285); line(10,300,15,285); line(540,40,525,35); line(540,40,525,45); line(100,350,494,350); line(100,350,115,345); line(100,350,115,355); line(130,100,130,250); line(130,250,135,235); line(130,250,125,235); line(494,350,480,345); line(494,350,480,355); line(494,300,577,450); line(577,450,562,442); line(577,450,577,435); line(494,450,494,300); line(494,450,500,435); line(494,450,488,435); outtextxy(140,150,"g"); outtextxy(490,450,"Vy"); outtextxy(590,435,"V"); outtextxy(20,150,"h"); outtextxy(150,15,"Vx"); outtextxy(450,15,"X"); outtextxy(750,280,"Vx"); outtextxy(70,15,"O"); outtextxy(300,360,"L"); getch(); closegraph(); return 0; }</pre>
---	---

Ushbu dasturni ishga tushirib quyidagi natijalarga ega bo‘lamiz:

```
vx = 45  
h = 21  
Gradus1 = 91.1555
```



4-rasm. C++ dasturi orqali olingan natijalar

Xulosa. Bu yerda ham ko‘rinib turibdiki analitik usulda olingan yechimlardan hamda grafikdan C++ dasturi orqali olingan yechim va grafik diyarli farq qilmaydi. o‘rnida: fizikadan mashg‘ulotlar jarayoniga dasturiy vositalarni qo‘llash nafaqat fanlararo integratsiyani ta‘minlaydi, balki talabalarda bu ikki fanga bo‘lgan qiziqishni, ijodiy va ilmiy faolligini oshirish uchun ham xizmat qiladi va bu ta‘lim metodi ta‘lim sifatiga ulkan ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Adabiyotlar:

1. Глушаков С.В. и др. Язык программирования C++. Харьков «Фолио» 2001г.
2. Жесс Либерти, “Освой самостоятельно C++ за 21 день”, Санкт Петербург
3. В.С.Волькенштейн. Умудий физика курсидан масалалар тўплами. - Тошкент. ”Ўқитувчи” - 1969 й.
4. Nazirov E.N., Xudaybergenova Z.A., Safiulna N.X. – Mexanika va molekulyar fizikadan praktikum. – T., O‘qituvchi, 1979 y.
5. Jumayev N.A., Qurbanov A.I. -Axborot texnologiyalari sohasida ta‘lim tizimini yanada takomillashtirishda fanlararo integratsiya.-Respublika konferensiya. –Samarqand. -24-25 noyabr. 2021 y.
6. Jumayev N.A., Qurbanov A.I. -Физика масалаларига дастурий воситаларни қўллаш услубининг мутахасисларни таёрлашдаги роли. -Respublika konferensiya. –Qarshi. -23-24 aprel. 2021 y.

**KISLOROD SAQLAGAN ORGANIK BIRIKMALAR MAVZUSINING TIBBIYOT
OLIYGOH TALABALARIDA O‘QITISHNING SAMARALI METODIK USULLARI**

Karimov Javohir Sobirzoda,

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti

Tibbiy kimyo kafedrası asisstanti

ORCID 0009-0005-6935-0150

Kislorod saqlagan organik moddalar mavzusi qolgan uglevodorodlar mavzulari bilan bog‘liq bo‘lishi bo‘lib, molekula tarkibida uglerod va vodorod bo‘lmagan molekula mavjudligi bilan ham keskin farqlanadi. Xususan: gidroksid, aldegid, karbonil, karboksil, okso kabi guruhlarni saqlagan organik birikmalarning xossalari ayni guruh uchun xos bo‘lgan funksional guruhning kimyoviy xossalari bog‘liq ravishda o‘zgaradi. Shu kabi holatlarni inobatga olgan holda kislorod saqlagan organik birikmalarni o‘qitishda samarali metodik usullarni to‘g‘ri tanlash va aniqlik bilan qo‘llash maqsadida 292 – guruh farmatsiya yo‘nalishi talabalari bilan olib borilgan dars mashg‘uloti va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarining samaradorligi ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: metod, interfaol, kislorodli organik, grafik, kichik guruh, vosita, texnologiya, sistemalashtirish.

**ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДИЧЕСКИЕ ПРИЕМЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ТЕМЫ
«КИСЛОРОДСОДЕРЖАЩИЕ ОРГАНИЧЕСКИЕ СОЕДИНЕНИЯ» СТУДЕНТАМ
МЕДИЦИНСКОГО ВУЗА**

Тема органических веществ, содержащих кислород, связана с темой других углеводов, а также резко отличается наличием молекулы, не содержащей в своем молекулярном составе углерода и водорода. В частности, свойства органических соединений, содержащих такие группы, как гидроксид, альдегид, карбонил, карбоксил и оксо, различаются в зависимости от химических свойств функциональной группы, специфичной для этой группы. Учитывая такие обстоятельства, в целях правильного выбора и точного применения эффективных методических приемов при обучении кислородсодержащим органическим соединениям показана эффективность проведенного урока и показатели усвоения, проведенного со студентами 292-й группы студентов-фармацевтов.

Ключевые слова: Метод, интерактивный, кислородсодержащая органика, графика, малая группа, инструмент, технология, систематизация.

**EFFECTIVE METHODOLOGICAL METHODS OF TEACHING THE TOPIC OF OXYGEN-
CONTAINING ORGANIC COMPOUNDS TO MEDICAL UNIVERSITY STUDENTS**

The topic of organic substances containing oxygen is related to the topics of other hydrocarbons, and is also sharply distinguished by the presence of a molecule that does not contain carbon and hydrogen. In particular, the properties of organic compounds containing groups such as hydroxide, aldehyde, carbonyl, carboxyl, oxo change significantly depending on the chemical properties of the functional group characteristic of this group. Taking into account such circumstances, in order to correctly select and accurately apply effective methodological methods in teaching organic compounds containing oxygen, the effectiveness of the lesson and the mastery indicators conducted with students of the 292nd group of the pharmacy department are shown.

Keywords: Method, interactive, oxygen-containing organic, graphic, small group, tool, technology, systematization.

Kirish. Hozirgi kunda tibbiyot oliygohi talabalarining ta‘lim olishida zamonaviy pedagogik texnologiyalarning qo‘llanilishida ta‘lim tizimining demokratik tamoyillariga keng yo‘l ochib berish amaliy ahamiyatga ega vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Talim jarayonida qo‘llaniladigan interfaol usullar Golish.L.V, Farbish B.L va Ishmuhamedov.R kabi ko‘plab pedagoglar tomonidan o‘rganilgan va o‘qitishda turli pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, usullarni tahlil qilish, maqsadga muvofiq usullarni tanlab olish asosida yuqori samaradorlikga ega darslarni o‘tish amaliyotlari bajarilgan. Shu izlanishlarga asoslanib tibbiyot oliygoxlari uchun muhim hisoblangan tibbiy kimyo fani va organik kimyo fanlarida o‘tiladigan kislorod saqlovchi organik moddalar mavzusini ham yuqori samaradorlikga erishish, mavzu yuzasidan kelib

chiqadigan qiyinchiliklarning mukammal yoritilishi uchun zamonaviy usullarni qo‘lash maqsadga muvofiq hisoblanadi. [1].

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili. Bu borada quyidagi ishlar amalga oshirildi: kislorod saqlagan birikmalar organik birikmalar mavzusiga kiruvchi barcha mavzular jamlandi va kerakli adabiyotlar tahlili amalga oshirildi. Talimning faol usullari – ta’lim oluvchilarning bilim olish faoliyatini yanada kuchaytirish uchun mavzu yuzasidagi muammolarning yechilishiga qaratilgan taxminiy erkin fikr almashinish kichik guruhlari tuzildi. Tuzilgan kichik guruhlarda talabalarning bilimdarajasi, xarakteri, shaxsiy qobiliyatlari, qiziqishlarning umumiyliklari kabi bir nechta faktorlar inobatga olingan holda kichik guruhlardagi umumiy balansning muvozanatlashishi inobatga olindi. Kislorod saqlovchi organik moddalar mavzu asosidagi bo‘limlar iloji boricha amiq va ravon matn korinishiga keltirildi. [2]. Kerakli bo‘lgan barcha materiallar tayyorlangandan so‘ng haftaning ikkinchi bosqich farmatsiya yo‘nalishi talabalari 292-guruh talabalari tanlab olindi va yuqoridagilarga asoslanib kichik guruhlar shakllantirildi. Guruhdagi umumiy talabalar soni 18 ta ekanligi uchun har-bir kichik guruhga 3 tadan jami 6 ta kichik guruh shakllantirildi. Har bir kichik guruh a‘zolari uchun bittadan guruh sardori tayinlandi va amaliyot darsigacha bo‘lgan bir kun 30 - minutdan vaqt ajartilib yangi mavzu o‘zlashtirilishi uchun grafik kuzildi. Quidagi grafik asosida talabalarning yangi mavzu bayoni va muhakamasi uchun vaqt ajratishlariga kelishib olindi.

1-jadval.

Talabalar bilan o‘tiladigan mashg‘ulot grafigi.

№	Talabalar F.I.SH	Fanni o‘zlashtirish ko‘rsatkichi(% da)	Kichik guruh raqami	Tanlangan vaqt
1.	Otamurodov.B	80%	1	9:30
2.	Nematov.Sh	90%		
3.	Fayzulla yev.F	65%		
4.	Esanov.R	90%	2	10:30
5.	Ismatov.B	80%		
6.	Ostnov.S	70%		
7.	To‘raqulov.S	80%	3	11:30
8.	Saidov.B	71%		
9.	Ibragimova.D	90%		
10.	Sobirova.M	95%	4	15:30
11.	Hamroyeva.D	85%		
12.	Nuutfullaeva.G	71%		
13.	Sayfullaeva.M	86%	5	16:30
14.	Boboeva.M	65%		
15.	Hasanova.F	60%		
16.	Boqieva.M	95%	6	17:00
17.	Atamurodova.P	75%		
18.	Qahhorov.Z	65%		

Metod – ta’lim jarayonida o‘quvchilar hamda o‘qituvchi o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali o‘quvchilarning bilimlarini o‘zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Interfaol ta’lim bu:

Strategiya va metodologiya;

doimiy muloqotga asoslangan metodlar tizimi;

birgalikdagi o‘qish va faol ishtirok etishdir.

Interfaol ta’limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o‘tkazish, o‘quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma’ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko‘pligi, o‘quvchilar tashabbus ko‘rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo‘lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo‘lib, ular ta’lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o‘ziga xos ahamiyatga ega. [3].

Hozirda ta’lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo‘nalishlardan biri interfaol ta’lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Interfaol usullarni qo‘llash natijasida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o‘z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog‘lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko‘nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Bu masalada amerikalik psixolog va pedagog B.Blum bilish va emotsional sohalaridagi pedagogik maqsadlarning taksonomiyasini yaratgan. Uni Blum taksonomiyasi deb nomlanadi. (Taksonomiya-borliqning murakkab tuzilgan sohalarini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasi). Unga ko‘ra tafakkurning

rivojlanishi bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, umumlashtirish, baholash darajalarida bo'ladi. Bular quyidagi belgilar hamda har bir darajaga muvofiq fe'llar namunalari bilan ham ifodalanadi, jumladan: [4].

Bilish-dastlabki tafakkur darajasi bo'lib, bunda o'quvchi atamalarni ayta oladi, aniq qoidalar, tushunchalar, faktlar va shu kabilarni biladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: qaytara bilish, mustahkamlay olish, axborotni yetkaza olish, aytib bera olish, yozish, ifodalay olish, farqlash, taniy olish, gapirib berish, takrorlash. [5].

Tushunish darajasidagi tafakkurga ega bo'lganda esa, o'quvchi faktlar, qoidalar, sxema, jadvallarni tushunadi. Mavjud ma'lumotlar asosida kelgusi oqibatlarni taxminiy tafsiflay oladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: asoslash, almashtirish, yaqqollashtirish, belgilash, tushuntirish, tarjima qilish, qayta tuzish, yoritib berish, sharhlash, oydinlashtirish.

Qo'llash darajasidagi tafakkurda o'quvchi olgan bilimlaridan faqat an'anaviy emas, noa'nnaviy holatlarda ham foydalana oladi va ularni to'g'ri qo'llaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: joriy qilish, hisoblab chiqish, namoyish qilish, foydalanish, o'rgatish, aniqlash, amalga oshirish, hisob-kitob qilish, tatbiq qilish, hal etish. [6].

Tahlil darajasidagi tafakkurda o'quvchi yaxlitning qismlarini va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni ajrata oladi, fikrlash mantiqidagi xatolarni ko'radi, faktlar va oqibatlar orasidagi farqlarni ajratadi, ma'lumotlarning ahamiyatini baholaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari:

keltirib chiqarish, ajratish, tabaqalashtirish, tasniflash, taxmin qilish, bashorat qilish, yoyish, taqsimlash, tekshirish, guruhlash. [7].

Umumlashtirish darajasidagi tafakkurda o'quvchi ijodiy ish bajaradi, biror tajriba o'tkazish rejasini tuzadi, bir nechta sohalaridagi bilimlardan foydalanadi. Ma'lumotni yangilik yaratish uchun ijodiy qayta ishlaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: yangilik yaratish, umumlashtirish, birlashtirish, rejalashtirish, ishlab chiqish, tizimlashtirish, kombinastiyalashtirish, yaratish, tuzish, loyihalash[6,11].

Baholash darajasidagi tafakkurda o'quvchi mezonlarni ajrata oladi, ularga rioya qila oladi, mezonlarning xilma-xilligini ko'radi, xulosalarning mavjud ma'lumotlarga mosligini baholaydi, faktlar va baholovchi fikrlar orasidagi farqlarni ajratadi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: [9].

tashxislash, isbotlash, o'lchash, nazorat qilish, asoslash, ma'qullash, baholash, tekshirish, solishtirish, qiyoslash.

Dars jarayonini loyihalashda o'qitish metodlarini to'g'ri tanlash, ya'ni metodlarni darsning vazifalari va mazmuniga mosligi, o'qituvchi va o'quvchilarning imkoniyatlariga muvofiq bo'lishi talab etiladi.

O'qituvchi darsning loyihasini ishlab chiqishda quyidagi topshiriqlarni ketma-ket bir butunlikda amalga oshirishi kerak.

1-bosqich: O'qituvchi dastur, darslik, metodik qo'llanma va sinf o'quvchilarining umumiy tavsifi bilan tanishib chiqishi lozim.

2-bosqich: Darsning asosiy vazifalari majmuasini: o'qitish, ta'limiy maqsad, tarbiyaviy maqsad va rivojlantiruvchi maqsadlarni va vazifalarini belgilash.

3-bosqich: Darsning asosiy bosqichlarini to'g'ri, aniq va izchillikda joylashtirish.

4-bosqich: Darsning har bir bosqichi mazmunidagi asosiy o'rinli ajratib olish.

5-bosqich: Darsning har bir qismi uchun o'qitish metodlarini, vositalarini, texnologiyalarni tanlash.

6-bosqich: Darsning har bir qismi uchun o'qitishning yetakchi; umumsinfy, kichik guruh va individual shaklini tanlab olish.

7-bosqich: Bo'sh o'zlashtiruvchi va tayyorgarligi kuchli bo'lgan o'quvchilar uchun tafovutlangan mashq va vazifalarni tanlash.

8-bosqich: Tegishli sinf o'quvchilari uchun vaqt me'yorlariga muvofiq uy vazifasining maqbul hajmini tanlash.

Interfaol ta'lim jarayonida kichik gurularda ishlash

Muammoli ta'lim jarayonida kichik guruhlar ishini tashkil etish uchun o'qituvchi quyidagilarni yaxshi tushunib olishi lozim:

1. O'quvchining individual harakatlari bilan jamoa bo'lib ishlagandagi harakatlari nimasi bilan farqlanadi?

2. Kichik guruhlarining birgalikdagi ishidan qanday natijalarni kutish mumkin?

3. Guruhning hamfikrlilar jamoasiga aylanishi uchun nimalar qilish kerak?

Kichik guruh va uning tarkibiga kiruvchi o'quvchining ishini qanday baholash kerak?

Guruhlar bilan ishlash bo'yicha qoidadagi ishlar amalga oshirildi.

1. Hamkorlik guruhlari kam sonli bo'lishi kerak. Guruh qanchalik kichik bo'lsa har bir o'quvchi mas'uliyatliroq bo'lishi inobatga olindi.

2. Har bir guruh a’zosining bilimini individual tartibda tekshirishga e’tibor qaratildi.

3. Davriy tartibda tanlab (oralatib) og’zaki so’rovlar o’tkazildi, bunday paytda o’quvchilar guruh a’zolari yoki butun jamoa oldida guruh ishi haqida gapirib beradilar.

4. Barcha guruhlar ishini kuzatib borish va guruh a’zosining umumiy mehnatda ishtirok etgan hamma holatlar qayd etib borildi.

5. Har bir guruhda «nazoratchi» bo’lishi va u har bir guruhdoshidan nima uchun guruh berilgan savolga boshqacha emas, aynan shunday javob berganligini tushuntirib berishni so’rashi mumkin.

Kichik guruhlar tuzilgandan so’ng guruh uchun tegishli metodlar tanlandi[10].

1- Guruh “**Tarmoqlar**” metodi – o’quvchi-talabani mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o’rgatishga qaratilgan metod tanlab olindi va mavzu bo’yich metod iloji boricha o’z o’rnida va talabalar faolligi taminlangan holda qo’llanildi. Mavzu bayoni va asosiy qismiga asosiy maqsad qaratildi va har bir guruh uchun olingan maruza matni asosiy qo’llanma sifatida foydalanildi.

2- Guruh “**Blits o’yin**” metodi - harakatlar ketma-ketligini to’g’ri tashkil etishga mantiqiy fikrlashga, o’rganayotgan predmeti asosida ko’p, xilma xil fikrlardan, ma’lumotlardan kerakligini tanlab olishni o’rgatishga qaratilgan bo’lib iloji boricha guruhga oldinroq berilgan topshiriqlar va ularga asoslangan mustahkamlash qismiga e’tibor qaratildi.

3- Guruh “**Intervyu**” texnikasi – o’quvchi-talaba savol berish, eshita olish, to’g’ri javob berish, savolni to’g’ri tuzishni o’rgatishga qaratilgan bu metod orqali guruh sardori va jamoa azolarining o’rtasidagi keskinlashuvlar bilan olib borildi.

4- Guruh “**Bumerang**” texnikasi – o’quvchi-talabalarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o’rganilgan materiallarni yoddan saqlab qolish, so’zlab bera olish, fikrni erkin holda bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha o’quvchi yoki talabalarni baholay olishga qaratilgan usul qo’llanildi.

5- Guruh “**Boshqaruv**” texnikasi o’qituvchilarni auditoriyani boshqarishdagi usullari hamda o’quvchi va talabalarni ish jarayonida boshqaruv usullari bilan tanishtiruvchi va shunga o’rgatishga qaratilgan.

6- Guruh “**Talaba**” treningi – talabalar bilan individual holda ishlash o’qituvchi va talaba o’rtasidagi to’siqni yo’q qilish, hamkorlikda ishlash yo’llarini o’rgatishga qaratilgan. [11].

Natijalar. Kislorodli organik birikmalar mavzusini o’qitishda tanlangan texnikalarning samarli natija berishi va mavzuni to’liq qamrab olishi uchun har-bir texnikaga mos texnologik xarita yaratildi. Dars uchun ajratilgan ma’lumotlar texnologik xaritalarga mos ravishda, aniqlik bilan joylashtirildi. Ma’lumotlarning dars vaqtida to’liq berilishi va metodning to’g’ri qo’llanilishi uchun kerakli vazifalar bajarildi va darsga tayyor holatga kelindi.

Dars mavzusining yoritilishida materiallar tarqatib berilgandan so’ng asosiy vazifalarni guruh sardorlariga topshirildi va mavzuni yoritib berishda talabalar faolligi, kreativ yondashular, muammoli vaziyatlar, qiziqarli test topshiriqlari, munozara va bahslar asosida darslar amalga oshirildi.

Har bir o’tilgan dars yakunida dars o’tish texnologiyasida qiyinchilik tug’diradigan qismlar belgilanib olindi va yechimlar ishlab chiqildi. Dars yakunida guruhlar bilimi baholanildi: unga ko’ra kislorodli organik birikmalar mavzusining o’qitilishi turli xil texnologiyalar asosida o’tilganda quidagicha yakuniy natijalar olindi.

2-jadval.

№	Talabalar F.I.SH	Mavzuni o’zlashtirish ko’rsatkichi(% da)	Kichik guruh raqami	Texnologiyalarni qo’llashdagi kamchiliklar.
1.	Otamurodov.B	95%	1	Talabalarning birgalikda ishlash, ma’lumotlarni umumlashtirish, va mustaqil muhokama qilishda vaziyat yaratilmaganligi.
2.	Nematov.Sh	75%		
3.	Fayzullayev.F	75%		
4.	Esanov.R	75%	2	Guruh liderida materiallar tahlili o’tkazilmaganligi, mustahkamlash qismining ko’p vaqt sarflanganligi.
5.	Ismatov.B	90%		
6.	Ostnov.S	80%		
7.	To’raqulov.S	85%	3	Guruh a’zolarida o’zaro fikr almashinishda keskinlashuvlarning ortib ketishi. Mavzudan chetlashish.
8.	Saidov.B	80%		
9.	Qahhorov.Z	85%		


10.	Sobirova.M	90%	4	Turli materiallar bilan ishlashdagi kamchiliklar.
11.	Hamroyeva.D	80%		
12.	Nuutfullaeva.G	75%		
13.	Sayfullaeva.M	95%	5	Metod nisbatan guruh lideri ustunligi va mehnatiga bog'liq.
14.	Boboeva.M	70%		
15.	Hasanova.F	70%		
16.	Boqieva.M	95%	6	Dastlabki bilimlar mukammal o'zlashtirilganligiga bog'liq holda samara berishi ustunligi.
17.	Atamurodova.P	90%		
18.	Ibragimova.D	95%		

Munozara. Bilimlarni o'zlashtirish darajalari baholab chiqilganda metodlarning qo'llanilganligi va kichik guruhlarda talaba sonining nisbatan oz ekanligi hisobiga mavzuni o'zlashtirishda kutilgan natijalar olindi. Guruhda nisbatan passiv talabalar bilan ishlashda kichik guruhlar va metodlarni qo'llash yordamida ularning mavzuga qiziqishini kuchaytirish mumkinligi aniqlandi.

Kislorod saqlagan organik birikmalar mavzusini o'qitishda mavzuning keng qamrovli va bir qancha mavzular bilan bog'liq ekanligi inobatga kamchiliklar doimiy ravishda o'qituvchi va talaba o'rtasida ma'lumot almashinishni ta'minlashni inobatda olish kerakligi muhim ahamiyatga ega.

Qo'llanilgan metodlarning samaradorligi va ular ichida mavzuga mos tushuvchi maqbul metodni tanlash uchun quyida berilgan diagrammaga asoslandi.

1-diagramma.



Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, kichik guruhlarda darslarning samarali, yanada qiziqarli, har bir talaba bilan individual shug'ullanishga imkon berishi bilan bir qatorda nisbatan qiyinchilik tug'diradigan keng qamrovli darslar uchun bir vaqtning o'zida bir nechta metodlarni sinab ko'rish va samarali metodlarni tanlashga ham imkon beradi. Kislorodli organik birikmalar mavzusini o'qitishda tanlangan bir qancha usullar orasida nisbatan yaxshi natijaga erishilgan va keyinchalik amaliyot darslarida ham bemalol qo'llash imkoniyatiga ega bo'lgan usul sifatida **“Talaba”** treningi – talabalar bilan individual holda ishlash o'qituvchi va talaba o'rtasidagi to'siqni yo'q qilish, hamkorlikda ishlash yo'llarini o'rgatishga asoslangan metodini qo'llash o'z ustunligini ko'rsatib bildi.

Adabiyotlar:

1. Avliyakov N.X., Musaeva N.N. Modulli o'qitish texnologiyalari. T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2007
2. Asqarov I.R., To'xtaboyev N.X. Kimyo darslik “Sharq” nashriyot –matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent. 2017
3. Mirzayev P.N., Mirzayeva M.P. Kimyo. Toshkent. 2013.

4. A. Karimov, X.Xoshimov. "Umumiy kimyodan masalalar va testlar to'plami.
5. M.I.Ibodulloyeva, N.I.Bozorov. Kompleks birikmalar kimyosi.
6. В.В. Скопенко, А.Ю. Цивадзе, Л.И. Савранский, А.Д. ГарновскийКоординационная химия.
7. Ниязов, Л. Н., & Курбонова, Н. И. (2020). Из опыта обучения медицинской химии студентам направления стоматологии.«. «современные вызовы медицинского образования в условиях пандемии: опыт быстрых решений и стратегические инициативы» 5 июня 2020 года Сборник тезисов, 81.
8. Ниязов, Л. Н., & Назаров, И. И. (2018). О применении кейсов в обучении химии в медицинских вузах. Материалы, 202.
9. Niyozov, L. va Karimov, J. (2023). Tibbiyot universitetlari tibbiyot kimyosi talabalarini o'qitishdagi vaholiyat masallarining ahamiyati. kanadada " Ta'lim, faniyat va gummanit falarning rivojlanishi bo'yicha xalqaro konferensiya (9-jild, №1).
10. Sulaymonovna S.N., Sobirzoda K.J. Umumiylik va vaziyat muammolari va vaziyat usullari o'rtasidagi farqlar //Xalqaro jurnali ijtimoiy fanlar & ijtimoiy fanlar arasi tadqiqotlar ISSN: 2277-3630 Ta'sir faktori: 8.036. – 2022. – T. 11. – №. 03. – S. 155-159.
11. Qo'ldoshev R. "Usuli jaded" tiridagi maktablarning tashkiliy-metodologiy mazmuni, o'quv dasturi va xarakterik xususiyatlari //" pedagogical akmeology" xalqaro ilmiy-metodik jurnali. – 2024. – V. 16. – Yo'q. 8.

ASTRONOMIK KUZATISHLAR ASTRONOMIYANI O'RGANISHDA TALABALARNING
AMALIY ISHLARINING SHAKLI SIFATIDA

Narzullayev Muxiddin Nasullayevich,

Buxoro davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

Narzullayeva Zarnigor Muxiddinovna,

Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Maqolada astronomiya kursini o'rganishda amaliy astronomik kuzatishlarning ahamiyati ko'rib chiqiladi. Shuningdek, Quyosh va Oyni kuzatuvlarni tashkil etish bo'yicha uslubiy tavsiyalar beriladi. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi tajribani umumlashtirishdir. Pedagogik amaliyotdan ma'lumki, kuzatuvlar o'tkazish va astronomiya bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkazish bo'yicha tavsiyalarni shakllantirishda, har bir talaba obyektlarni ko'radi va daftarda ko'rilgan narsalarning ro'yxati bilan hisobotni ko'radi, uni talabalar o'sha kuni kechqurun uyda bo'lishlari tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: *Astronomiya, o'qitish metodikasi, astronomik kuzatishlar, Oy fazalari, Oy kraterlari, Oy tog'lari, Quyosh dog'lari, Vol'fa soni, Quyosh faolligi.*

АСТРОНОМИЧЕСКИЕ НАБЛЮДЕНИЯ В ИЗУЧЕНИИ АСТРОНОМИИ В ФОРМЕ
ПРАКТИЧЕСКИХ РАБОТ СТУДЕНТОВ

В статье рассматривается значение практических астрономических наблюдений при изучении курса астрономии. Даны также методические рекомендации по организации наблюдений Солнца и Луны. Основная цель данной статьи — обобщить опыт. Из педагогической практики известно, что при составлении рекомендаций по проведению наблюдений и проведении практических занятий по астрономии каждый студент проводит наблюдения объектов и составляет отчет с перечнем увиденных объектов в тетради, которую студентам рекомендуется вечером сохранить дома.

Keywords: *Astronomy, teaching methodology, astronomical observations, Moon phases, Moon craters, Moon mountains, Sunspots, Wolff number, Solar activity.*

ASTRONOMICAL OBSERVATIONS IN THE STUDY OF ASTRONOMY
AS A FORM OF STUDENTS' PRACTICAL WORK

The article considers the importance of practical astronomical observations in studying the astronomy course. Also, methodological recommendations are given for organizing observations of the Sun and the Moon. The main purpose of this article is to generalize the experience. It is known from pedagogical practice that when formulating recommendations for conducting observations and conducting practical classes in astronomy, each student observes objects and makes a report with a list of objects seen in a notebook, which students are advised to keep at home that evening.

Keywords: *Astronomy, teaching methodology, astronomical observations, Moon phases, Moon craters, Moon mountains, Sunspots, Wolff number, Solar activity.*

Kirish. Mamlakatimizda zamonaviy ta'lim mehnat bozori tendentsiyalari va jamiyat talablarini hisobga olgan holda jadal rivojlanmoqda-bu o'rganilayotgan fanlar ro'yxatiga yangi modullar va fanlarning kiritilishi, o'qitish standartlari va yondashuvlarining o'zgarishi bilan bog'liq. Xususan, o'tgan o'n yillikda ta'lim tizimlarida talabalarni astronomiya fanini o'rganishga e'tiborni kuchayganligi. Ushbu fanni o'qitish pedagogik kadrlar va o'qitish metodikasiga ma'lum talablarni qo'yadi. Kuzatish har qanday tabiiy fanlarni o'qitishning majburiy elementi bo'lib qolishini hisobga olib, astronomiyani o'rganishni amaliy namoyishlarsiz, bizning holatlarimizda – guruh va individual kuzatuvlarsiz mutlaqo samarasiz deb atash mumkin. Ularning yordami bilan talabalar burjlar, oy fazalarining o'zgarishi, yulduzli osmonning aylanishi haqida tasavvurga ega bo'lish va hokazolar haqidagi ma'lumotlarni amalda mustahkamlashlari mumkin. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi tajribani umumlashtirishdir. Pedagogik amaliyotdan ma'lumki, kuzatuvlar o'tkazish va astronomiya bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkazish bo'yicha tavsiyalarni shakllantirishda, har bir talaba obyektlarni ko'radi va daftarda ko'rilgan narsalarning ro'yxati bilan hisobotni ko'radi, uni talabalar o'sha kuni kechqurun uyda bo'lishlari tavsiya etiladi.

Asosiy qism. Har bir amaliy mashg'ulotning taxminiy rejasi ortiqcha bo'lishi kerak-agar bitta obyektни kuzatish uchun mos sharoitlar bo'lmasa, ro'yxatdan boshqasiga o'tiladi. Misol:

1. Eng yorqin va ko'rinadigan yulduzlari bilan tanishish.
2. Navigatsiya yulduzlarini qurollanmagan ko'z bilan, durbin yoki teleskop bilan kuzatish.
3. Qurollanmagan ko'z bilan osmonning sutkalik aylanishini kuzatish: osmonning Janubiy qismida yorqin yulduzni tanlang va kuzatuv ishtirokchilaridan kichik to'siq (uyning burchagi yoki daraxt) bilan qoplanadigan tarzda turishni so'rang. Keyin, bir necha daqiqadan so'ng, yulduz to'siq tufayli paydo bo'lganiga e'tibor bering.

Quyosh va oyni kuzatishni tashkil qilish uslubi. Barcha astronomik kuzatishlar quyidagi ma'lumotlar bilan birga bo'lishi kerak: sana va vaqt, atmosfera holati, kuzatuv joyi, kuzatuv obyekti, uning eskizi (fotosurati), videofayl yoki fotometrik ma'lumotlar va maxsus eslatmalar. Shuningdek, teleskop turi, obyektiv diametri, kattalashtirish, kamera nomi yoki kameraning CCD (CCD kamerasi) va boshqa kuzatuv tafsilotlari ko'rsatilishi kerak. Ro'yxatda keltirilgan ma'lumotlar kiritilgan kuzatuvlar kundaligini yuritish tavsiya etiladi. Kuzatishlarning muntazamligi va ularni bir-biri bilan taqqoslash muhim ahamiyatga ega. Bo'lajak kuzatuvlarni astronomik dasturlari yordamida rejalashtirish yaxshi. Bu yerda asosiy parametrlar sifatida kuzatuv joyining geografik koordinatalari, sana va vaqt, mahalliy va Grinвич vaqtlarining farqi belgilanadi.

Quyosh va Oyni kuzatish uchun obyektlar va ularning tasvirlarining atlasiga ega bo'lish yaxshi; uzoq Kosmos elementlarini kuzatish uchun oldin yulduz xaritalari bo'lish kerak. Vizual kuzatuvlarda teleskopda almashtiriladigan okulyarlar ishlatiladi:

- 1) obyektlarni qidirishga, Oyni to'liq diskini, ochiq klasterlarni qulay ko'rib chiqishga imkon beradigan kichik kattalashtirishni beradigan okulyar;
- 2) ko'pgina kuzatuvlar uchun o'rtacha quvvatli okulyar (teleskopga qarab taxminan 80- 150x) ishlatiladi.
- 3) kuchli okulyar (2D-3D, bu yerda D — obyektiv diametri mm) teleskop imkoniyatlari chegarasida Quyosh va Oy yuzasini batafsil o'rganish uchun ishlatiladi.

Obyekt topilgandan so'ng, yuqori kattalashtirish okulyari qo'llanilishi mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, teleskopning fokusini uzoq obyektlar uchun oldindan sozlasangiz, obyektlarni ko'rib chiqish ancha osonlashadi. Agar biz samoviy jismlarni kuzatish qoidalari haqida gapiradigan bo'lsak, unda eng qiyin qoida Quyoshni kuzatish qoidasidir. Hatto, astronomlar orasida mashhur hazil ham bor: " Siz hayotingizda faqat ikki marta Quyoshga

Quyoshni kuzatish. Quyoshni kuzatish uchun har qanday teleskoplar, refraktorlar yoki reflektorlar mos keladi. Quyosh juda yorqin obyektdir, shuning uchun teleskop orqali Quyoshni vizual kuzatish va uni suratga olish har doim zich filtr orqali amalga oshirilishi kerak! Uzoq muddatli kuzatuvlar uchun yorug'lik filtri okulyarga emas, balki obyektivga o'rnatilishi kerak. Katta teleskoplarni diafragma qilish kerak, aks holda okulyar yoki diagonal oynaning haddan tashqari qizishi mumkin. Quyoshni kuzatayotganda, izlovchi va yo'riqchini, shuningdek teleskopga o'rnatilishi mumkin bo'lgan boshqa koaksiyal optikani qopqoq bilan yopish yoki olib tashlash kerak.

Ekranda Quyosh tasvirini loyihalash. Quyosh yuzasini xavfsiz vizual o'rganishni ta'minlaydi, shuningdek, kuzatilgan rasmni qog'ozga tushirishga imkon beradi. Quyoshni kuzatayotganda quyidagi tafsilotlarni ko'rish mumkin: alohida dog'lar, dog'lar guruhlar; tasvirning yorqinligi kamroq bo'lgan diskning chetida yorqin mash'alalar ko'rinadi. Agar quyosh tasviri ekranda ishlab chiqilgan bo'lsa, unda tafsilotlar to'g'ridan-to'g'ri chiziladi. Bunday holda, soat mexanizmi yoqilgan bo'lishi kerak. Keyin statsionar teleskop bilan, quyosh ekvatori yaqinidagi har qanday dog'ning siljishi bo'yicha kunlik parallel qayd etiladi. G'arb, Sharq, Shimol, Janub nuqtalari qayd etilgan. Quyoshni suratga olish muntazam kuzatishning yanada qulay usuli hisoblanadi. Quyoshning umumiy ko'rinishining bir qator fotosuratlarini amalga oshiriladi, unda barcha dog'lar ko'rinadi, so'ngra kattaroq kattalashtirishda fotosuratlar dog'lar guruhlarini aniqlanadi. Sutkalik parallellikni aniqlash vizual kuzatuvlarda bo'lgani kabi amalga oshiriladi: statsionar teleskop bilan bir nechta ramkalar yoki har bir kadr uchun bir nechta ekspozitsiyalar o'tkaziladi. *Tadqiqot vazifalari.* Quyoshning vizual kuzatuvlaridan (fotosuratlar, eskizlar) siz quyosh faolligining ko'rsatkichlaridan birini-Vol'fa sonini hisoblash mumkin. U quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$W=10g+f,$$

bu yerda g- guruh dog'lar soni; f-dog'larning umumiy soni. Fotosuratlar yoki quyosh eskizlari qismlar-ning koordinatalarini, ular-ning o'lchamlarini, shaklini va nisbiy intensivligini aniqlash uchun ishlatilishi mumkin. Ba'zan bu ma'lu-motlar spektral tadqiqotlar kabi boshqa ishlarni bajarish uchun yordamchi ma'lumotnoma materiallari, ba'zan esa ilmiy ishlar uchun boshlang'ich material hisoblanadi. Shuning asnosida Quyosh faolligining Vol'fa sonlaridagi ifidasi aniqlanadi.



Oyni kuzatish. Oy eng yaqin samoviy obyektidir, shuning uchun uni kuzatish kichik teleskoplar yoki, hatto, durbin yordamida amalga oshirilishi mumkin. Yorqinlikni pasaytirish va kuzatuvlarni yanada qulayroq qilish uchun ko'plab astronomiya ixlosmandlari neytral kulrang filtr yoki polarizatsiyadan foydalanadilar. Sayyoralaridan farqli o'laroq, oyni kuzatishda odatda rangli filtrlar ishlatilmaydi. Shu bilan birga, qizil filtrni qo'llash ko'pincha sirtning ko'p miqdordagi bazalt bilan ajralib turishiga yordam beradi va ularni qorong'i qiladi. Qizil filtr, shuningdek, beqaror atmosferada tasvirni yaxshilashga va oy nurini zaiflashtirishga yordam beradi. Oy yuzasida topografiyada haqiqiy o'zgarishlar kuzatilmaydi, ammo oylik davriy yorug'lik o'zgarishlari turli oy landshaftlarining ko'rinishini sezilarli darajada o'zgartiradi. Oyni kuzatuvchiga nisbatan joylashuvdagi o'zgarishlar bilan birgalikda, bu har bir oy obyektining kuzatuv sharoitlarining o'zgarishiga olib keladi, bu ularning kuzatuvlarini ilgari bajarilganlar bilan taqqoslashda hisobga olinishi kerak. Shu bilan birga, vaqti-vaqti bilan oyda uning ichki faoliyatini aks ettiruvchi qisqa muddatli hodisalar kuzatiladi. Havaskor kuzatuvchilar tomonidan oyni kuzatuvlari quyidagi vazifalardan birini hal qilishga yo'naltirilishi mumkin:

1. O'quv va ilmiy-ma'rifiy maqsadlarda oy yuzasini va uni yoritish sharoitlarini kognitiv o'rganish;
2. Kuzatuvchini umuman astronomik kuzatishlarda va xususan mayda nozik tafsilotlarni aniqlash va chizishda o'rgatish;
3. Ilmiy kuzatishlar. Ushbu kuzatuvlar davomida kelajakda ilmiy tadqiqotlar uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan materiallar olinadi (yulduzlarni oy bilan qoplash, qisqa muddatli hodisalar, oydagi chaqnashlar va boshqalar).

Oyni kuzatish uchun oy xaritasi yoki atlas bo'lishi kerak. Oyni virtual atlas (<http://www.ap-i.net/>) - oy kuzatuvlariga tayyorgarlik ko'rish uchun barcha kerakli ma'lumotlarni olishga imkon beradigan kuchli va funksional dastur. Keng ma'lumotlar bazasi va tasvirlar kutubxonasi barcha oy shakllanishlarini chuqur o'rganishga yordam beradi. Mualliflar yangi astronomlar, oy kuzatuvchilari va Selenografiya bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan talabalar uchun bepul dastur yaratdilar. Oyni o'rganishni Charlz Vud tomonidan tuzilgan "oyni eng yaxshi 100 ta obyekti" ro'yxatidan boshlash mumkin (Charlz A. Vud, "osmon va teleskop", №4, 2004). Shuningdek, "noma'lum oy" maqolalar turkumiga e'tibor qaratish lozim (<http://www.realsky.ru/>), oyni diqqatga sazovor joylari haqida hikoya qiladi. Oyda nimani kuzatish kerak kraterlar oy -yuzasida eng keng tarqalgan shakllanishlardir. Ular o'z nomlarini yunoncha "piyola" so'zidan olgan. Ko'pincha oy kraterlari zarba kelib chiqishiga ega, ya'ni kosmik jismning sun'iy yo'ldoshimiz yuzasiga ta'siri natijasida hosil bo'lgan.

Oy dengizlari- oy yuzasida aniq ajralib turadigan qorong'u joylar. Aslida, dengizlar pasttekisliklar bo'lib, ular yerdan ko'rindigan sirtning butun maydonining 40 foizini egallaydi. "Oyda yuz" deb ataladigan qorong'u dog'lar oy dengizlaridan boshqa narsa emas.


Jo'yaklar-yuzlab kilometr uzunlikdagi oy vodiylari. Ko'pincha jo'yaklarning kengligi 3,5 km ga, chuqurligi esa 0,5 - 1 km ga etadi.

Katlanmish tomirlar-tashqi ko'rinishida arqonlarga o'xshaydi va dengizlarning cho'kishi natijasida hosil bo'lgan deformatsiya va siqilish natijasidir.

Tog' tizmalari — balandligi bir necha yuzdan bir necha ming metrgacha bo'lgan oy tog'lari.

Gumbazlar eng sirli shakllanishlardan biridir, chunki ularning asl tabiati hali ham noma'lum. Hozirgi vaqtda faqat bir necha o'nlab gumbazlar ma'lum, ular kichik (odatda diametri 15 km) va past (bir necha yuz

metr) dumaloq va silliq balandliklardir. Oyni qachon kuzatish yaxshiroq. To'liq oyda oy tafsilotlarining kontrasti minimal bo'lib, ularni kuzatishni deyarli imkonsiz qiladi.



1-rasm. Oyni kuzatish uchun qulay fasllarning grafik tasviri

Oyni kuzatish uchun ikkita eng qulay davr mavjud. Birinchisi yangi oydan ko'p o'tmay boshlanadi va birinchi chorakdan ikki kun o'tgach tugaydi. Bu davrni ko'plab kuzatuvchilar afzal ko'rishadi, chunki oyni ko'rinishi kechki soatlarda sodir bo'ladi. Ikkinchi qulay davr oxirgi chorakdan ikki kun oldin boshlanadi va deyarli yangi oygacha davom etadi. Shu kunlarda qo'shnimiz yuzasidagi soyalar, ayniqsa, uzun, bu tog' rel'yefida aniq ko'rinadi. Oxirgi chorak bosqichida oyni kuzatishning yana bir afzalligi shundaki, ertalab soatlarda atmosfera tinchroq va toza bo'ladi. Bu tasvirni yanada barqaror va aniqroq qiladi, bu uning yuzasida kichikroq tafsilotlarni kuzatish imkonini beradi. Muhim nuqta — oyni ufqdan balandligi. Oy qanchalik baland bo'lsa, undan keladigan yorug'lik shunchalik zich havo qatlamini engib chiqadi. Shuning uchun buzilish kamroq va tasvir sifati yaxshiroq. Biroq mavsumdan mavsumga qarab, oyni ufqdan balandligi o'zgaradi(1-rasm.).

Oy yer atrofida elliptik orbitada harakat qiladi, shuning uchun oyni ko'rinadigan kattaligi 33' 30" (ichida perigey) dan 29' 22" gacha (apogey). Perigeyda siz ko'rish chegarasida bo'lgan oy yuzasining tafsilotlarini ko'rib chiqishga harakat qilishingiz mumkin. Oyni kuzatish yoritilgan va yoritilmagan qismlarni ajratib turadigan terminator chizig'i bo'ylab amalga oshirilishi kerak. Bu yerda oy tafsilotlarining kontrasti maksimal darajada bo'ladi va soyalar o'yini tufayli oy yuzasining noyob landshaftlari ochiladi. Oyni hisobga olgan holda, siz kattalashtirish bilan tajriba o'tkazishingiz va ushbu sharoitda ushbu obyekt uchun eng mosini tanlashingiz mumkin.

Adabiyotlar:

1. Narzullayev M.N. Astronomiya (Quyosh va uning tizimi) Buxoro “Fan va ta’lim” nashriyoti 2022 .
2. Narzullaev M.N. Astronomik taqvim. Durdona nashriyoti-2016 136 b.
3. Narzullaev M.N. Ekologik talim va tarbiya samaradorligini orttirishda astronomiya darslarining o'rni. Respublika ilmiy amaliy anjumani materiallari. b.204 Buxoro 2013 yil.
4. Narzullaev M.N, Roziqov T.Q. “Quyosh-yer aloqalari” uslubiy qo'llanma XS po EZ i ISAL i PK matbaa bo'limi Samarqand 2014- yil 42 bet
5. Narzullaev M.N. Ispolzovanie astronomicheskix znaniy v formirovanii ekologicheskoy kul'turi studentov // Mejdunarodniy akademicheskij vestnik Nauchniy jurnal. 45:1 (2020). S. 64.
6. Chijevskiy A.A. V ritme Solnsa. - Moskva: Nauka, 1969.- 112 s.
7. Narzullaev M.N. Rol' astronomii v povishenii effektivnosti ekologicheskogo obrazovaniya. Materiali respublikanskoy nauchnoprakticheskoy konferensii. s.204 Buxara 2013

INTERNET MANBALAR

1. www.lex.uz –
2. <http://www.dad.idmnet.ru>.
3. www.tdpu.uz
4. www.pedagog.uz
5. www.Ziynet.uz

BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARIGA ANATOMIYA FANINI O'QITISHNING METODIK TAMOIYILLARI VA INNOVATSION USULLARI

Raxmonova Dilovar Ostanaqulovna,

Navoiy davlat universiteti biologiya kafedrası o'qituvchisi

Anatomiya odam tanasining shakli, tuzilishi, uning funksiyalari va odamning rivojlanishi to'g'risidagi fan. Bu fan organlarni va organlar sistemalarini bajaradigan funksiyasiga qarab o'rganadi. Jismoniy tarbiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalariga anatomiyaning o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari qolaversa, an'anaviy va innovatsion o'qitish usullari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: o'qitish xususiyatlari, anatomiya, fiziologiya, ta'lim texnologiyalari.

ОСОБЕННОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ АНАТОМИИ СТУДЕНТОВ, ОБУЧАЮЩИХСЯ НА ФИЗИЧЕСКОМ ВОСПИТАНИИ

Анатомия – наука о форме, строении, функциях и развитии человеческого тела. Эта наука изучает органы и системы органов с учетом их функций. Кроме того особенностей преподавания анатомии студентам физического воспитания, рассмотрены традиционные и инновационные методы обучения.

Ключевые слова: характеристики преподавания, анатомия, физиология, образовательные технологии;

METHODOLOGICAL PRINCIPLES AND INNOVATIVE METHODS OF TEACHING ANATOMY TO FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS

Anatomy is the science of the shape, structure, functions and development of the human body. This science studies organs and organ systems based on their function. In addition to the specific features of teaching anatomy to physical education students, traditional and innovative teaching methods are considered.

Keywords: teaching characteristics, anatomy, physiology, educational technologies.

Har bir inson, har bir ota-onaning orzusi va niyati jismoniy va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashdir. Bunga esa jismoniy tarbiya va sportsiz erishib bo'lmaydi.

Shavkat Mirziyoyev

Kirish. Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Chunki sport aholi salomatligini mustahkamlash, yosh avlodni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash orqali jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptiradi. Turli kasalliklar, yoshlar o'rtasida zararli odatlarning oldini oladi. Sport yuksak madaniyat, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda ham muhim o'rin tutadi. Bu sohada erishilgan yutuqlar mamlakatni dunyoga tanitadi, barcha yurtdoshlarga g'urur-iftixor bag'ishlaydi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi bo'lajak mutaxassislar professional standartlarni hisobga olgan holda biotibbiyot fanlari bo'yicha bilimlarga ega bo'lishlari kerak. Jismoniy tarbiya va sport mutaxassisi kasbiy faoliyatining o'ziga xosligi, inson tanasining morfofunktsional xususiyatlarini chuqur tushunishni talab qiladi. Shuning uchun jismoniy madaniyat bakalavriatlarini tayyorlash bo'yicha o'quv dasturida pedagogik komponentni kuchaytirish, ya'ni bitiruvchilarning anatomik, fiziologik va sog'lig'ini saqlash kompetentsiyalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tibbiy-biologik sikl fanlari oliy ta'lim tizimida nafaqat tibbiyot oliy o'quv yurtlari va biologiya fakultetlari talabalariga dars berishda muhim o'rin tutadi. Balki "Jismoniy tarbiya" yo'nalishida tahsil olayotgan bakalavrlar uchun ham anatomiya bo'yicha bilimlar alohida ahamiyatga ega. Turli fakultet talabalariga odam anatomiyasi fanini o'rgatish o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishni nazarda tutadi.

Anatomiya 61010300 - Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarni tayyorlash uchun asosiy o'quv dasturiga kiritilgan muhim tibbiy va biologik fandir. Anatomiya biologiya fanining bir qismi bo'lib, u sitologiya, gistologiya, embriologiya, solishtirma anatomiya, evolyutsion ta'limot va boshqa fanlar bilan uzviy chambarchas bog'liqdir. Hozirgi zamon anatomiya fani odamni harakatdagi holatida ham o'rganadi. Anatomiya fanining maqsadi - salomatlikni saqlash va yaxshilash bo'yicha

talabalarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish davrida patologik sharoitlar va kasalliklar profilaktika qilish, jismoniy tarbiya va sport vositalari va usullaridan foydalanishda ularni ratsionallikni targ'ib qilish, stressdan keyingi tiklanish jarayonlarini optimallashtirish va samaradorlikni oshirish, hayotning faol, ijodiy davrini uzaytirish uchun asosdir.

Anatomiya fani talabalar keyingi semestrlarda o'rganadigan boshqa kurslar: fiziologiya va sport fiziologiyasi, biokimyo va sport biokimyosi, sport tibbiyoti va boshqa fanlar uchun nazariy va uslubiy asosni tashkil qiladi. Bu fanlarni o'rganish inson organizmida muntazam jismoniy faoliyatga moslashish jarayonida sodir bo'ladigan somato-fiziologik o'zgarishlarni tushunish va ilmiy asoslash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi yoki murabbiyining inson a'zolari va tizimlarining morfo-funksional xususiyatlari to'g'risida bilimga ega bo'lmashligi ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilar salomatligi uchun salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari uchun inson anatomiyasini o'qitish tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalar va universitetlarning biologiya fakultetlari talabalariga nisbatan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Farqlar nafaqat ma'ruza, amaliy mashg'ulotlari va mustaqil ishlarga ajratilgan soatlarning kamligida, balki jismoniy tarbiya va sport fakultetlarida qo'llanilmaydigan qattiq ho'l anatomik preparatlar, kadavra materiallari mavjud bo'lmaganda vizual ta'minotda hamdir. Qisqa o'quv muddatlari, katta hajmdagi ma'lumotlar va talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga bo'lgan yuqori talablar bizni ta'lim texnologiyalarini takomillashtirishga, o'quv materialini taqdim etishning yangi shakllarini ishlab chiqishga va joriy etishga majbur qiladi.

Tibbiy-biologik sikl fanlarni o'qitishning ahamiyati asosiy ta'lim dasturida aks ettirilgan: "Anatomiya" fani 61010300 - Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) yo'nalishi bo'yicha o'quv dasturining asosiy qismiga kiritilgan, ta'lim darajasi bakalavr darajasidir. O'quv rejasining o'zgaruvchan qismi boshqa tibbiy va biologik fanlar, ya'ni jismoniy tarbiya va sport fiziologiyasi, biokimyo va sport biokimyosi kabi fanlar bilan to'ldiriladi.

Talabalar uchun amaliy qiziqish uyg'otsa, bilim yanada samaraliroq o'zlashtiriladi. Shuning uchun anatomiya fanlarini o'qitish jarayonida jismoniy faollik ta'sirida sportchining a'zo va tizimlarida sodir bo'ladigan morfofunksional o'zgarishlarga e'tibor qaratiladi. Amaliy mashg'ulotlarda talabalar tana tizimlarining asosiy somatik-fiziologik parametrlarini aniqlash va baholash ko'nikmalariga ega bo'ladilar: yurak-qon tomir, nafas olish, asab, tayanch-harakat apparati. Talabalarning psixofiziologik testlarni o'zlashtirib olishlari va olingan natijalarni sharhlay olishlari ham muhimdir, bu esa bitiruvchilarga mustaqil faoliyat jarayonida o'zlashtirilgan ko'nikmalardan faol foydalanish, muayyan sport turi bo'yicha jismoniy tarbiya o'qituvchisi yoki murabbiy sifatida ishlash imkonini beradi.

Anatomiya eng qiyin o'zlashtirish kurslaridan biri hisoblanadi. Bunday vaziyatda o'qituvchiga ushbu fanlarni o'rganishda muvaffaqiyatli qo'llanilishi mumkin bo'lgan innovatsion texnologiyalar yordamga keladi. Mavjud an'anaviy o'qitish usullarini takomillashtirish va optimallashtirish, yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish "Jismoniy tarbiya" yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga bir akademik darsda inson tanasining alohida tizimining tuzilishi yoki faoliyatini puxta o'zlashtirish va laboratoriya ishlari davomida bu bilimlarni mustahkamlash imkonini beradigan yo'nalishdir. Inson tanasini o'rganishning an'anaviy klassik usullari, masalan, yorug'lik mikroskopiyasi, antropometriya, funksional diagnostika usullari (pulsoksimetriya, miografiya, elektrokardiografiya, spirometriya, psixofiziologik test va boshqalar) bilan bir qatorda darslarda o'qitishning interaktiv usullaridan foydalanish yuqori samara beradi.

Anatomiyaning o'rganishda faqat tayyorgarlik, chizmalar, atlaslar, kitoblardan foydalanish yetarli emas. Odamni kuzatish va o'rganish kerak. Sportchi uchun bunday tadqiqot ayniqsa muhimdir. Amaliy faoliyatida u doimo odam bilan shug'ullanadi. Shuning uchun anatomiyaning o'rganishning butun jarayoni odam tanasini tushunishga qaratilgan bo'lishi kerak. O'z navbatida, bu mushak-skelet tizimiga tegishli. Anatomik namunani ko'rib chiqishda, birinchi navbatda, bu organ odamda joylashgan joyni aniq tasavvur qilish kerak. Suyak shakllanishi, katta bo'g'imlarning bo'shliqlari, mushaklarning holati tashqi yuzaning topografiyasi ahamiyatini tushunish maqsadga muvofiq. Yuzaki mushaklarni palpatsiya qilish orqali ularning holatini aniqlab o'rganishingiz kerak. Qon tomirlari, arteriya tomirlar, nervlar, tananing tashqi yuzasida ularning proyeksiyasini topish kerak, pulsatsiya orqali katta arterial yo'lni aniqlash mumkin.

Anatomiyaning o'rganishda muhim tarkibiy qism o'qitishning aniqligini ta'minlashdir. Interfaol ta'limni amalga oshirish imkonini beruvchi yetarli miqdorda kompyuter texnologiyalari mavjud. Bu murakkab biologik jarayonlarni tushunishni osonlashtiradi, shuningdek, olingan bilimlarni tizimlashtirish orqali katta hajmdagi yangi materialni o'zlashtirishni yanada qulayroq qiladi. Tushuntirish yanada aniqroq bo'ladi. Har bir ma'ruza darsi uchun oddiy anatomiyaning zamonaviy atlaslaridan chizmalarini o'z ichiga olgan multimedia taqdimoti tayyorlanadi. Ba'zi taqdimotlar inson tanasining organlari va tizimlarining uch o'lchovli kompyuter rekonstruksiyasini o'z ichiga oladi. Kompyuter animatsiyasidan foydalanish biologik

material bilan ishlash qiyin bo'lgan ehtiyojni qisman almashtiradi. Inson tanasini 3D modellashtirishdan foydalanish, talabalar nafaqat alohida organlar va to'qimalarning tuzilishi bilan, balki butun tananing faoliyati bilan ham osonlikcha tanishib tushunib olishlari mumkin. Ma'lumki, kompyuter texnologiyalari yordamida tayyorlangan ma'ruzalar talabalar tomonidan yaxshiroq o'zlashtiriladi.

Inson anatomiyasini o'rganishga didaktik yondashuvdagi vazifalardan biri bu birinchi navbatda biotibbiyot mazmunini o'zlashtirishga qiziqishni oshirish zarurati. Bu esa dars jarayonida to'g'ri va samarali metod va usullardan foydalanishni taqozo etadi. Masalan, anatomiya darslarini samaradorligini oshirishda bir nechta ma'ruza turlaridan foydalanish mumkin.

Kirish ma'ruzalari- amaliy mashg'ulotlar uchun zarur bo'lgan asosiy bilimlarning taqdimotini taqdim etadi. Ular anatomianing ma'lum bir qismini tushunish uchun motivatsiya beradi.

Ma'lumotli ma'ruzalar- har bir organ tizimining funksional anatomiyasi bo'yicha to'liq tavsiflovchi o'quv materialini o'z ichiga oladi.

Axborot ma'ruzalari allaqachon tugallangan bir qator amaliy darslarga asoslanadi. Ushbu ma'ruzalarning maqsadi anatomik bilimlarning tegishli fanlarni keyingi o'rganishda dolzarbligini isbotlashdir.

Muammoli ma'ruzalar- anatomik qonuniyatlar, variantlar, anomaliyalar va malformatsiyalarni o'rganishga, tibbiyotning zamonaviy morfologik muammolarini hal qilishda yangi yondashuvlarni shakllantirishga bag'ishlangan. Masalan, tayanch va harakat organlari tizimiga oid ma'ruza kursida suyaklar, bo'g'imlar va mushaklarning tuzilishi, ularning rivojlanishi, skelet tizimining eng ko'p uchraydigan anomaliyalari va malformatsiyalari, individual xususiyatlari haqidagi zamonaviy g'oyalar muhim o'rin tutadi. Mushaklar tuzilishining xususiyatlari, fatsiya va topografik va anatomik shakllanishlarning roliga alohida e'tibor beriladi. Bu jarayonda nazorat muhim rol o'ynaydi. Nazoratning maqsadi - tananing holatini ob'ektiv baholash asosida jismoniy mashqlar jarayonini optimallashtirish. Jismoniy tarbiya jarayonida tananing holatini tashxislash turli xil nazorat turlarini o'z ichiga oladi: tibbiy, pedagogik, lekin o'z-o'zini nazorat qilish alohida o'rin tutadi.

Pedagogik nazorat usullari: talabalarni so'roq qilish, o'quv va o'quv jarayonining ishchi hujjatlarini tahlil qilish, dars davomida pedagogik kuzatishlar, bevosita mashg'ulotlarda mashg'ulotlar bilan shug'ullanadigan talabaning faoliyatini tavsiflovchi funksional va boshqa ko'rsatkichlarni ro'yxatga olish, tayyorgarlikning turli jihatlarini tekshirish, sport ko'rsatkichlarini oqilona bashorat qilish.

Hozirgi vaqtda o'qitishning muhim usullari interfaol o'qitish texnologiyalarini joriy etish bilan bog'liq. Kerakli yuqori ixtisoslashtirilgan adabiyotlarning yetishmasligi muammosini elektron atlaslardan foydalanish orqali oldini olish mumkin. Ular deyarli barcha talabalarga ega bo'lgan planshet yoki noutbukka o'rnatiladi. O'rnatilgan giperhavolalarga ega elektron darsliklar talabaga bir zumda kerakli bo'limlarga o'tish, kerakli rasmlar, jadvallar va diagrammalarni kattalashtirish va yig'ish imkonini beradi. Anatomiya interaktiv ensiklopediyalari va atlaslaridan foydalanish o'rganilayotgan kurs doirasida axborot bazasini to'ldirish va turli komponentlar (video, animatsiya va boshqalar) hisobiga o'qituvchining uslubiy imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi.

Anatomiya bo'yicha o'quv-metodik materiallar talabalarning auditoriya mashg'ulotlariga qatnashmaslik (tanlovlar va o'quv mashg'ulotlarida qatnashish) ehtimolini hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan, ular alohida bo'limlar va fanlarning mavzularini o'rganish bo'yicha batafsil tavsiyalar beradi. Mustaqil o'rganish uchun taqdim etilgan nazariy material bo'yicha tushuntirishlar beriladi. Laboratoriya ishlarini bajarish va loyihalash tuzilmasi batafsil bayon etiladi. Imtihonga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Muqobil usullardan foydalangan holda fanni o'rganishning yana bir ijobiy tomoni - o'tilgan material bo'yicha kompyuter testlari. Ularning yordami bilan talabalar o'z bilimlarini mustaqil ravishda baholaydilar va o'qituvchining yordamisiz tezda natijalarga erishadilar. O'qitishda muammoli masalalarni yechishda talabalarning faol mustaqil faoliyati natijasida bilimlarni egallash va ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beruvchi vaziyatli topshiriqlardan foydalangan holda keys-stadi texnologiyasi ham qo'llaniladi. Anatomiyani o'qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning o'quv materialini idrok etish samaradorligini oshiradi.

Axborot texnologiyalari va kompyuter o'qitish vositalaridan foydalanish ta'lim sifatini sezilarli darajada oshiradi:

- a) o'qitish bilan bog'liq axborot resurslaridan foydalanish vaqtini qisqartirish;
- b) talabalar bilimini nazorat qilish va tahlil qilish vositalarining ishonchligi, xolisligi va tezligini oshirish;
- d) o'quvchilarning o'rganilayotgan materialni idrok etishini faollashtirish va didaktik jarayonga kompyuterda modellashtirish va ko'rsatishni qo'shish;

e) o'z-o'zini tayyorlash sifatini oshirish;

f) o'quv jarayonining strategiyalari va texnologiyalarini takomillashtirish.

Shunday qilib, bugungi kunda ta'lim oluvchini global tapmoq, televizor, kompyuter dasturlaridan foydalanish orqali axborotni idrok etishning yangi turi paydo bo'lmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari uchun an'anaviy ma'lumot manbalari, masalan darslik yoki professor-o'qituvchining nutqi o'z ta'sirini yo'qotmoqda, bu esa o'quv jarayoniga qiziqishning pasayishiga olib keladi. Agar bo'lajak o'qituvchilarning ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda elektron ta'lim resurslaridan foydalanilsa, ularda axborotlar bilan ishlash qobiliyati oshadi, mustaqil izlanish va ijodkorlik qobiliyati rivojlanadi. Shuningdek, professor-o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi munosabatlar o'zgaradi, hamkorlik muhiti paydo bo'ladi hamda muammoli evristik ta'lim va tabaqalashtirilgan o'qitish, rivojlantiruvchi talabalarga yo'naltirilgan ta'lim muhiti hosil bo'ladi.

Jismoniy tarbiya va sport fakultetida inson anatomiyasini o'rganish talabalarni maxsus adabiyotlar va ko'rgazmali qurollardan foydalangan holda mustaqil ta'lim olishga tayyorlaydi, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga xizmat qiladi va bilimlarni amaliyotda - harakatlar texnikasini o'zlashtirish va travmatizmning oldini olish bilan bog'liq vaziyatlarda foydalanishni rag'batlantiradi. Shuning uchun o'qituvchi oldida turgan muammolarni hal qilishda o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish va o'quv jarayonidagi usullarni o'zgartirish kerak.

Zamonaviy o'qituvchilar nafaqat o'z talabalariga dars beradi, balki turli innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda ular o'rtasida o'quv jarayonini osonlashtiradi. Sport anatomiyasining xususiyatlari bilan uyg'unlashtirilgan holda innovatsion yondashuv, ya'ni zamonaviy kompyuter va kommunikatsiya texnologiyalari o'qitishning an'anaviy shakllarini to'ldiradi va anatomiya va informatika fanlarini o'qitishni integratsiyalash g'oyasini amalga oshirishga imkon beradi, bu esa inson anatomiyasini o'qitish tizimiga yondashuvlarni tubdan o'zgartiradi. Innovatsion nazariyaga asoslangan sport anatomiyasi darslari talabalarni o'rganish va o'quv topshiriqlarini bajarish uchun tashabbus ko'rsatishga undaydi qolaversa talabalarning innovatsion qobiliyatini rag'batlantiradi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Olimpiya va paralimpiya harakatini yanada rivojlantirish, ommaviy sportni yangi bosqichga olib chiqish borasida” o'tkazilgan yig'ilishidagi nutqidan.
2. Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi (darslik). T., «Fan va texnologiya», 2008.
3. Raxmonova D.O. Biologiyada ishlatiladigan amaliy innovatsion dasturlar haqida asosiy tushunchalar va ularning imkoniyatlari. Journal of universal science research 27.12.2023. P.625-628
4. Raxmonova D.O. Yosh fiziologiyasi va gigiyena fanini o'qitishda interfaol usullarni qo'llash. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy jurnali. O'zMU xabarlari. 2024 1/6.
5. Raxmonova D.O. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarning raqamli kompetentsiyasini va tibbiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar. T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI Raqamli didaktika va madaniyat: zamonaviy tendensiyalar, yondashuvlar, yechimlar” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallar to'plami T.: Science and Innovation, Toshkent-2024.
6. Кацук Л.Н., Каргалова Е.П., Ботвич Т.А., Момот Л.Н. Интерактивные образовательные технологии в преподавании анатомии. Инновационные технологии в высшем медицинском образовании. Проблемы. Анализ. Суждения. 2013. С. 98–101
7. Литвинова В.В., Колот Н.М. Изучение анатомии человека в свете новых информационных технологий. Проблемы и перспективы. Междуна-родный журнал экспериментального образования. 2014. No10. С. 173–175. URL: https://elibrary.ru/download/elibrary_22308432_80433022.pdf (дата обращения: 20.12.2019).
8. Артюхина А.И., Агеева В.А., Горелик Е.В., Багрий Е.Г., Чеканин И.М., Федотова Ю.М., Орехов С.Н., Мат-веев С.В. Методологические принципы и инновационные методы преподавания дисциплины анатомия человека / Научное обозрение. Педагогические науки. 2016. No6. С. 31-35. URL: <https://elibrary.ru/download/elibrary>
9. Adolf Faller., Michael Schuenke-The Human Body - “An Introduction to Structure and Function” ThiemeStuttgart New York <http://www.bestmedbook.com/2004>
10. The Right Start to a Healthy Life. Contact : i.stegeman @eurohealthnet.eu, c.costongs @eurohealthnet.eu EuroHealthNet, Rue de la Loi 67, 1040 Brussels, Belgium
11. Elaine N Marieb, Katja N. Hoehn Human Anatomy and Physiology (12th Global Edition). US. Pearson 2023. <https://t.me/allomics/1522>

OLIIY TA’LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING MATEMATIK SAVODXONLIK KO’NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING MAVJUD HOLATI

Sadullayeva Iroda Po’lat qizi,
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

Talabalarning matematik savodxonlik ko’nikmalarini rivojlantirishni tashkil etishda alohida yondashuvni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuvda shaxsiy yondashuv ko’pincha tanlov asosida taklif etilgan vazifalar mazmuni orqali amalga oshiriladi. Ushbu maqolada muallif tomonidan bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida talabalar mustaqil ta’lim olish orqali ta’lim samaradorligini oshirish, ularning bilish qobiliyatlarini rivojlantirish bo’yicha fikr yuritilgan.

Kalit so’zlar: mustaqil ta’lim, mustaqil faoliyat, mustaqil ish, oliy ta’lim, natija, analiz, tajriba, ta’lim tizimi, uzluksizlik, talaba.

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ МАТЕМАТИЧЕСКОЙ ГРАМОТНОСТИ СТУДЕНТОВ В ВУЗАХ

Важно внедрить особый подход к организации самостоятельной учебной деятельности учащихся. При таком подходе личностный подход зачастую осуществляется через содержание заданий, предлагаемых на конкурсной основе. В данной статье автор размышляет о повышении образовательной эффективности и развитии их познавательных способностей посредством самостоятельного обучения студентов в высших учебных заведениях сегодня.

Ключевые слова: самостоятельное образование, самостоятельная деятельность, самостоятельная работа, высшее образование, результат, анализ, опыт, образовательная система, преемственность, студент.

THE CURRENT STATE OF DEVELOPMENT OF MATHEMATICAL LITERACY SKILLS OF STUDENTS IN UNIVERSITIES

It is important to implement a special approach to organizing independent learning activities of students. With this approach, the personal approach is often implemented through the content of tasks offered on a competitive basis. In this article, the author reflects on increasing educational efficiency and developing their cognitive abilities through independent learning of students in higher education institutions today.

Keywords: independent education, independent activity, independent work, higher education, result, analysis, experience, educational system, continuity, student.

Globalashuv jarayonining tez sur’atlar bilan rivojlanib borayotgan bugungi davrida, davlatlar va jamiyatlar uchun yangi, dolzarb va keng qamrovli talabalar yuzaga kelmoqda. Jahon miqyosidagi muhim strategik maqsadlarga erishish, yangi yuksak cho’qqilarni zabt etish va rivojlangan davlatlar qatorida o’z o’rnini topish uchun mamlakatlarda yuqori bilim va tajribaga ega, zamonaviy fikrlashga ega kadrlar zarur. Bunday kadrlar jamiyatning rivojlanishida muhim rol o’ynaydi va ularga bo’lgan ehtiyojni qondirish jarayonida inson kapitalining ahamiyati katta. Bu esa, oddiy qilib aytganda, insonlarning salohiyatini kashf etish va uni yuksak maqsadlarga erishishda qo’llash kabi buyuk mas’uliyatni o’z zimmasiga oladi.

Hozirgi kunda oliy ta’limning rivojlanish darajasi, talabalarning o’quv jarayonini samarali tashkil etish uchun yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Bu yondashuvlar o’qituvchi va talabalar o’rtasida interfaol muloqot shakllarini joriy etishni, o’qituvchilarning talabalarning kognitiv va motivatsion qobiliyatlarini rag’batlantirishni, ularning shaxsiy xususiyatlarini va iqtidorlarini rivojlantirishni, shuningdek, talabalarning subyektiv fikrlarini erkin ifodalashlari uchun qulay sharoitlar yaratishni o’z ichiga oladi. Shaxsga yo’naltirilgan ta’limni amaliyotga tatbiq etish ham ushbu jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi.

Respublikamizda talabalarning matematik savodxonligini va salohiyatini rivojlantirish ta’lim sifatini yaxshilash, ilmiy hamda innovatsion faoliyatni samarali yo’lga qo’yishda katta ahamiyatga ega. Ushbu maqsadlarga erishish oliy ta’limda sifatni ta’minlashda raqobatbardosh kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va axborot ta’minotni innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirishni talab qiladi. Oliy ta’lim muassasalarida talabalar kasbiy tayyorgarligi uchun yaratilgan pedagogik shart-sharoitlar, ularning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va mehnat bozoriga muvaffaqiyatli integratsiya

qilishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu shart-sharoitlar ta'lim jarayonining sifatini va samaradorligini belgilovchi asosiy omillarni tashkil etadi.

Matematik savodxonlikni rivojlantirishga oid izlanishlar yo'nalishlari quyidagi ikki asosiy yo'nalishda olib borilmoqda:

Birinchi yo'nalishda matematik tushunchalarning o'ziga xos xususiyatlari ta'riflanadi. Ushbu sohada ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lib, ularda bir necha asosiy g'oyalar aks ettirilgan:

a) Birinchi guruhdagi g'oyalar bolalarning amaliy faoliyatidagi ayrim belgilarni ajratib ko'rsatadi. Masalan, amaliy masalalarni mustaqil ravishda tuzish, bajarish, ijodiy xarakterdagi masalalarni yechish, aniq va yashirin jarayonlarning funksional bog'lanishini tushunib bajarish va boshqa o'ziga xos xususiyatlar.

b) Ikkinchi guruh izlanishlari matematik tushunchalarni shakllantirishning xususiyatlarini bilim boyligi va uni o'zlashtirish darajasi orqali tushuntirishni o'z ichiga oladi.

c) Uchunchisi, matematik tushunchalarni shakllantirishni tarbiyachilarning turli xil masalalarni yechishdagi umumiy qobiliyatlari bilan bog'laydi. Masalan, qo'shmoq, mulohaza qilish, mantiqiy bog'lanishni aniqlash va bilishni o'z ichiga olgan tushunchalar yig'indisi.

Ikkinchi yo'nalishdagi izlanishlar matematik tushunchalarni shakllantirishning mexanizmi, o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va tushuntirishga bag'ishlangan. Ushbu izlanishlarda matematik tushunchalarni shakllantirish shaxsning individual xususiyatlari bilan bog'lanishi ko'zda tutilgan. Bu xususiyatlarga kasbga bo'lgan qiziqish, ijodiy fikrlashning shaxs uchun ahamiyati va yoshga xos bo'lgan xususiyatlar kiradi.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalar kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning hozirgi holati, innovatsiyalarni faol tarzda joriy etish va o'quv jarayonida ilg'or texnologiyalardan foydalanish bilan ajralib turadi. Bugungi kunda talabalar kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda quyidagi muhim jihatlarga e'tiborga olinadi:

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv: Talabalarni o'qitish va baholashda analitik fikrlash, muloqot, jamoaviy ish, raqamli savodxonlik va muammoli ta'lim kabi asosiy kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga e'tibor qaratiladi.

Tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirish: O'quv dasturlarida talabalarning tanqidiy fikrlash, ma'lumotni baholash va murakkab vazifalarni hal qilish qobiliyatini oshirishga alohida urg'u beriladi.

Ta'lim dasturlarining moslashuvchanligi: Zamonaviy ta'lim dasturlari mehnat bozoridagi o'zgarishlarga, shu jumladan yangi kasblar paydo bo'lishiga va mutaxassislarga qo'yiladigan talablarning o'zgarishiga moslashuvchan bo'lishga intiladi.

Ta'limning interfaol metodlari: Talabalarning ijtimoiy, kommunikativ va tashkiliy ko'nikmalarini rivojlantirish uchun guruh loyihalari, keys-stadi, rolli o'yinlar va munozaralar kabi faol va interaktiv o'qitish metodlari joriy etiladi.

Raqamli texnologiyalar integratsiyasi: Onlayn kurslar, virtual laboratoriyalar, hamkorlik platformalaridan foydalanish orqali raqamli texnologiyalar ta'lim jarayoniga integratsiya qilinadi.

Uzluksiz ta'lim va o'z-o'zini rivojlantirish: Talabalarni bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda yangilab turishga, shuningdek, o'zini tarbiyalash va o'zini hurmat qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga undash, professional tadbirlarda ishtirok etishga rag'batlantirish.

Fanlararo yondashuv: Talabalarga turli bilim sohalari o'rtasidagi aloqalarni aniqlash va murakkab masalalarga innovatsion yechimlar topish uchun fanlararo bilim va ko'nikmalarni birlashtirish imkoniyatini yaratish.

Amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim: O'quv dasturlariga amaliy mashg'ulotlar, amaliyot va loyihalar kiritish orqali nazariyaning amaliyot bilan aloqasini mustahkamlash. Bu talabalarga kasbiy faoliyat uchun zarur tajriba va ko'nikmalarni egallash imkoniyatini beradi.

Professional hamjamiyat bilan o'zaro munosabatlar: Tajriba almashish, amaliy qo'llab-quvvatlash va hamkorlik qilish maqsadida kasbiy soha vakillari bilan o'zaro munosabatlar o'rnatish.

Madaniyatlararo kompetensiya: Chet tillarini o'rganish, xalqaro almashinuv va loyihalarda ishtirok etish hamda o'quv dasturlariga madaniyatlararo aspektlarni kiritish orqali talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish.

Zamonaviy pedagogikada o'quv jarayonini tashkil etish shaxsga yo'naltirilgan yondashuv nuqtayi nazaridan doimiy ravishda o'zgarib bormoqda. Ushbu yondashuvda o'qituvchi talaba faqat berilgan materialni qanday o'zlashtirgani va yuklangan vazifalarni qanday hal qilgani bilan qiziqib qolmaydi, balki talabaning o'z oldiga qanday maqsadlar qo'yganligi va ularga qanday yechimlar topishga harakat qilganligi ham muhimdir.

Har bir shaxs o'zining ekzistensial asosida noyobdir. Ammo ushbu tadqiqotda o'quv jarayonining muhim jihatlardan biri sifatida, talabalarning mustaqil ish faoliyatida o'zini anglash jarayonlarini

rag‘batlantirish orqali kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida kasbiy individualizmni rivojlantirishga e‘tibor qaratiladi. O‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonlari quyidagi sohalarida taraqqiyotni qo‘llab-quvvatlash orqali amalga oshiriladi:

O‘Z-O‘ZINI RIVOJLANTIRISH JARAYONI SOHALARI	
Motivatsiyada	ish beruvchilarning so‘rovi va zarur kompetensiyalar ro‘yxatini bilish mustaqil faoliyat uchun maqsad qo‘yish, o‘quv va kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish istagi, ijodiy o‘zini o‘zi anglash ehtiyojini rivojlantirishga yordam beradi;
Intellektda	ijodiy fikrlashni, kasbiy ta‘limni, ijodiy tasavvurni rivojlantirish;
Hissiy sohada	mustaqil faoliyat sharoitida o‘zlarining hissiy holatlarini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
Irodada	faoliyatda qat‘iyatlilik, maqsadlilikni rivojlantirish;
Fan-amaliy sohada	- ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, mustaqil ravishda tanlov qilish, qaror qabul qilish qobiliyati; - izlanish, ijodiy harakatlarini tahlil qilish holatida o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyatini rivojlantirish.

1-jadval. O ‘z-o‘zini rivojlantirish jarayoni sohaları

Umuman olganda, talabalarining kasbiy tayyorgarligini raqamli texnologiyalar yordamida rivojlantirish ta‘lim sifatini yaxshilashga, shuningdek, zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatli karyera uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar va malakalarni oshirishga yordam beradi.

Oliy ta‘lim muassasalarida talabalar kasbiy tayyorgarligi uchun yaratilgan pedagogik shart-sharoitlar, ularning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va mehnat bozoriga muvaffaqiyatli integratsiya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu shart-sharoitlar ta‘lim jarayonining sifatini va samaradorligini belgilovchi asosiy omillarni tashkil etadi. Asosiy pedagogik shart-sharoitlar qatorida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

Ta‘limning innovatsion metodlari: Munozaralar, amaliy tadqiqotlar, loyiha asosida o‘qitish va muammoga yo‘naltirilgan yondashuv kabi zamonaviy faol o‘qitish usullari talabalarga tanqidiy fikrlash, tahliliy ko‘nikmalar va ijodkorlikni rivojlantirish imkonini beradi.

Kasbiy yo‘nalish: O‘quv jarayonini tashkil etishda tanlangan sohada muvaffaqiyatli karyera uchun zarur bo‘lgan kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga e‘tibor qaratish lozim. Bunga zamonaviy o‘quv dasturlari va amaliyotga yo‘naltirilgan kurslarni ishlab chiqish, shuningdek, amaliyot o‘tkazish kiradi.

Mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish: Talabalarni mustaqil ishlashga tayyorlash va mas‘uliyatli qarorlar qabul qilish oliy ta‘limning muhim vazifalaridan biridir. Tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun sharoit yaratish, ma‘lumotlarni tahlil qilish va sintez qilish qobiliyati talabalarining mustaqilligi va kasbiy kompetensiyasini shakllantirishga yordam beradi.

Talabalarni rag‘batlantirish va jalb qilish: Rag‘batlantiruvchi ta‘lim muhiti yaratish, talabalarining iste‘dodi va qiziqishlarini rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratish, shuningdek, turli loyihalar va tanlovlarda ishtirok etish talabalarining o‘quv jarayoniga jalb etilishini oshirishga va ularning kasbiy mahoratini oshirishga yordam beradi.

Qo‘llab-quvvatlash va murabbiylik: O‘qituvchilar talabalarga zarur yordam va maslahatlar berishlari, ularga yangi bilimlarni o‘zlashtirishda va kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda yordam ko‘rsatishlari kerak.

Oliy ta‘lim muassasasining talabalarining innovatsion kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish modeli quyidagi jihatlarni o‘z ichiga olishi mumkin:

Nazariy yondashuv: Talabalar innovatsiyalar nima ekanligini va ular mikro darajada qanday ishlashini tushunishlari kerak. Bu innovatsiyalar nazariyasini, innovatsiyalar tarixi va evolyutsiyasini, shuningdek, har xil turdagi innovatsiyalarni (masalan, mahsulot, jarayon, tashkiliy va boshqalar) o‘rganishni o‘z ichiga olishi mumkin.

Ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish: Nazariy bilimlardan tashqari, talabalar o‘z kasbiy faoliyatida innovatsion bo‘lishlariga yordam beradigan ko‘nikmalarni rivojlantirishlari kerak. Bunga tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, ijodiy fikrlash, loyihalarni boshqarish, aloqa va hamkorlik qobiliyatlari kiradi.

Amaliy dastur: Talabalar o‘z bilimlari va ko‘nikmalarini real hayotda qo‘llashlari kerak. Bunga innovatsion yondashuvni talab qiladigan loyihalarni amalga oshirish, xorijiy kompaniyalarda amaliyot o‘tash yoki amaliyotda qatnashish, tanlovlarda ishtirok etish kabi faoliyatlar kiradi.

Qo‘llab-quvvatlash va mentorlik: O‘quv jarayonida talabalar soha o‘qituvchilari va mutaxassislaridan yordam va murabbiylikka muhtoj bo‘lishi mumkin. Bu ularga o‘z bilimlari va

ko'nikmalarini amalda qanday qo'llashni yaxshiroq tushunishga yordam beradi va ularga qimmatli maslahatlar va tavsiyalar beradi.

Baholash va aks ettirish: Ta'limning har bir bosqichidan so'ng talabalar o'zlarining yutuqlarini baholashlari va o'qishlari haqida fikr yuritishlari kerak. Bu ularga nima qilayotganlarini, qayerda yaxshilanishlari kerakligini va o'z bilimlari va ko'nikmalaridan keyingi innovatsiyalar uchun qanday foydalanishlari mumkinligini tushunishga yordam beradi.

Doimiy yangilanish va moslashish: Innovatsiyalarning tez sur'atlari hisobga olingan holda, o'quv dasturi moslashuvchan va yangilanishga qodir bo'lishi kerak. Bunga o'quv materiallarini doimiy ravishda yangilab turish, yangi mavzular va o'qitish usullarini kiritish, shuningdek talabalar va o'qituvchilarning fikr-mulohazalarini hisobga olish kiradi.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalar kasbiy kompetensiyalarining rivojlanishining hozirgi holati ko'plab omillar, jumladan, ta'lim standartlari, ish beruvchilarning joriy talablari va texnologiyalarning tez sur'atlarda rivojlanishi bilan bog'liq. Bunday sharoitda o'quv dasturlari va o'qitish usullarini doimiy ravishda yangilab, moslashuvchan qilish zarur.

Talabalarining innovatsion faoliyatga kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish uchun ilmiy, uslubiy va tashkiliy chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish va amalga oshirish talab etiladi. Bunga o'quv dasturlarini moslashtirish, yangi o'qitish va baholash usullarini joriy etish, shuningdek raqamli texnologiyalardan faol foydalanish kiradi.

Tadqiqot an'anaviy ta'lim shakllaridan yanada moslashuvchan va innovatsion usullarga o'tish zarurligini ta'kidlaydi. Bu, o'z navbatida, ta'lim sifatini oshirishga va talabalarining zamonaviy jamiyatdagi kasbiy majburiyatlarini muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo'lgan vakolatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Mehnat bozori talablari va mavjud ta'lim dasturlarining mazmuni o'rtasidagi taqqoslash ular o'rtasida tafovut mavjudligini ko'rsatadi. Xususan, ta'lim dasturlari har doim ham bozor talablariga to'liq javob bermaydi, bu esa ularni doimiy ravishda yangilash va moslashtirishni talab qiladi.

Talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning mavjud usullarini samaradorligini baholash shuni ko'rsatadiki, ularning aksariyati zarur innovatsion kompetensiyalarni yetarlicha rivojlantirishni ta'minlamaydi. Bu o'qitishning yangi usullari, vositalari va yondashuvlarini ishlab chiqish va joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot zamonaviy sharoitda bitiruvchilar uchun innovatsion kompetensiyalarning ahamiyatini ta'kidlaydi. Bu talabalarining mehnat bozoriga muvaffaqiyatli moslashishiga hissa qo'shadigan innovatsion tayyorgarlikni yaxshilash bo'yicha keyingi ishlarning muhimligini tasdiqlaydi.

Innovatsiyalarni hisobga olgan holda, oliy ta'lim muassasalarida talabalarni kasbiy tayyorlashning maqsad va vazifalarini shakllantirish kompleks va tizimli yondashuvni talab qiladi. Bu o'quv jarayonining barcha jabhalarida innovatsiyalarni birlashtirishni va talabalarni o'qitish bosqichida faol innovatsiyalarga jalb qilishni o'z ichiga oladi.

Matematik savodxonlikni faollashtirish usullarini tanlash, dars turi, uning ta'limiy va rivojlantiruvchi maqsad va vazifalari hamda dars mazmuniga bog'liqdir. Rag'batlantirish usullari guruhi katta va kichik guruhlarga bo'linadi.

Matematik savodxonlik haqida gapirganda, talabaning unga bo'lgan qiziqishi va istagi, topshiriqlarni bajarishga tayyorligi, ongi, shaxsiy saviyasini oshirish istagi va tizimli o'rganish kabi omillar muhim o'rin tutadi. Bilish faoliyati esa mustaqilliksiz amalga oshirilishi mumkin emas. Bilish faoliyati va mustaqillik bir-biridan ajralmasdir; faol talabalar odatda mustaqildirlar. Agar talabaning o'z-o'zini faolligi past bo'lsa, bu uni boshqalarga qaram qiladi va mustaqillikdan mahrum etadi.

Talabalar faoliyatini boshqarish an'anaviy ravishda faollashtirish deb ataladi. Matematik savodxonlik talabalarni baquvvat, maqsadga muvofiq o'qishga, passiv va stereotipik faoliyatni yengishga, aqliy ishda pasayish va turg'unlikka qarshi kurashishga undovchi jarayon sifatida belgilanadi. Faollashtirishning asosiy maqsadi — talabalar faolligini shakllantirish va ta'lim jarayoni sifatini oshirishdir.

Oliy o'quv yurtlaridagi pedagogik amaliyotda talabalarining bilish faoliyatini faollashtirish uchun turli usullardan foydalanamiz. Ular orasida asosiylari xilma-xil shakl, metod va o'qitish vositalaridir, shu bilan birga, yuzaga keladigan vaziyatlarda talabalar faolligi va mustaqilligini rag'batlantiruvchi birikmalarni tanlashdir. Eng katta faollashtirish ta'siri talabalar o'zlari shakllantirgan munozara va munozaralarda ishtirok etish, o'z fikrlarini himoya qilish kerak bo'lgan vaziyatlarda savollar berish, baholash va do'stlari javoblarini ko'rib chiqish, auditoriyada o'zaro tekshirishlar davomida mutaxassis sifatida harakat qilishda namoyon bo'ladi. Shuningdek, mustaqil ravishda auditoriyadan tashqari ishlar uchun vazifalarni tanlash, o'z-o'zini baholash va shaxsiy yutuqlari tahlil qilish, bilim muammolariga bir necha yechimlar topish, professional

muammolarni hal qilish uchun turli yo‘llarni izlash kabi faoliyatlar faollashtirish jarayonining ajralmas qismlari hisoblanadi.

Qaysi sohada bo‘lmasin, matematik savodxonlikka oid bilimlarni mustaqil ravishda egallashga intilish talaba faoliyatining ta‘lim muassasasidagi eng ajralib turadigan xususiyatidir. Bu, mustaqil o‘qish va bilim o‘rttirishning asosi hisoblanadi. Ta‘lim tizimida mustaqil bilim olish va nazorat qilish mustaqil ta‘lim olishning asosiy omillaridan biridir.

Matematik savodxonlikni egallashda avvalo, talabalarda mustaqil ishlashga, erkin va ijodiy faoliyat yuritishga, eng asosiysi esa mustaqil fikrlashga ehtiyojni shakllantirish lozim. Fanning o‘quv-uslubiy jihatdan qo‘llab-quvvatlanishi, oliy o‘quv yurtining o‘quv jarayoniga raqamli ta‘lim resurslarini joriy etish, o‘quv ta‘limini rivojlantirishga, talabalarni mustaqil ravishda yo‘naltirishga imkon yaratadi. Shuningdek, oliy ta‘lim muassasalari o‘quv jarayonlarida talabalar mustaqil ta‘limining ulushini oshirish zarur.

Oliy ta‘lim muassasalarida talabalarning matematik savodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning mavjud holati mavzusidagi tahlil, mamlakatimizdagi oliy ta‘lim muassasalarida matematik savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan mavjud yondashuvlar, metodlar va muammolarni o‘rganishga asoslangan. Hozirgi kunda talabalar matematik bilimlarni amaliyotga tatbiq qilishda ba‘zi qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Bu holat, asosan, ta‘lim jarayonida innovatsion pedagogik usullar, zamonaviy texnologiyalar va interaktiv o‘qitish metodlarining yetarlicha joriy etilmasligi bilan bog‘liq. Shu bilan birga, matematik savodxonlikni oshirish uchun oliy ta‘lim tizimida turli xil kurslar, mashg‘ulotlar va qo‘shimcha resurslar orqali talabalarni faol ishtirok etishga jalb qilish zarurati ko‘rsatilgan. Buning natijasida talabalar nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni ham mukammal egallash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Kelgusida matematik savodxonlikni rivojlantirish uchun innovatsion o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, muallimlarning malakasini oshirish va o‘quv resurslarini modernizatsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon oliy ta‘lim muassasalarida sifatli ta‘limni ta‘minlash va talabalarni zamonaviy bilimlar bilan ta‘minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Ochilova Z.Sh (2024) Didactic possibilities of teaching specialists on the base of digital educational technologies. // International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS) 8, 5-son 92-98 betlar
2. Ochilova Z.Sh (2024) Talabalarni mantiqiy fikirlash qobiliyatlarni shakllantirish // Ta‘lim va innavatsion tadqiqotlar, 5-son, 215-221
3. Barakayev M., Tojiyev M., Yunusova D., Mamadaliyev K. “Matematika o‘qitish texnologiyalari va loyihalash” Toshkent 2020.
4. Ro‘ziyeva D., Usmonboyeva M., Xoliqova Z. “Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi” Toshkent-2013.
5. Alixonov S. “Matematika o‘qitish metodikasi” Toshkent-2011.
6. Ne‘matova Sh. “Matematika fanini o‘qitishning nazariy masalalari va metodikasi” Toshkent-2012.
7. Yunusova D.I. “Oliy ta‘limda matematika fanlarini o‘qitish metodikasi” Toshkent-2016.

UO’K 37(09)

**OLIV TA’LIMDA KOMPYUTER IMITATSION MODELLAR ASOSIDAGI SMART
TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB TALABALARNING MATEMATIK BILIMLARINI
RIVOJLANTIRISH**

Safarov Abbos Abdurasul o‘g‘li,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti,
Intellektual tizimlar va kompyuter texnologiyalari fakulteti tayanch doktoranti
abbossafarovmatematik@gmail.com

Maqolada dunyodagi yuqori reytinglardan o‘rin egallagan oliy ta’lim muassasalarida elektron ta’lim, xususan, SMART ta’lim asosida o‘quv jarayoning samaradorligini oshirish, talabalarning masofadan ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida ishlab chiqilgan masofaviy ta’lim platformalari tahlil qilingan. Shuningdek, bugungi kunda matematika fanlarini zamonaviy texnologiyalar asosida o‘qitishni tashkil etishda SMART ta’lim elementlaridan foydalanishning afzalliklari, kompyuter imitatsion modellar asosida o‘qitish talabalar va o‘qituvchilar uchun qanday imkoniyatlarni taqdim etishi haqida fikr-mulohazalar yuritilgan. Matematik analizning “Funksiyaning uzluksizligi” mavzusi misolida kompyuter imitatsion modellar asosidagi SMART texnologiyalardan o‘quv jarayonida foydalanish bo‘yicha metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: matematika, ta’lim, matematik analiz, SMART texnologiya, SMART ta’lim, kompyuter imitatsion model, funksiya, limit, uzluksizlik.

**DEVELOPMENT OF STUDENTS' MATHEMATICAL KNOWLEDGE IN HIGHER
EDUCATION THROUGH SMART TECHNOLOGIES BASED ON COMPUTER SIMULATION
MODELS**

This article analyzes distance learning platforms developed to enhance the effectiveness of the educational process and expand students' access to remote learning opportunities, particularly through SMART education, as implemented in top-ranked higher education institutions worldwide. The advantages of using SMART education elements in the teaching of mathematics through modern technologies are discussed, along with the potential benefits that computer simulation-based instruction offers for both students and educators. Methodological recommendations are provided on the integration of SMART technologies based on computer simulation models into the teaching of mathematical analysis, using the topic of "Continuity of Functions" as an example.

Keywords: mathematics, education, mathematical analysis, SMART technology, SMART education, computer simulation model, function, limit, continuity.

**РАЗВИТИЕ МАТЕМАТИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ СТУДЕНТОВ В ВЫСШЕМ
ОБРАЗОВАНИИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ SMART-ТЕХНОЛОГИЙ НА ОСНОВЕ
КОМПЬЮТЕРНЫХ ИМИТАЦИОННЫХ МОДЕЛЕЙ**

В статье проводится анализ дистанционных образовательных платформ, разработанных с целью повышения эффективности учебного процесса и расширения возможностей студентов в получении дистанционного образования, в частности на основе SMART-обучения, применяемого в ведущих вузах мира. Рассматриваются преимущества использования элементов SMART-обучения при преподавании математических дисциплин с применением современных технологий, а также обсуждаются возможности, которые предоставляет обучение на основе компьютерных имитационных моделей для студентов и преподавателей. Приведены методические рекомендации по использованию SMART-технологий на основе компьютерных имитационных моделей в образовательном процессе на примере темы "Непрерывность функции" в математическом анализе.

Ключевые слова: математика, образование, математический анализ, SMART-технология, SMART-обучение, компьютерная имитационная модель, функция, предел, непрерывность.

Dunyoning ko‘plab mamlakatlarida SMART ta’lim muhitini yaratish, SMART ta’limning an’anaviy ta’lim kamchiliklarini takrorlamasligi, vaqt, mablag‘ni tejash kabi qulayliklarga ega ekanligi muhim faktor sifatida baholangan.

Xitoy davlatida veb-platforma asosida matematika SMART repetitorlik tizimi ishlab chiqilgan bo‘lib, u ITS va AutoTutor dan iborat to‘rtta model (domen, repetitorlik, interfeys va talaba modeli) ni o‘z ichiga oladi.

Ushbu tizimda ITS arxitekturasi quyidagi to‘rtta modelini qamrab olgan:

Domen modeli – fan doirasidagi bilimlarni o‘z ichiga oladi,

Repetitorlik modeli – o‘qitish strategiyalarini aniqlaydi,

Tizim interfeysi modeli – foydalanuvchi bilan o‘zaro aloqani boshqaradi,

Talaba modeli – o‘quvchining bilim darajasi va o‘quv jarayonini shaxsiylashtirishga xizmat qiladi.

Bu tizim o‘quvchilarning ta‘lim jarayonini shaxsiylashtirishga va samaradorligini oshirishga qaratilgan [29].

SMART sinflar turli texnologiyalar asosida qo‘yilgan maqsadlarga erishishga imkoniyat yaratadi jumladan:

- masofaviy o‘qituvchilarni oflayn sinfdagi o‘qituvchilar bilan samarali tarzda ishlashini ta‘minlash;
- o‘quvchilarga oflayn sinf muhitida yanada faol ishtirok etish imkoniyatini yaratish;
- tizim bo‘ylab xavfsizlikni ta‘minlash;
- dars materiallarini o‘zlashtirish va takrorlash imkoniyati yaratiladi.

Qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun mavjud texnologiyalar o‘qitish, o‘rganish va sinfdagi interfaollik uchun tabiiy so‘zlovchining gap mazmuniga munosabatini ifodalovchi semantik ifodalarni qo‘llab-quvvatlashi lozim. Shuningdek, ushbu texnologiyalar xavfsiz, ishonchli va yuqori tezlikdagi sinxron/asinxron kontent bilan ta‘minlanishi kerak [3].

Dunyo bo‘yicha o‘qitish sifati va samaradorligi bo‘yicha reytinglarning yuqori o‘rinlaridan joy olgan ta‘lim muassasalarida SMART ta‘lim texnologiyalari asosiy rol o‘ynashini ko‘rish mumkin. Masalan, 2024-yilda dunyoning top-1000 universitetlari qatorida bo‘lgan Massachusett texnologiya instituti, Stenford universiteti, Garvard universiteti kabi ta‘lim muassasalarining SMART ta‘lim texnologiyalari asosida ta‘limni tashkil etish sharoitlarini tahlilini keltirishimiz mumkin [4].

Massachusett texnologiyalar instituti (MTI) raqamli ta‘lim vositalari asosida o‘quv jarayonini tashkil etuvchi ilg‘or ta‘lim muassasalaridan biri hisoblanadi. Ushbu institutning ta‘lim tizimida SMART ta‘limga yondashuvni ko‘rish mumkin. Institut ta‘lim berishning sifat va samaradorligini oshirish maqsadida raqamli resurslar, masofaviy ta‘lim platformalari, interaktiv texnologiyalar va multimedia vositalaridan keng foydalanadi.

MTIning SMART ta‘limga yondashuvi quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

1. “MITx” va “OpenCourseWare (OCW)” – onlayn va ochiq ta‘lim resurslari;
2. “Blended Learning” – an‘anaviy va raqamli ta‘limni uyg‘unlashtirish;
3. “EdX” platformasi – ommaviy ochiq onlayn kurslar;
4. “Technology-Enhanced Classrooms” – zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan sinfxonalar;
5. “MIT App Inventor” – talabalar uchun mobil ilovalarni yaratish muhiti;
6. “Educational Technology Initiatives” – raqamli ta‘limni rivojlantirish tashabbuslari;
7. “Experiential Learning” – loyihalar, amaliy mashg‘ulotlar va tadqiqotlar orqali o‘qitish.

MTIda ta‘lim jarayoni raqamli texnologiyalar, sun‘iy intellekt va ilg‘or o‘qitish usullari yordamida olib borilib ular quyidagilardan iborat:

“MITx” va “OpenCourseWare(OCW)”. Massachusett texnologiyalar instituti tomonidan taklif etilayotgan onlayn kurslar ochiq hisoblanadi. “MITx” platformasida turli sohalarga doir kurslar va resurslar taqdim etiladi. Kurs materiallaridan foydalanish o‘quvchilar uchun juda qulay tarzda tizimlashtirilgan. Bunday platformalar talabalarning mustaqil bilim olish imkoniyatini kengaytiradi.

“EdX” Ommaviy Onlayn Kurslar (MOOCs). Massachusett texnologiyalar instituti “EdX” platformasining muassislaridan biri hisoblanadi. Ushbu platformalarda taqdim etilgan kurslar va resurslardan MTI va boshqa universitet talabalari qatnashish va foydalanish imkoniyatiga ega.

MTI ning zamonaviy sinfxonalari quyidagi texnologiyalar bilan jihozlangan:

- Interaktiv doskalar (smartboards);
- Raqamli displeylar;
- Videokonferensiya imkoniyatlari;
- Real vaqtda ma‘lumotlarni tahlil qilish tizimlari;

Oliy ta‘lim fanlarini o‘qitishda talabalar faolligini oshirish, bilim olishni osonlashtirish interaktiv ta‘lim muhitini yaratishning muhim sharti hisoblanadi. Bunday ta‘lim muhitini yaratishda SMART texnologiyalardan foydalanish ta‘limda sifat va samaradorlikni yangi bosqichga olib chiqishga imkoniyat yaratmoqda.

SMART soʻzi zamonaviy texnologiyalarga nisbatan qoʻllaniladigan atama boʻlib, “aqlli” degan maʼnoni bildiradi. SMART texnologiyalar – interaktiv va raqamli taʼlim vositalaridan foydanib oʻquv jarayonini samarali tashkil etish usullari majmuasidir. Ular talabalarning faolligini oshiradi, vizualizatsiya va interaktiv muhit yaratish orqali bilim olishni osonlashtiradi. SMART texnologiyalar interaktiv doskalar, kompyuter imitatsion modellar, masofaviy taʼlim platformalari va sunʼiy intellekt kabi vositalar asosida taʼlim olishni oʻz ichiga oladi [1].


Quyida biz matematik analiz fanining “Funksiyaning uzluksizligi” mavzusini SMART texnologiyalar asosida oʻqitish boʻyicha ishlab chiqilgan kompyuter imitatsion modellarni keltiramiz.

$f(x)$ funksiya X toʻplamda aniqlangan boʻlib, $a \in X$ toʻplamning limit nuqtasi va $a \in X$ boʻlsin.

1-taʼrif. Agar $x \rightarrow a$ da $f(x)$ funksiyaning limiti mavjud va u $f(a)$ ga teng, yaʼni

$$\lim_{x \rightarrow a} f(x) = f(a)$$

boʻlsa, $f(x)$ funksiya a nuqtada uzluksiz deyiladi.



1-rasm. Funksiya uzluksizligi taʼrifining kompyuter imitatsion modeli

1-rasmda funksiya uzluksizligining taʼrifi kompyuter imitatsion model yordamida koʻrsatilgan. Bunda ekranning chap tomonida taʼrif keltiriladi, oʻng tomonida esa taʼrifdagi soʻz va belgilarga mos chizma tasvirlanadi. Ushbu taʼrifda funksiyaning limiti bilan uning uzluksizlik aniqlanayotgan a nuqtadagi qiymati


teng boʻlishini tushuntirish muhim hisoblanadi. Shu sababali keltirilgan modelda x argument a soniga

intilganda $f(x)$ funksiyaning qiymatlari $f(a)$ ga intilishi jarayonini koʻrsatamiz. Natijada, talabalarda chap

tomondagi matnni oʻng tomonga koʻrsatilayotgan jarayon orqali tasavvur qilib tushunish koʻnikmasi hosil boʻladi (1-rasm).

2-taʼrif (Koshi). Agar istalgan $\varepsilon > 0$ son uchun shunday $\delta = \delta(\varepsilon, a) > 0$ son topilsaki, funksiya argumenti x ning $|x - a| < \delta$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi barcha qiymatlarida $|f(x) - f(a)| < \varepsilon$ tengsizlik bajarilsa, $f(x)$ funksiya a nuqtada uzluksiz deyiladi [2].

Agar istalgan $\varepsilon > 0$ son uchun shunday $\delta(\varepsilon, a) > 0$ (delta epsilon va a ga bog‘liq) son topilsaki, funksiya argumenti x ning $|x - a| < \delta$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi barcha qiymatlarida $|f(x) - f(a)| < \varepsilon$ tengsizlik bajarilsa, $f(x)$ funksiya a nuqtada uzluksiz deyiladi




2-rasm. Funksiya uzluksizligi Koshi ta’rifining kompyuter imitatsion modeli

Kompyuter imitatsion modelda funksiya uzluksizligining “ $\varepsilon - \delta$ ” tilida ta’rifini ko’rsatish jarayonida

$|x - a| < \delta$ va $|f(x) - f(a)| < \varepsilon$ tengsizliklarning grafikda joylashtirilishiga e’tibor qaratiladi. Ya’ni ixtiyoriy ε musbat son uchun shunday $\delta > 0$ soni topilishi kerakki, $(a - \delta, a + \delta)$ intervaldan olingan ixtiyoriy x argumentning $f(x)$ funksiyadagi qiymatlari $(f(a) - \varepsilon, f(a) + \varepsilon)$ intervalda joylashsin (2-rasm).

3-ta’rif. Agar istalgan $\varepsilon > 0$ son uchun shunday $\delta > 0$ son topilsaki, funksiya argumenti x ning barcha $x \in U_\delta(a)$ qiymatlarida $f(x)$ funksiyaning mos qiymatlari $f(x) \in U_\varepsilon(f(a))$ bo’lsa, $f(x)$ funksiya a nuqtada uzluksiz deyiladi (3-rasm) [2].

Agar istalgan $\varepsilon > 0$ son uchun shunday $\delta > 0$ son topilsaki, funksiya argumenti x ning barcha $x \in U_\delta(a)$ qiymatlarida $f(x)$ funksiyaning mos qiymatlari uchun $f(x) \in U_\varepsilon(f(a))$ bo’lsa, $f(x)$ funksiya a nuqtada uzluksiz deyiladi




3-rasm. Funksiya uzluksizligini atroflar yordamida ta’rifiga doir kompyuter imitatsion model

$x - a$ ayirmaga *argument orttirmasi*, $f(x) - f(a)$ ayirmaga esa *funksiyaning a nuqtadagi orttirmasi*

deyladi. Ular mos ravishda, Δx va Δy yoki $\Delta f(a)$ kabi belgilanadi: $\Delta x = x - a$,

$$\Delta y = \Delta f(a) = f(x) - f(a)$$

4-ta’rif. Agar x argumentning a nuqtadagi orttirmasi Δx nolga intilganda $f(x)$ funksiyaning unga mos orttirmasi Δf ham nolga intilsa, ya’ni $\lim_{\Delta x \rightarrow 0} \Delta f = 0$ bo’lsa, $f(x)$ funksiya a nuqtada *uzluksiz* deyiladi (4-rasm) [2].



4-rasm. Funksiya uzluksizligini orttirmalar yordamida ta’rifga doir kompyuter imitatsion model

Yengil atletika mashqlarini aniq tasnifga tushirish uchun uni besh bo'limga bo'lib (yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish va ko'pkurash) tavsiflash maqsadga muvofiqdir. Ular o'z navbatida turlarga, turning xillariga hamda variantlar va masofalarga ajratiladi. Hozirgi vaqtda yengil atletikaning 47 turi Olimpia o'yinlari dasturiga kiritilgan.

Natija va Muhokamalar. Yengil atletika ommaviy sport turi sifatida jismoniy faollikni oshirish va sog'lom turmush tarzini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Ushbu sport turi:


- Jismoniy sog'liqni mustahkamlashga xizmat qiladi. Yurak-qon tomir tizimini mustahkamlaydi, chidamlilikni oshiradi va umumiy, jismoniy tayyorgarlikni yaxshilaydi.

Turli yoshdagi kishilar uchun mos keladi. Bolalar, o’smirlar, kattalar va keksa yoshdagi insonlar ham shug’ullanishlari mumkin. Ijtimoiy jihatdan ham foydalidir. Jamoaviy musobaqalar va mashg’ulotlar orqali insonlar o’zaro muloqot qilib, ijtimoiy hayotda faollashadilar.

Yengil atletikaning Olimpia o’yinlari dasturiga kiritilgan turlari

Bo’limlar	Turi	Turning xillari	Variantlar, usullar va masofalar	
			Erkaklar	Ayollar
YURISH	Sportcha yurish	O’yingoh yo’lkalarida va shosselarda	20, 50 km.	20 km.
YUGURISH	Qisqa masofalarga yugurish	O’yingoh yo’lkalarida	100, 200, 400 m.	100, 200, 400 m.
	O’rta masofalarga yugurish	O’yingoh yo’lkalarida	800, 1500 m	800, 1500 m
	Uzoq va o’ta uzoq masofalarga yugurish	O’yingoh yo’lkalarida	5000 m, 10 000 m	5000 m, 10 000 m
	Marafon yugurish	O’yingoh yo’lkalarida va shosselarda	42 195 m	42 195 m
	Sun’iy to’siqlardan osha yugurish	O’yingoh yo’lkalarida	110 m g’/o, 400 m g’/o	100 m g’/o, 400 m g’/o
	Tabiiy sharoitlarda yugurish	O’yingoh yo’lkasida to’siqlari osha yugurish	3000 m to’siqlar o’yu	3000 m to’siqlar o’yu
	Estafetali yugurish	O’yingoh yo’lkalarida	4x100 m, 4x400 m	4x100 m, 4x400 m
SAKRASH	Yugurib kelib vertikal to’siqlardan sakrash	O’yingoh sektorida	Yugurib kelib balandlikka sakrash	Yugurib kelib balandlikka sakrash
			Yugurib kelib balandlikka Langarcho’p bilan sakrash	Yugurib kelib balandlikka Langarcho’p bilan sakrash
	Yugurib kelib gorizontal to’siqlardan sakrash	O’yingoh sektorida	Yugurib kelib Uzunlikka sakrash,	Yugurib kelib Uzunlikka sakrash,
			Yugurib kelib Uzunlikka uch hatlab sakrash	Yugurib kelib Uzunlikka uch hatlab sakrash
ULOQTIRISH	Bosh ortidan boshlab uloqtirish	O’yingoh sektorida	Nayza	Nayza
	Aylanib uloqtirish	O’yingoh sektorida	Bosqon uloqtirish,	Bosqon uloqtirish,
			Disk uloqtirish	Disk uloqtirish
	Itqitish	O’yingoh sektorida	Yadro itqitish	Yadro itqitish
KO’PKURASH	O’yingoh yo’lkalarida va sektorlarida	O’yingoh sektorida	O’nkurash (100 m, uzunlikka sakrash, disk uloqtirish, balandlikka sakrash, 400 m yugurish, 110 m g’/o yugurish, yadro itqitish, langarcho’p bilan sakrash, nayza uloqtirish va 1500 m yugurish (2 kunda).	Ettikurash (100 m, uzunlikka sakrash, disk uloqtirish, balandlikka sakrash, 100 m g’/o, yadro, nayza uloqtirish va 800 m yugurish (2 kunda).

Yuqorida keltirilgan jadvaldagi tasnifda bizning vatanimiz va xorijiy mamlakatlarda faqat ochiq havoda o'tkaziladigan musobaqalarga kiritiladigan asosiy turlar berilgan, yopiq sport saroylarida esa qisqartirilgan masofalarda musobaqalar tashkil qilinadi.



Yengil atletika jismoniy tarbiya tizimining ajralmas qismi bo‘lib, insonning umumiy, jismoniy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu sport turi chidamlilik, tezkorlik, kuch va muvozanatni shakllantirish bilan birga, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishda ham muhim rol o‘ynaydi.

Jismoniy tarbiya darslarida yengil atletikadan samarali foydalanish talabalar va o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishga yordam beradi. Bu esa nafaqat sport natijalarini yaxshilash, balki umumiy hayot sifatini oshirishga ham xizmat qiladi. Shuningdek, yengil atletika boshqa sport turlarining rivojlanishi uchun ham muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli, jismoniy tarbiya tizimida ushbu sport turiga ko‘proq e’tibor qaratish, innovatsion metodlarni joriy etish va infratuzilmani yaxshilash zarur.

Umuman olganda, yengil atletika jismoniy tarbiya tizimidagi asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida inson salomatligini mustahkamlash va sportga bo‘lgan qiziqishni oshirishda muhim o‘rin tutadi.

Adabiyotlar:

1. Qudratov R. Q. Yengil atletika. Toshkent - 2010 yil.
2. Смурыгина Л.В. Введение научных исследований в лёгкой атлетике. Ташкент, 2013 – год.
3. Shakirjanova K.T. Oliy ta’lim muassasalarida yengil atletika bo‘yicha fakultativ mashg‘ulotlar. / O‘quv qo‘llanma / - T.: 2009 - yil.
4. Shokirjonova K.T., Soliyev I.R. «Baryerlar osha yugurishga o‘rgatish texnikasi va usuliyoti» Toshkent 2011 - yil.
5. Abdullayev Mehriddin Junaydulloyevich. Yengil atletika (o‘rta va uzoq masofalarga yuguruvchilar uchun murabbiyining kasbiy - pedagogik faoliyati) O‘quv qo‘llanma. T: - “Durdona” nashriyoti, 2015 - yil.
6. Abdullayev M.J., Olimov M.S., To‘xtaboyev N.T. Yengil atletika va uni o‘qitish metodikasi. (Darslik). - T.: “Barkamol fayz media”, 2017, 628 bet.
7. To‘xtaboyev N.T. Jismoniy tarbiya mutaxassislarining kasbiy mahoratini rivojlantirish o‘quv - uslubiy qo‘llanma/ - T.: 2010 - yil.

**“BUXORO-W” FUTBOL JAMOASINING MUSOBAQALARDAGI SPORT
NATIJALARINING ILMIY-PEDAGOGIK TAHLILI**

Ibragimov Manuchexr Baxtiyorovich,

Buxoro davlat pedagogika instituti

“Jismoniy tarbiya va sport” kafedrası dotsenti, p.f.b.f.d. (PhD)

G`aniyeva Zebiniso Halim qizi,

Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti 1-bosqich magistranti

Ushbu maqolada yuqori malakali ayol futbolchilarning musobaqalarda tayyorgarlik jarayoni, “Buxoro-W” professional futbol klubining O‘zbekiston chempionatdagi natijalari, musobaqalardagi texnik-taktik harakatlari samaradorligi chuqur tahlil etilgan. Ushbu tadqiqot ishlari ushbu futbol jamoasi bazasida 2011-2021-yillar davomida olib borilgan. Shu bilan birga ushbu futbolchilarning jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarining o‘zgarish dinamikasi tahlil qilingan. Tadqiqot ishida “Buxoro-W” professional futbol klubining kelajakdagi natijalari prognozi olib borilgan. Bundan tashqari futbol bo‘yicha murabbiylar bilan o‘tkazilgan anketa so‘rovi natijalari tahlili ham keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *yillik sikl, rejalashtirish, yuklama, pedagogik tahlil, tayyorgarlik davri, o‘tish davri, umumiy tayyorgarlik, jismoniy tayyorgarlik.*

**НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СПОРТИВНЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ
ФУТБОЛЬНОЙ КОМАНДЫ” БУХАРА-W " В СОРЕВНОВАНИЯХ**

В данной статье подробно анализируется процесс подготовки высококвалифицированных футболисток к соревнованиям, результаты профессионального футбольного клуба “Бухара-W” в чемпионате Узбекистана, эффективность технико-тактических действий на соревнованиях. Эта исследовательская работа проводилась на базе этой футбольной команды в период с 2011 по 2021 год. При этом анализировалась динамика роста показателей физической подготовленности этих игроков. В исследовательской работе был сделан прогноз будущих результатов профессионального футбольного клуба” Бухара-W". Также приводится анализ результатов анкетного опроса, проведенного с футбольными тренерами.

Ключевые слова: *годовой цикл, планирование, нагрузка, педагогический анализ, подготовительный период, переходный период, общая подготовка, физическая подготовка.*

**SCIENTIFIC AND PEDAGOGICAL ANALYSIS OF THE SPORTS RESULTS OF THE
BUKHARA-W FOOTBALL TEAM IN COMPETITIONS**


This article provides an in-depth analysis of the preparation process of highly qualified women players in competitions, the results of the Bukhara-W professional football club in the Championship of Uzbekistan, the effectiveness of technical and tactical actions in competitions. This research work was carried out at the base of this football team during the period 2011-2021. At the same time, the dynamics of the growth of physical fitness indicators of these players were analyzed. The research work carried out a forecast of the future results of the Professional Football Club “Bukhara-W”. In addition, an analysis of the results of a poll of football coaches was also cited.

Keywords: *annual cycle, planning, loading, pedagogical analysis, preparatory period, transitional period, general training, physical training.*

Kirish. Yuqori malakali futbolchi ayollarning O‘zbekiston oliy ligasidagi musobaqalardagi muvaffaqiyatli ishtirok etishi ko‘pgina omillarga, jumladan, ularning jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligiga bog‘liq. Futbolchilarning yillik sikldagi mashg‘ulot yuklamalarini samarali rejalashtirilishini o‘ziga xos omili, musobaqada texnik-taktik harakatlarning ijobiy o‘zgarishi va jismoniy tayyorgarligining yuqori darajada namoyish etishni ko‘zda tutib mo‘ljallash olish kerak.

Pedagogik tahlilni tashkil etish: “Buxoro-W” ayollar futbol jamoasining mashg‘ulot yuklamalarini rejalashtirilishi, texnik-taktik tayyorgarligi va Oliy liga musobaqalarida ishtirokini baholash maqsadida pedagogik tahlil o‘tkazildi. Tahlil 10 yillik oralig‘idagi ma‘lumotlarga asoslanib o‘tkazildi. Ushbu pedagogik tahlilda “Buxoro-W” jamoasining milliy chempionat musobaqalardagi natijalari ko‘rib chiqildi. “Buxoro-W” jamoasini ishtiroki O‘zbekiston futbol assotsiatsiyasi va Buxoro viloyati futbol assotsiatsiyasi tomonidan

taqdim etilgan ma'lumotlar asosida aniqlangan. 2011-yilgi chempionat davomida futbolchilar muvaffaqiyatli qatnashib, 3-o'rinni egallagan. Ushbu mavsumda jamoada ko'plab mahoratli futbolchilar to'p surishgan. Mutaxassislar tomonidan mashg'ulot jarayonlari yuqori darajada rejalashtirib tashkil etilgan. 2015-yilgi mavsumda jamoa 8-o'rinni olishga sazovor bo'lgan. Ushbu chempionatda yuqori malakali futbolchilarning natijalari biroz pasayganini ko'rishimiz mumkin. Ushbu chempionatda asosan oldingi futbol mavsumidagi futbolchilar qatnashganligini ko'rishimiz mumkin. 2019-yilgi yillik tayyorgarlik sikldagi mashg'ulot yuklamalari, sportchilarning texnik-taktik tayyorgarligi, antropometrik ko'rsatkichlari, musobaqadagi ishtiroki va boshqa pedagogik jihatlari o'rganildi. Jamoa chempionatda 12-o'rinni egallagan. Tahlil etilgan ma'lumotlarga ko'ra yillik sikldagi mashg'ulot yuklamalarini samarali rejalashtirilmaganligini ko'rish mumkin. Yuqori malakali futbolchi ayollarning ko'plab ko'rsatkichlari yaxshi darajada emasligi ma'lum bo'ldi (1-rasm).



1-rasm. “Buxoro-W” jamoasining O‘zbekiston chempionatdagi o‘rni


Tahlil etilgan ma'lumotlar va faktlar asosida biz 2020-yilgi mavsum uchun yillik tayyorgarlik sikldagi samarali dasturlarni ishlab chiqdik. Ushbu dasturlar “Buxoro-W” jamoasining yillik tayyorgarlik siklida joriy qilindi. Natijada futbolchilar futbol mavsumini 9-o'rinda yakunladi. Sportchilarning chempionatdagi o'yinlari ijobiy tomonga o'zgardi va bu o'zining samarasini berdi. Ishlab chiqilgan va takomillashtirilgan yillik tayyorgarlik sikldagi dasturga asosan “Buxoro-W” jamoasi 2024-yilgi chempionatning kuchli beshtaligiga kirishi mo'ljallangan.

Yuqori malakali futbolchi ayollarning 2011-yil mavsumdagi tahlillarga asosan “Buxoro-W” jamoasi sportchilarning o'rtacha yoshi 29 ga teng bo'lgan. Jamoada tajribali sportchilarning to'planishiga yana bir marta guvohi bo'lishimiz mumkin. Ularning ayrimlari esa o'sha yillarda O'zbekiston ayollar milliy terma jamoasi a'zosi hisoblangan. Futbolchilarning o'rtacha bo'yi 170 sm.ga teng bo'lgan. Bu ko'rsatkich ularning antropometrik ko'rsatkichlari yaxshi darajada ekanligini ko'rsatadi. O'sha yilgi mavsumda jamoada 20 ta futbolchi faoliyat olib borgan.

2015-yilgi mavsumdagi sportchilarning o'rtacha yoshi 31 yoshga teng bo'lgan. Ularning o'rtacha bo'yi aniqlanganda 169 sm.ga teng ekanligini ko'rishimiz mumkin. O'sha mavsumda ham jamoada 20 ta futbolchi to'p surishgan.

Tahlil etilgan va tadqiqot olib borilgan 2019-yilda sportchilarning o'rtacha yoshi 23 yoshga va o'rtacha bo'yining balandligi 167,5 sm.ga teng ekanligi aniqlangan. Jamoaga 22 nafar yuqori malakali futbolchi jalb etilgan.


2020-yilgi tadqiqotlarda “Buxoro-W” jamoasi futbolchi ayollarning o'rtacha yoshi 24 yoshni, o'rtacha bo'yining balandligi esa 168 sm. ni tashkil etdi (2-rasm).



2-rasm. “Buxoro-W” jamoasining antropometrik ko'rsatkichlari.

Olib borilgan tadqiqotimiz davomida biz 2024-yilgi mavsumda yuqori malakali futbolchi ayollarning o'rtacha yoshi 22 yoshga teng bo'lishi, jamoadagi ayol futbolchilarni bo'yi o'rtacha 172 sm.ga teng bo'lishi mo'ljallangan. Ayollar futbolida sportchining bo'yi katta ahamiyatga ekanligi amaliyotda o'z tasdig'ini topgan. Ushbu yilda jamoaga 25 nafar futbolchi ayollar jalb qilinishi rejalashtirilgan.

Pedagogik tahlil davomida “Buxoro-W” futbolchi ayollarining 2011-yilgi mavsumdagi texnik-taktik harakatlari ko'rsatkichlari ham o'rganildi. Ushbu yilda yuqori malakali futbolchi ayollarning har biri bir o'yinda o'rtacha 44 ta TTH qilganligini aniqlandi (3-rasm).




3-rasm. Futbol mavsumidagi ayol futbolchilarning o'rtacha individual TTH ko'rsatkichlari

2015-yilgi mavsumda sportchilar har bir o'yinda o'rtacha 41,5 ta TTH bajargan. 2019 yilgi mavsum o'yinlarida futbolchilarni bu ko'rsatkichi o'rtacha 41 ta TTH tashkil qilgan. 2020 yilgi tadqiqotlarda yuqori malakali futbolchi ayollarning individual TTH ko'rsatkichlari 47,1 taga yaxshilanganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu harakatlarda aniq harakatlar foizi ham yaxshilanganligi ishimizning IV-bobida ko'rsatib o'tilgan. Yillik tayyorgarlik siklda mashg'ulot yuklamalari biz tavsiya etgan dastur asosida olib borilganda 2024 yil mavsumdagi ayollar oliy ligasi chempionatida har bir o'yinda o'rtacha TTH soni 56,2 yuqori bo'lishi rejalashtirilgan.

Yuqori malakali futbolchi ayollarning 2011-yilgi jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatdiki, sakrovchanlik qobiliyatining rivojlanganlik darajasini aniqlash maqsadida turgan joyidan uzunlikka sakrash bo'yicha test 210 sm.ni tashkil etgan.

2015-yilda ushbu ko‘rsatkich 205 sm.ga, 2019 va 2020-yillardagi test natijalari esa 197 sm va 220 sm. atrofida bo‘lgan.


Qolgan pedagogik harakatli test natijalarida ham e‘tiborli o‘zgarishlar kuzatilgan. Ya‘ni 10 m. yugurish testida 2,04 soniyani, 30 m. yugurishda o‘rtacha 4,9 soniyani, 7×50 m. mokisimon yugurish bo‘yicha o‘rtacha 72,7 soniyani tashkil etdi (4-rasm).



4-rasm. Jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari.

Yillik tayyorgarlik siklda mashg‘ulot yuklamalari tavsiya etilgan dasturlar asosida olib borilganda va muntazam kerakli qo‘shimchalar kiritilsa 2024-yilda ushbu sportchilar turgan joyidan uzunlikga sakrash bo‘yicha olinadigan natija o‘rtacha 225 sm.ga, 10 metrga shiddat bilan yugurish bo‘yicha olinadigan natija o‘rtacha 1,89 soniyaga, 30 m.ga yugurish bo‘yicha olinadigan natija o‘rtacha 4,3 soniyaga va 7×50 m.ga mokisimon yugurish bo‘yicha olinadigan natija o‘rtacha 66 soniyaga oshishi rejalashtirilgan.

Pedagogik tahlilimizda “Buxoro-W” futbolchi ayollarining milliy terma jamoada o‘ynagan sportchilari haqida ham aniqlik kiritdik. 2011-yilgi mavsumda jamoada Yekaterina Langayeva, Oliya Akramova va Aziza Norovalar terma jamoaga jalb qilingan. 2015 yilgi mavsumda Oliya Akramova jalb qilingan. 2019-yilda Seytmirova Soxibabonu terma jamoaga jalb qilingan. 2020-yilgi mavsumda jamoadan Seytmirova Soxibabonu va Sabina Amanovalar bu ro‘yxatda joy egallagan (5-rasm).



5-rasm. Milliy terma jamoa o‘yinchilari soni

“Buxoro-W” futbolchi ayollar jamoasi 2024-yilgi mavsumda milliy terma jamoaga 5 nafar futbolchini tayyorlab berishi rejalashtirilgan. Ushbu rejani amalga oshirish maqsadida bugungi kunda trenerlar yoshlar bilan keng tarmoqli ishlarni olib bormoqdalar.

Bundan tashqari futbol bo‘yicha murabbiylar bilan o‘tkazilgan anketa so‘rovi natijalari tahlili keltirib o‘tilgan. Bugungi kunda ayollar futbolida ko‘p yillar davomida yillik siklda sport mashg‘ulotlarini

rejalashtirishning turli yo‘nalishlari, sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasida asosiy o‘rinlardan birini egallab kelmoqda.


Davriylashtirish nazariyasining asosiy qoidalaridan biri shundaki, “sport formasi”ning to‘liq rivojlanish holati tayyorgarlik jarayonining davomiyligi bilan belgilanib, bu esa bir yoki yarim yillik sikllarda ta‘minlanishi mumkin. Yarim yildagi kichik sikllar, katta sikl mashg‘ulotlari uchun juda qisqa hisoblanadi. Bularning barchasi futbol nazariyasi va metodologiyasiga ta‘lluqlidir, juda uzoq muddatli musobaqa davri yil davomida mashg‘ulot jarayonini to‘g‘ri rejalashtirish kerakligini talab qiladi.

Yuqori malakali futbolchi ayollarni yillik siklda tayyorlashda mashg‘ulot yuklamalarini rejalashtirish hamda samarali taqsimlash katta ahamiyatga ega. Lekin mutaxassislar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnomaizdan yillik siklda tayyorlashda rejalashtirilgan mashg‘ulotga bo‘lgan munosabat bir xil emasligi aniqlandi.

Tadqiqotlar davomida 50 nafar mutaxassislar o‘rtasida anketa so‘rovi o‘tkazildi. Ulardan 1 nafari “PRO”, 11 nafari “A”, 20 nafari “V” va 18 nafari “S” lisenziyalariga ega bo‘lib, anketa so‘rovnomasida qatnashgan murabbiylarning o‘rtacha ish staji $16 \pm 4,2$ yilni, futbol sohasidagi mutaxassislarniki esa $19 \pm 2,2$ yilni tashkil etdi.

So‘rovnomada har bir javob variantida mutaxassislarning fikri, muloxazalari inobatga olindi.


1. Respondentlarning 72%i yuqori malakali futbolchi ayollarni yillik tayyorgarlik siklda mashg‘ulot yuklamalarini rejalashtirishni ilmiy asoslangan jihatdan yondashib olib borish kerakligini e‘tirof etdi. 28% so‘raluvchilar amaliy tajribalarga tayanib, olib borishni ta‘kidlab qayd etdilar (6-rasm). Ko‘rinib turibdiki, hozirgi paytda yillik siklda mashg‘ulot yuklamalarini rejalashtirishni ilmiy jihatdan yondashishni amalga oshirishning amaliy jihatlari to‘g‘risida bir tizimga kelinmaganligi o‘tkazilgan so‘rovnomalardan ma‘lum bo‘ldi.



6-rasm. Yillik siklda mashg‘ulot yuklamalarini rejalashtirishni ilmiy asoslangan jihatdan yondashishni amaliy jihatlari


2. “Yillik siklning qaysi bosqichida futbolchilarni tayyorlash siz uchun boshqa davrlarga nisbatan qiyinroq kechadi?” - degan savolga 38% respondent tayyorgarlik davri, 36% murabbiy musobaqa bosqichi hamda 26% o‘tish davrida tayyorlash qiyinroq kechadi deb ta‘kidladilar.

3. “Yuqori malakali futbolchi ayollarni yillik tayyorgarlik siklga tayyorlashda ta‘sir qiluvchi omillarga nimalar kiradi?” - degan savolga 26% respondent organizmning moslashish qonuniyati va tiklanish xususiyatini, 22% murabbiyning shaxsiy malakasi va boshqalar hamda 52% taqvimning ta‘sir qilishini bildirishgan (7-rasm).



7-rasm. Yuqori malakali futbolchi ayollarni yillik siklga tayyorlashda ta'sir qiluvchi omillar

4. “Musobaqa davrida necha kunlik mikrosikllar mashg‘ulot yuklamalarini rejalashtirishda samarali deb hisoblaysiz?” - degan savolga 76% respondent 7-kun, 18% 6-kun hamda 6% 5-kunlik sikllarda mashg‘ulot yuklamalarini rejalashtirish samarali ekanligini ta’kidlashgan (8-rasm).




8-rasm. Musobaqa davrida necha kunlik mikrosikllar mashg‘ulot yuklamalarini rejalashtirishda samarali deb hisoblaysiz?

5. Yuqori malakali futbolchi ayollarning jismoniy tayyorgarlik holatini baholashda testlardan foydalanish samarali deb hisoblaysizmi? - degan savolga 82% ha va 18% respondent yo‘q deb javob berganlar.

6. “Jismoniy tayyorgarlikni rivojlanganlik darajasini aniqlash maqsadida qanday nazorat testlaridan foydalanasiz?” - degan savolga 74% respondent yengil yugurgan holatdan 10 va 30 m.ga shiddat bilan yugurish, “7×50 m.ga mokisimon” yugurish, turgan joydan uzunlikka sakrashdan, 22% sanab o‘tilgan testlardan tashqari, 15 m.ga, 50 m.ga, 60 m.ga yugurishdan, 4% - umuman test sinovlardan foydalanmasliklari ma’lum bo‘ldi.

7. “O‘tish davrining haftalik siklda mashg‘ulot yuklamalarining taqsimlanishi ixtisosligi bo‘yicha qaysi mashqlar nisbatan ko‘proq o‘tkazilishi kerak deb o‘ylaysiz?” - degan savolga 72% respondent nomaxsus mashqlardan, 28% - maxsus mashqlar qo‘llanilishini qayd etgan (9-rasm).



9-rasm. O'tish davrining haftalik siklda mashg'ulot yuklamalarining taqsimlanishi

8. Yillik tayyorgarlik siklda mashg'ulot yuklamalarini samarali rejalashtirishda o'tish davri necha kundan iborat bo'lishi kerak deb hisoblaysiz? - degan savolga 4 % respondent 7-10 kun, 66% respondent 14-15 kun, 22% murabbiylar 18-21 kun va 8% lari esa 21 kundan iborat bo'lishi kerak deb ta'kidladilar.

- A) 7-10 kun
- B) 14-15 kun
- V) 18-21 kun
- G) 21 kundan ortiq.

9. Yillik tayyorgarlik siklda mashg'ulot yuklamalarini samarali rejalashtirish futbolchilarning musobaqa davridagi texnik-taktik harakatlari ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir qiladi deb hisoblaysizmi? degan savolga 78% ha va 22 % respondent yo'q deb javob berganlar.

10. Yillik sikldagi tayyorgarlik (umumiy tayyorgarlik) davrining haftalik sikllarida mashg'ulot yuklamalarining taqsimlanishi ixtisosligi bo'yicha qaysi mashqlardan ko'proq foydalanish kerak deb o'ylaysiz? - degan savolga 68% respondent nomaxsus mashqlardan, 22% - maxsus mashqlar ko'proq qo'llanilishini qayd etgan.

Xulosa. Mazkur tadqiqotdan olingan ma'lumotlar asosida yuqori malakali futbolchi ayollarni yillik sikl tayyorgarligida mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirishning pedagogik jihatlarini o'rganildi va tahlil etildi. Tahlil natijasida shuni xulosa qilish mumkinki, yuqori malakali futbolchi ayollarning mashg'ulot yuklamalarini optimal rejalashtirilsa, futbolchilarning chempionatdagi o'yinlar natijasi yaxshilanadi, jismoniy tayyorgarlik holati o'sadi, o'yindagi texnik-taktik harakatlar soni oshishi isbotlab berildi.

Adabiyotlar:

1. Allamuratov Sh.I. Fiziologiya va sport fiziologiyasi. T., 2010. - 216 b.
2. Volkov V.M. Fiziologicheskiye osobennosti organizma jencin v svyazi s zanyatiyami fizicheskimi uprajneniyami i sportom. Fiziologiya cheloveka. - M.: FiS, 1994. - 174 s.
3. Lyu Si. Fizicheskaya podgotovka futbolistok vysshey kvalifikatsii v podgotovitelnom periode na osnove ispolzovaniya statodinamicheskix silovyx uprajneniy i intervalnogo metoda trenirovki. diss. kand. ped. nauk. - M., 2016. - 120 s.
4. Sibila M. Vpliv antrpjpmetricnih znacilnosti, osnovno in specialno motoricnih ter fimkcionaknih sposobnosti na uspeh v rokometni igri. - Magistrska naloga, Fakulteta za sport, Ljubljana, 1995. - P. 15-16.
5. Talipdjanov A., Ne'matov B., Nazarov S. Yuqori malakali futbolchilarni musobaqa va mashg'ulot faoliyatini nazorat qilish. O'quv qo'llanma. -Toshkent. UMID DESIGN, 2021. 176 - b.

TURLI DARAJADAGI SKOLIOZ TASHXISI QO‘YILGAN TALABALARNING EMOTSIONAL IRODAVIY HOLATLARI

Nurullayev Abdurashid Ro‘zimboyevich,

Buxoro davlat universiteti

“Sport nazariyasi va metodikasi” kafedrası dotsenti

Maqolada turli darajadagi skolioz tashxisi qo‘yilgan talabalarining emotsional irodaviy holatlari, skolioz bilan og‘rigan talabalar hissiy jihatdan noto‘g‘ri moslashishni boshdan kechiradilar, bu ehtiyojni qondirishga urg‘u beradigan yuqori darajadagi tashvishli namoyishlar, ruhiy holat o‘zgarishlari kasallikning og‘irligi va tuzilishiga qarab, "skolioz" kasalligi kognitiv jarayonlar va shaxsiy xususiyatlarga ta‘sir qilishi mumkinligi, skolioz bilan og‘rigan talabalar hissiy jihatdan noto‘g‘ri moslashish, inson hayot sifatini baholash nuqtayi nazaridan, qayd etilgan shaxsiy xususiyatlar inson hayotiga salbiy ta‘sir qiladi. Muammolar hozirgi vaqtda psixosomatikaga yetarlicha e‘tibor berilmaydi va tizimli ilmiy ishlanmalarga qiziqish nuqtayi nazaridan, skolyoz bilan og‘rigan shaxslar, ularning psixologik xususiyatlari ilmiy tadqiqotlar mavzusi bo‘lib, ular xohlagancha tez-tez bo‘lmagan. Ruhiy salomatlik "psixosomatika" tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lmagan alohida kontekstda ko‘rib chiqildi". Xuddi shunday, tayanch-harakat tizimida kasalligi bo‘lgan shaxslarning jismoniy salomatligi masalalari ham ko‘rib chiqildi. Jismoniy holatning individual tarkibiy qismlari baholandi-vazn tezligi ko‘rsatkichlari, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy ishlash, funksional holat to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: iroda, jismoniy, harakat, mashq, skolioz, emotsional, ruhiy, kasallik.

ЭМОЦИОНАЛЬНОЕ И ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ СОСТОЯНИЕ СТУДЕНТОВ С ДИАГНОСТИКАМИ РАЗНЫХ УРОВНЕЙ СКОЛИОЗА

В статье рассмотрены эмоционально-волевые состояния студентов с диагнозом сколиоз различной степени, наблюдаются ли у студентов со сколиозом эмоциональная дезадаптация, высокий уровень тревожных проявлений, подчеркивающих удовлетворение этой потребности, изменения психического состояния в зависимости от тяжести и структуры заболевания, возможность влияния заболевания «сколиоз» на когнитивные процессы и личностные характеристики, студенты со сколиозом с позиций эмоциональной дезадаптации, оценка качества жизни человека, Перечисленные черты личности оказывают негативное влияние на жизнь человека. Проблема в том, что психосоматике не уделяется достаточного внимания, а с точки зрения интереса к систематическим научным разработкам люди со сколиозом, их психологические особенности становятся предметом научных исследований, которые проводятся не так часто, как хотелось бы. Психическое здоровье рассматривалось в отдельном контексте, не связанном с понятием «психосоматика». Аналогичным образом рассматривались и вопросы физического здоровья лиц с заболеваниями опорно-двигательного аппарата.

Ключевые слова: воля, физическое, движение, упражнения, сколиоз, эмоциональное, психическое, болезнь.

EMOTIONAL-VOLUME STATES OF STUDENTS WITH DIFFERENT DEGREES OF SCOLIOSIS

The article discusses the emotional-volitional states of students diagnosed with scoliosis of various degrees, that students with scoliosis experience emotional maladjustment, that high-level anxiety manifestations that emphasize the need to satisfy this need, that changes in mood depend on the severity and structure of the disease, that the disease "scoliosis" can affect cognitive processes and personality traits, that students with scoliosis experience emotional maladjustment, that in terms of assessing the quality of human life, the noted personality traits negatively affect human life. The problems are that currently not enough attention is paid to psychosomatics and, in terms of interest in systematic scientific developments, individuals with scoliosis, their psychological characteristics are the subject of scientific research, which is not as frequent as they would like. Mental health was considered in a separate context, not related to the concept of "psychosomatics". Similarly, the issues of physical health of individuals with diseases of the musculoskeletal system were considered. Individual components of physical condition were assessed - weight-speed indicators, physical fitness, physical performance, functional state were considered.

Keywords: *will, physical, movement, exercise, scoliosis, emotional, mental, disease.*

Kirish. Odam tashqi muhitdagi turli-tuman narsa va hodisalarni idrok qilar ekan, hech vaqt bu narsalarga batamom befarq bo'lmaydi. Odamning aks ettirish jarayoni doimo faol xarakterga egadir. Aks ettirish jarayoni quyidagilarni qamrab oladi:

a) shaxsning ehtiyojni qondirish imkoniyatiga egaligini;

b) qondirishga yordam beradigan yoki qarshilik ko'rsatadigan obyektlarga subyekt sifatida qatnashishi;

v) uni harakat qildiruvchi bilimga intiltiruvchi munosabatlar va hokazo. Chunki odam atrofidagi har turli narsalarni idrok qilib aks ettirar ekan, bu narsalarga nisbatan ma'lum munosabatda bo'ladi. Masalan, bizga ayrim narsalar yoqsa, ya'ni kayfiyatimizni ko'tarib yuborsa, boshqa bir narsalar yoqmaydi va kayfiyatimizni buzib, dilimizni xira qiladi. Ba'zi bir ovqatni odam juda ham yoqtiradi, boshqa bir ovqatni esa mutlaqo ko'rgisi kelmaydi yoki ayrim odamlar bizga xush keladi yoki boshqa bir odamlar esa noxush keladi. Umuman odam atrofidagi hamma narsalarga nisbatan munosabatda bo'ladi va uning munosabatlari ham aks ettiriladi. Ma'lumki, har bir kasallikka xos bo'lgan xarakterli klinik ko'rinishlardan tashqari, har qanday kasallik insonning ruhiy holatiga ma'lum salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tuzatish choralari tashkil qilishda nafaqat subyektning jismoniy va funksional holatini, balki uning individual va shaxsiy xususiyatlarini ham tahlil qilish kerak deb taxmin qilinadi.

Asosiy qism. Bir qator mualliflar "skolioz" kasalligi tayanch-harakat tizimining buzilishi bo'lgan shaxslarning psixologik holatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishini aniqladilar. Uyatchanlik, kamtarlik, uyatchanlik va hokimiyatga qaramlik, yuqori darajadagi tashvish va tushkun kayfiyat ko'rinishida umurtqa pog'onasi kasalliklari bo'lgan odamlarga xosdir. Bundan tashqari, bir qator tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qomat buzilishi bo'lgan odamlarning o'ziga xos xususiyatlari passivlik, harakatsizlik, tinchlikka intilish, oqilona narsalarga qiziqish. Boshqalarning fikriga bog'liqlik, sezgirlik, zaiflik, xudbin tendentsiyalar, jiddiy majburiyatlar va javobgarlikdan qochish, shuningdek o'ziga e'tibor, istakni yoqtirish, qayd etilgan. Ba'zi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, skolioz bilan og'rigan talabalarda o'quv fanlari bo'yicha akademik ko'rsatkichlarning pasayishi, shuningdek psixofiziologik xususiyatlarning o'zgarishi - asabiy jarayonlar dinamikasining pasayishi, sog'lig'i bilan bog'liq muammolar bo'lmagan tengdoshlariga nisbatan e'tiborning pastligi. Kasallikning og'irligi va tuzilishiga qarab, "skolioz" kasalligi kognitiv jarayonlar va shaxsiy xususiyatlarga ta'sir qilishi mumkinligi aniqlandi. Skolioz bilan og'rigan talabalar hissiy jihatdan noto'g'ri moslashishni boshdan kechiradilar, bu ehtiyojni qondirishga urg'u beradigan yuqori darajadagi tashvishli namoyishlar, ruhiy holat o'zgarishi, o'z xatti-harakatlarini rejalashtirish va nazorat qilish qobiliyatining pastligi bilan tavsiflanadi. Skolioz bilan og'rigan odamlarda ijtimoiy buzilish qayd etiladi, bu xayolotda ruhiy muammolarni yengish va tashqaridan yordam izlash imkoniyati sifatida namoyon bo'ladi. Sog'lig'i bilan bog'liq muammolar bo'lmagan qizlarda bunday psixo-emotsional muammolar aniqlanmagan. Ular kelajakni ijobiy qabul qiladilar, aniq ekstrovertlardir, ular yuqori faollik va muloqotga ochiqlikka ega.

Hayot sifatini baholash nuqtayi nazaridan, qayd etilgan shaxsiy xususiyatlar inson hayotiga salbiy ta'sir qiladi. Muammolar hozirgi vaqtda psixosomatikaga yetarlicha e'tibor berilmaydi va tizimli ilmiy ishlanmalarga qiziqish nuqtayi nazaridan, skolyoz bilan og'rigan shaxslar, ularning psixologik xususiyatlari ilmiy tadqiqotlar mavzusi bo'lib, ular xohlagancha tez-tez bo'lmagan. Ruhiy salomatlik "psixosomatika" tushunchasi bilan bog'liq bo'lmagan alohida kontekstda ko'rib chiqildi". Xuddi shunday, tayanch-harakat tizimida kasalligi bo'lgan shaxslarning jismoniy salomatligi masalalari ham ko'rib chiqildi. Jismoniy holatning individual tarkibiy qismlari baholandi-vazn tezligi ko'rsatkichlari, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy ishlash, funksional holat. Maxsus tibbiy guruh talabalarining jismoniy tarbiyasi bo'yicha yaratilgan dasturlar, uslubiy ishlanmalar tuzatish choralari dinamikasidagi psixologik holat va psixo-emotsional holatning o'zgarishini hisobga olmagan holda faqat jismoniy komponentga asoslangan edi. Ushbu dasturlarning samaradorligini baholash eksperiment dinamikasidagi individual va shaxsiy xususiyatlarning o'zgarishini hisobga olish nuqtayi nazaridan amalga oshirilmadi. Shunga qaramay, odamni o'rganayotganda uni shaxsning jismoniy, funksional va psixologik tarkibiy qismlari kontekstida har tomonlama ko'rib chiqish kerak. O'quv jarayonini tashkil qilishda jismoniy tarbiya vositalaridan shaxsning manfaatlarini, ularning jismoniy faoliyatga bo'lgan ehtiyojini, sog'lig'i darajasini, psixologik jihatlarini hisobga olgan holda foydalanish kerak. Yaratilgan metodologiya ta'lim jarayonini shaxsiy va harakatli tarkibiy qismlarini, shu jumladan jismoniy tarbiya va sport uchun qiziqishni rivojlantirishga yordam beradigan zarur vositalar va usullarni tanlashni, "jismoniy madaniyat" kabi fan bo'yicha mashg'ulotlarda talabalarni faollashtirishni faollashtirishni, o'z-o'zini himoya qilish sohasidagi bilim va ko'nikmalarni shakllantirishni o'z ichiga olishi kerak.

Binobarin, umurtqa pogʻonasining tarkibiy va funksional buzilishlari boʻlgan shaxslarning jismoniy holatini tuzatishning kompleks mashqlarni ishlab chiqish uchun ushbu talabalar bilan ishlaydigan oʻqituvchi oldida turgan muammolarni muvaffaqiyatli va samarali hal qilish uchun ularning individual psixologik xususiyatlarini oʻrganish va tahlil qilish kerak.

Tadqiqot natijalari. Koʻpgina tadqiqotlar universitet talabalarining qiziqish sohasiga, xususan, talabalarining jismoniy tarbiya darslarida ishtirok etish munosabatiga bagʻishlangan. Talabalarining kasbiy tayyorgarligi, ularning qadriyatlari va qiziqishlari oʻrganildi, tashqi va ichki omillarning motivatsion sohaga taʼsiri aniqlandi, talabalarining maʼlum yoʻnalishlarini shakllantirish motivlari aniqlandi. Agar biz umurtqa pogʻonasining funksional buzilishi boʻlgan talabalarining kasbiy sohasi natijalarini sharhlasak, tadqiqotchilar muammoli fikrlarni taʼkidlab, asosiy jihat vosita faoliyatiga boʻlgan ehtiyojning past darajasi ekanligini taʼkidlaydilar. Ushbu faktning sabablarini, yaʼni jismoniy harakatning pasayishini aniqlab, tadqiqotchilar asosiy sabablarni taʼkidlaydilar: ushbu toifadagi talabalar orasida jismoniy tarbiyani tashkil etishning turli usullarida, talabalarining maʼlum turdagi jismoniy faoliyat bilan shugʻullanishga boʻlgan qiziqishlarini hisobga olmaslik, individual morfofunktsional xususiyatlarga eʼtibor bermaslik. va talabalarining individual psixologik xususiyatlari, moddiy-texnik bazasiga bogʻliq.

Shunday qilib, maxsus tibbiy guruh talabalari uchun jismoniy tarbiya dasturlari anʼanaviy va faol faoliyat shakllari asosida, intellektual va harakatli faoliyatni birlashtirgan holda ishlab chiqilishi kerak. Sogʻliqni saqlash koʻrsatkichlarining yaxshilanishi, vosita tajribasining kengayishi, mustaqil jismoniy mashqlar bilan shugʻullanishga qiziqish va tizimli jismoniy faoliyatga boʻlgan ehtiyojning shakllanishi mualliflari jismoniy tarbiya dasturlarini talabalarining qiziqishlari va ehtiyojlarini, ularning muayyan turdagi jismoniy faoliyat bilan shugʻullanish istaklarini inobatga olgan holda shakllantirgan tajribalarda qayd etilgan. Bunday tadqiqotlar jarayonida kognitiv sohadagi ijobiy oʻzgarishlar soni koʻpaydi, talabalarining jismoniy tarbiya va sport sohasida bilim olishga intilishi oshdi. Innovatsion usullardan foydalanish talabalarining oʻzlarining jismoniy faolligini oshirishga yordam berdi, faqat jismoniy tarbiya sohasida oʻz faoliyatini olib boruvchi talabalar soni kamaydi, shuning uchun jismoniy tarbiya bilan shugʻullanadiganlar soni, shu jumladan turli yoʻnalishlarda ham koʻpaymoqda va umuman shugʻullanmaydiganlar soni kamaymoqda. Har bir inson oʻz sogʻligʻi uchun oʻzi javobgar ekanligi haqida tushuncha mavjud. Umurtqa pogʻonasining funksional buzilishi boʻlgan talabalar jismoniy tarbiya va sport faoliyati yordamida oʻzlarini takomillashtirish va muloqotga, oʻz-oʻzini anglashga eʼtibor berishadi va oʻz maqsadlarini rejalashtirish va tuzatishga qodir boʻlmagan yoshlar soni kamayadi. Skoliozli odamlarning sogʻligʻini baholashga bagʻishlangan tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, jismoniy madaniyat vositalaridan maqsadli foydalanish nafaqat moslashuvning biologik asosiga (jismoniy rivojlanish, jismoniy sifatlar, yurak qon tomir tizimining funksional holati, psixofiziologik jarayonlar) ijobiy taʼsir koʻrsatadi, balki ularning ijtimoiy moslashuvi jarayonini faollashtiradi (ijtimoiy-psixologik jarayon davomida), jismoniy harakatlarni qoʻllash oʻquv faoliyatidagi faollik darajasini oshiradi. Jismoniy tarbiya mashgʻulotlarining muvaffaqiyati yoshlarning yuqori jismoniy harakati bilan bogʻliq va bir qator tadqiqotlarda taʼkidlanganidek, oʻqituvchining ushbu yoʻnalishdagi doimiy faoliyati zarur. Shubhasiz, talabaning jismoniy tarbiya va sogʻlomlashtirish faoliyatiga tayyorligini shakllantirish ularni bu jarayonga qiziqitirish va mashgʻulot qismini shakllantirish bilan bir qatorda jismoniy tarbiya va sogʻliqni saqlash dasturlarining keng doirasini taklif qilish bilan birgalikda kiritishni talab qiladi. Bunga sogʻlom turmush tarzi, oqilona ovqatlanish, fiziologiya va sport mashgʻulotlari sohasidagi bilimlar, shuningdek oʻqituvchi boshchiligidagi amaliy jismoniy tarbiya va mustaqil jismoniy faoliyat bilan tanishish kiradi. Xulosa oʻrnida yuqorida taʼkidlab oʻtilganidek, jismoniy tarbiya boʻyicha oʻquv jarayoniga interfaol oʻqitish usullarini joriy etish masalalari muhokama qilinadigan ishlar juda kam. Xuddi shunday, insonning shaxsiy xususiyatlarini, uning psixo-emotsional fonini hisobga olgan holda individual taʼlim traektoriyasini tashkil etish masalalariga bagʻishlangan asarlarni ham talqin qilish mumkin. Ushbu oʻzgarishlar barqaror holat koʻrinishida roʻy beradi, kuzga va bahorgi mashgʻulotlar paytida ham tashvish va neyropsik stress koʻrsatkichi oʻrtacha boʻlib qoladi, bu yerda jismoniy tarbiya jarayoni kasallikning xususiyatlarini, morfofunktsional va individual psixologik xususiyatlarni hisobga olgan holda tashkil etilgan guruhlardagi talabalar orasida. Shunday qilib, mamlakatimizda yosh aholi orasida skoliozning tarqalishi faol ravishda oʻsib bormoqda. Shu bilan birga, universitet oʻqituvchilarining, xususan jismoniy tarbiya oʻqituvchilarining asosiy vazifasi nafaqat kelajakdagi mutaxassislarning shaxsini shakllantirish, balki ularning sogʻligʻini mustahkamlash, sogʻliqni saqlash xatti - harakatlarini shakllantirishdir. Umurtqa pogʻonasining funksional buzilishi boʻlgan talabalarining shaxsiy xususiyatlarini bilish, pedagogik jarayonga jalb qilingan shaxsning fikrini jalb qilish orqali pedagogik jarayonning samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni koʻrsatdiki, skoliozli talabalarining jismoniy tarbiyasini tashkil etish masalalari koʻrib chiqiladigan oz sonli ilmiy va amaliy ishlar ularning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda oʻrganilgan va somatik kasallik insonning individual

xususiyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi, oliy ta'limda o'qishga moslashishni murakkablashtirishi, aloqa qilish istagini kamaytirishi, nizolarni kuchaytirishi mumkinligiga qaramay, ushbu muhim jihatlar jismoniy tarbiya dasturlarini shakllantirishda hisobga olinmaydi. Shunga qaramay, ta'lim davrida ham, kasbiy shakllanish davrida ham insonning jamiyatda moslashuvining muvaffaqiyati fiziologik va psixologik salomatlik holatiga bog'liq. Shu sababli, talabaning individual ta'lim yo'nalishini shakllantirish jarayonida insonning muvaffaqiyatli kasbiy va ijtimoiy amalga oshirilishiga hissa qo'shadigan sog'liqning barcha tarkibiy qismlari - jismoniy, psixologik, ijtimoiy hisobga olish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Skoliozi bilan og'rigan talabalarning fiziologik xususiyatlari Universitetda jismoniy tarbiya uchun maxsus tibbiy sog'liqni saqlash guruhiga yoshlarning katta qismi kiradi va skolioz umurtqa pog'onasining funksional buzilishlarida tez-tez uchraydigan tashxislardan biridir. Avvalo, skolioz bilan umurtqa pog'onasi azoblanadi-uning to'g'ri joylashishi buziladi, umurtqalar, intervertebral disklar va ligamentli mushak apparati tanasining tuzilishi o'zgaradi. Ushbu kasallik nafas olish va qon aylanishining fiziologik xaxiralariga juda salbiy ta'sir qiladi, qorin bo'shlig'i mushaklarining zaifligi qayd etiladi, bu oshqozon-ichak trakti va qorin bo'shlig'ining boshqa organlarining normal faoliyatini buzilishiga yordam beradi. Bundan tashqari, umurtqa pog'onasi funksiyasining buzilishi yoshlarning yuqori asabiy faoliyatiga salbiy ta'sir qiladi, bu charchoq va ishlashning pasayishiga, tez-tez bosh og'rig'iga yordam beradi. Vaziyatning yanada yomonlashishi orqa miya ichki organlarning joylashuvidagi o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. "Skolioz" kasalligi bo'lgan yoshlarning jismoniy holatidagi bunday faol o'zgarishlar umurtqa pog'onasining mushak tuzilishi tashkil etuvchi mushaklarga faol ta'sir ko'rsatishni talab qiladi. Adabiyotlar tahliliga ko'ra, mushak-skelet tizimida muammolarga duch kelganlar orqa va qorin bo'shlig'i mushaklarining kuch xususiyatlarining pasayishini qayd etishgan, bu toifadagi odamlarda moslashuvchanlik yetarli darajada rivojlanmagan, barcha tekisliklarda umurtqa pog'onasining harakatchanligi pasaygan. Shunga qaramay, skolioz kasalligi bo'lgan odamlarda moslashuvchanlik kabi jismoniy sifatni juda ehtiyotkorlik bilan rivojlantirish kerak. Moslashuvchanlikni sezilarli darajada oshirish tavsiya etilmasa ham, jismoniy mashqlar majburiydir, chunki umurtqali diskarni qo'llab-quvvatlovchi mushaklar cho'zilib ketadi va shu bilan umurtqalararo diskarga bosim kamayadi. Bundan tashqari, skolioz bilan og'rigan bemorlarda egrilikning birlamchi tomonidagi muskullarning asosiy faolligi bilan joyidan siljishi kuzatiladi, bu ularning faol kuchlanishini ko'rsatadi, bu tananing kompensatsion-adaptiv reaksiyasini ko'rsatadi.

Xulosa. Yuqoridagi ta'riflardan ko'rinib turibdiki, hissiyot bizning tuyg'ularimizning o'ziga xos aks ettirish jarayoni bo'lib, bunda narsa va hodisalarni aks ettirish jarayonida bizda tug'iladigan ichki kechinmalar va munosabatlar aks ettiriladi. Demak, hissiyotlar o'z-o'zidan yuzaga kelmasdan, tashqi olamdagi narsa va hodisalarning ta'siri bilan bog'liq ravishda yuzaga keladi.

Adabiyotlar:

1. Nurullaev A. R. Methods of developing endurance in students through the use of folk games in physical education classes //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – T. 10. – №. 11. – C. 520-524.
2. Ruzimbaevich N. A., Ruzimbaev M. A. Research park. – 2021.
3. Нуруллаев А. Р. Реабилитация спортсмена //Рекомендовано к изданию Советом по качеству УралГУФК Протокол № 8 от 14 мая 2018 г. – 2018. – C. 213.
4. Ruzimbaevich N. A., Ruzimbaev M. A. Methodological methods of teaching children for movement activities in the process of physical education classes //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2021. – T. 2. – №. 04. – C. 313-322.
5. Нуруллаев А. Р., Гафурова М. Ю., Мансуров Ш. Ш. Деление спортивных занятий на периоды //Педагогическое образование и наука. – 2019. – №. 6. – C.153-155.

TALABALARNING JISMONIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVNING ZARURIYATI

O'ktamov Isroil Istam o'g'li,

*Buxoro davlat pedagogika instituti “Jismoniy madaniyat”
ta’lim yo’nalishi 1-bosqich talabasi*

Mazkur maqolada talabalar jismoniy madaniyatini rivojlantirishda innovatsion yondashuvning ahamiyati tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim tizimida jismoniy tarbiyani rivojlantirish talabalar salomatligini mustahkamlash, ularning jismoniy faolligini oshirish hamda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qiladi. Innovatsion texnologiyalar, raqamli dasturlar va zamonaviy pedagogik metodlarni joriy etish orqali jismoniy tarbiyani takomillashtirishning samarali usullari ko‘rib chiqiladi. Maqolada innovatsion yondashuv orqali ta’lim jarayonida interaktiv mashg‘ulotlar, motivatsiyani oshirish usullari va individual yondashuvning o‘rni haqida so‘z yuritiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, innovatsion texnologiyalar talabalarning jismoniy madaniyatini rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib, ularning hayot sifatini yaxshilashga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: sport pedagogikasi, interfaol usullar, fitness texnologiyalari, jismoniy faollik, talabalar sog‘lig‘i, sport innovatsiyalari, raqamli trening dasturlari, individual yondashuv, motivatsiya, sog‘lom turmush falsafasi.

ИННОВАЦИИ В РАЗВИТИИ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ НЕОБХОДИМОСТЬ ПОДХОДА

В данной статье анализируется важность инновационного подхода в развитии физической культуры студентов. В современной системе образования совершенствование физического воспитания способствует укреплению здоровья студентов, увеличению их физической активности и формированию здорового образа жизни. В исследовании рассматриваются эффективные методы улучшения физического воспитания посредством внедрения инновационных технологий, цифровых программ и современных педагогических методов. В статье обсуждается роль интерактивных занятий, методов повышения мотивации и индивидуального подхода в образовательном процессе. Результаты исследования показывают, что инновационные технологии являются эффективным инструментом для развития физической культуры студентов, способствуя улучшению качества их жизни.

Ключевые слова: спортивная педагогика, интерактивные методы, фитнес-технологии, физическая активность, здоровье студентов, спортивные инновации, цифровые тренировочные программы, индивидуальный подход, мотивация, философия здорового образа жизни.

THE NEED FOR AN INNOVATIVE APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' PHYSICAL CULTURE

This article analyzes the importance of an innovative approach in developing students' physical culture. In the modern education system, improving physical education contributes to strengthening students' health, increasing their physical activity, and forming a healthy lifestyle. The study examines effective methods for enhancing physical education by introducing innovative technologies, digital programs, and modern pedagogical methods. The article discusses the role of interactive lessons, motivation enhancement techniques, and an individual approach in the educational process. The research results show that innovative technologies are an effective tool for developing students' physical culture, helping to improve their quality of life.

Keywords: sports pedagogy, interactive methods, fitness technologies, physical activity, students' health, sports innovations, digital training programs, individual approach, motivation, philosophy of a healthy lifestyle.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida ta’lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri talabalar jismoniy madaniyatini rivojlantirishdir. Jismoniy madaniyat nafaqat insonning jismoniy holatini yaxshilash, balki uning psixologik barqarorligi va hayot sifati oshishida ham katta ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy

jamiyatda harakatsiz turmush tarzi va nosogʻlom odatlar keng tarqalganligi sababli yoshlarning jismoniy faolligini oshirish va sportga boʻlgan qiziqishini kuchaytirish zarurati ortib bormoqda.

Asosiy qism. Jismoniy madaniyat nazariyasi va amaliyotida prinsiplarning xilma-xil guruhlari mavjud. Jismoniy madaniyat tizimining umumiy va metodik prinsiplari, jismoniy madaniyatning ayrim koʻrinishlari xususiyatlarini ifodalovchi (masalan, sport trenirovkasi, kosmonavtlar, va hokazo) prinsiplari mavjud. Ular bir-biri bilan uzviy bogʻliq boʻlib, prinsiplarning yagona tizimini tashkil etadi. Eng avvalo, biz jismoniy madaniyat nazariyasining umumiy prinsiplari bilan tanishib chiqaylik. Ular quyidagilardan iborat:

- a) jismoniy madaniyatning mehnat va harbiy amaliyot bilan bogʻliqligi;
- b) shaxsni har tomonlama rivojlantirish;
- v) jismoniy madaniyatning sogʻlomlashtirishga yoʻnaltirish prinsipi.

Boʻlajak tarbiyachilar kasbiy faoliyati davomida bolalarni kelgusida tabiiy, aniq va ijtimoiy-gumanitar fanlarni toʻgʻri oʻzlashtirib borishlariga yordam beruvchi fundamental bilimlarni ular ongiga singdirishda integrativ yondashuvdan foydalanish yuqori samara beradi. Integratsiyani bilimlarning oʻzaro uygʻunlashuvi, bir-birini toʻldiruvchi va bir-birini tushuntiruvchi bilimlar yigʻindisi, deb olsak, uning tub mohiyatini aniqlash osonroq kechadi. Integratsiya taʼlim maqsadi sifatida olam tizimining alohida qismlari bogʻliqligini koʻrsatuvchi bilimlarni berish emas, bolani barcha elementlari bir-biriga bogʻliq yaxlit olamni tasavvur qilishiga birinchi qadamlarida oʻrgatishi kerak. Integratsiya - predmetli bilimlar chegarasida yangi tasavvurlarni qabul qilish vositasi. Shunday qilib, bolada olamning turli-tumanligi haqida keng tasavvur hosil qilish va uni oʻrganishga nisbatan maqsadli qiziqishni shakllantirishda integrativ taʼsir usuli tarbiyachi-pedagog uchun eng maqbul yoʻl boʻlib maydonga keladi.

This scientific article studies the dynamics of physical fitness of 10-12-year-old male wrestlers in the Bukhara region. 30 young athletes participated in the research process and various physical fitness tests were applied to them. The results of the study were compared by age group, and the development trends of physical qualities such as endurance, speed, strength and flexibility were analyzed. The results showed that the physical fitness of young athletes is improving from year to year, which is explained by the effectiveness of special training programs.

Keywords: wrestler, physical quality, physical fitness, sport, speed, strength, endurance.

Kirish. Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, ayniqsa olimpiya va paralimpiya sport turlarini yuqori bosqichga olib chiqish borasida qator qaror va farmonlar qabul qilinmoqda. Bu islohotlar sport sohasi rivojlanishiga katta turtki berib, yosh sportchilarimiz tomonidan xalqaro musobaqalarda erishilayotgan yutuqlarda ham o'z aksini topmoqda.

Xususan, so'nggi 2020-2025-yillarda yosh sportchilarimiz qo'lga kiritayotgan muvaffaqiyatlar davlatimiz tomonidan olib borilayotgan aniq va puxta o'ylangan sport siyosatining natijasi hisoblanadi. Prezidentimiz tomonidan 2025-yil 13-fevralda ilgari surilgan olimpiya va paralimpiya sport turlarini yangi bosqichga olib chiqish borasidagi fikr-mulohazalarda ham ommaviy sportni rivojlantirish va sportchilarning mahoratini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Shu nuqtayi nazardan, biz ham demokratik davlatning fuqarosi sifatida jismoniy tarbiya va sport sohasida o'z ilmiy tadqiqotlarimiz orqali hissa qo'shish maqsadida 10-12 yoshli kurashchi o'g'il bolalar bilan ilmiy ish olib bordik. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi Buxoro viloyati 10-12 yoshli kurashchi o'g'il bolalarining jismoniy tayyorgarligi dinamikasini o'rganishdan iborat bo'ldi.

Asosiy qism. Tadqiqot jarayonida 30 nafar yosh sportchi ishtirok etdi. Ularga turli jismoniy tayyorgarlik testlari qo'llanilib, natijalari yosh guruhlariga qarab taqqoslandi. Har bir jismoniy ko'rsatkich bo'yicha o'zgarishlar kuzatilib, ularning dinamikasi tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari yosh sportchilar jismoniy tayyorgarligining rivojlanish jarayonini yanada mukammal tushunishga imkon yaratdi.


Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, 10-12 yoshli kurashchilarning jismoniy tayyorgarligi yil sayin ortib borayotgan bo‘lib, bu ularning maxsus mashg‘ulotlar va to‘g‘ri tanlangan mashg‘ulot dasturlari orqali aniq namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, chidamlilik, tezlik, kuch va moslashuvchanlik kabi ko‘rsatkichlarda sezilarli o‘shish kuzatildi. Bu esa yosh sportchilarning kelajakdagi yutuqlari uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

Mazkur tadqiqot natijalari sportchilar tayyorgarlik darajasini yanada oshirish va mashg‘ulot jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgan yangi tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kelajakda bu boradagi ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish va kengroq miqyosda o‘tkazish rejalashtirishda zamin yaratadi.

Avvallo tadqiqot jarayonlarini tezkorlik jismoniy sifati ko‘rsatkichlarining tahliliga qaratdik. Tezkorlikka oid ko‘rsatkichlar sifatida 30 m, 3×10 m masofaga mokinimon va 60 m ga yugurish sinovlari qabul qilinib, 10 – 12 yoshli kurashchi o‘g‘il bolalar quyidagicha natijalar qayt etishdi. **30 m ga yugurish turida:** 10 yoshli kurashchi polvonlar o‘rtacha 6,81±0,79 s, 11 yoshlilar 6,74±0,71 s, 12 yosh kurashchilar 6,41±0,68 soniyada bajarishga muvaffaq bo‘lishdi. Bu ko‘rsatkich bo‘yicha o‘shish bor, variatsion ko‘rsatkichlarda ham 10 yoshli guruhlarda 30 m ga 11, 6 % ni, 11 yoshlilarda 10,5 %, 12 yosh guruhidagi sportchilarda esa 10,6 % ni ko‘rsatdi, ammo o‘zgarishlar statistik jihatdan ishonchli farq yo‘q $p>0,05$ deb topildi.

3×10 m mokinimon yugurish testlash turida: 10 yoshli kurashchilar 9,07±0,96 s, 11 yoshdagi sportchilar 8,86±0,87 s, 12 yoshdagi guruh ishtirokchilari o‘rtacha 8,53±0,85 soniya vaqt sarflashgani qayt etildi. Variatsion ko‘rsatkichlarda ham 10 yoshdagi sportchilarda 10, 5 % ni 11 va 12 yoshlilar uchun 9, 8 va 9,9 % ga yetgani aniqladi. Natijalar yaxshilangan, lekin farq sezilarli darajada emasligi $p>0,05$ ni qayt etildi.

Navbatdagi testlash turi **60 m masofaga yugurish:** bunda 10 yoshli o‘g‘il bolalar 9,68±0,98 s, 11 yoshli o‘g‘illar 9,46±0,96 s, 12 yoshli sportchilar 9,24±0,92 soniya natija ko‘rsatishgan bo‘lsalar, yugurish vaqtlari qisqargan, ammo statistik jihatdan ishonarli emas $p>0,05$ deb qayt etildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, yosh ortishi bilan yugurish vaqtlari qisqarib, harakat tezligi oshganligi ma‘lum bo‘ldi.




1-rasm. 10-11 yoshli kurashchilarning tajriba boshi jismoniy tayyorgarligi dinamikasi

10-12 yoshli kurashchi o'g'il bolalarning tajriba boshi jismoniy tayyorgarligi dinamikasi [n=30]

T/r	Ko'rsatkichlar	10 yosh n=10	V%	11 yosh n=10	V%	12 yosh n=10	V%	10-11 yosh		11-12 yosh		10-12 yosh	
		$\bar{x} \pm \sigma$		$\bar{x} \pm \sigma$		$\bar{x} \pm \sigma$		t	p	t	p	t	p
1.	30 m ga yugurish (s)	6,81±0,79	11,6	6,74±0,71	10,5	6,41±0,68	10,6	0,20	>0,05	1,06	>0,05	1,21	>0,05
2.	3×10 m mokisimon yugurish (s)	9,07±0,96	10,5	8,86±0,87	9,8	8,53±0,85	9,9	0,51	>0,05	0,85	>0,05	1,33	>0,05
3.	60 m ga yugurish (s)	9,68±0,98	10,1	9,46±0,96	10,1	9,24±0,92	9,9	0,50	>0,05	0,52	>0,05	1,03	>0,05
4.	To'ldirma to'pni (1 kg) uloqtirish (metr)	5,51±0,74	13,4	5,86±0,71	12,1	6,24±0,82	13,1	1,07	>0,05	1,10	>0,05	2,08	>0,05
5.	Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm)	150,24±23,51	15,6	157,46±21,26	13,5	167,64±23,67	14,1	0,72	>0,05	1,01	>0,05	1,64	>0,05
6.	Turgan joydan qo'l harakatisiz uzunlikka sakrash (sm)	132,59±19,75	14,9	139,72±18,64	13,9	148,27±18,57	12,5	0,81	>0,05	1,02	>0,05	1,82	>0,05
7.	Turgan joyidan uch hatlab sakrash (sm)	523,91±69,43	13,2	554,98±65,19	11,7	566,48±67,43	11,9	1,03	>0,05	0,38	>0,05	1,39	>0,05
8.	Tik turgan holda oldinga egilish (sm)	5,62±0,61	10,8	5,91±0,60	10,1	6,15±0,63	10,2	1,07	>0,05	0,87	>0,05	1,91	>0,05
9.	Turnikda tortilish (marta)	3,54±0,53	14,9	3,81±0,51	13,3	3,96±0,49	12,3	1,16	>0,05	0,67	>0,05	1,84	>0,05
10.	Yuqoriga sakrash (Abalakov bo'yicha) (sm)	21,09±2,58	12,2	22,47±2,69	11,9	23,16±2,31	9,9	1,17	>0,05	0,61	>0,05	1,89	>0,05
11.	6-daqiqalik yugurish (m)	831,59±98,35	11,8	883,86±96,47	10,9	906,37±98,26	10,8	1,19	>0,05	0,51	>0,05	1,70	>0,05


Izoh: s-soniya, kg-kilogram, m-metr, sm-santimetr, V-variatsiya, n-sinaluvchilar soni.



2-rasm. 10-12 yoshli kurashchilarning tajriba boshi jismoniy tayyorgarligi dinamikasi

Tezkor kuch jismoniy sifatlarini testlash jarayonlarida 10-12 yoshli buxorolik o'g'il bola kurashchilarimizning Sakrash mashqlari orqali sportchilarning kuch va harakat koordinatsiyalari qayt etib borildi. Ilk mashq turi sifatida yosh polvonlarimiz **Turgan joydan uzunlikka sakrash mashq turidan sinovdan o'tishdi. Testlashda** 10 yoshli guruh sinaluvchilari o'rtacha 150,24±23,51 smga, 11 yoshdagi

kurashchilar $157,46 \pm 21,26$ smga, 12 yosh sportchilarimiz esa $167,64 \pm 23,67$ smga sakraganliklari hamda natijalar orasidagi qiyosiy solishtirmada 10-11 yoshlilar $t=0,72$, 11-12 yoshli sinaluvchilarda $t=1,01$, 11-12 yosh kurashchilarda esa $1,64$ qiymatni ifodalagan bo'lsa, variatsiya ko'rsatkichlarida 10 yosh 15,6 %, 11 yosh 13,5 %, 12 yosh 14,1 % natijani qayt etdilar. Sezilarli yaxshilanishlar bo'lishiga qaramay, statistik ishonchlilik $p>0,05$ ni qayt etdi.



3-rasm. 11-12 yoshli kurashchilarning tajriba boshi jismoniy tayyorgarligi dinamikasi

Aynan shu mashq turidan qo'l kuchi harakatisiz turgan joydan uzunlikka sakrash test me'yorlarini qabul qildik. Mazkur testlashda 10 yoshlilar $132,59 \pm 19,75$ sm, 11 yoshdagi sportchilar $139,72 \pm 18,64$ s, 12 yosh sinaluvchilar esa $148,27 \pm 18,57$ smga sakrashgani qayt etildi. Navbatdagi testlash **Uch hatlab sakrash turidan qabul qilindi. Yosh sportchilarimiz quyidagicha natijalarni ko'rsatishdi.** 10 yosh: o'rtacha $523,91 \pm 69,43$ smga, 11 yosh: $554,98 \pm 65,19$ sm, 12 yosh: o'rtacha $566,48 \pm 67,43$ smga sakraganliklari qayt etildi. Tezkor kuch jismoniy sifat ko'rsatkichlari natijalari orasidagi qiyosiy solishtirma farqlarda 10 yoshda $t=1,03$, 11 yoshda $0,38$, 12 yoshda esa $t=1,39$ natijani ko'rsatishdi. Mushak kuchi oshgan, ammo natija ishonarli emas $p>0,05$ deb qayt etildi.

Kurashchilarimizni **Yuqoriga sakrash (Abalakov bo'yicha): testlash jarayonlariga ahamiyat qaratdik. Natijalar quyidagicha bo'ldi. Tadqiqotning eng yosh guruhidagilar** 10 yoshlilar uchun o'rtacha $21,09 \pm 2,58$ sm, 11 yoshli sportchi polvonlarimiz $22,47 \pm 2,69$ sm, 12 yoshdagi guruh sinaluvchilari esa $23,16 \pm 2,31$ smgacha balandlikka sakrashgani qayt etildi. Variatsion ko'rsatkichlarda ham farqlar quyidagicha klassifikatsiya qilindi. 10 yosh uchun 12,2 %, 11 yoshdagilar uchun 11,9 %, 12 yoshli guruh ishtirokchilari uchun 9,9 % ni ko'rsatdi. O'sish bor, ammo statistik jihatdan ishonchlilik ahamiyatli emas $p>0,05$ deb topildi.

Tadqiqotimiz yo'nalishini mazkur yosh guruhlaridagi o'g'il bola kurashchilarimizning Chidamlilik sifatini testlashga qaratdik. Sportchilarning umumiy jismoniy chidamliligi 6 daqiqalik yugurish natijalari bilan qabul qilindi. Testlash jarayonlarida 10 yoshli guruh sportchilari o'rtacha $831,59 \pm 98,35$ m variatsiya ko'rsatkichlari bo'yicha 11,8 %, 11 yoshli bolalar uchun $883,86 \pm 96,47$ m, o'zgarishlar ko'rsatkichlarida 10,9 %, 12 yoshdagi sinaluvchilar uchun o'rtacha $906,37 \pm 98,26$ m, variatsion natijalarda esa 10,8 % ni ko'rsatishdi. Sezilarli o'sish kuzatilgan, ammo statistik farqlar ishonchliligi $p>0,05$ ni qayt etdi (3.1-jadval).

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, 10-12 yosh oralig'ida kurashchi bolalarning jismoniy tayyorgarligi barcha asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha yaxshilangan. Barcha ko'rsatkichlar bo'yicha dinamik rivojlanish kuzatilgan, ammo statistik ishonchlilik yetarli emasligi sababli natijalarning ishonchliligini yanada chuqurroq tadqiq qilish lozim. Shu sababli, yosh sportchilarning jismoniy rivojlanishida individual xususiyatlar va mashg'ulotlar dasturlarining o'rni muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Soatboy o'g'li X.J. Kurashchilarning umumiy psixologik tayyorgarligi //Hamkor konferensiyalar. – 2025. – T. 1. – №. 13. – C. 346-349.
2. Salimovich S. R., Jamolovich S. U. Turon yakkakurashi bilan shug'ullanuvchi talaba qizlarni musobaqa oldi psixologik tayyorlashning afzalliklari //Pedagogik tadqiqotlar jurnali. – 2025. – T. 3. – №. 1. – C. 605-608.
3. O'ktamjonovna V.G. Kurashchilarning boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida texnik-taktik harakatlarining tahlili //International conference on interdisciplinary science. – 2024. – T. 1. – №. 2. – C. 122-123.
4. Arslonov Q.P., Muzafarova F., Jo'ra J.R. Kurash usullarini yangi bosqichda o'rgatish texnologiyalari //Xalq ta'limi. – C. 73.
5. Qodirov S. R. O. G. L. Yosh kurashchilarni jismoniy sifatlarini rivojlantirishda harakatli oyinlardan samarali foydalanish //Academic research in educational sciences. – 2022. – T. 3. – №. 1. – C. 941-949.
6. Abdullayev F. D. Yosh kurashchilarni tayyorlashda dastlabki tayyorgarlik mashg'ulotlarini tashkil etish uslubiyati //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. Special Issue 4-2. – C. 612-615.
7. Tajiakhmedov S. M. Role of pedagogical control in the organization and planning of national kurash exercises //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2020. – T. 2. – №. 7. – C. 455-460.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA JISMONIY TARBIYANI TASHKIL ETISH SHAKLLARI

Abdulkarimov Nurmaxan Amirxanovich,

JDPU Jismoniy madaniyat fakulteti

Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrası dotsenti

nurmaxan.abdulkarimov@mail.ru

Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar jismoniy tarbiyasi jarayoni o'tilishi harakatli o'yinlarni o'tkazishning tarbiyaviy ahamiyati yoritilgan, maktabgacha ta'lim tashkilotida jismoniy tarbiya ishlarini samarali tashkil etish yuzasidan tavsiyalar berilgan. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning jismoniy tarbiyasi ular hayotini saqlash, sog'lig'ini mustahkamlash, harakat malakalarini shakllantirish masalalari haqida qayd etilgan

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, jismoniy tarbiya, jismoniy mashqlar, jismoniy rivojlanish, ta'lim-tarbiya, jismoniy faoliyat, o'quv dastur.

FORMS OF PHYSICAL EDUCATION IN PRESCHOOL EDUCATION ORGANIZATIONS

This article contains the educational importance of moving games in preschool education organizations, and the preschool education organization provides recommendations for the organization of physical education. Physical education of children of preschool education is noted about the preservation of their lives, strengthening their health, strengthening of movement skills

Key words: Preschool education, physical education, exercise, physical development, education, physical activity, training program.

ФОРМЫ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

Эта статья содержит образовательную важность перемещения игр в дошкольных образовательных организациях, а в организации дошкольного образования предоставляется рекомендации по организации физического воспитания. Физическое воспитание детей дошкольного образования отмечено о сохранении их жизни, укреплении их здоровья, укреплении навыков движения

Ключевые слова: дошкольное образование, физическое воспитание, физические упражнения, физическое развитие, образование, физическая активность, программа обучения.

Mamlakatimizda aholi sog'lom turmush tarzini shakllantirish, yosh avlodni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratilmoqda. Bugungi kunda aholi jismoniy madaniyatini oshirish borasida ko'plab amaliy ishlar qilinmoqda va bunga davlat masalasi sifatida qaralmoqda. Yosh avlodni sog'lom, bilimli va zukko qilib tarbiyalash maqsadida maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirishga katta e'tibor qaratilyapti. "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish masalasi ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab qo'yildi. Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan yuqoridagi Qaror va Farmonlar uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining davlat hamda nodavlat tarmog'ini kengaytirish, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlashda dasturilamalga aylandi. Shu sababdan ham Respublikamiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev maktabgacha ta'lim sohasida ko'plab islohotlar olib bormoqdalar. Xususan, - Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari va - Ilk qadam Davlat dasturining ishlab chiqilishi uzluksiz ta'lim tizimida maktabgacha ta'limni samarali amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Buyuk ajdodimiz Imom Motrudiy xazratlarining "Tiriklik hikmatini sog'liqda deb bilgin", degan chuqur ma'noli so'zlari naqadar to'g'ri ekanini hayotning o'zi bugun qayta-qayta isbotlamoqda.

Bunda axoli, ayniqsa, yoshlarimiz o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish eng ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lishi lozim.

Umuman, har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta'minlaydigan yosh avlodni sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishi hal qiluvchi o'rin tutadi. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish,

sogʻlom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy gʻoyamizning asosiy ustunlari boʻlib xizmat qilishi lozim. Shu maqsadda “Yangi Oʻzbekiston-maktab ostonasidan, taʼlim–tarbiya tizimidan boshlanadi”, degan gʻoya asosida keng koʻlamli islohatlarni amalga oshiramiz.

Sogʻlom avlodni kamolga yetkazish va tarbiyalashning turli yoʻl-yoʻriqlari, oʻziga xos usullari mavjud. Ayniqsa bolalarning boʻsh vaqtini toʻgʻri tashkil qilish, badan tarbiyasi va sport bilan shugʻullantirish, turli milliy harakatli oʻyinlarni oʻrgatish ota-ona va murabiy oldidagi muxim vazifa xisoblanadi. Bola tarbiyasidagi bu jihlatlar davlat va jamiyat ahamiyatiga molik masaladir. Prezidentimiz bu masalani davr talabi darajasida hal qilishga alohida eʼtibor berib, oʻquvchilarning boʻsh vaqtini toʻgʻri tashkil etishning, shu jumladan ommaviy sport va jismoniy tarbiya turizm sportning boshqa milliy turlari va shakllarini amaliyotga joriy etish, yoshlarimiz oʻrtasida keng tashviqot olib borishni kun tartibidagi dolzarb masalalar sifatida eʼtirof etib oʻtadi.

Oʻzbekiston Respublikasi mustaqilligi tufayli barcha sohalarda har tomonlama yuksalish yuz berayotgani tub ijtimoiy–siyosiy va maʼnaviy oʻzgarishlar, umuminsoniy qadriyatlar tizimida yangilanish, insonning barcha shaxsiy ehtiyojlar, talablari va manfaatlarini birinchi oʻringa koʻtarilayotgani, ayniqsa, oʻsib kelayotgan yosh avlodning va jismoniy imkoniyatlari yanada oshayotgani bugungi kunda sir emas. Shu munosabat bilan yangi tarbiyalashning murakkab va koʻp qirrali muammosining muxim yoʻnalishi har bir kishiga oʻz sogʻligʻi toʻgʻrisida qaygʻurish madaniyatini singdirishdir.

Oʻzbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda Prezident tomonidan imzolangan “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonuning yangi taxrida Maktabgacha taʼlim va tarbiya bolalarni oʻqitish va tarbiyalashga ularning intellektual maʼnaviy axloqiy, estetik, va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy oʻrta taʼlimga tayyorlashga qaratilgan tizimli jarayon etib belgilangan.

Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Maktabgacha taʼlim vazirligi “Ilk qadam” Davlat oʻquv dasturida ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish borasidagi Davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan meʼyoriy -hujjat boʻlib, unda maktabgacha taʼlim mussasasining maqsad va vazifalari, oʻquv tarbiyaviy faoliyati asosiy gʻoyalar ifodalangan, shuningdek, bolaning taʼlimning keyingi bosqichiga oʻtishdagi asosiy kompetensiyalar belgilangan. Maktabgacha taʼlimning maqsad vazifalari quydagilardan iborat:

Bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishiga oid davlat talablari asosida hamda davlat oʻquv dasturiga muvofiq uning har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun qulay shart sharoitlar yaratish, maktabgacha yoshdagi bolalarning oʻquv tarbiyaviy faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish;

Bolalarning ilk rivojlanish masalalarida ota-onalar va jamiyatga tegishli bilimlarni berishni tashkil etish va amalga oshirish, bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida oila va jamiyat bilan oʻzaro xamkorlikni tashkil qilish va amalga oshirish.

Maktabgacha taʼlim yoshidagi bolalarning jismoniy tarbiyasi ular hayotini saqlash, sogʻligʻini mustahkamlash, harakat malakalarini shakllantirish va toʻla maʼnodagi jismoniy tarbiya berish, madaniy gigienik malakalarini shakllantirish, betartib hayot kechirish odatini singdirishga qaratilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning umumiy chidamliligini aniqlashga doir tadqiqotlar (yugurish hamda sakrashga oid mashqlar misolida) bu yoshdagi bolalarning yurak-qon tomir va nafas sistemasini qoʻshimcha imkoniyatlari yetarli darajada ekanligini koʻrsatdi.

Bugungi kunda maktabgacha taʼlim tashkilotlarida bolalarning jismoniy rivojlantirish va jismoniy tayyorgarlik darajasiga talablar oshirilmoqda. “Ilk qadam” maktabgacha taʼlim mussasasining Davlat oʻquv dasturida belgilangan “Jismoniy rivojlanish va sogʻlom turmush tarzini shakllantirish” sohasi kompetensiyalari qaratilgan talablarida:

Bolalarni olti yoshdan oʻqitishga oʻtish munosabati bilan maktabgacha taʼlim mussasalarida katta guruh bolalarning jismonan rivojlantirish va jismoniy tayyorgarlik darajasiga talablar oshirilmoqda.

Bolalarni maktabga chiqishlari vaqtiga kelib muayyan harakat malakalarini va koʻnikmalarini boyligiga ega boʻlishlari lozim, chunki bular yangi sharoitga va oʻquv faoliyati qoʻyadigan talablarga muvofiqlash imkonini beradi hamda maktab dasturini dastlabki bosqichlarida ham muvaffaqiyatli oʻzlashtirishga yordam beradi.

Mamlakatimizda davlat standartining maqsadi – maktabgacha taʼlim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etishga qaratilgan boʻlib, bolalarni sogʻlom va xar tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, taʼlim–tarbiya jarayonida samarali taʼlim–tarbiya shakllari hamada usullarini joriy etib barkamol avlodni tarbiyalash, shu oʻrinda maktabgacha yoshdagi bolalarning sogʻlom ovqatlanishini va xavfsizligini tashkil etishga doir minimum talablarni joriy etish va nazoratini tashkil etishdan iboratligini aks ettirgan.

Maktabgacha taʼlim tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash toʻgʻrisidagi qarorida asosiy vazifalari belgilab berilgan:

✚ maktabgacha ta’limning mazmuni va sifatiga qo’yiladigan talablarni belgilashda maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqishi, iqtidorli, individual xususiyatlarini inobatga olib ruxiy jismoniy xususiyatlarini madaniy ehtiyojlarini shakllanishi ko’zda tutilgan;

✚ milliy, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlar asosida tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

✚ maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni yuksak ma’naviy fazilatlarini kamol toptirish, milliy ma’naviyatini takomillashtirish, boy madaniy merosimiz, tarixiy an’analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqloq g’oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir;

✚ o’quv-tarbiya jarayoniga innovatsion pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

✚ ta’lim-tarbiya jarayoniga bolalarni xar tomonlama intellektual, ma’naviy-axloqiy va jismoniy rivojlantirishni ta’minlaydigan zamonaviy ta’lim dasturlari, ilg’or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish, ularni maktabga tayyorlash darajasini oshirish, maktabgacha ta’limni boshqarishning zamonaviy standartlarini yaratish maqsadida sifatli bilim olishga qaratilgan;

✚ ta’lim-tarbiya faoliyati sifatini nazorat qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish maktabgacha ta’lim tizimida bolalarning xukuk va erkinliklarini targ’ib etishda yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish yo’llarini zamon talabi nuqtai nazardan taxlil etish mumkin;

✚ maktabgacha ta’lim tashkilotlarida to’laqonli va xavfsiz ovqatlantirishni tashkil etishga bo’lgan gigienik talablarni belgilash doirasida davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni sog’lom ovqatlantirishni tashkil etish ishlarini yanada takomillashtirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida autorsing usulida sog’lom ovqatlantirishni tashkil etish bo’yicha Respublikamizda o’tkaziladigan tanlovlarni oshkoralik, mablag’lar iqtisodiy samarali sarflanishi tamoyillari asosida o’tkazish maqsadida ishlab chiqildi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini idoraviy qurilish me’yorlarini tartibga solish va maktabgacha ta’lim tashkilotlarini o’yinlar, o’yinchoqlar, mebel, jihozlar va boshqa texnik, reabilitatsion vositalar bilan jihozlash hamda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yong’in xavfsizligini ta’minlashga qo’yiladigan talablarga muvofiqligini ta’minlashdan iborat. Davlat standartini asosiy prinsiplari quyidagilarga asoslanadi: tarbiyalanuvchining intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligi; har bir bolaning, shu jumladan jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo’lgan bolaning maktabgacha ta’lim va tarbiya olishga bo’lgan huquqini amalga oshirish va imkoniyatining tengligi; davlat standartining ta’lim sohasidagi davlat va jamiyat talablariga mosligi; maktabgacha ta’limning boshqa ta’lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi va ta’lim mazmunining uzviyligi; maktabgacha ta’lim mazmunining respublikadagi barcha hududlarda birligi va yaxlitligi; maktabgacha ta’limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsiya texnologiyalariga asoslanilganligi; xorijiy mamlakatlarning ta’lim sohasida me’yorlarni belgilash tajribasidan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo’yiladigan davlat talablari quyidagilardan iborat: ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo’yiladigan davlat talablari; maktabgacha ta’lim tashkilotining davlat o’quv dasturi; maktabgacha ta’lim tashkilotlarini o’yinlar to’plami, o’yinchoqlar, mebel, jihozlar va boshqa texnik, reabilitatsiya vositalari bilan jihozlash me’yorlari.

O’zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida to’laqonli va xavfsiz ovqatlantirishni tashkil etishdagi gigienik talablar, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qurilish-loyihalash ishlari hamda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yong’in xavfsizligini ta’minlashga qo’yiladigan talablar tegishli qonun hujjatlari asosida amalga oshiriladi. Maktabgacha ta’limning namunaviy o’quv rejasi (keyingi o’rinlarda-namunaviy o’quv reja) maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o’tkaziladigan mashg’ulotlarning nomi, eng kam (minimal) hajmi va ularning yoshi bo’yicha taqsimoti belgilangan hujjat hisoblanadi. Namunaviy o’quv reja maktabgacha ta’lim tashkilotlarida mashg’ulotlarni o’tkazish uchun asos hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda hozirgi sharoitda ta’lim bilan tarbiya birligini, bolalarning g’oyaviy siyosiy, mexnat, axloqiy, estetik tarbiyasi va jismoniy rivojlanishiga aloxida yondashish maktabgacha ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya jarayonini takomillashtirish amaliyotida mashg’ulotni samarali o’tkazishda kattalarning munosabati juda muhim, ko’tarinki kayfiyat bardamligi, faol harakatlarni to’g’ri ko’rsatmalar bolalar faolligini oshiradi, uzoq vaqt saqlay oladi, tez tolqishlarni oldini olish g’oyat muhim vazifadir. Buning uchun esa tarbiyachi-tashkilotchi eng avvalo ruxiy jixatdan quvnoq, o’zini tuta bilishi kerak.

Bu vazifalarni amalga oshirish maktabgacha ta’lim mussasasi tarbiyachisi, uslubchisi jismoniy tarbiya o’qituvchisidan katta ma’suliyat talab etadi. Buning uchun “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim Davlat o’quv dasturini o’quv-tarbiyaviy faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirishni, tegishli bilimlar berishni tashkil etishni pedagogik-psixologik bilimlarga ega bo’lishi lozim. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning

jismoniy rivojlanishi va sogʻlom turmush tarzini shakllantirishda yosh xususiyatlarini toʻgʻri xisobga olgan holda jismoniy tarbiya berib borsa jismoniy tarbiya vazifalari muvaffaqiyatli amalga oshiriladi.

Adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 2021-yil
2. Usmonxoʻjaev T. S., Usmonov P.A., Meliev X.A., Shofayziev Sh. 500 Harakatli oʻyinlar Toshkent 2011-yil
3. Oʻzbekiston Respublikasi maktabgacha taʼlim vazirligi “Ilk qadam” maktabgacha taʼlim muassasasining Davlat oʻquv dasturi Tosh.sh 2018 yil
4. Qodirova F., Toshpoʻlatova Sh., Kayumova N., Azimova M. Maktabgacha pedagogika Darslik Tosh.sh 2019 137 b
5. Tulinova X., Xoʻjaev P., Xoʻjaeva M., Abdullaev D. Jismoniy tarbiya va metodikasi Tosh.sh 2012-yil oʻquv qoʻllanma.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПРИВЛЕЧЕНИЯ УЧАЩИХСЯ В СПОРТИВНЫЕ КЛУБА НА ОСНОВЕ СМЕШАННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Рамазонава Моҳичехра Содиқ қизи,
старший преподаватель Кокандского университета
mramazanova07@gmail.com

В статье анализируется сущность технологий смешанного обучения, их роль в привлечении студентов в спортивные секции, а также вопросы эффективной организации этого процесса посредством дидактических механизмов. Технологии смешанного обучения являются важным фактором повышения мотивации к занятиям спортом и формирования здорового образа жизни. Исследование раскрывает способы повышения активности студентов путем интеграции современных цифровых технологий в деятельность спортивных клубов.

Ключевые слова: смешанное обучение, спортивные секции, педагогические основы, дидактические механизмы, студенты, интерактивные методы, здоровый образ жизни.

DIDACTIC MECHANISMS FOR ENGAGING STUDENTS IN SPORTS CLUBS BASED ON BLENDED EDUCATIONAL TECHNOLOGIES

This article analyzes the essence of blended learning technologies, their role in attracting students to sports clubs, as well as the issues of effective organization of this process through didactic mechanisms. Blended learning technologies are an important factor in increasing motivation for sports and forming a healthy lifestyle. The study reveals ways to activate student participation by integrating modern digital technologies into the activities of sports clubs.

Keywords: mixed education, sports section, pedagogical basics, didactic mechanisms, students, interactive methods, healthy image.

ARALASH TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O'QUVCHILARNI SPORT KLUBLARIGA JALB ETISH DIDAKTIK MEXANIZMLARI

Maqolada aralash ta'lim texnologiyalarining mazmun-mohiyati, ularning o'quvchilarni sport seksiyalariga jalb etishdagi ahamiyati hamda bu jarayonni didaktik mexanizmlar orqali samarali tashkil etish masalalari tahlil etilgan. Qo'shma ta'lim texnologiyalari sportga bo'lgan qiziqishni oshirish va sog'lom turmush tarzini shakllantirishda muhim omil bo'lmoqda. Tadqiqot zamonaviy raqamli texnologiyalarni sport klublari faoliyatiga integratsiyalash orqali talabalar faolligini oshirish yo'llarini ochib beradi.

Kalit so'zlar: aralash ta'lim, sport bo'limlari, pedagogik asoslar, didaktik mexanizmlar, o'quvchilar, interfaol usullar, sog'lom turmush tarzi.

Введение. Сегодня внедрение современных технологий в образовательный процесс стало важной педагогической потребностью. В частности, технологии смешанного обучения повышают интерактивность обучения, активизируют деятельность учащихся, побуждают их к самостоятельному получению знаний. Время показывает, что эти технологии необходимо использовать не только в теоретических науках, но и в практических областях, включая физкультуру и спорт. Пропаганда здорового образа жизни среди студентов, повышение физической активности, привлечение внимания к спортивным секциям являются одними из актуальных задач, стоящих перед высшими учебными заведениями. Однако традиционные методы не могут полностью решить эту проблему. Поэтому возникает необходимость актуализации педагогического подхода к организации работы спортивных секций и эффективного использования возможностей цифровых технологий и смешанного обучения. Использование технологий смешанного обучения в спортивном образовании в настоящее время является одним из наиболее актуальных вопросов. Эта модель может повысить интерес учащихся к спорту и эффективно вовлечь их в физическую активность. [2]

В данной статье на основе исследований, проводимых в этом направлении, будет проанализировано состояние интеграции технологий смешанного обучения со спортивными клубами, их эффективность и дидактические механизмы в этом процессе. Также при активном вовлечении студентов в спортивный кружок раскрываются научно-теоретические основы новых стилей.

Цель: разработка педагогических основ и дидактических механизмов технологий смешанного обучения в повышении эффективности привлечения учащихся в спортивные кружки.

Задачи: определение содержания технологий смешанного обучения;

Анализ деятельности спортивных кружков;

Выявление педагогических подходов к вовлечению учащихся;

Предложить эффективные дидактические механизмы.

Сегодня технология смешанного обучения применяется во многих высших учебных заведениях Узбекистана. Например, в Самаркандском государственном университете изучались развитие, виды, преимущества и недостатки методов смешанного обучения. Также инновационные формы смешанного обучения изучаются в рамках дисциплины «Технологические образовательные методики» Джизакского государственного педагогического университета.

Ученые нашей страны И. Джаббаров, Ю. Джумабаев, Х. Зиев, Д. Кенджаева, К. Наджмиддинова, К. Назаров, Д. Рахимбоева, М. Хайруллаев, М. Холматова, Р. Худойбергенова, Х. Шаихова, Э. Юсуров, Н. Холметова и другие изучали духовность, культуру личности, роль духовной культуры в повышении ее социальной активности, разработку педагогических основ привлечения студентов в спортивные секции и ее философские аспекты. [11]

Внедрение смешанной формы обучения в образовательную систему о'помогает сделать процесс обучения более эффективным и гибким. Однако для его успешного применения необходимо эффективное использование цифровых инструментов учителями и учениками, а также соответствующая инфраструктура и методические рекомендации.[12]

Технология смешанного обучения считается очень эффективной не только для теоретических дисциплин, но и для практических занятий, в том числе спортивных кружков. Это достигается за счет подхода.

- студенты могут получать теоретические знания о спорте онлайн, а практические упражнения могут укрепить физические навыки. Например: онлайн-урок обучает здоровому образу жизни, правильным методам упражнений и здоровому питанию, в то время как практическое занятие закрепляет эти знания с помощью реальных действий.

Технологии смешанного обучения начали развиваться во всем мире с 1990-х годов. Возрастает значение этого подхода и в системе образования Узбекистана. Например, в 2024 году Алламова Шохиста провела научную работу на тему совершенствования системы образования на основе цифровых технологий в условиях смешанного образования. Развитие педагогических основ вовлечения учащихся в спортивные кружки на основе технологии смешанного обучения необходимо для того, чтобы будущий специалист систематически осознавал важность физической культуры и спорта в студенческие годы, был не только специалистом своего дела, но и человеком, обладающим различными умениями и навыками восстановления организма после тяжелого труда. В связи с этим большое значение имеет изучение рассматриваемой проблемы. В исследовании Т.И. Исаевой были выявлены содержание вовлечения студентов в спортивные секции на основе технологии смешанного обучения, технологии их изучения и сопровождения, установлены структурно-функциональные связи содержания образования, а также выявлены различные средства формирования здорового образа жизни студентов на основе технологии смешанного обучения.

Ошина О.В. Проведенное автором диссертационное исследование показывает, что если подготовка студента к кружковым занятиям в образовательном процессе вуза строится на акмеологическом подходе, если формирование эмоций осуществляется с использованием внутренних и внешних мотивов, если стимулируются механизмы рефлексии и самоопределения, то реализуется акмеологический конфликт. успешно сформирован.

В целях содействия решению проблемы разработки педагогических основ привлечения студентов к занятиям в спортивных секциях на основе технологии смешанного обучения разработаны и апробированы в исследовательском порядке рациональные методы сочетания аудиторных и внеаудиторных занятий по физической культуре с целью разработки педагогических основ привлечения студентов к занятиям в спортивных секциях и развития оздоровительных направлений в высших учебных заведениях. [9]

Методология. Методология данного научного исследования направлена на углубленное изучение процесса привлечения студентов в спортивные секции с использованием технологий смешанного обучения. Теоретическая часть исследования по формированию, развитию и совершенствованию потребности в здоровом образе жизни у студентов высших учебных заведений предусматривала три этапа – выявление, формирование и контроль – в ходе реализации разработанной исследователем программы.

Целью этапа идентификации является создание начальных условий для исследовательской работы. Целью этапа формирования является создание контрольной и экспериментальной групп и апробация разработанной программы в экспериментальной группе, создание практических и теоретически обоснованных редакционных условий для ее реализации. Целью контрольного этапа является выявление того, как изменилась потребность в здоровом образе жизни в исследовательской группе в результате реализации нашей программы, сравнение результатов, полученных в результате несложной учебной работы в контрольной группе; сделать выводы. Процесс выработки педагогических основ привлечения учащихся в спортивный кружок на основе технологий смешанного обучения у его воспитанников имеет такие существенные стороны. Потому что этот процесс связан с результатами и требует постоянной работы над собой, обновления и совершенствования рабочего процесса. В теоретической части исследования представлена логическая последовательность действий, позволяющая определить эффективность разработанной нами программы. Исследование проводилось на основе следующих методологических подходов:

Метод наблюдения: Систематически наблюдался процесс тренировочных занятий, проводимых в спортивных клубах на основе смешанного обучения (т.е. традиционного + цифрового). В ходе наблюдения было отмечено следующее:

- Регулярность участия студентов;
- Уровень активности в обучении;
- Варианты использования технологий (видеоуроки, дистанционное обучение, упражнения через мобильные приложения).

Метод опроса: Специально разработанные анкеты были распространены среди студентов и спортивных тренеров. Анкета была адресована:

- Мнения и отношение к использованию технологий смешанного обучения;
- Причины и препятствия для участия в спортивных клубах;
- Влияние спортивных тренировок, проводимых с использованием технологий, на мотивацию.

В результате был определен уровень восприятия спортивного отношения и цифровых подходов среди студентов. **Анкета исследования** включала три блока вопросов:

Блок 1 направлен на разработку педагогических основ вовлечения студентов в спортивные секции на основе технологий смешанного обучения;

Блок 2 направлен на разработку педагогических основ вовлечения студентов в спортивные секции на основе технологий смешанного обучения;

Блок 3 был призван предоставить информацию о роли разработки педагогических основ вовлечения студентов в спортивные секции на основе технологий смешанного обучения.

Инструментами исследования являются анкеты, состоящие из 3 блоков по 30 вопросов, из которых 60% представлены в явном виде, 30% - в полужавном виде, а также есть формат «другое» вне списка возможных ответов, в котором студент может написать собственное мнение по изучаемой проблеме. дали возможность. Оставшиеся 10% представляли собой открытые вопросы, позволяющие респондентам свободно выражать свое мнение и отношение к конкретной проблеме.

Экспериментальный метод: В качестве эксперимента были сформированы две группы: Экспериментальная группа проводила спортивные тренировки на основе технологий смешанного обучения (например, онлайн-задания через Telegram/Zoom, видеоупражнения, элементы геймификации).

Контрольная группа занималась только традиционными методами (регулярные тренировки в спортзале). В ходе эксперимента сравнивались показатели активности, частоты участия и физической подготовленности двух групп.

Целью организации опытно-экспериментальных работ является определение степени эффективности использования педагогических условий, обеспечивающих возможность подготовки к профессиональной деятельности для совершенствования дидактических возможностей разработки педагогических основ «Вовлечения студентов в спортивные секции на основе технологий смешанного обучения». Планирование, организация экспериментальной работы и обработка полученных материалов осуществляются на основе рекомендаций и указаний, приведенных в специальной литературе и научных трудах по редакционным исследованиям (Ю.К. Бабанский, Д.В. Чернилевский, Н.А. Зиновьев, М.М. Гаирбеков и др.). Пилотный проект был реализован в три этапа в период с 2021 по 2022 год.

На первом этапе (ноябрь-декабрь 2021 г.) были проведены опросы по проблемам исследования среди студентов БГУ, АНДПИ и КУ на основе программы исследования. Анкетирование проводилось при содействии преподавателей БГУ, АНДПИ, КУ, деканов, заведующих кафедрами,

магистров и директоров, а также под внешним руководством научных сотрудников, вошедших в рабочую группу.

На втором этапе (2020–2021 гг.) проводился анализ анкетных, тестовых и экспериментальных материалов.

На третьем этапе был проведен сравнительный анализ данных, полученных в 2022–2023 годах.

Экспериментальная апробация и оценка эффективности разработки педагогических основ вовлечения студентов в спортивные секции на основе разработанных технологий смешанного обучения проводились в образовательных программах БГУ АНДПИ, КУ по направлениям «Туризм (спортивно-оздоровительный туризм)» и «Спортивно-подвижные игры». В ходе экспериментальной работы были выявлены: мотивация студентов к учебной деятельности; приобретение студентами знаний и навыков по профессиональным дисциплинам; применять знания и навыки, полученные в профессиональных дисциплинах; остаточные знания по профессиональным дисциплинам; Определено отношение студентов к профессиональным предметам.

Результаты. Опытно-экспериментальное изучение профессиональных дисциплин в группе проводилось по разработанной методике. При структурировании учебного материала и применении педагогической технологии основное внимание уделялось выполнению практических работ, являющихся элементами проектной деятельности, решению обобщенных образцовых задач и творческих проектов.

Сформулируем следующие две гипотезы; H_0 - нулевую гипотезу (об отсутствии различий), H_1 - альтернативную гипотезу (о значении различий) H_0 : уровень увеличения процента положительных ответов обучающихся экспериментально-тестовой группы, изучающих курс по методике подготовки к профессиональной деятельности, традиционно не превышает уровень увеличения процента положительных ответов обучающихся контрольной группы, получающих образование.

H_1 : уровень увеличения процента положительных ответов обучающихся экспериментально-тестовой группы, изучающих курс по методике подготовки к профессиональной деятельности, традиционно выше, чем уровень увеличения процента положительных ответов обучающихся контрольной группы, получающих образование.

Используя таблицу, мы сначала сравниваем количество правильных ответов контрольной и экспериментальной групп.

Степень увеличения положительных ответов студентов, изучающих свои профессиональные дисциплины по методике подготовки к профессиональной деятельности, будет выше, чем степень увеличения процента положительных ответов студентов, изучающих курс традиционным способом.

Следовательно, можно считать, что в результате применения методики подготовки педагогов к профессиональной деятельности в преподавании профессиональных дисциплин будущее профессиональное образование становится более эффективным в подготовке педагогов к профессиональной деятельности. Педагогический эксперимент подтвердил гипотезу исследования. [10]

Заключение. Из других педагогических предпосылок совершенствования дидактических возможностей развития педагогических основ привлечения учащихся в спортивный кружок на основе технологий смешанного обучения ценностные подходы. В целях активного освоения основных аспектов здорового образа жизни на занятиях использовались сюжетно-ролевые игры, тематические исследования, групповое обсуждение, мозговой штурм, видеоанализ, видеоролики, демонстрируемые тренером по предложенной теме. На этапе формирования исследовательской работы поэтапная реализация авторской программы направлена на формирование потребности в здоровом образе жизни через спортивные игры, разработанные нами, в частности, волейбол и другие виды спорта. Это позволило протестировать целенаправленную последовательность действий.

Программа совершенствования потребности в разработке педагогических основ привлечения учащихся в спортивный кружок на основе технологий смешанного обучения может выступать в качестве матрицы и позволяет применять ее в условиях любого образовательного учреждения, независимо от географического положения.

Предложения. На основании вышеизложенных выводов и результатов исследования представлены следующие рекомендации:

1. Внедрение инновационных методов обучения на основе мобильности учебно-методического обеспечения при разработке педагогических основ привлечения учащихся в спортивный кружок на основе технологий смешанного обучения;

2. Разработка механизмов создания дифференцированных электронных программ и веб-сайтов дидактических возможностей развития педагогических основ вовлечения учащихся в спортивный кружок на основе технологий смешанного обучения различных слоев населения;

3. Здоровый образ жизни у людей с ограниченными возможностями здоровья, в формировании жизненных навыков, выявлении и внедрении в практику подходящих для них видов спорта-оздоровления.

Литературы:

1. Рахимов В. Электронный информационный образовательный ресурс” физкультурно-спортивный оздоровительный туризм " (свидетельство Агентства интеллектуальной собственности при Министерстве юстиции Республики Узбекистан № БГУ 00492)

2. Рахимов В. Методика обучения физкультуре и подвижным играм (спортивным играм). - Т.: «Фан Зиясы», 2022, 512 с.5. Расулова О. Совершенствование организационных механизмов реализации принципов системности и преемственности в формировании здорового образа жизни молодежи. Эд. наука. доктор...дис. - Ташкент, 2015. - 316 с.

3. Рисулова К. Сотрудничество неправительственных организаций в развитии культуры здорового образа жизни молодежи: пед. наука. имя Дис. Автореф. - Ташкент: Узгту, 2011. - 21 С.

4. Рожков М.И., Гребенюк О. С. , Байбородова Л. V. , Гребенюк. Б. Педагогика V 2 т. Том 1.— М.: Издательство Юрайт, 2018.— 402

5. Рокич М. Ценностные ориентации – Санкт-Петербург: Питер, 2015. – 704 С.

6. Рузиева Д.И. Научно-педагогические основы развития чувства национальной гордости у студентов высших образовательных организаций: пед. наука. d - ri dis. - Ташкент:тдПУ, 2007. - 274 С.

7. Мелешкова Н.А. Формирование здорового образа жизни студентов вуза в процессе физического воспитания. автореф. кан. пед. наука-Камерова, 2005. - 28 С.

8. Разработка автора

9. Yuldosheva S.M. O‘zbekistonda sog‘lom avlodni ma’naviy tarbiyalashning ijtimoiy-pedagogik asoslari: Ped. fan. nom dis. - Toshkent, ROIAM, 2001. - 119 b.

10. Yusupov Ye. Yoshlarning ma’naviy kamoloti. -Toshkent: O‘zbekiston, 1995. - 32

**O‘ZBEKISTON CHEMPIONATIDA QATNASHGAN JAMOALARNING BURCHAK
BO‘YLAB (GANDBOL) O‘YNAYDIGAN O‘YINCHILARINI JISMONIY
TAYYORGARLIKLARINI BAHOLASH**

Abduyeva Sitorabonu Savriddin qizi,

*Buxoro davlat pedagogika instituti
Jismoniy tarbiya va sport kafedrasi dotsenti*

Ushbu maqolada burchak bo‘ylab o‘ynaydigan gandbolchilarning texnik-taktik tayyorgarligini tadqiq qilish orqali ularning musobaqa davrida texnik-taktik harakatlarni namoyon eta olishlarini tahlil qilish, o‘quv-mashg‘ulot jarayoniga zamonaviy vosita va usullarni joriy etish, ushbu vosita usullardan murabbiylar samarali foydalansalar ko‘zlagan maqsadlariga erishishlari birmuncha osonroq kechadi.

Kalit so‘zlar: *musobaqa, burchak o‘yinchisi, handbol, texnik-taktik harakatlar, o‘quv-mashg‘ulot, jismoniy tayyorgarlik.*

**EVALUATION OF PHYSICAL TRAINING OF CORNER PLAYERS (HANDBALL) OF
TEAMS PARTICIPATING IN THE UZBEKISTAN CHAMPIONSHIP**

This article aims to analyze the technical and tactical training of corner handball players by studying their ability to demonstrate technical and tactical movements during the competition period, introduce modern tools and methods into the training process, and if coaches effectively use these tools and methods, it will be easier for them to achieve their goals.

Keywords: *competition, corner player, handball, technical and tactical movements, training, physical training.*

**ОЦЕНКА ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ УГЛОВЫХ ИГРОКОВ (ГАНДБОЛ)
КОМАНД, УЧАСТВУЮЩИХ В ЧЕМПИОНАТЕ УЗБЕКИСТАНА**

Целью данной статьи является анализ технико-тактической подготовки гандболистов-угловых путем изучения их способности демонстрировать технико-тактические действия в соревновательный период, внедрение современных средств и методов в тренировочный процесс, и если тренеры будут эффективно использовать эти средства и методы, им будет легче достичь поставленных целей.

Ключевые слова: *соревнование, угловой игрок, гандбол, технико-тактические действия, тренировка, физическая подготовка.*

Kirish. Musobaqa davrida malakali gandbolchilarning texnik-taktik harakatlari samaradorligini ilmiy nazariy jihatdan baholash va ularni tahlil qilish, tahlil natijalariga ko‘ra tegishli tavsiyalar berish, mashg‘ulot jarayotida esa ushbu tavsiyalarga jiddiy yondoshish, mashg‘ulotlarni zamonaviy pedagogik texnologiya asosida tashkil etish va o‘tkazish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Birok, bizning bosh maqsadimiz sportga tayyorlashning ijtimoiy pedagogik jihatlari bo‘lganlari bois mazkur masalaga asosiy e‘tiborimizni qaratdik. O‘rganishlar, dalillar, izlanishlar gandbolchilarni anplua bo‘yicha tayyorlashining ijtimoiy pedagogik, jihatlarni ham o‘rganish o‘znavbatida ishning dolzarbligini belgilab beradi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda sportning rivojlanishiga yuksak hissalarini qo‘shayotgan pedagog olimlar va mutaxassislar, Ayrapetyans L.R., R.S. Salomov, R.D. Xolmuxammedov, F.A. Kerimov, T.T. Yunusov, Yu.M. Yunusova, T.S. Usmonxodjaev va boshkalar jismoniy tarbiya nazaryasi va uslubiyoti masalalariga jiddiy e‘tibor karatib qo‘llab ilmiy taqiqotlarni olib borganlar.

Adabiyotlar tahlili, jismoniy tarbiya va sport sohasining asosiy tarmoqlardan hisoblangan sportning gandbol bo‘yicha maxsus taqiqotlar olib borgan olimlarning ilmiy taqiqotlaridan va mazkur sohaga oid adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari kasb mahoratini rivojlantirishning me‘zonlari ham o‘rganilganini ko‘rish mumkin. Gandbol sport turi bo‘yicha mahsus taqiqotlar olib borgan olimlardan Ignateva U.Ya., Seytxalilov Ye.A., F.A. Izaak. T.E. Nabiev va boshqalarning ishlarini o‘qishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil

Bizning tadqiqot ishimizda oliy liga jamoalarining chiziq bo‘ylab o‘ynaydigan gandbolchilarning musobaqaga tayyorgarlik davri va musobaqadavridagi jismoniy, texnik-taktik tayyorgarligi o‘rganildi.

Gandbolchilarning jismoniy tayyorgarligini baholashda quyidagi test normativlaridan foydalanildi.

1. 30 metrga yugurish.
2. 100 metrga moksimon yugurish.
3. Joydan yukoriga sakrash (Abalakov testi bo'yicha) sm.
4. To'pni uzoqlikka otish.
5. Ko'per testi (12 daqiqa).

Oliy liga jamoalarida o'ynaydigan burchak o'yinchilarining tayyorlov davridagi jismoniy tayyorgarligi maxsus test normativlari bilan tekshirilganda quyidagicha natijalar olindi. (1-jadval).

Gandbolchilarning jismoniy tayyorgarligini test normativlari bo'yicha ko'rsatkichlari.
(tadqiqotdan oldin va keyin).

1- jadval.

№	FISH (jamo)	30 m to'pni yerga urib olib yugurish soniya		100 m moksimon yugurish, soniya		Joydan yuqoriga sakrash Abalakovtesti bo'yicha sm		To'pni uzoqlikka otish, metr		Ko'per testi, metr	
		T/on	T/kn	T/on	T/kn	T/on	T/kn	T/on	T/kn	T/on	T/kn
1.	Ismoilov I (BuxDu)	4,8	4,0	24	20	64	69	53	57	2755	2820
2.	Mahmudov Z (BuxDu)	4,6	4,4	22	19	60	63	55	59	2800	2910
3.	Muminov F (Surxandaryo)	4,4	4,1	24	23	66	68	49	51	2730	2780
4.	Xonqulov J (Surxandaryo)	4,7	4,3	25	24	62	64	56	60	2790	2850
5.	Xusanboev D (OGMK)	4,2	4,0	22	20	71	73	51	54	2750	2785
6.	Jalilov V (OGMK)	4,5	4,5	23	19	64	65	54	53	2700	2780
7.	Tursunov O (Toshkent sh)	4,5	4,1	23	22	65	67	47	49	2735	2760
8.	Tohirov Sh (Toshkent sh)	4,7	4,3	26	24	60	59	49	56	2720	2810

Yuqoridagi jadvalni tahliliga ko'ra jamoalar tayyorgarlik davrida jismoniy tayyorgarlikka jiddiy e'tibor qaratganlar, buning isbotini tadqiqotdan oldin va tadqiqotdan keyingi natijalarni qiyos qilib bilib olishimiz mumkin.

Ushbu jadvalda gandbolchilarning jismoniy tayyorgarligi tadqiqotdan oldin qayd etgan natijalariga nisbatan tadqiqotdan keyingi natijalari ma'lum bir ko'rsatkichlarga o'sganligi jadvalda o'z aksini topgan.

Jamoalarning jismoniy tayyorgarligi bo'yicha olingan ma'lumotlardan “BuxDu” jamoasi gandbolchilarida mashg'ulotlarda jismoniy, texnik-taktik tomonlama o'zlashtirishlari va takomillashtirishlari yaxshi darajada ekanligini ta'kidlash mumkin. “BuxDU” jamoasi gandbolchilarining tayyorlov davri, musobaqa davri bo'yicha jismoniy tayyorgarlikni yuklama taqsimoti quyidagicha ko'rinishda bo'lgan: tayyorlov davrida jismoniy sifatlarga 70% hajmdagi yuklamalar berilgan; maxsus tayyorgarlik davrida jismoniy yuklamalar 45% ga va texnik-taktik tayyorgarlikka doir mashqlar 55% ni tashkil etgan.

Musobaqa davrida sport tayyorgarligiga erishish va shu holatning saqlanishi uchun har bir kalendar o'yinida yuksak darajadagi ishchanlik qobiliyatiga ega bo'lish uchun zarur sharoitlar yaratilishi shart.

Taxlilda gandbolchilarning xujum harakatlarining xar xil turlari, shakllari va ko'rsatkich samaradorligi xisobga olindi. Burchak amplua o'yinchilarining xujum natijasining yakunlanishi darvozaga to'p kiritish imkoniyati me'yor bo'lib hizmat qildi. Bunda xujum uchun vaqt rakiblarga o'tgan vaktgacha hisoblanadi. To'pni darvozaga otish va to'pni yukotishga o'xshash texnik usullar xujum kilish sifati tarikasida foydalanildi.

To'p otishni bajarish samaradorligini baholash uchun shartli belgilar sxemasi tuzildi, bunda maydonning qaysi joyidan to'p darvozaga otilgan va gandbolchilar o'tishi vazifalari xisobga olindi.

Ko'rsatkichlarni baholash uchun to'p otishni ikki guruxga bo'ldik natijali va natijasiz. Ijrochi o'yinchi ismi sharifi to'g'risiga ko'yilgan (+) to'p otish natijali, agar (-) belgi ko'yilsa, bu natijasiz hisoblanadi. Bundan tashkari to'p otishning joyi, masofasi va qanday bajarganligi xam xisobga olindi. Bular quyidagi ko'rinishga ega:

(+ U) - uzok masofadan natijali to'p otish; (+ O') - o'rta masofadan natijali to'p otish; (+Q) - kiska masofadan natijali to'p otish; (+ F) - fintdan so'ng natijali to'p otish;

(+ K) - keskin yorib utib natijali to'p otish;

(+ T) - tez yorib o'tishdan so'ng natijali to'p otish. Natijali darvozaga to'p otishdan tashkari va ana xujum faoliyati samaradorligi xam xisobga olindi. Bular jumlasiga quyidagilar kiradi:

G - golga olib keluvchi to‘p uzatish;

Ye - yetti metrli jarima to‘pi otishga olib keluvchi to‘p uzatish;

J - raqib jamoa o‘yinchilarini maydondan chiqartirib va jarima to‘p otishga erishish.

Natijasiz otilgan to‘pni qayd etish uchun yuqoridagi uslub ko‘llanildi, ammo, bunda natijasizlikni tasniflovchi belgilardan foydalanildi. Bu belgilar quyidagi ko‘rinishda tasniflanadi:

DU - darvoza ustuni;

UYo - darvoza ustunlari yonidan o‘tib ketdi; D - darvozabon ushlab qoldi;

T - to‘siqqa tegdi.

Natijasiz yakunlangan to‘p otishlarni quyidagicha belgiladik: UD - uzok masofadan otilgan to‘p darvoza ustuniga tegdi;

-DYo - uzok masofadan otilgan to‘p darvoza ustunlari yonidan o‘tib ketdi;

-DD - uzok masofadan otilgan to‘p natijasiz bo‘ldi (darvozabon) qaytardi;

UT - uzoq masofadan otilgan to‘p to‘siqqa tegdi.

O‘yinchilar tomonidan xujumda yo‘l qo‘yilgan xatolar quyidagicha belgilandi:

NU - noto‘g‘ri to‘p uzatish; I - ilishda xato qilindi;

T - to‘pni olib yurishda xatoga yo‘l ko‘yildi; TYu - to‘p bilan uch qadam qoidasi buzildi.

Gandbolchilarning musobaqa faoliyatining ko‘rsatkichlari natijalarini qayd etish, bajargan usullarni xisoblash yo‘li bilan amalga oshirildi. Yo‘l ko‘yilgan xatolar va ko‘rsatgan natijalar statistik taxlil qilish yo‘li bilan qayd etildi,

O‘yin faoliyatining faolligi texnik-taktik xarakterlarni bajarish soni yigindisi bilan aniqlandi. Texnik-taktik malakalar darajasi gandbolchilarning o‘yindagi faoliyati quyidagi formula bo‘yicha baxolandi:

Foydali xarakat koeffitsienti ($FXD = A/XS \cdot 100\%$) bunda A - foydali texnik-taktik xarakat yigindisi;

XS - texnik-taktik xarakatlarning umumiy soni.

Musobaka faoliyatini sifatli baxolash, o‘yinda samarali va samarasiz bajarilgan usullar bilan aniqlash ko‘zda tutiladi. Shu maqsad bilan ijobiy va salbiy xarakterlar farqi tugrisida chegara belgilandi. Ijobiy xarakterlar soniga quyidagilar kiritildi: to‘pni olib ko‘yish, to‘pni to‘g‘ri uzatish, natijali to‘p otishlar, golga olib keluvchi to‘p uzatish va 7 metrli jarima to‘p otishga imkon yaratish, raqibni ikki: daqiqa o‘yindan chetlatish, to‘p otishni bajaruvchi raqibga chiqish va uni "bog‘lab" ko‘yish, to‘p otuvchi raqib o‘yinchisiga xar xil xolatda (yukoridan, yondan, pastdan) to‘siq qo‘yish.

Salbiy xarakterlar jumlasiga quyidagilar kiritildi: to‘pni olib qo‘yishdagi xato, 2 daqiqa o‘yindan chetlatilish, 7 metrli jarima to‘p otishga imkon berish.

Gandbolchilarning texnik-taktik xarakterlarini samaradorligini sifatliroq baxolash uchun V.M. Goncharenko (1990) tavsiya etgan matematik modeldan foydalanildi. Gandbolchilarning malakasi va vazifalarini xisobga olib baxolash me‘yorlaridan foydalanish, xolisona o‘yinni majmuaviy baxolash uchun ko‘llaniladi.

Biz oldimizga qo‘ygan maqsad va vazifalarini amalga oshirish uchun 2024-yil O‘zbekiston milliy chempionati III-turida, “BUXDU” jamoasi burchak o‘yinchilarining xujumdagi texnik-taktik harakatlarini o‘rganib chiqdik hamda samaradorligini nazorat qildik, burchak o‘yinchilarining texnik-taktik tayyorgarligini solishtirish maqsadida ushbu turda ishtirok etgan, Olmaliqning “OGMK”, Surxandaryoning “Surxandaryo”, Toshkent shaharning “Toshkent shahar” jamoalarining burchak o‘yinchilarini xujum texnik-taktik harakatlari nazorat qilindi va natijalar quyidagi jadvalda aks ettirilgan. (1-jadval).

O‘zbekiston chempionati oliy liga jamoalarida o‘ynaydigan burchak o‘yinchilarining xujumdagi texnik-taktik harakatlari tahlili (bir uchrashuvda), (tadqiqotdan oldin).

2- jadval.

№	Burchak o'yinchilari	Texnik-taktik harakatlar															Samaradorligi			
		To'pni ilish			To'pni uzatish			Aldab o'tish			To'p otish			To'psiz o'ynash			Jami			Umumiy samarad orligi
	Bajarilgan harakatlar	ubh	abh	nbh	ubh	abh	nbh	ubh	abh	nbh	ubh	abh	nbh	ubh	abh	nbh	ubh	abh	nbh	
1	Ismoilov I (BuxDu)	48	41	7	47	43	4	14	8	6	12	5	7	7	3	4	128	100	28	78,1
2	Mahmudov Z (BuxDu)	45	36	9	40	33	7	12	5	7	10	4	6	5	3	2	112	81	31	72,3

3	Muminov F (Surxandaryo)	48	42	6	50	46	4	12	7	5	12	7	5	6	3	3	128	105	23	82,0
4	Xonqulov J (Surxandaryo)	45	38	7	41	35	6	9	4	5	10	4	6	7	3	4	112	84	28	75,0
5	Xusanboev D (OGMK)	52	46	6	54	47	7	12	8	4	13	9	4	9	7	2	140	117	23	83,5
6	Jalilov V (OGMK)	49	44	5	51	46	5	10	6	4	11	6	5	7	4	3	128	106	22	82,8
7	Tursunov O (Toshkent sh)	51	44	6	49	46	3	16	9	7	13	6	7	9	5	4	138	110	27	79,7
8	Tohirov Sh (Toshkent sh)	47	43	4	50	44	6	13	7	6	15	8	7	8	4	4	133	106	27	79,6

Izoh: Samaradorligi % hisobida ko'rsatilgan.

Yuqoridagi jadvalni qisqacha tahlil qilar ekanmiz “BUXDU” jamoasi burchak o'yinchilarining xujumdagi texnik-taktik harakatlarining samaradorligi I. Ismoilov da 78,1 %, Z. Maxmudov 72,3 % ni tashkil etdi, bu ko'rsatkich oliy liganing yetakchi jamoalari “Toshkent shahar” hamda “OGMK” jamoalarining burchak o'yinchilari qayd etgan natijalaridan biroz pastroq, oliy liganing o'rtame'yona jamoalarining burchak o'yinchilari qayd etgan natijalardan biroz yaxshiroq ekanligi kuzatildi.

Xulosa. Malakali gandbolchilarni ya'ni burchak o'yinchilarning texnik-taktik tayyorgarliklari ularning musobaqa faoliyatida samarali o'yin namoish etishiga keskin ta'sir etuvchi omillardan xisoblanadi. Texnik-taktik tayyorgarliklari bilan birgalikda ularning barcha jismoniy sifatleri rivojlanganlik darajasi yuqori bo'lishi kerak. Malakali gandbolchilarni jismoniy tayyorgarligida tezlik kuch sifatlarini ahamiyati o'zgacha.

Ilg'or gandbol jamoalarning o'yinlari kuzatilganda ximoyadan xujum xarakteriga o'tishda ayniqsa tez bosib o'tishda to'p uzatishdan keng foydalandi. Bizni tadqiqotimizning kontingenti bo'lgan “BUXDU” jamoasining ikki nafar burchak o'yinchisining xujumdagi texnik taktik harakatlarining samaradorligi tadqiq qilindi. Ushbu tadqiqot davomida burchak o'yinchilarining texnik-taktik harakatlarini takomillashtirishga oid mashqlar majmuasi ishlab chiqildi va 6 oy davomida burchak o'yinchilarida qo'llanildi, tadqiqot so'ngida gandbolchilarning xujumdagi texnik-taktik harakatlari nazorat qilindi.

Adabiyotlar:

1. Axel Kromer, Positionstraining für Rückraum, Kreis-und Außenspieler, Deutschland 2015.
2. Werner Grage, «Handball training», Deutschland 2015.
3. Akramov J.A. Gandbol: Darslik 2008 y.
4. Akramov J.A. Postroenie trenirovochnogo protsessa gandbolistov vysshix razryadov v mnogoturovom sorevnovatelnom periode. //Fan-sportga, №3, 2006.
5. Ignateva V.Ya, Txorev V.I, Petracheva I.V Podgotovka gandbolistov na etape vysshego sportivnogo masterstva. M.: “Fizicheskaya kultura” 2005g.
6. Ignateva V.Ya. “Gandbol” // Azbuka sporta. M.: Fizkultura i sport, 2001god.
7. Ignateva V.Ya. Gandbol. // Uchebnoe posobie dlya IFK. M.: FiS.
8. Ignateva V.Ya. Mnogoletnyaya podgotovka gandbolistov v detskogo- yunosheskix sportivnyx shkolax: metod. Posobie / - M.: Sov. sport, 2004 g.
9. Abdueva S. S. Q. The Development of Jumping Ability in Young Handball Players 12-13 Years Old //Athena: Physical Education and Sports Journal. – 2023. – T. 1. – №. 1. – C. 1-5.
10. Abdueva S. Ways to Conduct National Movement Games with Kindergarten Children //Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 2.
11. Abdueva S. S., Ibragimov A. K. Sport o'yinlari va uni o'qitish metodikasi //Buxoro davlat universiteti. – 2021.
12. Abdueva S. S. Sport pedagogikasi fanlari va mutaxassislikka kirish //Toshkent irrigatsiya universiteti. – 2021.
13. Abdueva S. S., Khurbonov S., Sabirova N. Evolution of physical performance and techniques of handball girls aged 11-12 //International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology (IJARSET). – 2019.
14. Abdueva S. S. Q. Peculiarities of Training 13-14-Year-Old Handball Players //Athena: Physical Education and Sports Journal. – 2023. – T. 1. – №. 2. – C. 46-51.

“CHAQIRIQQACHA HARBIY TA'LIM” YO'NALISHI TALABALARINING O'QUV MOTIVATSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Jumaev Furqat Shodmonovich,

Buxoro davlat universitetining mustaqil tadqiqotchisi

Maqolada “Chaqiriqqacha harbiy ta'lim” yo'nalishi talabalarining o'quv motivatsiyalarini rivojlantirish asosida kelgusi kasbiy faoliyatiga tayyorlash masalalari yoritilgan. Shuningdek, “Chaqiriqqacha harbiy ta'lim” yo'nalishi talabalarini o'qitishda mavjud ziddiyatlar va ularning yechimlarini topishga yo'naltirilgan masalalar o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: harbiy ta'lim, talabalar, didaktik jarayon, motivatsiya, o'quv motivatsiyasi, faoliyat, rivojlanish.

РАЗВИТИЕ МОТИВАЦИИ К ОБУЧЕНИЮ СТУДЕНТОВ ПО ПРОГРАММЕ «ОБЫЧНОЕ ВОЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ»

В статье рассматриваются вопросы подготовки студентов по специальности «Допризывная военная подготовка» к будущей профессиональной деятельности на основе развития у них учебной мотивации. Также в ней отражены противоречия в обучении студентов по направлению «Допризывная военная подготовка» и вопросы, направленные на поиск их решения.

Ключевые слова: военное образование, курсанты, дидактический процесс, мотивация, мотивация обучения, активность, развитие.

DEVELOPING THE MOTIVATION TO STUDY OF STUDENTS IN THE “CONVENTIONAL MILITARY EDUCATION” PROGRAM

The article examines the issues of preparing students majoring in "Pre-conscription military training" for future professional activities based on the development of their learning motivation. It also reflects the contradictions in the training of students majoring in "Pre-conscription military training" and issues aimed at finding their solution.

Keywords: military education, cadets, didactic process, motivation, motivation for learning, activity, development.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlari AQSh, Germaniya, Fransiya, Gollandiya, Belgiya, Shveysariya, Janubiy Koreya, Xitoy kabilarda pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining umummadaniy bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish, o'quv motivatsiyasini o'stirishning metodik asoslarini tadqiq qilish bo'yicha ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu jihatdan “Chaqiriqqacha harbiy ta'lim” yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarni bo'lajak kasbiga tayyorlash uchun ularda o'quv motivatsiyasini o'stirishga yo'naltirilgan metodikalardan foydalanishni nazarda tutadi.

So'nggi yillarda mamlakatimiz ta'lim tizimida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilib, innovatsion faoliyat, ilmiy va innovatsion yutuqlarni amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlari takomillashtirilib, “Chaqiriqqacha harbiy ta'lim” yo'nalishidagi didaktik jarayonlarning metodik asoslari yaratildi, shuningdek, o'qitish texnologiyalarini takomillashtirish, xorijiy tajribalarga asoslangan dasturlar ishlab chiqishga katta e'tibor qaratilib, ta'lim tizimining sifat darajasini oshirishga mo'ljallangan strategik yo'nalish belgilandi. Ustuvor vazifalardan biri sifatida "xalqaro ta'lim standartlarini joriy etish, ilmiy tadqiqotlarni rag'batlantirish va o'qitish sifatini baholash, hamda bu orqali oliy o'quv yurtlarining sifati va samaradorligini oshirish" muhim vazifalardan biri sifatida e'tirof etildi. Shu bilan birga, yangilanayotgan O'zbekistonda yangicha fikrlaydigan, iqtisodiyotning jadal rivojlanishiga o'z hissasini qo'shuvchi, nafaqat o'z kasbi va sohaning bilimdoni, balki ummadaniy kompetensiyalarni egallagan, shaxsiy va maxsus malakalarni bo'lajak kasbiy malakalari bilan uyg'un holatda faoliyatida qo'llay oladigan kadrlarga ehtiyoj mavjud.

“Chaqiriqqacha harbiy ta'lim” yo'nalishidagi didaktik jarayonlarni tashkil etish: har qanday mutaxassisning kasbiy faoliyatini to'g'ri tashkil yetish, kelgusi kasbiga bo'lgan qiziqishni oshirish, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan samarali o'zaro munosabat o'rnatish bilish kabilarning yechimini topishga qaratilgan.

“Chaqiriqqacha harbiy ta'lim” yo'nalishi talabalarining o'quv motivatsiyalarini rivojlantirish pedagogika fani oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Bunda kasbiy faoliyatning maqsadi jamiyat

tomonidan belgilanishi hamda uning natijasi jamiyat manfaatlari bilan bog‘liqligi, yoshlarni ijtimoiy munosabatlar tomon yo‘llaydigan motivlarni ijtimoiy tajriba orttirish uchun yo‘llashi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot doirasida biz “motiv”, “motivatsiya”, “o‘quv motivatsiyasi” kabi tushunchalarni talqin qildik.

Motiv - inson xulq-atvorini boshqaradigan, uning yo‘nalishi, tashkiliyligi, faolligi va barqarorligini belgilaydigan fiziologik va psixologik rejaning dinamik jarayoni. Inson qaysi yo‘lni tanlashi motivga, aniqrog‘i, butun motivlar majmuasiga bog‘liq[5; 9-b.].

Motivatsiya (lot. movere) - ruhiy-fiziologik jarayon bo‘lib, u inson harakatini boshqarish, maqsad sari yetaklovchi vosita, tashkillashtirish, faollik va bardoshlilik kabi ma’nolarni anglatadi. Motivatsiya-inson xulq-atvorini boshqaradigan, hayot yo‘lini tanlash imkoniyatini beradigan ehtiyojlar majmuasidir. Binobarin, o‘quv motivatsiyasi “Chaqiriqqacha harbiy ta’lim” yo‘nalishi talabalarining siyosiy ongini rivojlantirish, dunyoning istiqboldagi taraqqiyotini anglash, ular qalbiga vatanparvarlik, daxldorlik tuyg‘ularini singdirish, ularda muhim qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish, kelgusi kasbiga bo‘lgan ishtiyoqini oshirish imkoniyatini beradi. Shu jihatdan olganda, “Chaqiriqqacha harbiy ta’lim” yo‘nalishi talabalarining o‘quv motivatsiyalarini rivojlantirish muhim ijtimoiy-pedagogik masalalar yechimini topishga xizmat qiladi.

Motivatsiya darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, “Chaqiriqqacha harbiy ta’lim” yo‘nalishi talabalarini o‘quv faoliyatiga shunchalik ko‘p omillar jalb qiladi va u shunchalik yaxshi natijalarga erisha oladi. O‘quv jarayoni samaradorligining asosi talabalarda ijobiy o‘quv motivatsiyasini rivojlantirishdir. O‘quv jarayonini samarali boshqarish uchun o‘qituvchidan ta’lim faoliyati motivatsiyasini, uning rivojlanishi va faoliyatining asosiy qonuniyatlarini tushunishni talab qiladi.

O‘quv motivatsiyasi talabalarining didaktik jarayonlarda bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishlarini ta’minlaydi. Xuddi shu bilimlar talabalar tomonidan o‘quv faoliyati natijasida qayta ishlanadi va ijodiy o‘zlashtiriladi. Talabada vujudga kelgan ilmiy nuqtai nazarning barqarorligi unda hosil bo‘lgan ob’ektiv dunyoqarashning tadrijiyligi va izchilligini ta’minlaydi.

O‘quv faoliyati motivlari deganda o‘quv faolligi namoyon bo‘lishiga sabab bo‘luvchi barcha omillar: ehtiyojlar, maqsadlar, ustanovkalar, burch hissi, qiziqishlar va boshqalar tushuniladi. Motiv va motivatsiya bilan bog‘liq muammolar xorij psixologlari E.Torndayk, Z.Freyd, S.Tompson, G.Rozenfeld, G.Xannikatt, R.Vudvords, J.Bruner tadqiqotlarida o‘z ifodasini topdi.

G.Rozenfeld o‘qish motivatsiyasi xarakterining shakllanishida quyidagi omillarni ko‘rsatib o‘tgan. 1. Ta’lim olish uchun o‘qish. 2. Ma’lum qiziqishsiz shunchaki o‘qish. 3. Ijtimoiy identifikatsiya uchun o‘qish. 4. Muvaffaqiyatga erishish yoki muvaffaqiyatsizlikdan qochish uchun o‘qish. 5. Majburlab yoki qo‘rqqanidan o‘qish. 6. Umum qabul qilingan me’yorlarga yoki axloqiy majburiyatlarga asoslangan o‘qish. 7. Hayotda maqsadga erishish uchun ta’lim olish. 8. Ijtimoiy maqsadlarga, talablarga va qadriyatlarga asoslangan ta’lim.

A.Uzoqov ham o‘qish motivlari masalasiga boshqacharoq yondashadi. U talabaning real, yetarli darajada uzoq davom etadigan o‘qish jarayonida vujudga keladigan muammolarini amaliy va nazariy tomonlarini e’tirof etgan[7; 12-b.]. Tadqiqotchi faqat o‘qishni motivatsiyalash, ya’ni har doim ham o‘qish jarayoniga undovchi, anglangan omillar haqidagina emas, shu bilan birga, talabaning motivlari haqida ham fikr yuritadi. Garchi uning fikrlari umumiy xarakterda bo‘lsa ham, ulardagi ayrim yo‘nalishlar diqqatga sazovordir. Bu birinchi navbatda, o‘qish jarayonida bilish xarakteridagi motivlarning ahamiyati va yangi narsani bilishdan paydo bo‘ladigan ichki qanoat hissi, himoya masalalarining qo‘yilishidir. Shuni e’tirof etish kerakki, ushbu ichki qanoat hissi keyinchalik bilim olishga yo‘naltirilgan ijobiy motivatsiya bilan uyg‘unlashib ketadi. Murakkab o‘quv materialini o‘zlashtirishda ichki motivning moyillik uyg‘otuvchi kuch sifatidagi ahamiyati kata. Masalan, mavzu o‘rganilishi jihatidan qanchalik keng bo‘lsa, talaba shunchalik ko‘p aqliy “rag‘batlantirish” (materialni tushunish va o‘z imkoniyatlari doirasini kengaytirish ma’nosida) olishi kerak, ana shunda u keyingi mavzuni yetarlicha qiziqish bilan o‘rganishga kirishadi. U rag‘batlantirish yoki jazolash borasida o‘quv jarayonining shakllarini va ularning o‘ziga xos xarakterli tomonlarini o‘rganadi.

O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 1-bob, 4-moddasiga binoan, ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar qatorida: mamlakatimizda ta’lim-tarbiyaga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar mazmunini barkamol shaxs kamolotini ta’minlashga qaratilgan g‘oyalar belgilaydi va ta’lim sifati va samaradorligiga qo‘yiladigan talablar tahsil oluvchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyasini muntazam oshirib borish, ularning iqtidorini to‘g‘ri tashxislash va yo‘naltirish, jamiyatda oson ijtimoiylashuvini amalga oshirish, turli xil umummadaniy ko‘nikmalarini qaror toptirish kabilarda ko‘zga tashlanadi[1]. Respublikamizda ta’lim tizimini tubdan o‘zgartirish, bozor konyuyunkturasida intellektual rivojlangan yosh avlodni tarbiyalash, oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifati va uni baholash mezonlarini jahon andozalariga muvofiqlashtirish kabi vazifalarni bajarish e’tirof etilgan.

Konseptual asoslarga muvofiq ta'lim-tarbiya va o'quv jarayonlarining tarkibi, bosqichlarini bir-biri bilan uzviy bog'lash, ya'ni uzlyuksiz ta'lim-tarbiya tizimini tashkil qilish, ta'lim-tarbiya tizimini bugungi zamonaviy, taraqqiy topgan demokratik davlatlar talablariga javob bera oladigan qilib boshqarishga yo'l ochilmoqda[1,2,3].

Tahlillarimizdan ayon bo'lishicha, so'nggi yillarda “Chaqiriqqacha harbiy ta'lim” yo'nalishi tizimini isloh qilish, xususan ularni yangi mazmunda qurish borasida keng miqyosda islohotlar olib borildi va bu ishlar davom etmoqda. Biroq, mazkur sohada yana jonlantirilishi lozim bo'lgan bir qator vazifalar mavjud. Aynan:

“Chaqiriqqacha harbiy ta'lim” tizimi uchun yangi avlod kadrlar va rahbarlarni tayyorlash, ularni kasbiy kompetentligini oshirishning yangi milliy modelini yaratish;

-ta'lim tashkilotlaridagi pedagogik jarayonni demokratlashtirish, uni erkinlashtirish va modernizatsiya qilish, ta'lim va tarbiya jarayoniga innovatsion metodikalarni joriy qilish;

-aniq va maqsadli va mamlakat istiqboli taraqqiyotiga aloqador bo'lgan ilmiy ishlar ko'lamini kengaytirish;

“Chaqiriqqacha harbiy ta'lim” yo'nalishida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar kasbiy professiogrammasidan o'rin olgan professional, shaxsiy, umummadaniy, ma'naviy va axloqiy determinantalar rivojiga aloqador parametrlarning psixologik jihatdan tadqiq qilish; talabalarni yagona maqsad sari birlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan strategiyani ishlab chiqish;

“Chaqiriqqacha harbiy ta'lim” yo'nalishi talabalarining stress va depressiyaga chidamlilik quvvatini oshirish va h.k.lar sohada mavjud ziddiyatlar va ularning yechimlarini topishga yo'naltirilgan masalalar hisoblanadi. Shuningdek, ilmiy ishlanmalar, turli adabiyot va manbalar tahlilidan ayon bo'ldiki, “Chaqiriqqacha harbiy ta'lim” yo'nalishida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarning kasbiy, boshqaruvchanlik kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari bugungi zamonaviy yondashuvlar negizida to'laqonli o'rganilmagan.

Ma'lumki, pedagogik jarayon – pedagogik kategoriyalardan biri bo'lib, ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan pedagogik faoliyati ta'sirida tashkiliy shakllantirilgan va mazmunan boyitilgan tizimdir [5;12-b.]. “Chaqiriqqacha harbiy ta'lim” yo'nalishi talabalarini kelgusi kasbiga tayyorlash maqsadlariga muvofiq ravishda ularni hayotga tayyorlashning ijtimoiy zarur bo'lgan mehnatining o'ziga xos turidir”. Bu o'rinda o'zini o'zi anglash – shaxsning o'ziga va o'z faoliyatiga bir jamoa yoki butun jamiyat nuqtai nazaridan baho bera olishdir, deb baholanadi.

Bizning fikrimizga ko'ra, “Chaqiriqqacha harbiy ta'lim” yo'nalishi talabalarini kasbga tayyorlashda qo'yilayotgan zamonaviy talablar quyidagilardan iborat: “Chaqiriqqacha harbiy ta'lim” yo'nalishi talabalarini hamkorlik prinsipidagi monologdan dialogik asosga o'tishni, kommunikatsiyali muloqot, sub'ekt- sub'ekt- munosabatlariga o'tishni ta'minlashi shart. Zamonaviy talablardan kelib chiqib ta'kidlash mumkinki, “Chaqiriqqacha harbiy ta'lim” yo'nalishida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar quyidagilarni inobatga olishi lozim: jamoadagi har bir talabani pedagogik tizimning passiv elementi emas, balki faol ishtirokchisi sifatida ko'rish; “Chaqiriqqacha harbiy ta'lim” yo'nalishi talabalarining shaxsiy fazilatlarini bilish va hisobga olish va shu asosda ta'lim tashkilotida yuqori samarali ish muhitini yaratib, jamoa o'rtasida maqbul ijtimoiy va pedagogik aloqalarni shakllantirish va boshqalar.

“Chaqiriqqacha harbiy ta'lim” yo'nalishi talabalarini kasbga tayyorlashda, kasbiy kompetensiya mohiyatini yoritish o'rinli, deb hisoblaymiz.

Kasbiy kompetentlik-shaxsning kasbiga oid malaka talablari yoki, aynan, sub'ektning aniq faoliyatining o'ziga xos jihatlariga nisbatan munosabatini tavsiflovchi layoqat[7;13-b.].

Kasbiy faoliyatga tayyorgarlik masalalariga bag'ishlangan ishlar sub'ektning kasbiy faoliyatga motivatsion tayyorgarligi tizimiga shakllantiruvchi element roli berilganligini ko'rsatadi. U turli xil motivlar: qadriyat munosabatlari, qiziqishlar, yo'nalishlar, maqsadlar va munosabatlar orqali amalga oshiriladi

“Chaqiriqqacha harbiy ta'lim” yo'nalishi talabalaridagi kasbiy shakllanganlik- kelgusi kasb faoliyatida shaxsning bilim, ko'nikma, tajriba va mahoratlarning shakllanishi va namoyon bo'lishi asosida ishlab chiqarish samaradorligiga erishishi. Bu ta'lim oluvchining faoliyat samaradorligi, ish qobiliyati, kasbiy yaroqliligi, muvaffaqiyatlilikini aks ettiruvchi indikatorlar tavsiflanadi.

Tadqiqot mobaynida “Chaqiriqqacha harbiy ta'lim” yo'nalishi talabalarini kasbga tayyorgarlik borasidagi baholash mezonlari ishlab chiqildi. Ular: strategik maqsadlarga asoslanganlik; haqiqiylik – haqqoniylik; ishonchlilik, validlik; qulaylik; natijaviylik; jamoat tomonidan e'tirof etilganlik; harbiy sohaga bo'lgan motivatsiyasi; mamlakat taraqqiyoti rivojidadagi ulushi va h.k.

“Chaqiriqqacha harbiy ta’lim” yo’nalishi talabalarini kasbga tayyorgarlik borasidagi baholanish shakllari va tavsifi

Baholash shakllari	Asosiy usullar	
	Tavsifi	Afzalliklari
1	2	3
Mezonga asoslangan baholash	“Chaqiriqqacha harbiy ta’lim” yo’nalishi talabalarining kasbga tayyorgarlik bosqichidagi o’quv faoliyati jarayonida qo’lga kiritgan natijalarini, bilim, ko’nikma va malakalarini oldindan belgilangan strategik maqsadlari asosida ishlab chiqilgan, hamma uchun umumiy va bir xil mezonlarga ko’ra taqqoslash va o’lchashdan iborat bo’lgan baholash shaklidir	“Chaqiriqqacha harbiy ta’lim” yo’nalishi talabalarini kasbga tayyorgarlik bosqichida kasbiy kompetentligini o’lchash uchun ortiqcha vaqt sarflanmaydi; turli shart-sharoitga oson moslashtirish mumkin;
Me’yorga asoslangan baholash	nisbiy baholash shakli bo’lib, baholashdan so’ng baholanuvchilarning faoliyat davomida qo’lga kiritgan natijalarini o’zaro taqqoslash orqali o’lchash.	“Chaqiriqqacha harbiy ta’lim” yo’nalishi talabalarining o’quv faoliyati jarayonidagi ko’rsatkichlar umumiy tarzda olinadi va b.
Xalqaro klassifikatorlar bo’yicha baholash	Rivojlangan davlatlar tajribalarida ko’zda tutilgan malaka tablari asosida baholash; strategik maqsadda ko’zda tutilgan natijaning baholashga qaratilgan	Xalqaro baholash natijasida respublika miqyosida kompetentli va yetakchi kadrlarning ma’lum guruhini ajratib olish imkonini beradi
Monitoring asosida baholash (OTMlar kesimida)	Baholanuvchilarning faoliyati davomida yo’l quygan kamchiliklarini yaqqol nazoratga olib, ob’ektiv baholash asosida korreksion tavsiyalarni ishlab chiqish shakli	muayyan baholanuvchilar guruhi ichida ularning kasbiy faoliyat darajasini ob’ektiv o’lchash asosida tabaqalashtirish imkonini beradi

Jadvalda qayd etilganidek, “Chaqiriqqacha harbiy ta’lim” yo’nalishi talabalarining kasbga tayyorgarlik bosqichidagi baholash uchun ilg’or xalqaro amaliyot asosida baholash va baholash xizmatlari bozorida halol raqobatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishga alohida e’tibor qaratilishi lozim.

2022-2025 yillarda, o’tkazilgan tadqiqotimiz natijasida “Chaqiriqqacha harbiy ta’lim” yo’nalishi talabalarining kasbga tayyorgarlik bosqichida ilmiy-tadqiqot metodlaridan biri-intervyudan foydalanildi. Buning uchun quyidagicha intervyu savollari shakllantirildi: ““Chaqiriqqacha harbiy ta’lim” yo’nalishi talabalarining kasbga tayyorgarligini qaysi usullar asosida baholash mumkin?”, ““Chaqiriqqacha harbiy ta’lim” yo’nalishi o’qituvchisi qanday bo’lishi kerak?”, ““Chaqiriqqacha harbiy ta’lim” yo’nalishi o’qituvchisidan qanday maqsadlarni talab etish kerak?...” va h.k. Intervyuda: “kreativlik (76%); stressga chidamlilik (82%); liderlik qobiliyati(93%); tanqidiy fikrlash qobiliyati (89%); kommunikativlik (93%), kirishimlilik (94%); o’z ishini to’g’ri tashkil qila olish (97%); komandada ishlash qobiliyati (99%); nizolarni bartaraf eta olish qobiliyati” (89%) kabilarning ahamiyatiga “Chaqiriqqacha harbiy ta’lim” yo’nalishi talabalarini alohida e’tibor qaratishgan.

O’tkazilgan intervyu natijasida quyidagi xulosalarga kelindi: “Chaqiriqqacha harbiy ta’lim” yo’nalishi talabalarining kasbiy kompetentligi komponentlarini tashkil etuvchilari: shijoatli mutaxassis bo’lishga erishish, tashabbuskorlik, xalq manfaati yo’lida bor salohiyatini safarbar qilish, o’z yechimini kutayotgan dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammolarni vaqtida hal eta olish, davlatning bugungi va istiqboldagi barqaror iqtisodiy o’sishini ta’minlashga xizmat qiluvchi sifatlarni egallash, faoliyatida qonun ustuvorligiga erishish prinsiplarini ta’minlash; intellektual, jismoniy, ruhiy, ma’naviy, estetik rivojlanishga yo’naltirilgan innovatsion tadbirlar rejasini ishlab chiqishga intiluvchanlik tashkil etadi.

Adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni (O’RQ-637-son).-T.2020, 23 sentyabr/<https://lex.uz/docs/5013007>
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to’g’risida»gi RF-60-son Farmoni//–T.; Ma’naviyat gaz. 2022, 28 yanvar.
3. Mirziyoev SH.M. yerkini va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barro yetamiz. –T.; O’zbekiston, 2016. – 56 b.

4. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.; O‘zbekiston, 2017. – 104 b.
5. Abdullaeva SH.A., Uzoqov A.M.Uzluksiz ta’lim tizimi tahsil oluvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash: printsirlar, bosqichlar, usullar, tajriba // J.: Uzluksiz ta’lim, 2020y. № 6.-B.-12-19.
6. Raxtusova N. A. Formirovanie professionalnoy tvorcheskoy kompetentsii buduyix pedagogov professionalnogo obucheniya v usloviyax vuza: Avtoreferat dis. ... kand. red. nauk (13.00.08 - Teoriya i metodika professionalnogo obrazovaniya). Chelyabinskiy gos. un-t. - Chelyabinsk, 2011. - 25 s.
7. Uzoqov A.M. Talabalarda vatanparvarlik darajasi ko‘rsatkichlarini pedagogik tahlil qilish va baholash. Pyedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.-Samarqand, 2020 y.-24 b.

YENGIL ATLETIKADA SPORTNI TANLASH VA YO'NALTIRISH BOSQICHLARI VA MEZONLARI

Ibragimov Alisher Karomatovich,

Buxoro davlat pedagogika instituti

Jismoniy tarbiya va sport kafedrası professori

Tolibova Nilufar Raxmat qizi,

Buxoro davlat pedagogika instituti

Jismoniy maadaniyat faakulteti magistri

Ushbu maqolada yengil atletikaning murakkab muvofiqlashtirish turlari bo'yicha bolalarni tanlash metodikasi, agar u tezlik, tezlik-kuch qobiliyatlari, shuningdek, funktsional va muvofiqlashtirish fazilatlarining ajralmas ko'rsatkichini o'z ichiga olsa samarali bo'ladi. Maktab yengil atletika mashg'ulotlarni murakkab muvofiqlashtirish turlari bo'yicha bolalarni tanlash metodikasi tashkil qilish va o'tkazishga doir ilmiy yondashuvlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: yengil atletika, mashg'ulotlar, sport, tanlov, tayyorgarlik, sport seksiyalari, sport seksiyalari.

ЭТАПЫ И КРИТЕРИИ СПОРТИВНОГО ОТБОРА И НАПРАВЛЕНИЯ В ЛЕГКОЙ АТЛЕТИКЕ

Методика отбора детей для занятий сложнокоординационными видами легкой атлетики в данной статье будет эффективной, если она будет включать интегральный показатель скорости, скоростно-силовых способностей, а также функциональных и координационных качеств. Освещены научные подходы к организации и проведению занятий по легкой атлетике в школах, методика отбора детей на сложные координационные виды.

Ключевые слова: легкая атлетика, тренировка, спорт, соревнования, подготовка, спортивные секции, спортивные кружки.

STAGES AND CRITERIA FOR SELECTING AND DIRECTING SPORTS IN ATHLETICS

This article discusses the methodology for selecting children for complex coordination types of track and field athletics, which will be effective if it includes an integral indicator of speed, speed-strength abilities, as well as functional and coordination qualities. Scientific approaches to the organization and conduct of school track and field training for children for complex coordination types are highlighted.

Keywords: track and field athletics, training, sports, competition, preparation, sports sections, sports sections.

Kirish. Yengil atletikaning murakkab muvofiqlashtirish turlari bo'yicha bolalarni tanlash metodikasi, agar u tezlik, tezlik-kuch qobiliyatlari, shuningdek, funktsional va muvofiqlashtirish fazilatlarining ajralmas ko'rsatkichini o'z ichiga olsa samarali bo'ladi. Maktab yengil atletika mashg'ulotlarni murakkab muvofiqlashtirish turlari bo'yicha bolalarni tanlash metodikasi tashkil qilish va o'tkazishga doir ilmiy uslubiy adabiyotlarni o'rganganimizda yetarlicha ma'lumotlar yo'qligi aniqlandi. Ushbu tadqiqotda umumta'lim va sport maktablarida yengil atletika seksiyalarini tashkil qilish va mashg'ulotlarni o'tkazish samaradorligiga etibor qaratilgan bo'lib, soxada nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi. O'quvchi yoshlarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalash, botir va jasur bo'lib tarbiya topishida yengil atletika to'garaklarining samarasi kattadir. Bugungi kunda sport to'garaklarida shug'ulalanayotgan o'quvchilarni jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish texnik, taktik, psixologik tayyorgarligi bo'yicha ilmiy izlanishlarni yetakchi mutaxassis va olimlar tomonidan olib borilgan.

Ulardan F.A.Kerimov, T.S.Usmonxodjaev, J.A.Akramov, R.S.Salomov, R.Q.Qudratov, K.T.Shokirjonova, M.S.Olimov, R.D.Xolmuxamedov, N.T.To'xtaboevlar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Bizning tadqiqotimiz quyidagi mutaxassislarning kontseptual g'oyalari va fundamental ishlariga asoslandi: P.L. Galperin, S.L. Rubinshteyn, V.V. Davydov, A.N. Leontiev, S.L. Vygotskiy, F.R. Zotova, I.Sh. Mutaeva, V.V. Pavlov, shuningdek, jismoniy tarbiya va sport nazariyasi bo'yicha olib borilgan ilmiy ishlarga tayanildi.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil. Sportda amaldagi seleksiya tizimi samarali bo'lishi uchun quyidagi talablarga javob berishi kerak [6, b. 32]:

1. Sportga yo'naltirish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak: o'xshash, turdosh sport turlari guruhlariga e'tibor qaratishdan aniq sport intizomiga e'tibor qaratishgacha;

2. Jismoniy tarbiya harakatining ikki yo'nalishi – ommaviy sport va yuqori unumli sport turlari o'rtasidagi bog'liqlikning eng yaxshi ishlashiga ko'maklashish;

3. Sportni tanlash jarayonidan oldin sport yo'nalishi mavjud bo'lib, bu bizga ushbu sohalardan birini bolaga oqilona tavsiya qilish imkonini beradi;

4. Muayyan sport turiga moyillik va uni takomillashtirish istiqbollarini umumiy baholash yangi boshlanuvchi sportchining shaxsiyatini chuqur o'rganishga asoslangan bo'lishi kerak.

Ommaviy sport manfaatlarini va shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichli sportning manfaatlarini hisobga oladigan sport tanlovi tizimi kerak. Tanlov tizimi bolalarni ko'p sonli sport mashg'ulotlariga jalb etish, ikkinchi tomondan, yosh iste'dodlarni samarali izlashga ham yordam berishi kerak. Shu munosabat bilan yosh sportchining qiziqishlari va imkoniyatlari va sport intizomi talablari o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikni o'rnatishning maqsadli jarayonini o'z vaqtida yo'naltirish, yosh iste'dodlarni uyushgan izlash va shaxsiy xususiyatlar va ko'p qirrali xususiyatlar asosida kelajakdagi sport yutuqlarini prognoz qilishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasini nazarda tutadigan faol tanlov nazariyasini ilgari surish dolzarb ko'rinadi. Ushbu rejaning amalga oshirilishi yosh sportchining potentsial imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda sport turini muvaffaqiyatli tanlashni ta'minlaydi, bu ommaviy sport tizimida tizimli va uzoq muddatli mashg'ulotlar uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi, shuningdek, sport maktablariga jalb qilishni ko'paytirish imkonini beradi.

Uzoq muddatli tayyorgarlik jarayonida iqtidorli sportchilarni tanlashni uchta muhim bosqichga bo'lish mumkin. Birinchi bosqich - dastlabki bosqich. Ushbu bosqichda bolalarning morfofunktsional ma'lumotlari va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ma'lum bir sport turi bilan shug'ullanishni tanlashning maqsadga muvofiqligi aniqlanadi.

Sportni tanlashning ikkinchi, oraliq bosqichi uzoq muddatli mashg'ulotlarning ikkinchi va uchinchi bosqichlarida intensiv sport mashg'ulotlarida samarali sportni yaxshilashga jalb qilinganlarning qobiliyatlarini aniqlash muammosini hal qiladi. Saralashning uchinchi bosqichi xalqaro toifadagi natijalarga erishish qobiliyatiga ega sportchilarni aniqlaydi. Tanlovning barcha bosqichlari uzoq muddatli tayyorgarlikning tegishli bosqichiga to'g'ri keladi.

Bolalarni sport seksiyalariga dastlabki tanlashning muhim sharti ularga ushbu sport turining asoslarini o'rgatishdir. Bu nafaqat bolalarning amaliy hayotiy ko'nikmalarni egallashini ta'minlaydi, balki bolalar salohiyatini baholash samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bolalarga asoslarni o'rgatmasdan, xato qilish va eng yaxshi yuguruvchilarni yoki eng qobiliyatli uchun eng moslashuvchanni xato qilish oson.

V.G. Nikitushkin va V.I. Shpanov (1989) fikricha, bolalarning potentsialini dastlabki baholashda ham, yuqori samarali sport turlari bo'yicha natijalarni belgilaydigan fazilatlar va ko'nikmalarga tayanish kerak. Qisqa muddatli xususiyatlarni tanlash mezonlari sifatida ishlatish mumkin emas. Masalan, bolaning qobiliyatini tashxislashda, ma'lum bir sport turining texnikasini o'zlashtirish tezligiga tayanib bo'lmaydi. Ma'lumotni tahlil qilib, shuni ta'kidlash mumkinki, boshlang'ich mashg'ulotlar davomida past bo'yli va baquvvat bolalar texnikani yaxshiroq o'zlashtiradilar va tezroq muvaffaqiyatga erishadilar. Biroq, aynan ular ko'p yillik tayyorgarlikning dastlabki bosqichlarida umidsiz sifatida yo'q qilinadi. Shu bilan birga, dastlabki bosqichlarda ko'pincha texnikani o'zlashtirish qiyinroq bo'lgan ozg'in, baland bo'yli bolalar keyinchalik turli sport turlari bo'yicha yuqori toifali sportchilarga aylanadi.

Sportni tanlash va yo'naltirish deyarli to'xtovsiz jarayon bo'lib, u sportchining ko'p yillik mashg'ulotlarini oladi [4, p. 62].

Buning sababi, yosh rivojlanishining bir bosqichida yoki ko'p yillik tayyorgarlikdan so'ng qobiliyatlarni aniq aniqlash mumkin emas.

Bu mayl shaklida ifodalangan irsiy omillar bilan maxsus shakllangan tarbiya natijasi bo'lgan orttirilgan omillar o'rtasidagi munosabatlarning murakkab tabiati tufayli ham yuzaga keladi. Bolaning tabiiy iste'dodligini ko'rsatadigan sport faoliyatining ma'lum bir turi bo'yicha mukammal iste'dod ham sportdagi yuqori qobiliyatlarning zaruriy shartidir. Haqiqiy qobiliyatlar faqat ta'lim va tarbiya jarayonida namoyon bo'lishi mumkin va chuqur dialektik birlikning natijasidir - tug'ma va orttirilgan, ijtimoiy va biologik.

Sportni tanlash va tayyorgarlikning turli bosqichlarida keyingi yo'nalish vazifalari xilma-xildir. Birinchi bosqichda ma'lum bir bola uchun tanlangan sport turiga jiddiy jalb qilishning oqilona ekanligini aniqlash mantiqan. Keyingi bosqichlarda vazifalar doirasi sezilarli darajada oshadi: sportchini sportning ma'lum bir turiga ixtisoslashtirishga yo'naltirish, terma jamoalarga nomzodlarni tanlash, jamoalar tarkibi va boshqalar.

Birinchi bosqichning asosiy maqsadi - muayyan sport bilan shug'ullanishga yo'naltirish maqsadida bolalarni ommaviy skriningdan o'tkazishdir.

Sport maktablarining boshlang'ich tayyorgarlik guruhi tanlangan sport turi bo'yicha belgilangan yoshga qarab barcha qiziquvchi yigit va qizlarni qabul qiladi. Sportga yo'naltirilganlik mezonlari jismoniy tarbiya o'qituvchisining tavsiyalari, tibbiy ko'rik ma'lumotlari, antropometrik ma'lumotlar va ularni baholashdir. Ushbu mezonlar juda soddalashtirilgan va maktabdagi har bir jismoniy tarbiya o'qituvchisi va tibbiyot xodimi uchun osondir [3, p. [3].

Yosh sportchining sport iste'dodi to'g'risida xulosa chiqarish mezonlari uning bo'yi, vazni, tuzilishi va motor qobiliyatlari to'g'risidagi ma'lumotlardir. Boshlang'ich sportchilarning biologik rivojlanishidagi sezilarli individual farqlar bu vazifani sezilarli darajada qiyinlashtiradi. Natijada, tanlovning ushbu bosqichida olingan ma'lumotlar taxminiy sifatida ishlatilishi kerak.

Saralashning ikkinchi bosqichining asosiy maqsadi sportga iqtidorli bolalarni aniqlash, o'quv-mashg'ulot guruhlarini, shuningdek, SSG, va STG sport takomillashtirish guruhlarini shakllantirishdan iborat. Sport tanlovi o'qishning yakuniy yilida boshlang'ich tayyorgarlik guruhlarida amalga oshiriladi.

Tanlov rejalashtirilgan dasturga muvofiq amalga oshiriladi, bu sportchining sog'lig'ini baholashni o'z ichiga oladi; sport maktablari dasturlarida keltirilgan nazorat va o'tkazish me'yorlarining bajarilishi; antropometrik o'lchovlar; jismoniy sifatlarning o'sish sur'atlarini va sport natijalarini aniqlash. O'qishning yakuniy yilida sport maktablarining o'quv-mashg'ulot guruhlarida sportni sog'lomlashtirish to'garaklariga qabul qilish maqsadida istiqbolli yosh sportchilar aniqlanadi.

Aksariyat hollarda tanlov metodologiyasi va tartibi avvalgi bosqichga nisbatan o'zgarishsiz qoladi, lekin ularning ahamiyati va ko'lami oshadi.

Sport tanlovi dasturi beshta bo'limni o'z ichiga oladi. Bularga sportchining sog'lig'i holatini baholash kiradi; sport tarixi va maxsus tayyorgarlikni baholash; morfofunktsional holatni aniqlash; psixologik holat diagnostikasi; antropometriya.

Sportni tanlashning ikkinchi bosqichida sport maktabining har bir o'quvchisi uning shaxsiy sport ixtisosligini yakuniy aniqlash uchun metodik tadqiqot o'tkaziladi [1, s. 142]. Tanlovning ushbu bosqichida o'quvchilar tayyorgarligining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash maqsadida pedagogik kuzatishlar, nazorat testlari, tibbiy-biologik va psixologik tadqiqotlar o'tkaziladi. Tadqiqot natijalarini tahlil qilish asosida talabanning shaxsiy sport mutaxassisligi masalasi nihoyat hal qilinadi.

